

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

T. JO‘RAYEV, D. TOJIBOYEVA

IQTISODIYOT NAZARIYASI

(2-qism)

KO‘RGAZMALI VA TARQATMA MATERIALLAR

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida
tavsiya etilgan.*

TO‘ILDIRILGAN 2-NASHRI

TOSHKENT– 2015

UO‘K: 338.24.01

KBK 74.267.5

I-67

I-67 Iqtisodiyot nazariyasi. (Ko‘rgazma va tarqatma materiallar). –T.: «Fan va texnologiya», 2015, 396 bet.

ISBN 978–9943–10–817–2

Mazkur o‘quv qo‘llanma iqtisodiy munosabatlarni nazariy jihatdan o‘rganishda jahon tajribasidan kelib chiqib, iqtisodiy kategoriyalar, bozor iqtisodiyotining qonuniyatlari, amal qilish mexanizmi, iqtisodiy jarayonlar dinamikasini o‘zlashtirishni yengillashtirish, fanning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam berish maqsadida tayyorlangan. Qo‘llanmada iqtisodiyotdagi asosiy masalalar, muammolar, yetakchi nazariy maktablar, yo‘nalishlar va ularning namoyandalari fikrlari, konsepsiyalari hisobga olingan. Unda iqtisodiyot nazariyasi fanining o‘quv dasturida o‘rganish ko‘zda tutilgan barcha mavzular qamrab olingan.

Qo‘llanma mantiqan bir-biri bilan bog‘langan ikki qismdan iborat bo‘lib, unda iqtisodiyotning umumiy asoslari va bozor iqtisodiyotiga oid ko‘rgazmali va tarqatma materiallar berilgan.

Qo‘llanmani tayyorlashda Respublika Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan, Respublika qonunlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan hamda mamlakat iqtisodiy hayotiga tegishli rasmiy statistik ma‘lumotlardan o‘z o‘rnida foydalanilgan.

Qo‘llanma oliy o‘quv yurtining barcha yo‘nalishlardagi bakalavrlari va iqtisodiyot nazariyasi fanidan dars beruvchi o‘qituvchilarga mo‘ljallangan. Shu bilan birga undan magistrantlar, tadqiqotchilar va hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muammolarini o‘rganishga qiziquvchi kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 338.24.01

KBK 74.267.5

Taqrizchilar:

Sh. Shodmonov – i.f.d., professor;

U. G‘afurov – i.f.n., dotsent;

B. Hojiyev – i.f.n., dotsent;

K. Umarov – O‘zMU dotsenti;

P. Hoshimov – O‘zMU dotsenti.

ISBN 978–9943–10–817–2

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti har bir kishidan qanday kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, iqtisodiy mushohada yuritish va shu asosda xulosa chiqarishni o'rganishni talab qiladi. Bo'lg'usi iqtisodchilardan esa voqeliklarni, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va ulardan tegishli xulosa chiqarish bilan chegaralanmay, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tanlovning eng optimal variantlarini amalga oshirish, buning uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, bilganlarini joriy qilish layoqatiga ega bo'lishni talab qiladi.

Fanni o'rganishda talabalarni tahliliy xulosa chiqarishga o'rgatish – eng muhim masala hisoblanadi. Tahliliy xulosa chiqara oladigan odam mustaqil fikrlaydi. Mustaqil fikrlaydiganlar doimo izlanadi, ularning fikri-o'ylari, ijodiy, mehnati tufayli jamiyatda fan-texnika taraqqiyoti yuz beradi.

Demak, talabalarning mustaqil fikr yuritishi, hayotda yuz beradigan turli muqobil variantlar ichidan eng maqbulini tanlashni o'rganishi hozirgi zamon talabidir.

O'qish, o'rganish idrok qilish, xayolan qayta jonlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Hayot tajribasi ko'rsatadiki, inson o'zi ko'rib, tasavvur qilgan narsani to'liq o'zlashtiradi. Avtomobil yoki traktor haqida qancha o'qigan, og'zaki eshitgan bo'lmang, o'zini ko'rib, mashq qilmay, ularni boshqarib bo'lmaydi. Inson tabiatan shunday yaratilgan ekanki, u biron narsani o'rganishi uchun uni tasavvurida jonlantira bilishi kerak ekan. Shuning uchun ham fanni o'rganishda turli vositalar, tasvir, maket, rasm, chizma va boshqa shu kabilardan foydalaniladi, ya'ni ta'limning ko'rgazmaliligi ta'minlanadi.

Ta'limning ko'rgazmali uslublarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular og'zaki ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajada uyg'unlashib ketadi.

Obyektiv borliqdagi qonuniyatlar so'z va ko'rgazmalilikning chambarchas bog'liqligini amaliyotda birgalikda qo'llashni taqozo etadi. Demak, so'z va ko'rgazmalilik aloqasining xilma-xil shakllari mavjud. Bunda ta'lim vazifasi, mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazmali

vositalarning xarakteri, o'quvchi-talabalar tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, ularni oqilona uyg'unlashtirishdan iborat.

Taraqqiyotning o'zi bir tomondan fanni chuqur o'zlashtirishni zarur qilib qo'ysa, ikkinchi tomondan turli-tuman yangi usullarni qo'llash, ko'rgazmalilikni oshirish, texnik vositalardan foydalanish, ularni qo'llashni takomillashtirish orqali bilim olishni osonlashtirish, uni qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam beradi.

Ko'rgazmali qurollar yordamida bir vaqtning o'zida muhokama qilinayotgan savolni, axborotni ham eshitish, ham ko'rish orqali qabul qilish shubhasiz talabalarning puxta bilim olishlariga yordam beradi.

Iqtisodiy fanlarning boshqa fanlardan ajralib turadigan tomoni ham shundaki, u faktlar, ma'lumotlar, raqamlar bilan ish ko'radi. Iqtisodchidan ular bilan ishlay bilish, qo'ygan maqsadga erishish uchun hisob-kitob, matematik amallar, kuzatishlarni amalga oshirish, ularning dinamikasi (o'zgarishi)ni o'rganish asosida xulosalar chiqarish, qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'lish talab qilinadi.

Bu o'z navbatida iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganish, imkon qadar real voqelikka yaqin tajribalar o'tkazish, nazariy qonun-qoidalarni sinab ko'rishni zarur qilib qo'yadi. O'tilayotgan darsda talabalarga axborot yetkazish, ular darsni puxta o'zlashtirishlari va faol qatnashishlardan foydalanishga hojat qolmaydi.

Darslarda tarqatma materiallardan foydalanish tobora keng qo'llanilmoqda. Tarqatiladigan materialning muhim ijobiy tomoni shundaki, u bevosita talabaning qo'lida bo'lib, ko'rgazmali qurollarning uzoqdan ko'rsatilishi kamchiliklardan holi qiladi.

Axborot ko'lami katta bo'lgani sababli qisqa vaqt ichida barcha axborotni talabalarga to'liq yetkazib berish qiyin. Bunday paytda axborotni tarqatma material sifatida yetkazib berish muhim rol o'ynaydi. Tarqatma materiallarni maqsadi, mazmuni jihatdan shartli ravishda

- a) axborot beruvchi;
- b) topshiriq beruvchi;
- d) bilimni nazorat qiluvchi turlarga ajratish mumkin.

Mazkur o'quv qo'llanma yordamida tarqatma materiallarni mavzuni o'rganishdan qo'yilgan maqsadga ko'ra turli variantlarda qo'llash mumkin.

Ma'lumki, iqtisodiy fanlarning xususiyatidan kelib chiqib, ularni o'rganishda markaziy o'rinni masala, mashq yechish egallaydi.

Birinchidan, masala, mashq yechish fanni o'rganishning bosh maqsadi – olingan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, talabalarning bilim olishdagi faolligi ortadi.

Uchinchidan, ularning mustaqil fikrlash darajasini oshiradi.

Shuning uchun ham masala soʻziga faqat hisob-kitob asosida topshiriqni bajarish, javobini aniqlash emas, balki fikr yuritish obyekti sifatida qaralishi bejiz emas. Aytaylik, yechimini kutayotgan masalalar, hal qilinishi zarur masalalar va shu kabilar.

Mashqlar mushohada qilish, xulosa chiqarishga oʻrgatish bilan birga vaqtni tejash, ayrim masalalarda ikkilanib turgan talabalarni toʻgʻri javob topishga oʻrgatish imkonini beradi.

Masala va mashqlar hisob-kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa oʻquvchi, talabalarda aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishni osonlashtiradi. Chunki iqtisodiyotni nazariy jihatdan oʻrganishda koʻpincha ilmiy abstraksiyadan foydalaniladi. Koʻpchilik oʻquvchi-talabalar ilmiy abstraksiya metodini tezda tushunaverishmaydi. Matematik ifodalar orqali iqtisodiy hodisalarni oʻzaro bogʻlanishini tushunish esa oson. Shuni hisobga olib, kitobda iqtisodiyot nazariyasi fanidan har bir mavzu boʻyicha masala va mashqlar tayyorlangan va oʻziga xos topshiriq sifatida testlar javobi bilan berilgan.

Masala-mashqlarni mustaqil yechar ekansiz, unga sarflagan intellektual energiyangiz va vaqtingizga achinmaysiz. Chunki ular iqtisodiyot muammolarini chuqur oʻrganishga katta yordam beradi.

Masala-mashqlarning javobini qidirishga oshiqmang. Berilgan masala-mashqni oʻzingiz mustaqil yechib, uning javobi toʻgʻriligini bilgach intellektual jihatdan qoniqish hosil qilish, zavqlanish nashidasi oʻzgacha boʻladi. Bunday tuygʻuni totib koʻrishdan oʻzingizni bebahra qoldirmang.

Qoʻllanmani tayyorlashda Respublikamizda qabul qilingan qonunlar, meʼyoriy hujjatlar, Prezidentimiz asarlaridan, mamlakatimiz iqtisodiy hayotiga tegishli rasmiy statistik maʼlumotlardan foydalanilgan.

Qoʻllanma talabalarga fanni puxta oʻzlashtirishlari uchun koʻmak bersa, professor-oʻqituvchilarga dars jarayonini va mustaqil taʼlim olishni zamonaviy interfaol usullarni qoʻllab tashkil etishga yordam beradi.

Qoʻllanmadan electron materiallar, virtual stendlar va boshqa shu kabilarni tayyorlashda, dars jarayonida axborot – kommunikativ texnologiyalarni qoʻllashda keng foydalanish mumkin.

Mazkur kitob qo'llanmaning ikkinchi qismi bo'lib, u milliy iqtisodiyot (makro-iqtisod)ning amal qilishi va uning qonuniyatlari hamda jahon ho'jaligi va uning rivojlanishi, kategoriyalarini o'rganishga qaratilgan mavzularni qamrab olgan.

Bunday turdagi qo'llanma iqtisodiyot nazariyasi fanidan o'zbek tilida birinchi marta qayta nashr qilinmoqda. Mualliflar u haqda bildirilgan maslahatlar va fikr-mulohazalarni kutadi va bajonidil qabul qiladi.

I bob. MILLIY IQTISODIYOT (MAKROIQTISODIYOT)NING AMAL QILISHI VA UNING QONUNIYATLARI

1-MAVZU. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O‘LCHAMLARI

1-§. Milliy iqtisodiyot va uning o‘lchamlari Milliy hisoblar tizimi (MHT)

Makroiqtisodiyot bu milliy iqtisodiyot uning alohida sektorlari va jahon xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.	
Milliy iqtisodiyot →	Alohida mamlakat miqyosida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan hamda mehnat taqsimoti orqali o‘zaro bog‘langan tarmoqlar, sohalar va infratuzilma muassasalaridan iborat iqtisodiy tuzilmadir.
Iqtisodiyot sektorlari →	Iqtisodiyotning mulkiy tavsifiga ko‘ra alohidalashgan xususiy, kooperativ, davlat va aralash sektorlardan iborat bo‘g‘inlaridir.
Jahon xo‘jaligi →	Xalqaro mehnat taqsimoti orqali xalqaro iqtisodiy munosabatlar ishtirokchisiga aylangan alohida milliy davlatlar iqtisodiyotlari majmuasidir.

Milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o‘lchamlari makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topadi.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar milliy (yoki jahon) iqtisodiyotning holatini, faoliyat yuritishi va uning natijalarini ifodalaydi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi

- yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad va ularning o'zgarishi;
- aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad va ularning o'zgarishi;
- ishsizlik, inflatsiya va bandlik darajasi;
- iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar darajasi;
- nominal va real ish haqi hamda daromadlar darajasi;
- davlat budjeti va uning holati (taqchilligi);
- narxlar darajasi va uning o'zgarishi (indeksi);
- savdo aylanmasi va to'lov balansi holati;
- mamlakat milliy boyligi, uning tarkibi va o'zgarishi.

Makroiqtisodiy tahlil resurslarning to'liq bandligiga erishish, inflatsiyani eng kam darajaga keltirish, ishsizlikni kamaytirish orqali makroiqtisodiy muvozanatlikni va pirovard natijada iqtisodiy o'sishni ta'minlash muammolariga qaratiladi.

Makroiqtisodiy tahlilda yaxlit iqtisodiyotga tegishli o'rtacha miqdorlardan foydalaniladi.

Bular narxlarning o'rtacha darajasi, foizning bozor stavkasi, inflatsiya, bandlik, ishsizlikning o'rtacha darajasi va h.k.

Makroiqtisodiy modellar – iqtisodiyot va unda ro'y beradigan real voqelikning mantiqiy (nazariy), miqdoriy (matematik) va grafik o'lchamlarda abstrakt tasvirlanishidir.

Makroiqtisodiy modellar:

- ❖ Doiraviy oqimlar (aylanishlar) modeli;
- ❖ yalpi talab va yalpi taklif (AD-AS) modeli;
- ❖ tovarlar miqdori va pul massasi ($MV=PQ$);
- ❖ Fillips, Laffer egri chiziqlari.

Milliy hisoblar tizimi (MHT) ikki tomonlama yozuv qoidasiga asoslangan balanslashgan jadvallar to'plami bo'lib, unda makrodarajadagi bir iqtisodiy bitim natijalari ham xarajatlar va ham daromadlar sifatida aks etadi.

MHT BMTning statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlarni o'z ichiga olib, ular standart hisoblar va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan iboratdir.

MHTning bosh ko'rsatkichi **1993-yilgacha – YaMM** bo'lib, uning barcha bosqichlaridagi harakati bo'yicha ma'lumotlar MHT orqali hisobga olingan..

1993-yildan boshlab, Milliy hisoblar tizimining markaziy ko'r-satkichi – yalpi ichki mahsulot (**YaIM**) bo'lib, yalpi milliy mahsulot uning ikkinchi makroiqtisodiy ko'rsatkichidir. Boshqa tomondan, yalpi ichki mahsulot yalpi milliy mahsulotning ma'lum modifikatsiyasidir.

MHT g'oyasining vujudga kelishi, ishlab chiqilishi va amalga oshirilish bosqichlari.

- Milliy hisoblarning dastlabki uslubiy asoslari F.Kene tomonidan ijtimoiy takror ishlab chiqarishning natural va qiymat ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbatlar nuqtayi nazaridan ilgari surilgan.

- MHTning nazariy asoslarini yaratish va uni ishlab chiqishga J.Keyns, A.Bouli, J.Klark, S.Kuznes, R.Stoun, R.Frish kabi iqtisodchilar katta hissa qo'shgan.

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining statistika byurosi «Milliy daromadni aniqlash va Milliy hisobni tashkil qilish» to'g'risidagi ma'ruzasini e'lon qilgan (1947y.) hamda shu asosda R.Stoun rahbarligida rivojlangan mamlakatlar tajribasi hisobga olinib MHT ishlab chiqilgan.

- Milliy hisoblar standart tizimi BMT statistika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, 1953-yildan boshlab qo'llanila boshlagan.

- 1968-yilda MHTning ancha takomillashgan andozasi kiritilgan. Unda xarajatlar va ishlab chiqarish jadvali, moliyaviy hisobot, bozor va nobozor sektorlar ajratib ko'rsatilgan.

1993-yilda BMT MHTning takomillashgan yangi standartini tasdiqlagan. Unda iqtisodiyot sektorlari, standart hisoblar va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning nomlanishi birmuncha o'zgartirilgan.

MHTning asosiy kamchiligi – bu milliy ishlab chiqarishning umumiy natijasi hisoblangan YaIM (YaMM) real hajmi oshishi yoki kamayishini taqozo qiluvchi bir qator omillarning oqibatlarini hisobga olmaydi. Bular:

→ bozordan tashqarida amalga oshiriladigan operatsiyalar. Masalan, uy bekasi va shaxsiy uy ta'miri bilan shug'ullanuvchi duradgor mehnatining natijalari;

→ bo'sh vaqtning ko'payishi hisobiga farovonlik darajasining ortishi. Jumladan, haq to'lanadigan ta'til va bayram kunlari ko'payishi oqibatida;
→ mahsulot sifat tavsifi yaxshilanishi;
→ alohida shaxs va oilalar turmush darajasidagi o'zgarishlar;
→ suv, havo va atrof-muhitning ifloslanishi;
→ yashirin (xufyona) iqtisodiyot faoliyatining natijalari.

2-§. Yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi milliy mahsulot (YaMM) va uning harakat shakllari

Yalpi ichki mahsulot (YaIM), resurslar manbaidan qat'i nazar mamlakat hududida barcha subyektlar (milliy va chet ellik) tomonidan yil davomida yaratilgan pirovard mahsulot qiymatidir.
Yalpi milliy mahsulot (YaMM) mamlakatning resurslari (yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik) qayerda joylashtirilishidan qat'i nazar, ular evaziga yaratilgan pirovard mahsulot qiymati (olingan daromad)dan iborat.
YaIM (YaMM) yillik ishlab chiqarishning bozor qiymati hisoblanib, u o'z tarkibiga joriy yilda sotilgan tovarlar (xizmatlar) va zaxirada bo'lgan barcha mahsulotlarni oladi. Pirovard mahsulot deganda sotish yoki qayta ishlov berish uchun emas, balki pirovard iste'mol qilish uchun sotib olingan mahsulot (tovarlar va xizmatlar) tushuniladi. Pirovard mahsulot, ya'ni iste'mol uchun sotib olingan tovar va xizmatlar bozor qiymati joriy bozor baholarida hisoblanadi.
YaIM (YaMM) qiymat ko'rsatkich bo'lganligi sababli, turli yillarda ishlab chiqarilgan va tarkibi bo'yicha har xil tovar (xizmat)lar hajmini qiyosiy taqqoslash imkonini beradi. Masalan: iqtisodiyotda birinchi yili 3 ta apelsin va 2 ta olma, ikkinchi yili 2 ta apelsin va 3 ta olma ishlab chiqarilgan deb faraz qilsak, ularning qiymatini baholamasdan qaysi yili ishlab chiqarish hajmi kattaligini aniqlash mumkin emas.

Yil	Yillik ishlab chiqarish hajmi	Bozor qiymati
1.	3ta apelsin va 2 ta olma	3tasi 200 so‘mdan+2tasi 300 so‘mdan=1200 so‘m.
2.	2ta apelsin va 3 ta olma	2tasi 200 so‘mdan+3tasi 300 so‘mdan=1300 so‘m

YaIM (YaMM) hajmini hisoblab chiqishda faqat pirovard mahsulotlar bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar qiymati esa hisobga olinmaydi.

Pirovard mahsulot bu unumli va shaxsiy iste'mol uchun tayyor bo'lgan hamda shu maqsadda sotib olinadigan tovarlardan iborat bo'ladi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmida oraliq mahsulotlar va ushlab turilgan tovarlarni sotish (qayta sotish) qiymati hamda unumsiz va sof moliyaviy bitimlar summasi hisobga olinmaydi.

Oraliq mahsulot – qayta ishlash, ishlov berish va qayta sotish maqsadida sotib olingan moddiy qimmatliklar (xomashyo, material va hokazo) hamda tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy buyumlashgan qismi.

YaIM (YaMM) hajmini aniqlashda unumsiz bitimlar hisobiga olinmaydi. Unumsiz bitimlar – bu davlat budjetidan beriladigan transfert to'lovlari (pensiya, nafaqa, stipendiya), dotatsiyalar, subsidiyalar hamda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlarning harakati.

Unumsiz bitimlar	
→	• Sof moliyaviy bitimlar: – davlat budjetidan transfert to'lovlari; – xususiy transfert to'lovlari; – qimmatli qog'ozlar (aksiya va obligatsiya) bo'yicha amalga oshirilgan bitimlar; – pul va boshqa moliyaviy aktivlar aylanishi.
→	• Sotib olingan (ishlatilgan, ushlab turilgan) tovarlarni qayta sotish.

Sof milliy mahsulot (SMM) – amortizatsiya ajratmalaridan holi qilingan yalpi milliy mahsulotdan iborat bo‘ladi.

$$\text{YaMM} - \text{Amortizatsiya} = \text{CMM}$$

Yoki yalpi ichki mahsulotdan amortizatsiya ajratmalarini ayirish hamda chet ellarda yaratilgan sof daromadni qo‘shish orqali topiladi.

$$\begin{aligned} \text{YaIM} - \text{Amortizatsiya} &= \text{SIM} \\ \text{SIM} + \text{chet elda mamlakat omillari evaziga olingan} \\ &\text{sof daromad} = \text{SMM} \end{aligned}$$

Sof milliy mahsulotdan biznesga egri soliqlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi milliy daromad deyiladi. Milliy daromad yangidan vujudga keltirilgan qiymatni ifodalaydi.

$$\text{SMM} - \text{biznesga egri soliqlar} = \text{milliy daromad}$$

Biznesga egri soliqlar o‘z ichiga aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘i, import bojlari, iqtisodiy faoliyatning monopol turlaridan olinadigan soliqlarni oladi.

Milliy daromad	-	ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari; korxonalar taqsimlanmaydigan foydasi; korxona foydasiga soliqlar; sof foizlar	=	Shaxsiy daromad
	+	transfert summasining qo‘shilgan miqdori; foizlar shaklida olingan daromad; -davlat qarzlari bo‘yicha foiz		

Shaxsiy daromad	-	Daromad solig‘i; Majburiy to‘lovlar	=	Uy xo‘jaliklari ixtiyoridagi daromad
-----------------	---	--	---	--------------------------------------

Uy xo‘jaliklari ixtiyorida qoladigan daromad ular tomonidan iste’mol va jamg‘arma maqsadlarida ishlatiladi.

$$\text{Uy xo‘jaliklari ixtiyoridagi daromad} = \text{iste'mol sarflari} + \text{jamg'arma}$$

3-§. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ni hisoblash usullari

Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni hisoblash usullari:

- •sarf-xarajatlar bo‘yicha hisoblash (pirovard foydalanish usuli);
- •daromadlar bo‘yicha hisoblash (taqsimlash usuli);
- •qo‘shilgan qiymatlar bo‘yicha hisoblash (ishlab chiqarish usuli).

Yalpi ichki mahsulotni sarf-xarajatlar bo‘yicha hisoblashda barcha iqtisodiy subyektlar, ya’ni uy xo‘jaliklari, korxonalar, davlat va chet elliklarning yalpi mahsulotni sotib olishga qilingan sarflari qo‘shib chiqiladi.

Yalpi ichki
mahsulot
(YaIM)

-
1. Uy xo‘jaliklarining shaxsiy iste’mol sarflari (uzoq muddat foydalaniladigan va joriy iste’mol qilinadigan tovarlar hamda xizmatlarga – S.
 2. Korxonalarning yalpi investitsion sarflari (asosiy kapital, uy-joy qurilishi va zaxiralarga investitsiyalar) – I.
 3. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (maktablar sog‘liqni saqlash muassasalari, yo‘llar qurilishi, mudofaa, davlat mahkamasini ushlab turish va hokazo - G.
 4. Sof eksport (eksport va import summasining farqi «+» yoki «-») - X_n.
- $$\text{YaIM (YaMM)} = S + I + G + X_n$$

Shaxsiy iste'mol sarflari (S)

- • uzoq muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlariga sarflar;
- • joriy foydalaniladigan iste'mol tovarlariga sarflar;
- • xizmatlarga sarflar.

Yalpi investitsion sarflar (I)

- • asosiy kapitalni xarid qilishga sarflar;
- • barcha turdagi qurilishlar;
- • zaxiralarning o'zgarishi.

YaIM (YaMM)ni daromadlar bo'yicha hisoblashda iqtisodiy resurslar hisobiga olinadigan barcha omilli daromadlar hamda amortizatsiya ajratmalari va biznesga egri soliqlar yillik summasi qo'shib chiqiladi.

YaIM (YaMM)=

Ish haqi (mukofot, qo'shimchalar bilan);
Renta (daromadi) to'lovlari (ko'chmas mulk egalariга ijara haqi to'lovlari bilan);
Foiz – pul kapitali egalari xususiy biznesga qo'ygan pullari uchun oladigan pul daromadlari
Mulkdan olinadigan daromadlar:
1. Nokorporativ tadbirkorlik sektori, **mayda mulkdorlar** sof daromadlari.
2. Korporatsiyalar foydalari:
→ korporatsiya foydasiga soliq;
→ dividendlar;
→ korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi.
Amortizatsiya ajratmalari:
Biznesga sof egri soliqlar (soliqlar, subsidiya).

Yalpi ichki mahsulot (yalpi milliy mahsulot)ni ishlab chiqarish usuli bo'yicha hisoblashda pirovard mahsulotni ishlab chiqarishning har bir bosqichida qo'shilgan (yangidan vujudga keltirilgan) qiymatlar summasi qo'shib chiqiladi.

Qo'shilgan qiymat – bu ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati bilan sotib olingan xomashyo materiallar, ya'ni oraliq mahsulot qiymati o'rtasidagi farq. Bu holda Yalpi ichki mahsulot qiymati barcha ishlab chiqaruvchilar qo'shilgan qiymatlari yig'indisi sifatida ifodalanadi. Yalpi ichki mahsulot (yalpi milliy mahsulot)ni hisoblashning bu usuli har xil korxona va tarmoqlarning uni ishlab chiqarishga qo'shgan hissasini aniqlash imkonini beradi. Yalpi ichki mahsulotni hisoblashda oraliq mahsulotlar qiymatini chiqarib tashlash, ularning bir necha marta qayta hisoblanishini bartaraf qiladi. Butun iqtisodiyot uchun barcha qo'shilgan qiymatlar summasi pirovard tovarlar va xizmatlar qiymatiga teng kelishi zarur.

YaIM (YaMM)ni qo'shilgan qiymatlar bo'yicha hisoblash (shartli misol)

T/r	Ishlab chiqarish bosqichlari	Material yoki oraliq mahsulot narxi (so'm)	Qo'shilgan qiymat (so'm)
1	Qo'ychilik fermasi	0 □—— 600	600 (=600-0)
2	Junni qayta ishlovchi korxona	1000 □——	400 (=1000-600)
3	Ko'ylak ishlab chiqaruvchi	1250 □——	250 (=1250-1000)
4	Ulgurji savdo	1750 □——	500 (=1750-1250)
5	Chakana savdo	2500 □——	750 (=2500-1750)
	Sotilgan mahsulotning umumiy qiymati	7100	
	Qo'shilgan qiymat		2500

Dunyo mamlakatlarida innovatsion mahsulot (sanoat mahsuloti umumiy hajmda, %)

1.1-jadval

Mamla- katlar	Iqtisodiy xavflilik darajasi	1997	1999	2001	2003	2005	2007	2010	2015	2020
Rossiya	15,0	2,6	1,65	4,4	3,68	7,1	8,9	10,0	15,0	22,5
AQSH	15,0	68,1	70,0	69,3	69,9	70,1	70,2	71,0	72,0	73,0

Yaponiya	15,0	86,1	80,1	85,1	82,1	86,2	87,5	90,0	92,0	95,0
Germaniya	15,0	61,5	64,1	61,9	62,9	62,4	63,2	65,0	67,0	70,0
Buyuk Britaniya	15,0	59,3	59,1	60,0	59,0	58,3	58,9	59,5	60,0	61,0
Italiya	15,0	45,1	44,9	46,2	45,1	45,4	46,1	46,4	47,0	48,0
Shimoliy Koreya	15,0	73,1	71,1	75,3	75,3	77,6	80,1	81,6	85,7	90,0
Janubiy Koreya	15,0	3,3	5,6	9,3	15,1	18,0	22,4	36,0	54,0	72,0

O‘zbekiston YaIMda tarmoqlar ulushi va uning o‘zgarishi
(joriy narxlarda, % hisobida)

1.2-jadval

Ko‘rsat- kichlar	Yillar										
	1993	1995	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Qishloq xo‘jaligi	27,8	28,1	30,4	25,4	24,0	21,7	19,4	18,6	18,0	17,8	17,5
Sanoat	22,3	17,1	13,8	20,7	22,1	24,0	22,3	23,6	23,9	24,1	24,0
Xizmatlar	40,5	41,7	36,8	38,4	39,5	42,7*	45,3	47,2	42,4	44,2	44,9
Qurilish	8,9	7,1	6,1	4,9	5,1	5,5	5,6	6,7	6,5	6,1	5,9
Sof soliqlar	9,4	13,1	12,7	10,6	11,1	10,1	9,9	9,6	9,2	7,8	7,7

*2007 va undan keying yillarda xizmatlarning bir qismi boshqa tarmoqlarda icobga olingan.

O‘zbekistonda YaIMda tovarlar va xizmatlar ulushi hamda uning o‘zgarishi

1.3-jadval

Ko‘rsat- kichlar	2004 y		2005 y		2010 y		2012 y	
	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%
YaIM	12189,5	100	15923,4	100	62388,3	100	96589,8	100
Shu jumla- dan:								
Tovarlar qiymati	5899,7	48,4	8120,9	51,0	26078,3	41,8	38925,7	40,3
Ko‘rsatilgan xizmatlar qiymati	4583,2	37,6	6114,6	38,4	31400,9	49,0	50226,7	52,0
Sof soliqlar	1706,6	14	1687,9	10,6	4909,1	9,2	7437,4	7,7

Aholi jon boshiga YaIMning o'sish dinamikasi

1.4-jadval

Yillar	Ko'rsatkichlar		
	YaIM, mlrd.so'm	YaIMning o'sish sur'ati, %da	Aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi, % da
1997	976,8	5,2	3,3
1998	1416,2	4,4	2,6
1999	2128,7	4,3	2,8
2000	3255,6	4,0	2,5
2001	4868,4	4,2	3,1
2002	7469,3	4,2	3,2
2003	9664,1	4,4	3,2
2004	12189,5	7,7	6,5
2005	15923,4	7,0	6,6
2006	20759,3	7,3	6,8
2007	27161,2	9,5	7,1
2008	38969,6	9,0	7,2
2009	49375,6	8,1	7,0
2010	62388,3	8,5	7,3
2011	78764,2	8,3	7,0
2012	96589,8	8,2	6,9

4-§. Nominal va real YaIM (YaMM). Narx indeksi

Nominal yalpi milliy mahsulot joriy yil narxlarida, real mahsulot esa solishtirma (doimiy), ya'ni bazis davrdagi narxlarda yoki qat'iy valutalarda hisoblanadi. Real yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichi ma'lum vaqt oralig'ida mahsulot ishlab chiqarish jismoniy hajmining o'zgarishini baholash imkoniyatini beradi.

Nominal yalpi milliy mahsulot hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar:

- •ishlab chiqarish real hajmining o'zgarishi;
- •narx darajasining o'zgarishi.

Real yalpi milliy mahsulot nominal yalpi milliy mahsulotni narx indeksiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$\text{Real YMM} = \frac{\text{Nominal YMM}}{\text{Narx indeksi}}$$

Agar narx indeksi miqdori 1,0 birlikdan kam bo'lsa nominal yalpi milliy mahsulot ko'payishi, 1,0 birlikdan ko'p bo'lsa kamayish tomonga o'zgaradi.

Narx indeksi joriy va bazis yillardagi narxlar darajasini taqqoslab aniqlanadi. Bunda ikki xil narx indekslaridan foydalaniladi:

- a) iste'molchilik tovarlari narx indeksi;
- b) yalpi milliy mahsulot narx indeksi.

Birinchi holda iste'molchilik tovarlar va xizmatlarning ma'lum to'plamini o'z ichiga olgan «iste'molchilik savati»ning ikki davrdagi (joriy va bazis) narxlari taqqoslanadi.

Yalpi milliy mahsulot narx indeksidan foydalanganda, nafaqat iste'molchilik tovarlari, balki investitsion tovarlar, davlat tomonidan sotib olingan hamda eksport va import qilingan tovarlar narxlarining summalari taqqoslanib umumiy narx indeksi aniqlanadi.

Narx indeksini aniqlash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$P_i = \frac{P_1 - P_0}{P_0} \times 100;$$

P_i - narx indeksi

P_1 - joriy yildagi narx

P_0 - bazis davrdagi narx.

Joriy yilda bazis yilga nisbatan narx darajasining o'sishi inflatsiyani, pasayishi esa deflatsiyani ko'rsatadi.

Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar **Asosiy tayanch tushunchalar**

- | | |
|--------------------------|--|
| 1. Milliy iqtisod | 7. Milliy daromad |
| 2. Milliy hisob tizimi | 8. Qo'shilgan qiymat |
| 3. Pirovard mahsulot | 9. Nominal YaIM |
| 4. Yalpi ichki mahsulot | 10. Real YaIM |
| 5. Yalpi milliy mahsulot | 11. Shaxsiy daromad |
| 6. Sof milliy mahsulot | 12. Shaxs (aholi) ixtiyoridagi daromad |

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

a) Yalpi ichki mahsulot (YaIM) deb, resurslar manbaidan qat'i nazar mamlakat hududida yil davomida yaratilgan pirovard mahsulotlar qiymatiga aytiladi;

b) sotish yoki qayta ishlov berish uchun emas, balki pirovard iste'mol qilish uchun bozor narxlarida sotib olingan mahsulot (tovarlar va xizmatlar);

v) iqtisodiyotdagi faoliyat natijalarini aniqlash usullari majmui bo'lib, ikki yoqlama yozuvga asoslangan, daromad, xarajatlar oqimini ifodalovchi jadvallar to'plami. Mikromiqyosda buxgalteriya tizimi qanday rol o'ynasa, makromiqyosda MHT shunday ahamiyatga ega;

g) mamlakat miqyosida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan, mehnat taqsimoti orqali o'zaro bog'liq bo'g'inlar, tarmoqlardan tashkil topgan murakkab xo'jalik tizimi;

d) mamlakatning resurslari (yer, ish kuchi, kapital, tadbirkorlik) qayerda joylashtirilishidan qat'i nazar, ular evaziga yaratilgan pirovard mahsulotlar qiymati (olingan daromad)dan iborat;

e) yil davomida jamiyatning sof «ishlab topgan daromadi»dir. Sof ichki mahsulotdan chet el ishlab chiqarish omillari evaziga yaratilgan sof daromad va biznesga egri soliqlarni ayirib topiladi yoki SMMdan biznesga egri soliqlar chegirib topiladi;

yo) joriy yilda yangidan yaratilgan mahsulot, YaMMdan amortizatsiya ajratmalarini ayirib topiladi yoki YaIMdan amortizatsiya, chet el ishlab chiqarish omillari evaziga yaratilgan sof daromad ayiriladi;

j) shaxs (aholi)ning qo'liga tekkan daromad. Shaxsiy daromaddan individual (jismoniy shaxslarga) soliqlarni ayirib tashlaganimizdan so'ng qolgan daromad (daromad solig'i, mulk solig'i, merosga soliq kabilar);

z) mavjud bozor narxlari bo'yicha hisoblangan YaIM;

i) narx o'zgarishini nazarda tutgan holda hisoblangan yalpi milliy mahsulot. Real mahsulot hisoblanganda narxlar indeksi qo'llaniladi.
$$\text{Real YaIM} = \text{Nominal yalpi ichki mahsulot} / \text{Narx indeksi};$$

y) shaxsga tegishli daromad, ya'ni faoliyat yuritib topilgan daromad. Milliy daromaddan ijtimoiy to'lovlar, foydadan soliq, taqsimlanmagan foydani ayirib, transfert to'lovlarini qo'shib topamiz;

k) har bir korxona, firma tomonidan yaratilgan mahsulotning bozor narxida ifodalangan hajmi bo'lib, undan sotib olib ishlatilgan xom-ashyo, materiallar chegirib tashlanadi;

Masala va mashqlar

1. Quyidagilar berilgan:

Ko'rsatkichlar	mlrd. so'm
1. Foizlar	12
2. Yalpi xususiy investitsiyalar	55
3. Ish haqi va maosh	218
4. Korporatsiya foydasi	113
5. Biznesga egri soliqlar	22
6. Renta to'lovlari	20
7. Korporatsiya foydasiga soliq	50
8. Tovar va xizmatlar sof eksporti	7
9. Tovar va xizmatlarning davlat xaridlari	90
10. Sof xususiy investitsiyalar	45
11. Mulkdan daromadlar	21
12. Davlat korxonalariga sof subsidiyalar	2
13. Aholiga transfert to'lovlari	23
14. Aholi iste'mol xarajatlari	280

Ular asosida: a) YaIMni daromad va xarajatlar bo'yicha hisoblang;

b) sof milliy mahsulot hajmini hisoblang;

d) milliy daromad hajmini hisoblang. YaIMni hisoblashning qanday usullari bor? YaMM YaIMdan nimasi bilan farq qiladi? Izohlang.

2. Yil davomida mamlakatning yalpi xarajatlari va daromadlari tarkibi quyidagicha bo'lgan:

Ko'rsatkichlar	mlrd. so'm
1. Davlatning tovar va xizmatlar sotib olish uchun sarflari	670
2. Aholining shaxsiy iste'mol sarflari	2475
3. Mulkdan olingan daromadlar	520
4. Material, aylanma vositalar zaxirasining o'sishi	45
5. Tugallanmagan ishlab chiqarish	30
6. Iste'mol qilingan kapital xarajatlari (amortizatsiya)	370
7. Yollanma ishchilarning ish haqi	2170
8. Biznesga egri soliqlar	344
9. Sof ichki investitsiyalar	570
10. Transfert to'lovlari	220
11. Korporatsiya daromadiga soliqlar	257

12. Qo'yilgan kapitalga olingan foizlar	210
13. Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	170
14. Chet el ishlab chiqarish omillari bilan yaratilgan sof daromad	5
15. Sof eksport	460
16. Ijtimoiy sug'urta, ishsizlarga yordam va boshqa to'lovlar	276
17. Aholining uy-joy qurishga sarflari	200
18. Renta to'lovlari	18
19. Dividendlar	115

Ular asosida: a) YaIM, YaMM, b) sof milliy mahsulot, milliy daromad hajmini aniqlang; d) sof milliy mahsulot va milliy daromad qanday iqtisodiy ko'rsatkich, ularning o'zgarishi nimani bildiradi. Izohlang.

3. Quyidagi berilganlar asosida mamlakatda yaratilgan YaIMni xarajatlar va daromadlar bo'yicha hamda sof milliy mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad, uy xo'jaliklari ixtiyoridagi daromadni hisoblang. Shaxsiy daromad va uy xo'jaliklari ixtiyoridagi daromad nimasi bilan farqlanadi? Sizningcha nima sababdan rivojlangan mamlakatlarda ish haqining ulushi yuqori? Fikringizni izohlang.

Ko'rsatkichlar	mlrd. so'm
1. Davlatning tovar va xizmatlar sotib olish uchun sarflari	72
2. Aholining shaxsiy iste'mol sarflari	245
3. Pensiya fondiga ajratmalar	15
4. Iste'mol qilingan kapital sarflari (amortizatsiya)	7
5. Dividendlar	16
6. Import	17
7. Yollanma ishchilarning ish haqi	141
8. Biznesga egri soliqlar	18
9. Sof ichki xususiy investitsiyalar	13
10. Transfert to'lovlari	12
11. Korporatsiya daromadiga soliqlar	19
12. Qo'yilgan kapitalga olingan foizlar	13
13. Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	21
14. Ishsizlarga yordam ko'rsatadigan fondlarga ajratma	15

15. Eksport	15
16. Ijtimoiy sug'urta badallari	14
17. Ijara haqi	9
18. Individual soliqlar (jismoniy shaxslarga soliqlar)	26
19. Individual mulkdan daromad	31

4. Yuqorida (3-masalada) berilganlar asosida YaIMni aniqlang. Inf-latsiya darajasi 20% desak, real YaIM, SMM hajmini hisoblang. Ularni hajmini qanday qilib ko'paytirsang bo'ladi? Javobingizni izohlang.

5. Fermer xo'jaligi yetishtirgan bug'doyini qayta ishlash korxonasiga 150000 so'mga sotdi. Korxona bug'doyini tegirmonda tortib, unni 300000 so'mga nonvoyxonaga sotdi. Nonvoyxona undan bulka, baton, obi non, patir yopib, oziq-ovqat, non va non mahsulotlari bilan savdo qiluvchi magazinlarga 450000 so'mga sotdi. Ular bu mahsulotlarni 520000 so'mga aholiga sotishdi.

Har bir xo'jalikning yalpi mahsulotdagi hissasini hisoblang. Ularni qaysi tarmoq ulushiga qo'shamiz, nima sababdan? YaIMni qo'shilgan qiymati bo'yicha hisoblashning qanday afzalliklari bor? Ko'rsating.

6. Kichik korxona jun ipdan paypoq to'qishni yo'lga qo'ydi. Bu jarayon quyidagi bosqichlar va tegishli xarajatlardan iborat:

Ishlab chiqarish bosqichlari	Sotilgan mahsulot narxi, ming so'm	Qo'shilgan qiymat
1. Fermer xo'jaligi qo'y junini xomashyo sifatida sotdi.	250	
2. Xomashyoni yuvish, yigirishga tayyorlash.	410	
3. Ip yigirish.	560	
4. Paypoq to'qish.	720	
5. To'qilgan paypoqni sotish.	850	

Ular asosida sotilgan mahsulotning umumiy qiymati (jami ijtimoiy mahsulot) va pirovard mahsulot, qo'shilgan qiymatni hisoblang. Bo'sh ustunni to'ldiring. Pirovad mahsulot deb qanday mahsulotga aytamiz?

7. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Ular asosida YaIMni qanday usul bilan hisoblaganda qaysilari qo'shiladi. Har biri qanday faoliyat turiga kiradi, ko'rsating, hisobga olinmasa hisoblanmaydi deb yozing, sababini ko'rsating.

- 1) o'zingiz va o'rtog'ingizga 2000 so'm to'lab kinoga tushdingiz va 500 so'mdan 2 ta muzqaymoq oldingiz;
- 2) joriy yilda 5 mln. so'm sarflab uy qurdingiz;
- 3) 3 mln. so'mga besh yil avval qurilgan uyni sotib oldingiz;
- 4) mijoz ko'ylagini tikkani uchun tikuvchiga 10000 so'm berdi;
- 5) davlat xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida mudofaa uchun qo'shimcha 1 mlrd. so'm sarfladi;
- 6) fond bozoridan 120000 so'mga «Yangiyo'lyog'» AJ aksiyalarini sotib oldingiz;
- 7) davlat pensionerga ijtimoiy ta'minot va salomatlikni saqlash dasturiga binoan 20000 so'm yordam berdi;
- 8) yilning oxirida «Namangantegirmon» aksionerlik jamiyatida yil boshiga qaraganda don va un mahsulotlari zaxirasi 1 mln. so'mga ko'pligi aniqlandi;
- 9) uy bekasi oilasi uchun meva-sabzavotlardan konserva tayyorlab, qishga olib qo'ydi;
- 10) O'zDEU avtomobil ishlab chiqarish uchun 250 mln. dollarlik yangi robotlar sotib oldi;
- 11) Siz uy egasiga oyiga 10000 so'm ijara haqi to'layapsiz;
- 12) Siz 800 ming so'm sarflab, Yaponiyada ishlab chiqarilgan yangi videokamera sotib oldingiz;
- 13) ota-onangiz Toshkent Moliya institutida o'qishingiz uchun 5,0 mln. so'm kontrakt puli to'lashdi;
- 14) «Fayz-xolding» Namangan mebel korxonasi aksiyalari nazorat paketini sotib oldi.

8. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Tushunchalar orasida guruhga taalluqli bo'lmaganlarini aniqlang va ularni ro'yxatdan chiqaring. Saba-bini izohlang.

Tushunchalar: yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad, doimiy xarajatlar, davlat budjeti taqchilligi, inflatsiyaning o'sish darajasi, narxlar indeksi, yalpi ichki investitsiya, ishsizlik darajasi, milliy boylik, foyda, to'lov balansi holati.

T/ N

1. Qo'shilgan qiymat bu – har bir korxona, (firma) tomonidan yaratilgan mahsulotning bozor narxida ifodalangan hajmi bo'lib, mahsulotning umumiy qiymatidan sotib olib ishlatilgan xomashyo, materiallar chegirib tashlanadi.

2. YaMM mamlakat aholisi farovonligini aniq ifodalovchi ko'rsatkich.

3. Shaxsiy jamg'arma ko'rsatkichidan YaIMni qo'shilgan qiymat usuli bo'yicha hisoblaganda foydalaniladi.

4. Qo'shilgan qiymatda ish haqi hisobga olinadi, lekin foyda hisobga olinmaydi.

5. YaIM hajmi qaysi usul bilan hisoblanishidan qat'i nazar, (xarajatlar, daromadlar, qo'shilgan qiymat) – ularning natijasi teng bo'lishi kerak.

6. Tovar zaxiralarini sotish yalpi va sof investitsiyalar hajmini qisqarishiga olib keladi.

7. YaIM, YaMM, SMM dinamikasining nisbiy tahlili ularni ma'lum bir yilga nisbatan qiyosiy baholarda hisoblanishini ko'zda tutadi.

8. Xufyona iqtisodiyot sektori barcha mamlakatlarda mavjud, faqat u miqyosi jihatidan farqlanadi va bu sektorda yaratilgan mahsulot YaIM, (YaMM)da o'z aksini topmaydi.

TEST SAVOLLARI

1. Shaxsiy daromad bu –

- A) yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati;
- V) yil davomida uy xo'jaliklari tomonidan olingan daromad;
- S) individual soliqlar to'langandan so'ng shaxsiy xarajatlarga mo'ljallangan daromad;
- D) mamlakat aholisining jamg'argan daromadi;
- E) yalpi ichki mahsulot minus amortizatsiya.

2. Yalpi mahsulot tarkibiga sanab o'tilganlardan qaysi birlari kiradi?

- A) Uy bekasining oiladagi bajargan xizmatlari;
- V) Qarindoshdan foydalanib yurgan avtomobilini sotib olish;
- S) Brokerdan aksiyalar sotib olish;
- D) Kitob magazinidan sotib olingan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligi;
- E) Yashirin sexda tayyorlangan makaron mahsulotlari.

3. Agar real yalpi ichki mahsulot hajmi 6%ga, aholi soni 3% ga qisqarsa

- A) aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot qisqargan;
- V) aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot o'sgan;
- S) real yalpi ichki mahsulot o'sgan, nominal YaIM qisqargan;
- D) nominal yalpi ichki mahsulot o'zgarmagan;

E) narxlar 3%ga tushgan.

4. Yalpi xususiy investitsiyalar hisobga olinadi:

A) yalpi ichki mahsulotni daromadlar bo'yicha hisoblaganda;

V) sof milliy mahsulotni hisoblaganda;

S) yalpi ichki mahsulotni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblaganda;

D) shaxs ixtiyoridagi daromadni hisoblaganda;

E) shaxsiy daromadni hisoblaganda.

5. Agar nominal yalpi ichki mahsulot hajmi va narxlar darajasi ko'tarilsa:

A) real yalpi ichki mahsulot o'zgarmagan;

V) real yalpi ichki mahsulot o'sgan, lekin narxga nisbatan kamroq;

S) real yalpi ichki mahsulot qisqargan;

D) bu yalpi ichki mahsulot dinamikasini aniqlash uchun kamlik qiladi;

E) hamma javoblar noto'g'ri.

6. YaIM (YaMM)ni qo'shilgan qiymat (ishlab chiqarish) asosida hisoblash:

A) mamlakat iqtisodiyotida davlat sektorining rolini;

V) undiruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarning YaIM tarkibidagi o'sish sur'atini aniqlash;

S) sanoat va qishloq xo'jaligida unumdorlikni aniqlash;

D) milliy iqtisodiyotda kapital qurilish sur'atini;

E) barcha tarmoq va sohalarning ulushini aniqlash imkonini beradi;

7. YaIM(YaMM)ni daromadlar bo'yicha hisoblash:

A) aholining umumiy daromadlarida transfertlar hissasini;

V) mehnat evaziga daromad bilan mulk evaziga daromad nisbatini;

S) iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari va ularning tabaqalanishini;

D) aholi daromadlarining tabaqalanishini;

E) barcha daromad turlari ulushini aniqlash imkonini beradi.

8. Yalpi ichki mahsulot bu - ...

A) mamlakat hududida yaratilgan barcha pirovard mahsulot(tovar va xizmatlar) summasi;

V) sotilgan tovar va xizmatlar summasi;

S) ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar summasi;

D) mamlakatning o'zida va chet elda ishlab chiqargan tovar va xizmatlar summasi;

E) pirovard tovar va xizmatlar summasi;

9. Nominal yalpi ichki mahsulot aniqlanadi:

A) eksport narxlarida;

- V) joriy yil bozor narxlarida;
- S) oʻzgarmas narxlarda;
- D) oʻtgan davr narxlarida;
- E) jahon narxlarida;

10. Makroiqtisodiyot qaysi darajadagi iqtisodiyot?

- A) yaxlit milliy iqtisodiyot;
- V) iqtisodiyotning davlat sektori;
- S) iqtisodiyotning kooperativ sektori;
- D) iqtisodiyotning xususiy sektori;
- E) butun milliy va jahon iqtisodiyoti.

11. Milliy iqtisodiyot tarmoq tuzilishining rivojlanishiga taʼsir koʻrsatuvchi asosiy omil nima?

- A) fan-texnika taraqqiyoti;
- V) mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- S) iqtisodiy integratsiya;
- D) mehnat korporatsiyasi;
- E) mehnat unumdorligining oʻsishi.

12. Makroiqtisodiy koʻrsatkichlar yordamida nimalar tahlil qilinadi?

- A) milliy ishlab chiqarish hajmi hisoblanadi;
- V) milliy iqtisodiyot faoliyat qilishiga taʼsir koʻrsatuvchi omillar aniqlanadi;
- S) yalpi milliy mahsulot va uning harakat shakllari hisoblanadi;
- D) milliy iqtisodiyotdagi muvozanatlik va bandlikka baho beriladi;
- E) yuqoridagilarning barchasi tahlil qilinadi.

13. Bozor xoʻjalik subyektlari.

- A) ishlab chiqarish korxonalari;
- V) uy xoʻjaliklari;
- S) davlat tashkilot va muassasalari;
- D) chet ellik jismoniy va yuridik shaxslar;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

14. Milliy ishlab chiqarishning umumiy natijasi qaysi koʻrsatkichda toʻlaroq ifodalanadi?

- A) turli tarmoqlar mahsuloti;
- V) yalpi milliy mahsulot,
- S) yalpi ichki mahsulot;
- D) sof milliy mahsulot;
- E) milliy daromad.

15. Yalpi milliy mahsulot tushunchasi.

A) yil davomida ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan barcha mahsulotlar qiymati;

V) yangidan vujudga keltirilgan qiymat;

S) oraliq mahsulotlar qiymati;

D) bir yil davomida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlarning bozor narxida hisoblangan hajmi;

E) investitsion va iste‘mol tovarlari qiymati.

16. Mamlakatlarning iqtisodiy potensialini qaysi ko‘rsatkich bilan umumiy baholash mumkin?

A) yalpi milliy mahsulot;

V) yalpi ichki mahsulot,

S) sof milliy mahsulot;

D) milliy daromad;

E) yuqoridagi barcha ko‘rsatkichlar bilan.

17. Nima uchun jami ijtimoiy mahsulot ko‘rsatkichi milliy iqtisodiyotining rivojlanishi darajasini to‘liq tavsiflab berolmaydi?

A) faqat moddiy ishlab chiqarish sohaları natijalarini hisobga olish bilan cheklanadi;

V) xizmatlar qiymatini o‘z ichiga olmaydi;

S) oraliq mahsulotlar qiymati bir necha marta hisobga olinadi;

D) bozor narxlari bo‘yicha hisoblanmaydi;

E) yuqoridagi barcha sabablarga ko‘ra.

18. Pirovard mahsulot tushunchasi.

A) ishlov beriladigan mahsulot;

V) qayta ishlanadigan mahsulot;

S) sotish maqsadida xarid qilingan tovarlar;

D) iste‘mol uchun tayyor bo‘lgan, sotilgan yoki sotiladigan tovar va xizmatlarning bozor narxidagi hajmi;

E) iste‘mol qilingan mahsulot.

19. Qo‘shilgan qiymat qanday miqdor?

A) pirovard mahsulot hajmidan boshqa korxona va firmalardan sotib olingan xomashyo va materiallar qiymatini chiqarib tashlangan miqdor;

V) pirovard mahsulot hajmidan ish haqi chiqarib tashlangan miqdor;

S) pirovard mahsulot hajmidan amortizatsiya ajratmasi chiqarib tashlangan miqdor;

D) pirovard mahsulot hajmidan o‘zgaruvchi xarajatlar chiqarib tashlangan miqdor;

E) yuqoridagilarning barchasi.

20. Yalpi milliy mahsulotni hisoblashda quyidagilardan qaysi biri hisobga olinmaydi?

- A) davlat budjetidan ijtimoiy to'lovlar;
- V) qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish;
- S) xususiy ijtimoiy to'lovlar;
- D) ishlatilgan tovarlarni sotish;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

21. Quyidagi tengliklardan qaysi biri to'g'ri?

- A) $YaMM - \text{sof eksport} = SMM$;
- V) $YaMM - \text{amortizatsiya} = SMM$;
- S) $YaMM - \text{egri soliqlar} = SMM$;
- D) $YaMM - \text{joriy moddiy xarajatlar} = SMM$;
- E) $YaMM - \text{to'g'ri soliqlar} = SMM$.

22. Quyidagi tengliklardan qaysi biri to'g'ri?

- A) $SMM - \text{amortizatsiya} = \text{milliy daromad}$;
- V) $SMM - \text{egri soliqlar} = \text{milliy daromad}$;
- S) $SMM - \text{ish haqi} = \text{milliy daromad}$;
- D) $SMM - \text{to'g'ri soliqlar} = \text{milliy daromad}$;
- E) $SMM - \text{sof eksport} = \text{milliy daromad}$.

23. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblashda sarflarning qanday turlari hisobga olinadi?

- A) uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari;
- V) yalpi xususiy investitsiya sarflari;
- S) davlat sarflari;
- D) sof eksport;
- E) yuqoridagi sarflarning barchasi.

24. YaIMni daromadlar bo'yicha hisoblashda nimalar hisobga olinadi?

- A) ish haqi va u bilan bog'liq boshqa to'lovlar;
- V) mulkdan olinadigan daromadning barcha turlari: renta, foiz va dividend, foyda;
- S) iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya);
- D) biznesga egri soliqlar;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

25. Nominal YaIM(YaMM) qanday narxlarda hisoblanadi?

- A) o'zgarmas narxlarda;
- V) joriy narxlarda;
- S) chakana narxlarda;
- D) ulgurji narxlarda;

E) qiyosiy narxlarda.

26. Real YaIM(YaMM) nima?

A) joriy bozor narxlarida hisoblangan YaIM(YaMM);

V) pulning o'zgarib turuvchi kurslarida hisoblangan YaIM(YaMM);

S) doimiy narxlarda, pulning o'zgarmas kursida hisoblangan YaIM(YaMM);

D) iqtisodiy xarajatlar bo'yicha hisoblangan YaIM(YaMM);

E) resurslarga olingan daromadlar bo'yicha hisoblangan YaMM.

27. Nominal YaIM(YaMM) qanday usul bilan real YaIM(YaMM) ga aylantiriladi?

A) nominal YaIM(YaMM) : narx indeksi;

V) nominal YaIM(YaMM) x narx indeksi;

S) nominal YaIM(YaMM) : joriy narxlar;

D) nominal YaIM(YaMM) : doimiy narxlar;

E) yuqoridagi barcha usul to'g'ri.

28. Quyidagilarning qaysi biri YaMM tarkibiga kiradi?

A) uy bekasining xizmatlari;

V) qo'shnidan eskiroq avtomobilni sotib olish;

S) Brokerdan yangi aksiyalarni sotib olish;

D) kitob do'konidagi yangi kitoblarning qiymati;

E) yuqoridagilarning barchasi.

29. O'zbekiston fuqarosi vaqtinchalik Rossiyada ishlaganda, uning olgan daromadi quyidagilarning qaysi biriga kiradi?

A) O'zbekiston yalpi milliy mahsuloti (YaMM)ga va Rossiya yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga;

V) O'zbekiston YaIMga va Rossiya YaMMga;

S) O'zbekiston YaMMga va Rossiya YaMMga;

D) O'zbekiston YaIMga va Rossiya YaIMga;

E) O'zbekiston milliy daromadiga va Rossiya sof ichki mahsulotiga.

30. Quyida sanab o'tilganlarning qaysi biri Milliy daromad tarkibida hisobga olinmaydi?

A) korporatsiyalar foydasi;

V) davlat transfert to'lovlari;

S) renta daromadlari;

D) ish haqi;

E) me'yoridagi foyda.

31. Yalpi milliy mahsulot sarf-xarajatlar usuli bilan aniqlanganda quyidagilarning qaysi biri hisobga olinmaydi?

- A) yalpi investitsiyalar;
- V) iste'molchilik sarflari;
- S) davlat sarf-xarajatlari;
- D) amortizatsiya ajratmalari;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

32. Narxlar indeksidan qaysi holda foydalaniladi?

- A) ikki davlat o'rtasidagi narxlar darajasi taqqoslanganda;
- V) ulgurji va chakana narxlar o'rtasidagi farq hisoblanganda;
- S) bazis va joriy davrdagi ishlab chiqarish hajmi taqqoslanganda;
- D) ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlarni aniqlashda;
- E) yuqoridagi barcha hollarda.

33. Asosiy natijaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichni aniqlang?

- A) ishsizlik darajasi;
- V) pulning qadrsizlanish darajasi;
- S) yalpi milliy mahsulot;
- D) bandlilik darajasi;
- E) aholi daromadlarining nisbiy o'sishi.

34. SMM qanday aniqlanadi?

- A) YaMM-egri soliqlar;
- V) YaMM-amortizatsiya;
- S) YaMM-to'g'ri soliqlar;
- D) YaMM-sof eksport;
- E) YaMM-joriy moddiy xarajatlar.

35. Milliy daromad qanday aniqlanadi?

- A) SMM-amortizatsiya;
- V) SMM-egri soliqlar;
- S) SMM-ish haqi;
- D) SMM-sof eksport;
- E) SMM-to'g'ri soliqlar.

36. YaMMni daromadlar bo'yicha hisoblashda quyidagilardan qaysi biri hisobga olinmaydi?

- A) foizlar summasi;
- V) rentalar summasi;
- S) ish haqi summasi;
- D) biznesga egri soliqlar;
- E) transfert to'lovlari summasi.

37. YaMMni sarf-xarajatlar bo'yicha aniqlashda quyidagilardan qaysi biri hisobga olinmaydi?

- A) iste'molchilik sarflari;
- V) davlat sarflari;
- S) investitsion sarflar;
- D) sof eksport;
- E) davlat subsidiyalari.

38. Narxlar indeksidan quyidagilarning qaysi birini hisobga olishda foydalaniladi?

A) joriy va o'tgan davrlardagi ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishini baholashda;

V) ikki har xil davrdagi iste'mol savatining bozor qiymatining o'zgarishini baholashda;

S) ikki mamlakat o'rtasida narxlar darajasidagi farqni baholashda;

D) ulgurji va chakana narxlar orasidagi farqni ko'rsatishda;

E) yuqoridagilarning barchasida.

39. Milliy daromadni aniqlang?

A) investitsiyalar (-) jamg'armalar;

V) uzoq muddat xizmat qiluvchi tovarlar va xizmatlar qiymati;

S) shaxsiy daromad (+) individual soliqlar (-) davlat korxonalariga sof subsidiyalari;

D) renta, ish haqi, kapital uchun foiz, mulkdan olinadigan daromad (ijara haqi) va korporatsiyalar foydasi;

E) YaMM (-) sof eksport.

40. Quyidagilarning qaysi biri YaMM hajmini sarf-xarajatlar bo'yicha aniqlashda hisobga olinmaydi?

A) yalpi investitsiyalar;

V) sof eksport;

S) tovar va xizmatlar uchun davlat sarf-xarajatlari;

D) iste'molchilik sarflari;

E) ish haqi.

41. Yalpi investitsion sarflar quyidagi ko'rsatkichning qaysi birini aniqlashda hisobga olinadi?

A) daromadlar bo'yicha YaMM;

V) xarajatlar bo'yicha YaMM;

S) daromadlar bo'yicha SMM;

D) shaxsiy daromad;

E) milliy daromad.

42. YaMMdan SMMni keltirib chiqarish uchun, quyidagi operatsiyalarning qaysi birini amalga oshirish zarur?

- A) sof investitsion xarajatlarni qo'shish;
- V) YaMMdan sof investitsiyalarni ayirib tashlash;
- S) YaMMga amortizatsiya hajmini qo'shish;
- D) YaMMdan amortizatsiya ajratmasi summasini ayirish;
- E) YaMMdan egri soliqlarni ayirish.

43. YaMM deflyatorini toping?

- A) nominal YaMMning real YaMMga nisbatiga teng;
- V) real YaMMning nominal YaMMga nisbatiga teng;
- S) inflatsiya jadallashgan sari iste'molning kamayib borishini ko'rsatadi;
- D) bazis davridagi iste'mol savati narxining o'zgarish sur'atlarini ko'rsatadi;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

44. Nominal YaMM bu pirovard tovar va xizmatlarning quyidagi narxlardagi qiymati?

- A) joriy (hozirgi) narxlardagi;
- V) real narxlardagi;
- S) bazis davri narxlardagi;
- D) o'tgan davr narxlaridagi;
- E) jahon bozori narxlaridagi.

45. Iqtisodiyot yaxlit tizim sifatida o'rganilsa, bu tahlil?

- A) mikroiqtisodiy tahlil;
- V) makroiqtisodiy tahlil;
- S) qiyosiy tahlil;
- D) mantiqiy tahlil;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

46. Milliy iqtisodiyot tarmoq tuzilishining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil nima?

- A) fan-texnika taraqqiyoti;
- V) mehnat kooperatsiyasining rivojlanishi;
- S) mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- D) iqtisodiy integratsiya;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

47. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida nimalar tahlil qilinadi?

- A) milliy ishlab chiqarish hajmi hisoblanadi;
- V) bandlik darajasiga baho beriladi;

S) milliy iqtisodiyot faoliyat qilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanadi;

D) inflatsiya sur'atlari aniqlanadi;

E) barcha javoblar to'g'ri.

48. Milliy ishlab chiqarishning umumiy natijasi qaysi ko'rsatkichda to'laroq ifodalanadi?

A) turli tarmoqlar mahsulotida;

V) milliy daromadda;

S) sof mahsulotda;

D) yalpi ichki mahsulotda;

E) yuqoridagilarning barchasida.

49. SMMdan egri soliqlar summasi chiqarib tashlansa qaysi ko'rsatkich hosil bo'ladi?

A) milliy daromad;

V) yalpi milliy mahsulot;

S) yalpi ichki mahsulot;

D) yalpi investitsiyalar;

E) shaxsiy daromad.

50. Milliy daromad qanday aniqlanadi?

A) renta+ish haqi+foiz+sof eksport;

V) sof milliy mahsulot-egri soliqlar;

S) ish haqi+ssuda kapitali+renta;

D) eksport-import;

E) YaMM-amortizatsiya.

51. Real YaIM(YaMM) qanday narxlarda hisoblanadi?

A) joriy narxlarda;

V) qiyosiy yoki solishtirma narxlarda;

S) jahon narxlarida;

D) chakana narxlarda;

E) ulgurji narxlarda.

**Yalpi ichki mahsulotni sarf-xarajatlar bo'yicha hisoblash
(pirovard foydalanish usuli)**

1.5-jadval

	Mlrd. so'm		Jamiga nisbatan, %da	
	2007y.	2012y.	2007y.	2012y.
Yalpi ichki mahsulot	27161,2	6589,8	100	100
Pirovard iste'mol xarajatlari	17990,8		66,3	68,0

Shu jumladan:				
shaxsiy (uy xo‘jaligi) xarajatlar	12946,3		47,7	50,9
uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlar xarajatlari	347,5		1,3	1,3
Davlat xarajatlari	4697,0		17,3	15,8
Yalpi investisiyalar yoki yalpi jamg‘arish	4980,8		18,3	28,9
asosiy kapitalga	6366,3		23,4	
material zaxiralariga	-1385,5		-5,1	
Sof eksport	4189,6		15,4	3,1

Jadval raqamlariga diqqat qiling. Yetishmovchi raqamlarni hisoblang. Keyingi yil ma’lumotlari bilan to‘ldiring. Ularni tahlil qiling. Xarajatlar turlarini yalpi ichki mahsulotdagi ulushini toping. YaIMni hisoblashning bu usuli qaysi jihatlari bilan afzal? Yana qanday usullarni bilasiz?

Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish bo‘yicha hisoblash (qo‘shilgan qiymat usuli)

1.6-jadval

	Mlrd. so‘m		Jamiga nisbatan % da	
	2007y.	2012y.	2007y.	2012y.
Yalpi ichki mahsulot	27161,2	96589,8	100	100
Tarmoqlarning qo‘shilgan qiymati			89,9	92,3
Shu jumladan:				
Sanoat	6543,7		24,0	24,0
Qishloq xo‘jaligi	5919,0		21,7	17,5
Qurilish	1464,8		5,5	5,9
Xizmatlar sohasi	10726,5		39,4	44,9
Sof soliqlar	2507,2		9,4	7,7

Jadvalda yetishmovchi ma’lumotlarni hisoblang, Keyingi yil ma’lumotlari bilan to‘ldiring. Yalpi ichki mahsulotni hisoblashning qo‘shilgan qiymat usuli boshqa usullardan nimasi bilan farqlanadi? Izohlang.

Aholi jon boshiga hududlar bo'yicha YaIM ishlab chiqarish

1.7-jadval

	2000* y	2005* y	2008** y	2012 y
1	2	3	4	5
O'zbekiston Respublikasi	1,00	1,00	1,0	1,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,547	0,549	984,7	1317,3
Xorazm viloyati	0,813	0,679	1236,1	1794,5
Buxoro	1,101	1,100	2069,4	3145,5
Jizzax	0,641	0,791	1354,1	1767,9
Navoiy	1,412	2,226	2125,4	5736,7
Samarqand	0,743	0,659	2393,3	1793,8
Sirdaryo	0,996	0,950	634,6	2069,9
Qashqadaryo	0,818	0,910	2831,6	2688,2
Surxondaryo	0,717	0,624	1354,1	1640,2
Andijon	0,834	0,782	2556,0	2210,9
Namangan	0,671	0,563	1426,0	1540,9
Farg'ona	1,056	0,815	2853,5	1973,5
Toshkent	1,125	1,213	3459,6	3450,4
Toshkent sh.	1,401	1,447	6235,1	6095,7

Jadval raqamlariga diqqat qiling. 2008 yilda mamlakatimizda 36839,4 mlrd., 2012 yilda esa 96589,8 mlrd. so'mlik YaIM yaratilgan. U aholi jon boshiga muvofiq ravishda o'rtacha 1364 va 3244 ming so'mni tashkil etadi. Jadvalning 4, 5-ustuni ma'lumotlari asosida hududlarning o'rtacha respublika darajasiga nisbatan necha foiz tashkil etishini hisoblang. Indeks darajasi 1dan ortig'ini yuqori, 0,6 dan 1 gacha o'rtacha, 0,6 dan past bo'lsa quyi daraja desak, hisob natijasiga ko'ra ularni shunday guruhlarga ajrating. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Taqqoslang, xulosa chiqaring.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi (aholi jon boshiga ming so'm, 2009 yil baholarida)¹

1.8-jadval

Ko'rsatkichlar	2004y	2005y	2006y	2007y	2008y	2009y	2010y	2012y
Yalpi ichki mahsulot	834	883	937	1021	1093	1160	2184.3	3244.0
Sanoat mahsuloti	479	510	555	617	678	727	1184.5.	1703

¹ Jadval muallif tomonidan. «Економическое обозрение» // 2009, №10, bet. 26,27. asosida tuzilgan.

Iste'mol tovarlari	104	123	147	174	202	226	404	457
Qurilish ishlari	98	103	113	135	143	187	283	391
Qishloq xo'jalik mahsuloti	268	284	301	309	315	319	576	812
Pullik xizmatlar	72	81	94	116	136	155	269	454
Asosiy kapitalga investitsiya	143	151	164	214	256	323	526	759
Chakana savdo tovaroboroti	231	248	275	323	363	419	751	1231
Passajirooborot (pass-km.)	1089	1245	1383	1554	1756	1834	2626	2973
Tovar va xizmatlar eksporti	131	141	158	222	354	329	447	453
Tovar va xizmatlar importi	170	192	203	220	244	245	315	427

Jadval ma'lumotlari YaIMni hisoblashni qaysi usulini ko'rsatadi? Uni hisoblashni yana qanday usullari bor? Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring, taqqoslang va xulosa chiqaring.

Ayrim mamlakatlarning jahon YaIM hajmidagi ulushi (2008-yilda jami YaIM - 62 trln. AQSH dollari)

1.1-grafik




Diagramma ma'lumotlaridan foydalanib, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Xitoy, Rossiyaning YaIM miqdorini aniqlang. Hozirga kelib mamlakatlarning ulushi qanday o'zgardi? Yangi ma'lumotlar asosida diagramma tuzing. Raqamlardan qanday xulosa chiqarish mumkin? Fikringizni izohlang.

YaIM hajmi bo'yicha dunyoda 1-3-o'rinlarni AQSH, Xitoy, Hindiston egallagan edi. 2014 yil YaIM hajmi xarid quvvati pariteti bo'yicha Xitoyning jahonda birinchi o'ringa chiqqani tan olindi. Siz buni qanday tavsiflaysiz?

Javoblar

Asosiy tayanch tushunchalar

1 g); 2 v); 3 b); 4 a); 5 d); 6 yo); 7 e); 8 k); 9 z); 10 i); 11 y); 12 j).

Masala va mashqlar

1. a) 414 mlrd. so'm; b) 404 mlrd. so'm; d) 384 mlrd. so'm.

YaIM=4450; SMM=4085; MD=3741.

3. YaIM (xarajatlar va daromadlar bo'yicha) = 335; SMM = 328; Milliy daromad = 310; shaxsiy daromad = 268; shaxs ixtiyoridagi daromad = 242.

4. Real YaIM=2791,6; real SMM=273,3.

5. Qishloq xo'jaligida yaratilgan mahsulot 150000 so'm, jami mahsulotning 28,8 %i;

oziq-ovqat sanoati 300000 so'm, 57,7%; xizmat ko'rsatish 70000 so'm, 13,5%.

6. Umumiy qiymat 2790 ming so'm, pirovard mahsulot qiymati, qo'shilgan qiymat 850 ming so'm.

7. 1) shaxsiy iste'mol xarajati? S

2) investitsiya, I

3) hisoblanmaydi, faqat joriy yilda qurilgan bo'lsa hisoblanadi;

4) xizmat, shaxsiy iste'mol? S

5) davlat iste'moli, G

6) hisoblanmaydi, sof moliya bitimlari;

7) hisoblanmaydi, transfert to'lovlari;

8) zaxiradagi o'zgarish, investitsiya, I

9) xizmat, iste'mol xarajatlari, C

10) import, sof eksport satri, X

11) xizmat; iste'mol xarajatlari, S

12) import, X

13) investitsiya, I

14) hisoblanmaydi; sof moliya bitimi.

8. Guruhga taalluqli bo'lmagan tushunchalar: doimiy xarajatlar va foyda, ya'ni mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar, qolganlari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

T/N

1T; 2N; 3N; 4N; 5T; 6T; 7T; 8T;

Testlar:

1V); 2D); 3A); 4S); 5D); 6V); 7D); 8E); 9E); 10A); 11V); 12V);
13E); 14D); 15D); 16D); 17A); 18E); 19G); 20A); 21E); 22V); 23V);
24E); 25E); 26V); 27S); 28A); 29D); 30A); 31V); 32D); 33S); 34S);
5V); 36V); 37E); 38E); 39V); 40D); 41E); 42V); 43D); 44A); 45A);
46V); 47S); 48E); 49D); 50A); 51V); 52V).

2-MAVZU. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF NAZARIYASI

1-§. Yalpi talab va unga ta'sir qiluvchi omillar


Yalpi talab (**aggregate demand**) milliy iqtisodiyot miqyosida narxlarning mavjud o'rtacha darajasida iste'molchilar sotib olishga **tayyor** bo'lgan pirovard tovar va xizmatlar hajmidir.

Yalpi talabning tarkibi:

1. Uy xo'jaliklarining iste'mol tovarlari va xizmatlarga talabi.
2. Korxonalarning investitsion tovarlarga talabi.
3. Davlatning iste'mol va investitsion tovarlarga talabi.
4. Chet mamlakatlarning talabi.

Yalpi talab egri chizig'i

2.1-grafik



Yalpi talab egri chizig'i (AD) narxning o'rtacha darajasi bilan milliy ishlab chiqarishning real hajmi o'rtasidagi teskari mutanosib bog'lanishni ifodalaydi.

Yalpi talab bilan narx darajasi o'rtasidagi qarama-qarshi bog'lanishni izohlovchi omillar:

→ • **Pul miqdori.** Pul taklifi (miqdori) doimiy bo'lganda narx o'sishi yalpi talabni qisqartiradi, narx pasayganda esa yalpi talab ortadi. Buning oddiy ifodalanishi:

$MV = PQ$, bu yerda :

M – iqtisodiyotdagi pul miqdori;

V – pulning aylanish tezligi;

P – narx darajasi;

Q – talab bildirilgan ishlab chiqarishning real hajmi.

→ • **Foiz stavkasi samarasi.** Narx o'sganda pul massasi o'zgar-masa, foiz stavkasi ham o'sadi va bu investitsiyalarga talabni qisqartiradi. Natijada yalpi talab kamayadi.

→ • **Boylik samarasi yoki real naqd pul mablag'lar samarasi.** Uy xo'jaligida oilalar boyligining anchagina qismini moliyaviy aktivlar: obligatsiya, aksiya, ma'lum muddatga qo'yilgan hisob raqamidagi pullar tashkil qiladi. Narxning o'sishi ularni qadrini tushiradi. Bu iste'molchilik sarflarining qisqarishiga olib keladi.

→ • **Xarid qilingan import tovarlar samarasi.** Milliy iqtiso-diyotda narxlarning o'sishi (chet ellardagi narxlarga nisbatan) importning ko'payishi va eksportning qisqarishiga olib keladi. Natijada yalpi talabda import hajmi ortadi.

Yalpi talab hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar

Yalpi talab hajmiga ta'sir qiluvchi omillar:

- • Narxlarning umumiy darajasi.
- • Pul taklifi va ularning aylanish tezligi.
- • Aholining iste'molchilik sarflaridagi o'zgarishlar.

Bu o'zgarishlar, ya'ni iste'molchi xaridining ko'payishi yoki kamayishi quyidagilar ta'sirida ro'y beradi:

- a) iste'molchi turmush farovonligining o'zgarishi;
- b) iste'mol tovarlari narxi va daromadlar darajasi o'zgarishining kutilishi;
- d) iste'molchi qarzlar darajasi;
- e) daromad va mulk soliqlari darajasi (stavkasi)ning o'zgarishi.

- • Investitsion sarflardagi o'zgarishlar.
Bu o'zgarishlar quyidagi omillarning ta'siri natijasi hisoblanadi:
- a) foiz stavkalari;
 - b) investitsiyalardan kutiladigan foyda;
 - d) korxonadan olinadigan soliqlar;
 - e) texnologiya;
 - f) ortiqcha quvvatlar mavjudligi.
- Davlat sarflaridagi o'zgarishlar:
- a) qurilishga davlat sarflarining qisqarishi (ko'payishi);
 - b) budjetdan sarflanadigan ish haqining o'sishi (qisqarishi);
 - d) atrof-muhitni muhofaza qilish sarflarini o'sishi (qisqarishi).
- * Sof eksportdagi o'zgarishlar – tashqi omillarning ta'sirida ro'y beradi:
- a) chet ellardagi milliy daromad darajasi;
 - b) valuta kurslarining o'zgarishi.

O'zbekistonda yalpi sarflar tarkibi va uning o'zgarishi (% hisobida, YaIMga nisbatan)

2.1-jadval

Davr	Pirovard iste'mol uchun xarajatlar		Yalpi jamg'arma		Sof eksport
	Xususiy	Davlat	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Zaxiralarning o'zgarishi	
2000	61,9	18,7	24,0	-4,4	-0,2
2001	61,5	18,5	27,9	-6,8	-1,1
2002	60,2	18,0	22,1	-0,9	0,6
2003	55,6	17,4	21,5	-0,7	6,1
2004	51,9	16,2	23,5	1,0	7,4
2005	48,4	15,9	22,0	6,0	7,7
2006	48,2	15,3	21,6	8,0	6,9
2007	47,9	15,6	23,5	4,7	8,3
2008	47,1	17,5	25,5	5,5	4,4
2009	48,3	18,9	28,6	-1,7	5,9
2010	49,8	20,2	27,2	-6,8	9,6
2012	52,2	15,8	28,9		3,1

2-§. Yalpi taklif va unga ta'sir qiluvchi omillar

Yalpi taklif (aggregate supply) – bu mamlakatda narxlarning turli darajasidagi ishlab chiqarishning real hajmi, boshqacha aytganda iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlarning umumiy miqdori (qiymat ifodasidagi) dir.


Yalpi taklif egri chizig'i AS – iqtisodiyotdagi arxning turli darajasida ishlab chiqaruvchilar tomonidan qay hajm ahsulot taklif etilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Bu egri chiziq narxlarning umumiy darajasi va ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni aks ettiradi. Yuqori narxlar tovarlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirsa, past narxlar ishlab chiqarish hajmini qisqartirishga olib keladi.

Yalpi taklif egri chizig'i

Yalpi taklif egri chizig'i iqtisodchilar tomonidan uzoq muddatli va qisqa muddatli davr uchun alohida-alohida o'rganiladi.

2.2-grafik



LRAS –uzoq muddatli davrda yalpi taklif;
SRAS-qisqa muddatli davrda yalpi taklif.

Yalpi taklif egri chizig'i uzoq muddatli davrda vertikal chiziq tarzida gavdalanadi. Bu chiziq mamlakat iqtisodiyoti subyektlari tomonidan shu muddatda mavjud ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalangan holda barcha ishlab chiqarish resurslarini iloji boricha samarali ishlatgan holdagi erishgan ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi. Qisqa muddatli davr uchun yalpi taklif egri chizig'i iqtisodchilar tomonidan uch bo'lakka bo'lib o'rganiladi: yotiq, oraliq va tik kesma.

Yalpi taklif egri chizig'ida kesma(bo'lak)lar milliy ishlab chiqarish real hajmi va narx darajasi o'zgarishining turli nisbatlarini ko'rsatadi.

→ 1. Yotiq kesma yoki Keynes bo'lagi. U milliy iqtisodiyot inqiroz yoki turg'unlik holatida ekanligi, ishsizlik va bo'sh resurslar mavjudligi, narx darajasi o'zgarmagani holda milliy ishlab chiqarishning real hajmini ko'paytirish mumkinligini ko'rsatadi.

→ 2. Oraliq kesma milliy ishlab chiqarish real hajmining o'zgarishi narx darajasining o'zgarishi bilan birga borishini aks ettiradi. Iqtisodiyot o'zining to'la imkoniyat darajasiga yaqinlashib boradi. Ammo ish bilan bandlik barcha tarmoqlarda bir tekisda bo'lmaydi. Iqtisodiyotning resurslar to'la bandligiga yaqinligi ish haqi va narxlarga bosim ko'rsata boshlaydi.

→ 3. Tik kesma yoki klassik bo'lak. Bunda iqtisodiyot mavjud resurslarning to'la bandligi bilan tavsiflanadi. Talab va narxlarning o'sishidan qat'i nazar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirib bo'lmaydi, sababi bo'sh resurslar yo'q. Mavjud resurslar narxlarining ortishi, ularni qayta taqsimlashga olib keladi. Real ishlab chiqarishning hajmi o'zgarmaydi.

Yalpi taklif hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar:

→ **Narx darajasi**

→ **Resurslar narxining o'zgarishi.** Resurslar narxi ishlab chiqaruvchi uchun xarajat hisoblanadi, shu sababli uning o'zgarishi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarning o'zgarishiga (kamayishiga yoki ko'payishiga) sabab bo'ladi. Resurs narxlariga o'z navbatida bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

a) ichki iqtisodiy resurslar (yer, mehnat resurslari, kapital, tadbirkorlik layoqati)ning mavjudligi;

b) import qilinadigan resurslarning narxi;

d) bozordagi hukmronlik darajasi (monopoliyalar mavjudligi yoki yo'qligi).

→ **Resurslar unumdorligining o'zgarishi.** Unumdorlik milliy ishlab chiqarish real hajmining iqtisodiy xarajatlarning birligiga to'g'ri keladigan miqdoridir.

$$\text{Unumdorlik} = \frac{\text{Ishlab chiqarish real hajmi}}{\text{Iqtisodiy xarajatlar}}$$

Unumdorlikning o'sishi yalpi taklifni oshiradi, uning pasayishi, ya'ni xarajat birligi hisobiga mahsulot chiqarishning kamayishi yalpi taklifning qisqarishiga olib keladi.

→ **Huquqiy normalarning o'zgarishi.** Bu mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni va yalpi taklif hajmini o'zgartirishi mumkin. Huquqiy normalar o'zgarishining ikki turini misol qilib keltirish mumkin:

- a) soliq stavkalari va subsidiyalar hajmining o'zgarishi;
- b) davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish usullarining o'zgarishi.

3-§. Yalpi talab va yalpi taklif muvozanati

AD va AS egri chiziqlarining kesishish nuqtasi (1-chizma). Iqtisodiyotda mahsulot chiqarishning muvozanatli hajmini va narxning muvozanatli darajasini ko'rsatadi.


AD egri chizig'i AS egri chizig'ini yotiq kesmada kesib o'tganda, narx darajasi milliy ishlab chiqarish muvozanatli real hajmining shakllanishida hech qanday rol o'ynamaydi.

Oraliq kesmada yalpi talabning kengayishi ishlab chiqarish real hajmining ko'payishiga va narx darajasining oshishiga olib keladi.

Yotiq kesmada yalpi talab kamaysa, ishlab chiqarish real hajmi kamayadi, narx darajasi esa o'zgarishsiz qoladi.

Oraliq va tik kesmada yalpi talab qisqarganda, narx pasayish tamoyiliga ega bo'lmasligi mumkin. Iqtisodchilar bunday holatni xrapovik samara deb ataydi (xrapovik g'ildirakning orqaga emas, faqat oldinga harakat qilishiga yordam beradi). Xrapovik samara shunga asoslanadiki, narx osonlik bilan o'sadi, lekin qiyinchilik bilan pasayadi. Shu sababli yalpi talabning o'sishi narx umumiy darajasini ko'taradi, lekin talab kamayganda qisqa davrda narx pasaymasligi mumkin.

Yalpi talab va yalpi taklif hamda ularning muvozanati



1-chizma.

Narx pasayish tendensiyasiga¹ ega bo‘lmasligi sabablari:

❖ Ish haqi umumiy xarajatlarning asosiy qismini (70-75) tashkil qilib, qandaydir davr ichida pasayish tamoyiliga ega bo‘lmaydi. Chunki, shartnoma muddati amal qilgan davrda ish haqini qisqartirish taqiqlanadi. Bundan tashqari ancha past ish haqi mehnat unumdorligiga salbiy ta’sir qilib, uning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tadbirkorlar ish haqi darajasini pasaytirishni xohlamasligi mumkin. Boshqa tomondan, ishga yollovchilar ishchilarni o‘qitish va malaka ko‘nikmasini hosil qilishga ancha kapital sarflaydi. Agar ular ish haqini pasaytirishga qaror qilsa, ishchi kuchidan ajralib qolishi mumkin.

❖ Narx pasayishi tendensiyasiga ega bo‘lmasligining ikkinchi sababi shundan iboratki, juda ko‘pchilik korxonalar monopol mavqega ega bo‘ladi va bu ularga talab kamayganda ham narxning pasayishiga qarshi turish imkonini beradi.

• Yalpi talab o‘zgarmay qolganda, yalpi taklifning o‘zgarishi iqtisodiyotda ikkita har xil oqibatlarga olib keladi.

– Birinchidan, yalpi taklifning qisqarishi narx darajasining o‘sishini taqozo qilib, inflatsiyaga olib keladi.

– Ikkinchidan, milliy ishlab chiqarish real hajmining ko‘payishi, narx darajasining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Yalpi talab va yalpi taklif modellari (yalpi talab va yalpi taklifni muvozanatga keltirishga turli xil yondashuvlar)

¹ Tendensiya (лат. tendentia – yo‘nalish) - hodisa, fikr, g‘oya rivojlanishining yo‘nalishi

I.Klassik model (yondashuv)
• Iqtisodiyot ishlab chiqarish omillari to‘liq bandligi sharoitida amal qiladi, shu sababli ishlab chiqarish hajmi o‘zining potensial darajasiga teng keladi. • Narx, foiz stavkasi va ish haqi moslashuvchan bo‘lib, ularning o‘zgarishi bozor muvozanatini saqlab turadi. Ishlab chiqarish omillari miqdori sekin o‘zgarishi sababli, to‘la bandlik sharoitida yalpi taklif real ishlab chiqarish hajmini, yalpi talab esa narx darajasini belgilaydi.
II.Keynscha model (yondashuv):
• Narx, ish haqi, foiz stavkasi va boshqa nominal miqdorlar nisbatan o‘zgarmas, shu sababli bozor tebranishlariga juda sekinlik bilan moslashadi. • Real ko‘rsatkichlar (ishlab chiqarish hajmi, bandlik va h.k.) aksincha, tez moslashuvchan bo‘lganligi sababli bozor tebranishlariga nisbatan tez javob beradi.

Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar **Asosiy tayanch tushunchalar**

- | | |
|--|--|
| 1. Agregatlashtirish
2. Yalpi talab
3. Yalpi taklif
4. Boylik samarasi
5. Foiz stavkasi samarasi
6. Import samarasi | 7. Yalpi taklif egri chizig‘ining yotiq yoki Keyns bo‘lagi
8. Yalpi taklif egri chizig‘ining oraliq bo‘lagi
9. Yalpi taklif egri chizig‘ining klassik yoki tik bo‘lagi |
|--|--|

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

a) Mamlakatda narxlarning turli darajasidagi ishlab chiqarishning real hajmi, ya’ni ishlab chiqaruvchilar taklif qilishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning umumiy miqdori;

b) narxlarning o‘sishi yoki kamayishi tufayli moliyaviy aktivlarning real qiymatlarini o‘zgarishi oqibatida xarajatlarning umumiy hajmining o‘zgarishi.

v) turli ko‘rsatkichlarni qo‘shish, yiriklashtirish asosida umumiy ko‘rsatkichga keltirish. Turli narxlarni umumiy narx darajasiga keltirish mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni YaIM (YaMM) tarzida ifodalash;

g) mamlakatda turli narxlar darajasida iste'molchilar sotib olishga tayyor tovar va xizmatlar hajmi;

d) narxlar darajasining o'zgarishi tufayli pulga talabni va o'z navbatida foiz stavkasining o'zgarishiga olib kelishi va uning oqibatida yalpi xarajatlarning umumiy darajasining o'zgarishi;

e) mamlakat iqtisodiyotida resurslardan to'la foydalana borilishi tufayli ishlab chiqarish hajmining o'sishi narxlar o'sishi bilan birgalikda yuz beradigan, keyns va klassik kesmalar orasida joylashgan kesma;

yo) mamlakatda bo'sh resurslar mavjud, narx o'zgarmagani holda milliy ishlab chiqarishning real hajmini ko'paytirish mumkin bo'lgan kesma;

j) mamlakatning sof eksporti hajmi bilan mamlakat ichida va tashqarisidagi narx darajasi va ularning nisbatiga bog'liqligi;

z) mamlakat iqtisodiyotida resurslarning to'la bandligini, talab va narxlarning o'sishidan qat'i nazar, ishlab chiqarish real hajmini ko'paytirib bo'lmaydigan kesma.

Masala va mashqlar

1. 2012-yilda YaIM 5000 birlikni tashkil etdi. Yalpi talab AD egri chizig'i $Y = 6250 - 2R$ tengligida ifodalangan. Yil davomida YaIM 2,5% ga o'sdi. Yalpi talab egri chizig'i esa $Y = 6375 - 2R$ ko'rinishini oldi.

Yil davomida muvozanatli narx darajasi o'zgaradimi. Narx darajasini o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

2. 2012-yilda YaIM 1500 birlik edi. $18750 - 3R$ yalpi talab egri chizig'ini ifodalaydi. Yil davomida YaIM 4% ga o'sdi. Yalpi talab egri chizig'i esa $21900 - 3R$ ko'rinishini oldi. Yil davomida muvozanatli narx darajasi o'zgaradimi, yo'qmi aniqlang. Yalpi talab egri chizig'i

 ko'rinishida bo'lishi sababini izohlang.

3. Mamlakatda real ishlab chiqarish hajmi bilan uni yaratish uchun zarur resurslar hajmi quyidagicha bo'lsin:

	Resurslar miqdori	Real yalpi ichki mahsulot
1	300,0	800
2	225,0	600
3	150,0	400

Quyidagilarni hisoblang:

a) Iqtisodiyotdagi resurslar unumdorligi qanday?

b) resurslar birligining narxi 5000 so'm deb faraz qilinsa, bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun xarajatlar qanday o'zgaradi?

d) agar resurslar narxi 5000 so'mdan 7500 so'mga yetsa, unumdorlik o'zgarmagani holda, mahsulot birligiga sarflanadigan ishlab chiqarish xarajatlari qanday o'zgarishini hisoblang;

e) yalpi taklif egri chizig'i narx ortishi bilan qaysi tomonga siljiydi? Ko'rsating.

4. Mamlakatda 1000 birlik real yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish uchun 400 birlik resurslar sarflandi, resurslar narxi 8000 so'm bo'lsin, deylik. Narx o'zgarmay, resurslar unumdorligi 2 barobar o'sdi. Bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar qanday o'zgaradi? U taklif egri chizig'ini qanday o'zgartiradi? Narx va ishlab chiqarishning real hajmini-chi?

5. t - yilda potensial yalpi milliy mahsulot miqdori 500000 birlik bo'ldi. AD yalpi talab egri chizig'i $Y = 635000 - 2R$ tenglamasida ifodalanadi. t_n - yili potensial yalpi ichki mahsulot 2,5% o'sdi. Yalpi talab egri chizig'i tenglamasi $Y = 647500 - 2R$ ko'rinishini oldi. t_n - yili muvozanat narx darajasi o'zgaradimi?

Masalani yechish:

t - yili narx darajasi quyidagicha bo'lgan:

$$(S+I+G+X) = Y;$$

$$635000 - 2R = 500000;$$

$$135000 = 2R; R = 67500;$$

Agar potensial yalpi ichki mahsulot t_n - yili 2,5% ko'paysa, u holda:

$$Y_t = (Y_n + 2,5\% \times 500000 : 100\%) = (500000 + 12500) = 512500;$$

$$Y_t = 512500;$$

Yangi tenglama quyidagicha

$$Y_i = A_{Di} : 512500 = 647500 - 2R;$$

$$2R = 647500 - 512500;$$

$$R = 67500;$$

Muvozanat narx darajasi o'zgarmagan. Shunga o'xshash masala tuzib yeching.

6. Beshinchisi ortiqcha.

Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Ulardan qaysi biri ortiqcha va nima sababdan? Ko'rsating.

Tushunchalar: iste'mol xarajatlarining o'zgarishi, investitsion xarajatlarning o'zgarishi, davlat xarajatlaridagi o'zgarishlar, resurslar narxining o'zgarishi, sof eksport xarajatlarining o'zgarishi.

T/N

1. Yalpi talab va taklifga ta'sir qiluvchi, iqtisodiyotning muvozanat holatiga qattiq zarba berib, uni o'zgartiruvchi yoki izdan chiqaruvchi hodisalar *iqtisodiy shoklar* deb ataladi.

2. Jahon bozorida paxta tolasiga talabning ortishi O'zbekistondan paxta tolasi eksportini o'sishiga olib kelishini Respublika iqtisodiyotidagi ijobiy shok sifatida ko'rish mumkin. Natijada talab egri chizig'i o'ngga siljiydi.

3. Yangi standartlarning qabul qilinishi yengil va yuk avtomobillarini ishlab chiqarish uchun o'rtacha xarajatlarning 5% ortishiga olib keldi. Atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida ko'rilgan bu chora ularning qiymatini oshiradi, iste'molchilar uchun ham ishlab chiqaruvchilar uchun ham xarajatlarni ko'paytiradi. Real yalpi ichki mahsulot kamayadi, taklif egri chizig'i chapga siljiydi.

4. Qulay ob-havo sharoiti bug'doy hosildorigining keskin ortishiga olib keldi. Yaqin 40 yil ichida bunday bo'lgani yo'q edi. Bug'doyga talabning noegiluvchanligini hisobga olsak, oziq-ovqat sanoatining ko'pgina tarmoqlarida narx yuqori bo'ladi. Taklif egri chizig'i chapga siljiydi.

5. Bir nechta yapon firmalari O'zbekistonda korxonalar ochishdi. Talab va taklif egri chizig'i o'ngga siljiydi.

6. Hukumat xarajatlarining o'sishi yalpi talab AD ni kamayishiga olib keladi.

7. Davlat ta'lim, sog'liqni saqlash, kam ta'minlangan oilalar uchun uy-joy qurish dasturini qabul qilib, amalga oshirishni boshladi. U yalpi talabning o'sishiga olib keladi.

8. Keynschilarning fikriga ko'ra narx va ish haqi faqat o'sish nuqtayi nazaridan egiluvchan, pasayish tomonga esa noegiluvchanligi va korporatsiyalarning monopol mavqei va kasaba uyushmalarining ish haqini pasaytirmaslik, uni oshirish uchun qilingan harakatlari bilan izohlanadi. Shuning uchun ular faqat bir tomonga, barqaror o'sish tamoyiliga ega, xuddi «xrapovik»ka o'xshab, deb ko'rsatishadi.

9. Agar, iqtisodiyot oraliq kesma holatida bo'lsa, yalpi talabning ortishi, narxning o'sishiga hamda ishlab chiqarish hajmining o'zgarmasligiga olib keladi.

10. Mamlakat iqtisodiyoti klassik, tik kesma holatida bo'lsa, talabning ortishi faqat resurslarning qayta taqsimlanishiga olib keladi, real YaIM hajmi o'zgarmaydi.

11. Yalpi talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan siyosat doimo inflatsiyaga olib keladi.

TEST SAVOLLARI

1. Agar davlat xarajatlari ko'paysa, u holda:

- A) Yalpi taklif qisqaradi, yalpi talab ko'payadi.
- V) Yalpi talab ham taklif ham ko'payadi;
- S) Yalpi talab ortadi, yalpi taklif o'zgarmaydi;
- D) Yalpi taklif ortadi, yalpi talab qisqaradi;
- E) Yalpi talab ham taklif ham qisqaradi.

2. Agar shaxsiy daromad solig'i oshirilsa, u holda:

- A) Yalpi talab ham taklif ham ortadi;
- V) Yalpi taklif qisqaradi, yalpi talab esa o'zgarmaydi;
- S) Yalpi talab ham taklif ham qisqaradi;
- D) Yalpi talab qisqaradi, yalpi taklif o'zgarmaydi;
- E) Yalpi talab ortadi, yalpi taklif o'zgarmaydi.

3. Milliy iqtisodiyotning holati taklif egri chizig'ining qaysi bo'lagiga to'g'ri kelsa, yalpi talabning o'sishi:

A) Narxlarning pasayishi va real YaIMning hajmini o'sishiga olib keladi;

V) Real YaIM o'sadi, lekin narx darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi;

S) Narxlarning ham, real YaIM hajmining ham o'sishiga olib keladi;

D) Narxlarning o'sishi va real YaIM hajmining qisqarishiga olib keladi;

E) Narxlarning o'sishiga olib keladi, lekin YaIM hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

4. Yalpi talablar egri chizig'i o'ngga siljiydi, agar...

A) energoresurslar narxi oshsa;

V) ishlab chiqarish resurslari narxi tushsa;

S) mehnat unumdorligi pasaysa;

D) investitsion sarflar pasaysa;

E) pulning qadri pasaysa.

5. Bozor talabi bilan yalpi talab o'rtasidagi farq shundaki,

A) bozor talabi barcha individlarga xos, yalpi talab esa – yo'q;

V) yalpi talab tushunchasi ma'lum bir tovarga xos, bozor talabi esa unday emas;

S) iqtisodiy siyosatga ko'ra ko'rilgan chora-tadbirlar bozor talabiga ta'sir ko'rsatadi, yalpi talabga esa – yo'q;

D) yalpi talab tushunchasi iqtisodiyotdagi barcha tovar va xizmatlarga nisbatan qo'llanilsa, bozor talabi tushunchasi – ma'lum bir tovar, xizmatga nisbatan qo'llaniladi;

E) bozor talabi individual talabning o'zgarishini ifodalaydi, yalpi talab esa – yo'q.

6. Qaysi omillar yalpi taklif egri chizig'ini o'ngga siljishiga, ya'ni yalpi taklifning ko'payishiga olib keladi?

A) kasaba uyushmalari siyosati nisbatan agressiv tus olib, ish haqi oshsa;

V) OPEK neftning narxini ko'targanda;

S) davlat xarajatlari ko'paysa;

D) aholining tug'ilishi kamayib, kelajakda ishchi kuchi sonining qisqarishiga olib kelishi;

E) kompyuter texnologiyasining joriy etilishi bilan sanoatda samaradorlikning ortishi.

7. Yalpi talab egri chizig'i o'ngga siljiydi, ...

A) davlat sarflarini ko'paytirsam;

V) iste'mol sarflari kamaysa;

S) xususiy investitsiya xarajatlari kamaysa;

D) iste'mol xarajatlarini avvalgi darajada saqlab qolishga erishilsa;

E) davlat xarajatlari o'tgan yilgi darajada saqlab qolinsa.

8. Tadqiqot ko'rsatadiki, ta'limdagi islohotlar ishlovchilar va rahbarlarning malakasini oshirishga olib keladi, natijada ...

A) yalpi taklif ortadi, egri chiziq chapga siljiydi;

V) yalpi taklif ortadi, egri chiziq o'ngga siljiydi;

S) yalpi taklif pasayadi, egri chiziq chapga siljiydi;

D) yalpi taklif o'zgarmaydi, egri chiziq chapga siljiydi;

E) yalpi taklif ortadi, egri chiziq o'zgarmaydi.

9. Yalpi talab hajmi va narx umumiy darajasi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

A) to'g'ridan-to'g'ri;

V) qarama-qarshi;

S) ham to'g'ri va ham teskari;

- D) bog'liqlik yo'q;
- E) bog'liqlik uncha sezilmaydi.

10. Yalpi talab hajmiga narxdan tashqari qanday omil ta'sir ko'rsatadi?

- A) iste'molchi sarflaridagi o'zgarishlar;
- V) investitsion sarflardagi o'zgarishlar;
- S) davlat sarflardagi o'zgarishlar;
- D) sof eksportdagi o'zgarishlar;
- E) yuqoridagi barcha o'zgarishlar.

11. Yalpi taklif egri chizig'ining qaysi kesmasida narxning oshib borishi ishlab chiqarish real hajmining ko'payishiga olib kelmaydi?

- A) yotiq kesmada;
- V) oraliq kesmada;
- S) tik kesmada;
- D) barcha kesmada;
- E) yotiq va oraliq kesmada.

12. Quyidagi omillardan qaysi biri yalpi taklif hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi?

- A) tovar va xizmatlar narxi;
- V) iqtisodiy resurslar narxi;
- S) soliqlar va subsidiyalar;
- D) texnologiya;
- E) iste'molchilar soni.

13. Import tovarlar narxining oshish sababi?

- A) yalpi taklifning qisqarishi;
- V) yalpi taklifning oshishi;
- S) yalpi talabning qisqarishi;
- D) yalpi talabning oshishi;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

14. Quyidagilardan qaysi biri yalpi talab tarkibiga kirmaydi?

- A) iste'molchilik sarflari;
- V) davlat sarflari;
- S) investitsion sarflar;
- D) sof eksport;
- E) aholi jamg'armalari.

15. Qaysi omil yalpi talab hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi?

- A) texnologiya;
- V) iste'molchilik sarflari;
- S) sof eksport;

- D) davlat sarflari;
E) investitsion sarflar.

16. Yalpi taklif egri chizig'ining qaysi kesmasida ishlab chiqarish hajmi o'zgarmaydi?

- A) tik kesmada;
V) oraliq va yotiq kesmada;
S) oraliq kesmada;
D) yotiq kesmada;
E) yuqoridagilarning barchasida.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

2.2-jadval

Ko'rsatkichlar	1991y	1995y	2000y	2005y	2010y	2012y
Yalpi ichki mahsulot, o'tgan yilga nisbatan, %	99,5	99,1	103,8	107,0	108.5	108.3
1991-yilga nisbatan	X	81,5	98,6	128,2		
Sanoat mahsuloti, o'tgan yilga nisbatan, %	101,5	100,1	105,9	107,3	108.5	107.9
1991-yilga nisbatan	X	98,3	121,8	...		
Qishloq xo'jaligi, o'tgan yilga nisbatan, %	98,9	102,2	103,1	106,2	106.9	107.0
1991-yilga nisbatan	X	89,8	101,9	...		
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, o'tgan yilga nisbatan, %	105	104	101	107,0	108.7	112.7
Qurilish ishlari, o'tgan yilga nisbatan, %	96,6	95,8	103	107,8	105.1	113.7
1991-yilga nisbatan	X	77,2	90,3	...		
Chakana savdo, o'tgan yilga nisbatan, %	82,3	95,7	107,6	108,2	113.6	113.9
1991-yilga nisbatan	X	65,1	120,5	...		
Eksport, o'tgan yilga nisbatan %	-	138,3	100,9	111,5	110,6	90,5
Import, o'tgan yilga nisbatan %	-	110,9	94,8	107,2	123.6	112,9

Jadval ma'lumotlariga diqqat qiling. Kerakli ma'lumotlarni topib 1991 yilga nisbatan foizini hisoblang. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Ulardan qanday xulosa chiqarish mumkin? Ular asosida mamlakatimizda yalpi taklif ko'payapti deb, ayta olamizmi? Yalpi talab qanday shakllanadi? Yalpi talab haqida gapirganimizda qaysi iqtisodiy ko'rsatkichni asosiysi sifatida keltirishimiz mumkin? Izohlang.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarishning o‘sinh sur‘atlari

2.3-jadval

Hududlar	2008 y., hajmi, mlrd. so‘m	O‘tgan yilga nisbatan o‘sinh sur‘ati, %				
		Yillar				
		2008	2009	2010	2011	2012
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	102,6	115,2	111,0	110,4	120,0	110,7
Andijon	2151,9	122,2	123,9	109,0	102,8	109,4
Buxoro	401,6	103,1	108,9	109,9	108,9	103,4
Jizzax	155,2	116	95,0	110,7	118,8	110,2
Qashqadaryo	246,7	117,3	107,1	111,2	117,4	108,2
Navoiy	161,9	115,2	108,4	116,5	119,4	107,6
Namangan	266,5	116,3	109,5	115,6	122,8	112,3
Samarqand	687,9	124,5	116,7	121,6	109,9	103,8
Surxondaryo	142,0	112,6	105,7	107,8	109,2	105,0
Sirdaryo	110,8	117,8	107,3	107,5	142,3	106,6
Toshkent	785,4	111,3	119,2	120,1	118,1	113,5
Farg‘ona	639,1	106,4	106,0	110,5	110,6	101,0
Xorazm	152,2	108,9	111,0	112,3	112,4	112,0
Toshkent shahri	1432,7	123,1	108,6	110,2	111,9	107,0
Respublika bo‘yicha	7436,5	117,7	113,9	112,4	111,1	107,8

Agar respublika bo‘yicha 2008 yili 36839,4 mlrd., 2012 yilda **18292,7** mlrd. so‘mlik yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lib, hududlar bo‘yicha o‘sinh sur‘atlari ko‘rsatilgan. Ular asosida iste‘mol tovarlarining hajmini hisoblang. Yalpi taklif nima, u iste‘mol tovarlaridan tashqari yana nimalarni o‘z ichiga oladi? Iste‘mol tovarlariga yalpi talabchi? Keyingi yil ma‘lumotlari bilan to‘ldiring ularni taqqoslang va xulosa chiqaring.

Infratuzilma tarmoqlari va ularda xizmat ko'rsatish hajmi

2.4-jadval

Ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlari	O'lchov birligi	2005 y.	2010 y.	2012 y.
Temir yo'llari	Ming km.	6.2	6.3	5.8
jumladan, umumfoydalanadigani	Ming km	4.0	4.2	4.2
Tashilgan yuk	Mln. t.	45.8	56.9	61.5
Quvur yo'llari	Ming km	13.5	14.3	14.3
Yuk tashish - jami	Mln. t.	39.1	41.9	39.0
Qattiq qoplamali avtomobil yo'llari	Ming km.	51.6	49.7	44.3
jumladan, umumfoydalanadigan	Ming km.	41.6	42.0	42.0
Avtomobilida: yuk tashish	Mln. t.	196.4	324.0	379.1
yo'lovchi tashish	Mlrd. yo'lovchi-km.	35.8	56.7	66.2
Aloqa asosiy faoliyatidan tushgan tushum daromad	Mlrd. So'm	401.4	1971.4	3046.0
shu jumladan:				
uyali aloqa	“	205.2	1392.9	1839.5
“Internet” tarmog'i	“	5.1	106.7	262.0
Elektr energiyasi ta'minoti	Mln.kVt/soat	47665.1	51976.3	52999.6

Jadval ma'lumotlariga diqqatni qarating. Yalpi talab va taklifda infratuzilmaning o'rniga baho bering. Nima sababdan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida respublikamizda infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi, izohlang. Jadvalni keyingi yillardagi ma'lumotlar bilan to'ldiring va ularni tahlil qiling. Infratuzilmaning rivojlanishini ifodalovchi yana qanday ko'rsatkichlarni keltirish mumkin?

Javoblar

Asosiy tayanch tushunchalar

1v); 2g); 3a); 4b); 5d); 6j); 7yo); 8e); 9z).

Masala va mashqlar

1. Yil davomida muvozanat narxi o'zgarmagan, 625 birlik.
2. Yil davomida muvozanat narx 5750 dan o'zgarib 6780 ga yetgan.
3. Resurslar sarfining natijasi:
 - a) 2,667;
 - b) 1875 so'm;
 - d) 2812,5 so'm;
 - e) Yalpi taklif egri chizig'i AS chapga siljiydi. Narx o'sadi, real YaIM hajmi qisqaradi.
4. Resurslar unumdorligi 0,4, bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun 3200 so'm sarflangan. Resurs unumdorligi 0,8 bo'lib, xarajatlar 1600 so'mga tushgan. Taklif egri chizig'i AS o'ngga siljiydi. Narx darajasi tushadi, real ishlab chiqarish ortadi.
5. Ortiqcha tushuncha, resurslar narxining o'zgarishi. U yalpi taklif determinanti, qolganlari esa yalpi talab determinantlaridir.

T/N

1T; 2T; 3T; 4N; 5T; 6N; 7T; 8T; 9N; 10T; 11N (taklif egri chizig'ining qaysi bo'lakda ekanligiga bog'liq).

Test savollari

1C); 2D); 3V); 4V); 5D); 6E); 7A); 8V); 9V); 10E); 11S); 12E); 13D); 14D); 15A); 16A).

3-MAVZU. IQTISODIY O'SISH VA MILLIY BOYLIK

1-§. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlari

«Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari haqida gapirganda uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'sishlar iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish, bir so'z bilan aytganda, amaliy hayotimizni yaxshilashga olib kelishi lozim».*	
«Iqtisodiy o'sish» tushunchasi dastlab fransuz iqtisodchisi S.B.Sey (1767–1832) va nemis iqtisodchisi I. G. fon Tyunen (1783-1850) asarlarida tadqiq qilingan bo'lsa, keyinchalik bu tushunchaning mazmunini yoritib berishga amerikalik iqtisodchi B. Klark (1847-1938) va ingliz iqtisodchisi U.Jevons salmoqli hissa qo'shgan.	
Iqtisodiy o'sish	Iqtisodiy o'sish ma'lum bir vaqt (yil) mobaynida real yalpi ichki mahsulot (yoki YaMM), sof milliy mahsulot hajmining ko'payishi, sifatining yaxshilanishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda milliy ishlab chiqarish natijalari mutlaq hajmining, aholi jon boshi va iqtisodiy resurs birligi hisobiga nisbiy miqdorining ko'payishi hamda sifat tarkibining takomillashuvidir.
Iqtisodiy o'sish mezoni	Iqtisodiy o'sishni nisbatan to'liq darajada baholash imkonini beradigan ko'rsatkich.
Mikro-darajada	Korxona (firma) yalpi mahsuloti (yalpi daromad, foydasi)ning o'sish ko'lami va sur'ati.
Makro-darajada	Yalpi ichki mahsulot (yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad)ning o'sish ko'lami va sur'ati.

* Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. «Xalq so'zi» gazetasi 2001-yil 17-fevral, 37-son.

IQTISODIY O‘SISH TURLARI

Ekstensiv iqtisodiy o‘shish – bunda ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishga qo‘shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish orqali erishiladi

Intensiv iqtisodiy o‘shish – bunda mahsulot hajmini ko‘paytirishga, foydalanishga jalb qilingan resurslar miqdorini o‘zgartirmasdan ularning unumdorligini oshirish hisobiga erishiladi.

Intensiv usulning quyidagi shakllari mavjud: **mehnatni tejoychi, kapital tejoychi, universal.**

Amaliy hayotda iqtisodiy o‘shish ekstensiv va intensiv omillarning o‘zaro ta‘sirida ro‘y berishi tufayli, bu jarayonda qaysi turdagi omillar mavqei yuqoriligini hisobga olib **ustuvor ekstensiv** va **ustuvor intensiv** iqtisodiy o‘shish turlari ajratiladi.

Iqtisodiyotdagi muvozanatlik muammosinii tadqiq qilishda iqtisodiy o‘shishning **muvozanatli, beqaror** va **samarali** (barqaror) turlari ham ajratiladi.

MILLIY IQTISODIYOT DARAJASIDA IQTISODIY O‘SISHNING ASOSIY QIYMAT KO‘RSATKICHLARI

YaIM (YaMM, SMM yoki MD)ning mutlaq hajmi va uning o‘shish sur‘ati.

YaIM (YaMM, SMM yoki MD)ning aholi jon boshi hisobiga to‘g‘ri keladigan miqdori va uning o‘shish sur‘ati.

YaIM (YaMM, SMM yoki MD)ning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to‘g‘ri keladigan miqdori va uning o‘shish sur‘ati.

**Dunyo mamlakatlari YaIM va uning dinamikasi.
(2003-yil narxlari va milliy valutarlar xarid qilish pariteti
bo'yicha, mlrd. doll.)**

3.1.-jadval

Mamla- katlar	Iqtisodiy xavfsizlik darajasi	1997	1999	2001	2003	2005	2007	2010
Rossiya	1000	620,0	891	1066,7	1420,0	1740,0	2008,8	2529,3
AQSH	7000	7000	8200	9900,0	10870,0	12000,0	13700,0	18000,0
Yaponiya	2000	2820	3040	3200,0	3582,5	3660,0	3750,0	4150,0
Germaniya	1500	1750	1835	1970,0	2279,1	2420,0	2560,0	2860,0
Buyuk Britaniya	1200	1210	1250	1480,0	1906,9	2200,0	2320,0	2900,0
Italiya	1100	1150	1195	1380,0	1559,3	1610,0	1660,0	1770,0
Janubiy Koreya	600	620	660	780,0	898,0	920,0	960,0	1170,0
XXR	4000	3670	4850	5520,0	6635,4	7900,0	9743,8	13797,1

**O'zbekistonda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIM va
iste'mol ulushining o'zgarishi¹**

3.2.-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2004	2005	2006	2008	2009	2010	2011	2012
I. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIM (ming so'm)	472,3	606,3	794,7	1344,1	1778,2	2184,3	2684,6	3244,0
O'zgarish % hisobida (oldingi davrga nisbatan)	124,9	128,0	131,0	128,6	132,3	122,8	120,7	120,8
II. YaIMda iste'mol sarflari ulushi (%)	51,9	48,3	49,4	48,3	48,3	49,0	50,0	52,2

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi yillik ma'lumotlari asosida tuzildi.

O‘zbekistonda aholi soni va YaIMning o‘shish sur‘atlari (oldingi davrga nisbatan % hisobida)¹

3.3-jadval


Ko‘rsatkichlar	Yillar							
	2004	2005	2007	2008	2009	2010	2011	2012
I. Doimiy aholi sonining o‘shishi, yil oxiriga	101,2	101,1	101,5	101,7	101,8	100,7	101,5	101,5
II. YaIM hajmining o‘shishi	107,4	107,0	109,5	109,0	108,1	108,5	108,3	108,2



Iqtisodiy o‘shishning natural ko‘rsatkichlari:
• Mahsulotning alohida turlari bo‘yicha ishlab chiqarishning yalpi hajmi va uning o‘shish sur‘ati. • Alohida mahsulotlarning aholi jon boshiga va resurs birligiga ishlab chiqarilgan nisbiy miqdori hamda ularning o‘shish sur‘ati. Bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning mutlaq va nisbiy miqdorlari hamda ularning o‘shish sur‘atlari.

2-§. Iqtisodiy o‘shish omillari



¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi yillik ma‘lumotlari asosida tuzildi





Tabiiy resurslar, mehnat resurslari va asosiy kapitalning mavjud darajasida ishlab chiqariladigan turli-tuman mahsulotlar miqdori-ning o'zgarishini ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ida ifodalash mumkin.

AQSHlik iqtisodchi Edvard Denison har xil (ekstensiv va intensiv) omillarning iqtisodiy o'sishga miqdoriy ta'sirini aniqlashga harakat qiladi.

AQSHning real milliy daromadining o'sish manbalari¹

	Iqtisodiy o'sish omillari	Har bir omilning hissasi (% hisobida)
1.	Mehnat sarfining o'sishi	32
2.	Mehnat unumdorligining o'sishi	68
a)	Texnika taraqqiyoti	28
b)	Kapital xarajatlari	19

¹ Кемпбелл Р. Макконелл, Стенли Л. Брю «Економикс», 417 – бет.

d)	Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik	14
e)	Ishlab chiqarish ko'lamini keltirgan tejam	9
f)	Resurslar taqsimotining yaxshilanishi	8
g)	Mavjud qonun-qoidalar va boshqa omillar	-9


Iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi (to'xtatib turuvchi) omillar:


- • mehnat muhofazasi;
- • atrof-muhitning ifloslanishi;
- • ekologik muammolar;
- • ishlovchilar mehnat sharoitini yaxshilash;
- • xodimlarning sog'lig'ini muhofaza qilish;
- • tabiiy ofatlar va favqulodda ro'y beradigan iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlar.

3-§. Iqtisodiy o'sish modellari

Iqtisodiy o'sishning barcha modellari «ishlab chiqarish funksiyasi» kabi mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sarf qilingan iqtisodiy resurslar miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, iqtisodiy o'sishning ko'pchilik modellarida ishlab chiqarish real hajmining ko'payishi ishlab chiqarish asosiy omillari – mehnat (L) va kapital (K) miqdorining o'zgarishi bilan bog'lanadi.





4-§. Milliy boylik va uning tarkibi

MILLIY BOYLIK iqtisodiy tushuncha sifatida – bu jamiyat taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamgʻarilgan moddiy, intellektual hamda foydalanishga jalb qilingan tabiiy boyliklardir.

Milliy boylik uni hisoblash usuli nuqtai nazaridan quyidagicha taʼriflanadi:

Milliy boylik – taraqqiyot asosi boʻlib, u mamlakat ixtiyoridagi mehnat tufayli yaratilib jamgʻarilgan moddiy neʼmatlar, oltin, chet el valutalari, nomoddiy aktivlar va qadriyatlar, hisobga olingan va xoʻjalik oborotiga jalb etilgan yer va tabiiy resurslardan iborat.

MILLIY BOYLIKNING TARKIBI

Moddiy-buyumlashgan boylik:

- ❖ ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) sohalaridagi asosiy kapitallar;
- ❖ ijtimoiy iste'mol sohalaridagi asosiy kapitallar;
- ❖ aylanma kapitallar;
- ❖ tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy buyumlashgan qismi;
- ❖ moddiy zaxiralar va zarur ehtiyotlar;
- ❖ aholining uy, tomorqa va yordamchi xo'jaligidagi mol-mulk;
- ❖ davlatning oltin zaxiralari, sug'urta va boshqa ijtimoiy ehtiyojlar uchun zaxiralari

Intellektual boylik:

- * tarixiy obidalar;
- * arxitektura yodgorliklari;
- * noyob adabiyot va san'at asarlari.

Tabiiy boylik:

- * iqtisodiy faoliyatga jalb qilingan yer, yer osti va usti boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar.

Moddiy buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari:

- Mehnat va iqtisodiy resurslar unumdorligining o'sishi;
- Ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;
- Milliy daromadda jamg'arish normasining ortishi

Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar

Asosiy tayanch tushunchalar

- | | |
|--|-------------------------------------|
| 1. Iqtisodiy o'sish | 6. Milliy boylik (nazariy jihatdan) |
| 2. Iqtisodiy o'sish sur'ati | 7. Moddiy buyumlashgan boylik |
| 3. Ekstensiv iqtisodiy o'sish | 8. Nomoddiy boylik |
| 4. Intensiv iqtisodiy o'sish | 9. Iqtisodiy o'sish modellari |
| 5. Milliy boylik (MHT metodikasi bo'yicha) | |

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

- a) Ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi andozalar;
- b) aholining salomatligi, madaniy-ma'naviy, intellektual salohiyati, to'plagan bilimi, malaka, mahoratida ifodalangan boylik;
- v) mamlakatning asosiy va aylanma kapital, moddiy zaxiralar, aholi-ning mol-mulki, tabiiy boyliklar, tarixiy obidalar, arxitektura yodgorlik-larida ifodalangan boylik;
- g) muayyan jamiyatning asrlar osha, o'z tarixi davomida to'plagan ne'matlarining jamidir;
- d) taraqqiyot asosi bo'lib, mamlakat ixtiyoridagi mehnat tufayli yaratilib jamg'arilgan moddiy ne'matlar, oltin, chet el valutalari, nomoddiy aktivlar va qadriyatlar, hisobga olingan va xo'jalik aylanmasiga jalb etilgan yer va tabiiy resurslardan iborat;
- e) resurslarni tejab-tergab ishlatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga iqtisodiy o'sish;
- yo) qo'shimcha ishlab chiqarish resurslarini jalb etish evaziga eri-shilgan iqtisodiy o'sish;
- j) joriy yildagi yalpi ichki mahsulot (YaMM)ning o'tgan yilga yoki bazis yildagi YaIM nisbatida ifodalanuvchi ko'rsatkich;
- z) ma'lum vaqt (yil) mobaynida real yalpi ichki mahsulot (yoki YaMM), sof milliy mahsulot hajmining ortib, tarkibi va sifatining o'zgarib borishi.

Masala va mashqlar

1. Aytaylik, mamlakatning real YaMM 2011-yil 3,5 mlrd. dollar, 2012-yili esa 4,5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Aholisi esa shu davr ichida 2 mln. kishidan 2,3 mln. kishiga ko'paydi.

a) YaIMni o'sish sur'ati;

b) YaIMni aholi jon boshiga o'sish sur'atini hisoblang;

YaIM hajmi, o'sish sur'ati va aholi jon boshiga o'sish sur'atiga ko'ra qanday xulosa chiqarish mumkin? Fikringizni izohlang.

2. YaIM 2010-yili 18 mlrd. dollarni 2011-yili esa 25 mlrd. dollarni tashkil etgan. Shu davrda narxlar 25% o'sgan. Nominal va real YaIM o'sish sur'atini hisoblang. Iqtisodiy o'sishga qanday omillar ta'sir qiladi?

3. O'zbekistonda 2011-yili yaratilgan YaIM hajmi joriy baholarda 77790,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu 2010-yilga ishlab chiqarilgan YaIMdan 15959,4 mlrd. so'mga ko'p. Aholi esa 29,5 mln. kishiga yetdi. 2010-yili esa 29,1 mln. kishi edi. Narx o'rtacha 7,6% ga ortdi desak, nominal va real YaIM o'sish sur'ati, YaIMning aholi jon boshiga qanday o'zgarganini hisoblang.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilayapti? Izohlang.

4. Berilgan ishlab chiqarish funksiyasi $y = AK^{0,2} - L^{0,3}$. A yil davomida 4%ga, o'sgan. Band bo'lganlar 5%, kapital esa 3% ga o'sgan. Real ishlab chiqarish hajmi necha foizga o'sgan. Bu iqtisodiy o'sishning qaysi modeli, deb hisoblaysiz?

5. Oltinchisi ortiqcha. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Tushunchalar ichida guruhga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: tabiiy resurslar miqdori va sifati, mehnat resurslari miqdori va sifati, asosiy kapital hajmi, texnik taraqqiyot va texnologiya, daromadning iste'mol va jamg'arishga ajratilishi, investitsiyaning o'sishi.

T/N

1. Milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish bilan bog'liq 3 muammosiga e'tibor beriladigan bo'ldi. Bular: a) iqtisodiy o'sishdan ko'zlangan maqsad; b) milliy daromadning o'sish sur'ati qanday bo'lishi kerakligi; d) qanday omillar evaziga iqtisodiy o'sishni ta'minlash muammolaridir.

2. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda, taqsimlash omillari, chunonchi, milliy daromadda iste'mol va jamg'armaning nisbati qanday bo'lishi uncha rol o'ynamaydi.

3. Intensiv iqtisodiy o'sishning mehnatni tejovchi, kapital tejovchi va universal shakllari mavjud.

4. Nol darajadagi iqtisodiy o'sish konsepsiyasining asoschilari iqtisodiy o'sish uchun qilingan harakatlar bir tomondan, resurslarning kamayib, tugab borishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, ekologik muammolarni keltirib chiqaradi, degan fikrni ta'kidlaydilar.

5. Iqtisodiy o'sishda mehnat unumdorligi, mehnat sig'imi, kapital unumdorligi, kapital sig'imi, tabiiy resurslar unumdorligi va sig'imi ko'rsatkichlari muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'lib, ular asosida mavjud resurslardan qay darajada foydalanganligimiz to'g'risida xulosa chiqaramiz.

6. Iqtisodiy o'sish bilan milliy boylik o'rtasidagi bog'lanish deyarli sezilmaydi. Iqtisodiy o'sish bo'lsa ham, bo'lmasa ham milliy boylik to'planaveradi.

7. Milliy boylik jamiyatning iqtisodiy kuch-qudratini, iqtisodiy potensialini tashkil qiladi.

8. Milliy boylikning yaratilishi va avloddan-avlodga o'tishi nuqtayi nazaridan qarasak, asrlar osha hamma avlodlar mehnati bilan yaratilgan, avloddan-avlodga o'tib kelgan tabiiy boylikdan iborat.

9. Iqtisodiy o'sishning Xarrod-Domar modeli nisbatan eng sodda ishlab chiqarish funksiyasiga asoslangan model bo'lib, asosiy diqqat kapital va uning me'yoriy unumdorligiga qaratiladi.

10. Iqtisodiy o'sishning neoklassik: Kobb-Duglas modelida Xarrod-Domar modelidan farqli ravishda iqtisodiy o'sishda barcha ishlab chiqarish omillari qatnashishini va ularning ortishi asosida mahsulot o'sishiga erishishni ishlab chiqarish funksiyasi $y = f(LK)$ orqali ko'rsatib beriladi.

TEST SAVOLLARI

1. Agar diqqat markazida mamlakatning iqtisodiy, harbiy-siyosiy potentsiali tursa, iqtisodiy o'sish quyidagi ko'rsatkichlar orqali o'lchanadi:

A) o'rtacha mehnat unumdorligining o'sishi;

V) YaIM (YaMM), milliy daromadning o'sish sur'ati;

S) mehnatning kapital bilan qurollanishi o'sish sur'ati;

- D) kapital qaytimining o'sishi;
- E) ishlab chiqarish omillarining o'sish sur'ati.

2. Agar, aholining turmush darajasini taqqoslash zarurati bo'lsa, iqtisodiy o'sish quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

- A) aholi jon boshiga yaratilgan YaIM (YaMM), milliy daromadning o'sish sur'ati;
- V) mehnatning kapital bilan qurollanishi o'sish sur'ati;
- S) kapital qaytimini o'sish sur'ati;
- D) aholi daromadlarining o'sish sur'ati;
- E) ishlab chiqarish omillarining o'sish sur'ati.

3. Iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liq ikki ko'rsatkichi:

- A) aholining va YaIMning o'sish sur'ati;
- V) YaIM va kapital qaytimining o'sish sur'ati;
- S) Aholi jon boshiga yaratilgan YaIM va mehnat unumdorligining o'sish sur'ati;
- D) YaIM hajmining va aholi jon boshiga yaratilgan YaIM o'sish sur'ati;
- E) YaIM mehnat unumdorligi o'sish sur'ati bilan tavsiflanadi.

4. Ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'i ko'rsatadi:

- A) mavjud resurslar asosida ishlab chiqarishning minimal hajmiga erishishni;
- V) resurslar o'zgarishi bilan ishlab chiqarish imkoniyati o'zgarishi;
- S) mavjud resurslar bilan ikki turdagi tovarlarni ishlab chiqarish variantlarining;
- D) mehnat resurslarining ikki turdagi tovar ishlab chiqarishga bo'linishi variantlarini;
- E) jamiyatning erishgan samaradorlik darajasini.

5. Iqtisodiy o'sish intensiv bo'ladi, agar:

- A) qo'shimcha mehnat omilini jalb qilish natijasida milliy daromad hajmi o'ssa;
- V) yollanma ishchilarning ish haqi ko'paysa, mehnat unumdorligining o'sish sur'ati band bo'lganlar o'sish sur'atiga qaraganda yuqori bo'lsa;
- S) kapital bilan qurollanish darajasi o'ssa;
- D) mahsulot birligiga sarflangan omillar hajmi o'ssa.
- E) ishlab chiqarish hajmi va resurslar miqdori mutanosib o'ssa;

6. Agar mehnatning kapital bilan qurollanishi mehnat unumdorligiga nisbatan tezroq o'ssa, u holda:

- A) kapital qaytimi pasayadi;

- V) kapital qaytimi o'sadi;
- S) aholi jon boshiga milliy daromad o'sadi;
- D) mamlakatning milliy boyligi ortadi;
- E) kapital samaradorligi ortadi.

7. Iqtisodiy o'sishning sifat darajasini qanday ko'rsatkichlar orqali ifodalab bo'lmaydi?

A) bir-birlik qo'shimcha milliy daromad yaratish uchun sarflangan xarajatlar kamayib borsa;

V) 1% iqtisodiy o'sishga erishish uchun sarflangan xarajatlarning o'zgarishi ro'y bersa;

- S) mehnat unumdorligining o'zgarishi sodir bo'lsa;
- D) mamlakatning tabiiy-geografik joylashuvi o'zgarsa;
- E) iqtisodiy o'sishga erishish uchun sarflangan kapital miqdori ortsa.

8. Agar ishlab chiqarish omillari 1,5 baravarga, milliy daromad ham 1,5 baravarga o'ssa, u holda...

- A) ishlab chiqarish hajmiga ko'ra doimiy samaradorlik;
- V) ishlab chiqarish hajmiga ko'ra o'suvchi samaradorlik;
- S) ishlab chiqarish hajmiga ko'ra pasayuvchi samaradorlik;
- D) ishlab chiqarish miqyosida ijobiy o'zgarish;
- E) ishlab chiqarish miqyosida salbiy o'zgarish kuzatiladi.

9. Iqtisodiy o'sishning intensiv omillariga kiradi:

- A) band bo'lgan ishlovchilarning soni ortishi;
- V) mehnat unumdorligining ortishi;
- S) ishlab chiqarish maydonlarining kengayishi;
- D) mavjud texnologiya darajasida investitsiya hajmining o'sishi;
- E) mavjud uskunalar miqdorining ortishi.

10. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy o'sishning intensiv omiliga kirmaydi?

- A) fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish;
- V) yer, ishlab chiqarish maydonini ko'paytirish;
- S) ishchilarning malakasini oshirish;
- D) mehnat unumdorligini oshirish;
- E) material sig'imini pasaytirish.

11. Agar YaIM bazis yilda 600 mlrd so'm. joriy yilda 700 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, uning o'sish sur'ati necha foizni tashkil qiladi?

- A) 14,8 %;
- V) 15,5 %;
- S) 16,6 %;

D) 17,2%;

E) 16,8 %.

12. Quyidagi holatlardan qaysi biri iqtisodiy oʻsishning intensiv turini xarakterlaydi?

A) ishlab chiqarish natijasi va iqtisodiy resurslar miqdorining mutanosib oʻsib borishi;

V) ishlab chiqarish natijasining iqtisodiy resurslar miqdoridan tez oʻsib borishi;

S) iqtisodiy resurslar miqdorining ishlab chiqarish natijasidan tez oʻsib borish;

D) mehnat unumdorligining oʻsishi;

E) mehnat intensivligining oʻsishi.

13. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy oʻsish ekstensiv turining belgisi hisoblanadi?

A) mehnat unumdorligining oʻsishi;

V) resurslarning samarali taqsimlanishi;

S) mehnat va kapital sarflarining ortishi;

D) texnika taraqqiyoti oʻsishi;

E) resurslardan samarali foydalanish.

14. Mehnat unumdorligi oʻsish surʼatining sekinlashuv sabablari nima bilan belgilanadi?

A) YaMM tarkibida investitsion tovarlar ulushining kamayishi;

V) fond bilan qurollanishining pasayishi;

S) jami ishchi kuchi sifatining yomonlashuvi;

D) texnika taraqqiyotining sekinlashuvi;

E) yuqoridagi barcha omillar bilan.

15. Agar jamiyat xarajatlarini minimallashtirishga va cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni optimallashtirishga intilsa, iqtisodiy maqsad:

A) toʻla bandlikka erishish;

V) iqtisodiy oʻsishni qoʻllab-quvvatlash;

S) iqtisodiy xavfsizlik;

D) iqtisodiy samaradorlik;

E) yuqoridagilarning barchasi.

16. Iqtisodiy oʻsishning nisbiy koʻrsatkichini aniqlang?

A) daromad va ish haqining darajasi;

V) aholini ijtimoiy himoyalash darajasi;

S) ishsizlikning nisbiy darajasi;

D) narxlarning nisbiy oʻzgarishi;

E) bir yil davomida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar miqdori.

17. Intensiv iqtisodiy o'sish qanday amalga oshadi?

- A) mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish orqali;
- V) yangi korxonalar qurish yo'li bilan;
- S) ishlovchilar sonini mutlaq oshirish hisobiga;
- D) qo'shimcha pul resurslarini jalb qilish bilan;
- E) ishlab chiqarishga qo'shimcha resurslarni jalb qilish orqali.

18. Iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladigan omilni aniqlang:

- A) atrof-muhitni himoya qilishga ketadigan xarajatlarning ortishi;
- V) mehnat unumdorligining ortishi;
- S) investitsiyalarning ko'payishi;
- D) malaka va ta'lim uchun xarajatlarning ortishi;
- E) mehnat intensivligining ortishi.

19. Iqtisodiy o'sishning intensiv omilini toping?

- A) mehnat sarflarining ortishi;
- V) kapital sarflarining ko'payishi;
- S) joriy xarajatlarning o'sishi;
- D) qo'shimcha iqtisodiy resurslarning jalb qilinishi;
- E) mehnat unumdorligining o'sishi;

20. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv omilini toping?

- A) mehnat intensivligining ortishi;
- V) asosiy kapitalni tejash;
- S) mehnat unumdorligining o'sishi;
- D) yangi texnologiyani qo'llash;
- E) resurs sarflari ortishi.

21. Iqtisodiy o'sish nima?

- A) ishlab chiqarishning takomillashishi;
- V) ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqarishning o'sishi;
- S) yaratilgan tovarlar va xizmatlar mutlaq va nisbiy hajmining ko'payishi;
- D) aholi turmush sharoitlarining o'zgarishi;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

22. Iqtisodiy o'sish qanday aniqlanadi?

- A) daromad va ish haqi darajasi bilan;
- V) aholining ijtimoiy himoyalanganlik darajasi bilan;
- S) ishsizlik darajasi bilan;
- D) yalpi milliy mahsulotning mutlaq va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori bilan;

E) yuqoridagilarning barchasi bilan.

23. Intensiv o'sish nima?

A) qo'shimcha pul resurslarini jalb etish;

V) ishchilar sonini ko'paytirish;

S) yangi korxonalar qurish;

D) yangi texnika va texnologiyani qo'llash orqali mavjud resurslardan samarali foydalanish;

E) qo'shimcha iqtisodiy resurslarni jalb qilish.

24. Ekstensiv o'sish nima?

A) ekin maydonlarini kengaytirish;

V) ishlab chiqarishga qo'shimcha ishchi kuchlarini jalb qilish;

S) ishlab chiqarish vositalarini ko'paytirish;

D) ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;

E) yuqoridagilarning barchasi.

25. Iqtisodiy o'sishga to'siq bo'luvchi omilni aniqlang?

A) atrof-muhitini himoya qilishga ketadigan xarajatlarning ko'payishi;

V) iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish;

S) investitsiyaning ko'payishi;

D) bilim va malakani oshirishga ketadigan xarajatlarning ko'payishi;

E) mehnat unumdorligining o'sishi.

26. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning qaysi modeli qo'llaniladi?

A) rejalashtirilgan modeli;

V) byurokratik-boshqaruv modeli;

S) aralash iqtisod modeli;

D) demokratik asosda ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan o'zbek modeli.

E) yuqoridagilarning barchasi.

27. Milliy boylikning o'sishi nimaga bog'liq?

A) ishlab chiqarish fondlarining o'sishiga;

V) asosiy va aylanma fondlarning o'sishiga;

S) mehnat unumdorligini o'sishiga;

D) moddiy resurslar, ishchi kuchi va kapital qo'yilmalar o'sishiga;

E) yuqoridagilarning barchasi.

28. Nima uchun ayrim davlatlarning tabiiy boyliklari nisbatan kam bo'lsa ham, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan?

A) ish kuchi va kapitaldan foydalanish hisobiga;

- V) tejamkorlik – ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni tejash hisobiga;
 S) xalqaro mehnat taqsimotidan unumli foydalanish hisobiga;
 D) ilm-fan salohiyati hisobiga;
 E) xalqaro iqtisodiy integratsiya hisobiga.

29. O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning quyidagi asosiy natijalari qaysi yilga tegishli: YaIM o‘shishi – 8,1%; inflatsiya yillik darajasi-7,4% sanoat mahsuloti 9% va qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti 5,7% o‘shishni tashkil qilgan?


- A) 2001-yil;
 V) 2002-yil;
 S) 2004-yil;
 D) 2006-yil;
 E) 2009-yil.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi o‘shish sur‘atlari, foizda

3.4-jadval

Ko‘rsatkichlar	Yillar											
	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Sanoat mahsuloti	105,9	107,6	108,3	106,2	109,4	107,3	112,1	112,7	109.1	108.5	106.4	107.7
Iste‘mol mollari ishlab chiqarish	106,2	107,6	108,4	108,5	113,5	116,6	118,8	117,7	113.9	112.4	111.1	107.8
Qishloq xo‘jaligi	103,1	104,2	106,0	107,3	108,9	106,2	106,1	104,5	105.8	106.9	106.6	107.0
Xizmat ko‘rsatish	115,7	114,7	108,6	109,5	113,8	116,3	126,6	121,3	108.5	112.5	115.7	114.2
Qurilish ishlari	103,0	103,4	103,4	103,7	104,3	110,7	115,7	108,3	134.2	105.1	107.8	113.7
Transportda yuk va yo‘lovchi tashish hajmi	112,8	102,2	106,3	107,4	106,3	106.6	107.3	106.4	92.8	100.0	104.0	105.8
						115.4	114.1	113.9	109.4	108.7	107.8	108.1
Chakana savdo aylanmasi	107,6	109,6	102,1	104,2	105,2	105,1	121,0	117,2	119.3	113.6	117.1	113.9

Jadval ma'lumotlariga diqqat qiling. Jadvalni keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring, ularni tahlil qiling. Raqamlardan qanday xulosa chiqarish mumkin? Izohlang.



3.1-chizma


Nima sababdan hozirgi kunda iqtisodiy o'sishning samaradorligini oshirish dolzarb muammo hisoblanadi? Iqtisodchilarimiz yuqorida berilgan ko'rsatkichlarni iqtisodiy o'sishning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar sifatida talqin qilishadi? Siz ular haqida nima deysiz va yana qanday ko'rsatkichlarni qo'shgan bo'lar edingiz? Fikringizni asoslang.

O'zbekistonda iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalarida o'sish sur'atlari (avvalgi yilga nisbatan foizda)

3.5- jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2012
Sanoat ishlab chiqarishi	7,3	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3	7,7
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish	6,2	6,1	4,5	5,7	6,8	6,6	7,0
Chakana savdo aylanmasi	8,2	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4	13,9
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish		20,6	21,3	12,9	13,4	16,1	14,2

Jadval raqamlariga diqqat qiling. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Mamlakatimizda YalMning real o'sishida hamda iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda tarmoq va sohalarning rolini aniqlang. Barqaror iqtisodiy o'sish deganda nimani tushunamiz? izohlang



3.2-chizma

Ma'lumki, "Iqtisodiy o'sishning sifati" mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida **ijtimoiy yo'nalishni kuchayishini** ifodalaydi. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz? Yuqoridagi chizmada ko'rsatilganlarga siz nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz? Fikringizni izohlang.

O'zbekiston iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlayotgan omillar

Iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirilayotgani

Real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida iqtisodiyotda soliq yuki pasaytirilayotgani va boshqa qator imtiyozlarni joriy etilayotgani

Moliya-bank tizimiga berilayotgan e'tibor va uning natijasida sohaning barqaror rivojlanib borayotganligi

Korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish borasida faol investitsiya siyosati yuritilayotgani


Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan dasturiy vazifalarni o'z vaqtida bajari-lavotgani

3.3-chizma

Siz iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlayotgan omillarga nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz? Takliflaringizni asoslang va yozma ravishda bayon qiling,

3.1-gistogramma

YaIMning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda



Diagrammaga diqqat qiling. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Ulardan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1z); 2j); 3yo); 4e); 5d); 6g); 7v); 8b); 9a);

Masala va mashqlar

1. a) real YaIM o'sish 12,5%, -5% (aholi jon boshiga esa kamayib 2003-yilga nisbatan 95% darajasini tashkil etgan).

2. Nominal YaIM 1,39 marta o'sgan, real YaIM 11% ga o'sgan.

3. Nominal YaIM o'sish sur'ati 29%, real YaIM o'sish sur'ati 4,4%, aholi jon boshiga: nominal YaIM o'sish sur'ati 28,9, real YaIM 3,9% o'sgan.

4. Ishlab chiqarish funksiyasi formulasini differentsiallashtirish va logarifmlash asosida $Y = a + \alpha_k + \beta L$ formulasiga keltirib hisoblanadi.
 $4 + (0,2 \times 3) + (0,3 \times 5) = 6,1$ foiz, Kobb-Duglas modeli.

5. Ortiqchasi: beshinchisi, u iqtisodiy o'sishning taqsimlash omili, qolganlari iqtisodiy o'sishning taklif omillari.

T/N

1T; 2N; 3E; 4T; 5T; 6N; 7T; 8N; 9T; 10T.

TESTLAR


1S); 2A); 3D); 4V); 5S); 6A); 7D); 8A); 9V); 10V); 11S); 12V); 13S); 14V); 15D); 16E); 17A); 18A); 19E); 20E); 21E); 22D); 23D); 24E); 25A); 26D); 27E); 28D); 29D).

4-MAVZU: ISTE'MOL, JAMG'ARMA, INVESTITSİYALAR

1-§. Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni, omillari va ko'rsatkichlar

Iste'mol – bu keng ma'noda jamiyat ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarishning pirovard natijalari, iqtisodiy resurslar va ishchi kuchidan foydalanish jarayonini bildiradi.

Iste'mol turlari (Iqtisodiy mazmuni va xarakteriga ko'ra)



Iste'molchilik sarflari YaIMning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi natijasida shakllanadigan shaxsiy daromadlarning joriy davrda iste'mol tovarlari va xizmatlarga sarflanadigan qismidir.

Jamg'arma – bu uy xo'jaliklari ixtiyoridagi joriy daromadlari bir qismining foizli daromad olish va kelajakdagi iste'molini qondirish maqsadida to'planib (jamg'arilib) borishidir.

**O'zbekistonda aholi real pul daromadlari, iste'moli va
jamg'armalarining o'zgarishi (% hisobida)**

4.1-jadval

Ko'rsat- kichlar	Y I l l a r										
	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Real pul daromad- lari	113.0	113.3	115.8	118.8	122.5	122.8	125.1	126,5	123,5	123,1	117,5
Iste'mol sarflari	141.6	116.9	114.9	122.4	134.2	130.0	136.1	135,2	134,8	131,6	130,5
Jamg'ar- malari	55.0	118.2	183.3	128.8	133.8	135.7	127.2	126,3	128,6	129,6	133,0

Jamg'armani amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadlar
• foiz shaklida daromad olish; • uzoq muddat foydalaniladigan qimmatbaho iste'mol tovarlari (uy-joylar, avtomashina va boshqa zebu ziynat buyumlari) sotib olish; • kasallik, ishsizlik va baxtsiz hodisalar kabi oldindan bilib bo'lmaydigan holatlardan iqtisodiy himoyalash; • qarilik davrini moddiy ta'minlash; • farzandlarining kelajagini ta'minlash; • kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarni qondirish.

Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilab beruvchi omillar
• shaxsiy daromad; • uy xo'jaliklari jamg'argan boylik; • narxlar darajasi; • narxlar, daromadlar va tovarlar taklifi o'zgarishi kutilishi; • iste'molchi qarzlari miqdori; • soliqlar darajasi.

Iste'mol va jamg'arma bo'yicha aniqlanadigan ko'rsatkichlar

<u>Iste'molga o'rtacha moyillik</u> (APC)	Shaxsiy daromadning iste'molga ketadigan ulushi. Uning foizdagi ifodasi iste'mol normasini ko'rsatadi. (C') $APC = \frac{iste'mol(C)}{daromad(Di)}$ yoki $C' = \frac{C}{Di} * 100$;
<u>Jamg'armaga o'rtacha moyillik</u> (APS)	Shaxsiy daromadning jamg'armaga ketadigan ulushi. Uning foizdagi ifodasi jamg'arma normasi (S') deyiladi. $APS = \frac{jamg'arma(S)}{daromad(ADi)}$ yoki $S' = \frac{S}{Di} * 100$;
APC + APS = 1 yoki C' + S' = 100%	
<u>Iste'molga me'yoriy moyillik</u> (MPC)	Shaxsiy daromadning o'sgan qismining ΔDi iste'molga ketadigan ulushi (ΔC) $MPC = \frac{\Delta C}{\Delta Di}$;
<u>Jamg'armaga me'yoriy moyillik</u> (MPS)	Shaxsiy daromadning o'sgan qismining ΔDi jamg'armaga ketadigan ulushi (ΔS) $MPS = \frac{\Delta S}{\Delta Di}$;
<u>MPC</u> + MPS = 1; $\Delta C + \Delta S = \Delta Di$; $\Delta C + \Delta S = 1$	


Iste'mol va jamg'arma darajasi (ming so'm, shartli ma'lumotlar)

Yillar	Shaxsiy daromad (Di)	Iste'mol (S)	Jamg'arma (S)	ARS	ARS	MPC	MPS
1	2	3	4 (2-3)	5 (3:2)	6 (4:2)	7 ($\Delta 3$: $\Delta 2$)	8 ($\Delta 4$: $\Delta 2$)
1 yil	1500	1300	200	0,87	0,13		
2 yil	1800	1500	300	0,83	0,17	0,67	0,33
3 yil	2200	1700	500	0,77	0,23	0,50	0,50

Shaxsiy daromad, iste'mol va jamg'arma (3.2-grafik)

Daromad, iste'mol va jamg'arma

4.1-grafik



Iste'mol sarflarining ma'lum bir qismi uy xo'jaliklari ixtiyoridagi daromadga bog'liq bo'lmaydi. Buni **avtonom iste'mol sarflari** ham deyiladi. Ularni qoplash uchun qarz olishga ham majbur bo'lish mumkin.

Mamlakat miqyosida ham shunday milliy daromadga bog'liq bo'lmagan sarflar mavjud bo'ladi. Uni **avtonom yalpi sarflar** deb ataladi.

2-§. Iqtisodiy jamg'arish va investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, manbalari hamda omillari

Iqtisodiy jamg'arish milliy daromad (foyda) bir qismining ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida sarflanish jarayonini anglatadi.

Iqtisodiy jamg'arishning amalga oshiriladigan shakli – bu kapital qo'yilmalar yoki investitsion sarflardir.

Iqtisodiy jamg'arish va investitsion sarflar bir xil mazmunga ega bo'lsada, ular miqdor jihatidan, manbalari bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Milliy daromad (foyda)ning iqtisodiy jamg'arishga (J_i) ketadigan ulushining foizdagi ifodasi jamg'arish normasi (N_j) deyiladi:

$$N_j = J_i : MD \cdot 100\% ;$$

Iqtisodiy jamg'arish darajasini belgilovchi omillar

- milliy daromad (foyda) miqdori;
 - milliy daromadning iste'mol va jamg'arishga ajralish nisbati;
 - qo'llaniladigan resurslar miqdori va unumdorligi;
- mavjud texnologiya (resurs sarfli yoki resurs tejamli)

Iste'mol va jamg'arma bo'yicha aniqlanadigan

Investitsiya – bu kelajakdagi natija uchun ishlab chiqarishni kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish, mahsulot va xizmatlarni sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslardir.

Investitsion faoliyat – investitsiyalarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan amaliy harakatlardir.

Investor – investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs (jismoniy yoki huquqiy)

Ishlab chiqarish maqsadidagi investitsiyalar	Iqtisodiyotning moddiy boyliklar va ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoq hamda sohalari-dagi asosiy va aylanma kapitallar uchun sarflardir.
Noishlab chiqarish maqsadidagi investitsiyalar	Nomoddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy madaniy sohalar (uy-joy qurilishi, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport va shu kabi muassasalar)ni kengaytirish uchun sarflardir.
Tovar - moddiy zaxiralarga investitsiyalar	Ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib va turli favqulodda holatlardan sug'urtalash uchun tovar va boshqa moddiy zaxiralar uchun qilinadigan sarflar.
Inson kapitaliga investitsiyalar	Ma'lumot olish, tajriba to'plash, malakaga ega bo'lish, mutaxassis kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, sog'lig'ini saqlash kabi maqsadlarga sarflangan xarajatlar.

Investitsiyalar- ning manbalari

- ❖ investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foйда, amortizatsiya ajratmasi mablag'lari, pul jamg'armalari va h.k.);
- ❖ qarz olingan mablag'lar (bank kreditlari, obligatsiya, zayomlar);
- ❖ jalb qilingan mablag'lar (aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, pay to'lovlari);
- ❖ budjet mablag'lari;
- ❖ investitsiyalarning tashqi manbalari (chet el investitsiyalari va kreditlari);

O'zbekistonda investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tuzilishi (foiz hisobida)

4.2-jadval

	Yillar											
	1991	1993	1995	1998	2000	2005	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Jami inves- titsiyalar	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Shu jum- ladan:												
budjet mablag'lari	44,5	32,1	22,9	24,2	30,3	12,2	9,0	9,0	8,1	7,3	6,0	5,1
o'z mablag'lari	38,7	46,2	47,1	49,2	26,4	46,1	47,6	44,1	36,3	31,5	31,8	32,7
bank kre- ditlari	...	8,3	9,6	6,2	7,5	3,8	3,1	5,0	5,2	9,0	11,0	11,1
Chet el investitsiya- lari va kreditlari	...	0,1	14,0	20,3	21,7	21,7	22,8	25,8	32,4	28,8	25,1	20,4
aholi mablag'lari	16,8	13,2	6,5	...	12,7	11,4	11,4	9,8	10,5	15,7	18,3	20,0

**Investitsiyalar
darajasini
belgilovchi omillar**

- ⊗ kutilayotgan foyda normasi;
- ⊗ real foiz stavkasi;
- ⊗ asosiy kapitallarni xarid qilish, ishlatilish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;
- ⊗ asosiy kapitallarning mavjud hajmi;
- ⊗ soliqlar miqdori;
- ⊗ ishlab chiqarish texnologiyasi;
- ⊗ bozor konyunkturasidagi ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar.

**Investitsiyalar-
ning
o'zgaruvchan-
ligini belgilab
beruvchi omillar**

- Investitsion tovarlar (asosiy kapital)ning noaniq xizmat muddatiga ega bo'lishi;
- Innovatsiyalar, texnika va texnologiyalar sohasidagi ancha katta kashfiyotlar doimiy paydo bo'lib turmasligi;
- iqtisodiyot siklli rivojlanish tamoyiliga ega bo'lishi;
- tadbirkorlar oladigan foyda doimiy barqaror emasligi;
- ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlar (siyosiy vaziyat, davlat iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlar va h.k.).

3-§. Multiplikator samarasi. Resession va inflatsion farq

Sof milliy mahsulot (daromad) hajmidagi o'zgarishning yalpi sarflarning alohida turlari, shu jumladan investitsiyalardagi o'zgarishlarga nisbati – **multiplikator samarasi (effekti)** deyiladi.

Investitsiya qilib olingan daromad darajasini ifodalash uchun multiplikator koeffitsiyenti ko'rsatkichi kiritildi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$K_i = \Delta D : \Delta I;$$

Investitsiya evaziga olinadigan daromad pasaysa, investitsion faollik ham susayadi va aksincha. Investitsiyalarning 5 mlrd. so'mga ko'payishi sof milliy mahsulotning 20 mlrd. so'm miqdorga o'sishiga olib kelsa, multiplikator samarasi

$$K_i = \Delta D : \Delta I = 20:5 = 4 \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Investitsiyalardagi o'zgarishlar	x	Multiplikator	=	SMM (milliy daromad)- dagi o'zgarishlar
-------------------------------------	---	---------------	---	--

Iqtisodchilar investitsiyaning o'sishi daromadlar o'sishi bilan bog'lanadigan yana bir ko'rsatgich akselerator ko'rsatkichini kiritishgan. Akselerator (lot. accelero- tezlashtiruvchi) bu investitsiyalar o'sishining milliy daromadga nisbatini ko'rsatuvchi koeffitsiyenti bo'lib, u joriy yildagi investitsiya o'sishini o'tgan yilgi milliy daromad o'sishiga nisbati tarzida hisoblanadi.

akselerator = $\frac{\Delta \text{joriy yildagi investitsiya o'sishi}}{\Delta \text{o'tgan yilgi milliy daromad o'sishi}}$ $K_A = \Delta I : \Delta D$; U daromadlar o'sishining investitsiyalar o'sishga ta'sirini ko'rsatadi.
--

Multiplikator samarasiga ta'sir qiluvchi omillar
• iste'mol sarflaridagi o'zgarish; • davlat xarididagi o'zgarish; • sof eksport hajmidagi o'zgarish.

Multiplikator samarasining mazmunini izohlovchi holatlar

→	• Iqtisodiyotda bir subyekt tomonidan qilingan sarflar boshqasi uchun daromad shaklini oladi.
→	• Daromaddagi har qanday o'zgarish iste'mol va jamg'armada ham xuddi shunday yo'nalishda o'zgarish bo'lishiga olib keladi.

Multiplikator samarasi (effekti) mlrd. so'm (shartli ma'lumotlar)

	SMM (daromad)dagi o'zgarish(D=C+S)	Iste'moldagi o'zgarish (C = ¾)	Jamg'armadagi o'zgarish (S = ¼)
	1 (2+3)	2 (1-3)	3 (1-2)
Investitsiyalar- ning o'zgarishi	5	3,75	1,25

2-sikl	3,75	2,81	0,94
3-sikl	2,81	2,11	0,70
4-sikl	2,11	1,58	0,53
5-sikl	1,58	1,19	0,39
Qolgan sikllar	4,75	3,66	1,19
Jami	20	15	5

Jadval ma'lumotlari investitsiyalarning 5 mlrd. so'mga o'sishi, SMM hajmining 20 mlrd. so'mga ko'payishiga olib kelishini ko'rsatadi.

$C + S = 1$; hamda $\Delta S + \Delta S = 1$; bo'lgani uchun.

Shunga mos ravishda: $\text{Multiplikator} = \frac{1}{1-c} = \frac{1}{1,0-0,75} = \frac{1}{0,25} = 4$.

To'liq bandlik sharoitda yalpi sarflar SMM hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mos kelmaslik **resession** yoki **inflatsion** farqda ifodalanadi.

Yalpi sarflarning SMM hajmdan kam bo'lgan miqdori **resession** farq deyiladi.

Yalpi sarflarning SMM hajmdan ortiqcha bo'lgan miqdori **inflatsion** farq deyiladi.

Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar

Asosiy tayanch tushunchalar

- | | |
|-----------------------------------|--|
| 1. Iste'mol funksiyasi | 7. Jamg'arishga me'yoriy moyillik |
| 2. Jamg'arma funksiyasi | 8. Avtonom iste'mol xarajatlari |
| 3. Iste'molga o'rtacha moyillik | 9. Avtonom yoki rejalashtirilgan investitsiyalar |
| 4. Jamg'arishga o'rtacha moyillik | 10. Yalpi investitsiyalar |
| 5. Avtonom yalpi xarajatlar | |
| 6. Iste'molga me'yoriy moyillik | |

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

a) Iste'mol xarajatlari bilan alohida shaxs ixtiyoridagi daromad o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi;

b) alohida shaxs ixtiyoridagi qo'shimcha olingan daromadning jamg'armaga sarflangan ulushi. Uni jamg'arishdagi o'zgarishi (ΔS) ning daromaddagi o'zgarishi (ΔDi)ga nisbati tarzida hisoblanadi;

v) yillik potensial daromadning har qanday darajasida ham ishlab chiqaruvchilar amalga oshirishni ko'zlagan investitsiyalar;

g) iste'mol sarflarining hajmi va dinamikasi alohida shaxs ixtiyoridagi daromad hajmiga bog'liq bo'lmagan, zaruriyat tufayli sarflanadigan qismi;

d) yil davomida alohida shaxs ixtiyoridagi daromadning iste'molga sarflangan qismi. Iste'molning daromadga nisbati tarzida hisoblanadi;

e) sof investitsiya bilan modernizatsiya (yoki eskirgan asosiy kapitalning o'rni to'ldirish) uchun yo'naltirilgan investitsiyalar;

yo) mamlakat miqyosida ma'lum vaqt – yil mobaynida hajmi va dinamikasi yaratilgan milliy daromadga bog'liq bo'lmagan, zaruriyatdan qilinadigan xarajatlar;

j) yil davomida shaxs ixtiyoridagi daromadning jamg'armaga yo'naltirilgan qismi. Jamg'armaning daromadga nisbati tarzida hisoblanadi;

z) alohida shaxs ixtiyoridagi qo'shimcha olingan daromadning iste'molga sarflangan ulushi. Iste'moldagi o'zgarish (ΔC) ning, daromaddagi o'zgarishga (ΔDi) nisbati tarzida hisoblanadi.

i) jamg'arma hajmi bilan (boshqa sharoitlar teng bo'lgan holda) alohida shaxs ixtiyoridagi daromad o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi;

Masala va mashqlar

1. A mamlakatning iqtisodiyotida investitsiya funksiyasi $I = 80 + 0,8Y$ tenglikda, jamg'arish funksiyasi esa $S = -40 + 1,2Y$ tenglikda ifodalanadi. Y - milliy daromad. Jamg'arma 100% investitsiyaga aylanadi, desak, mamlakatda milliy daromadning muvozanatli hajmini hisoblang.

Nima sababdan muvozanatli hajmi deymiz? Izohlang.

2. Agar jamg'arish funksiyasi $S = -20 + 0,2Y$ tenglikda ifodalanib, avtonom investitsiyalar esa 150 birlikni tashkil etsa, milliy daromadning muvozanatli darajasi qanday bo'ladi? Avtonom investitsiyalar qanday investitsiyalar? Izohlang.

3. Mamlakatda avtonom iste'mol xarajatlari 20 mlrd. so'mni tashkil etdi. Iste'molga o'rtacha moyillik 0,675 ga teng, yaratilgan milliy

daromad hajmi 450 mlrd. so'm bo'lsa, yalpi xarajatlarni hisoblang. Avtonom iste'mol xarajatlari qanday xarajatlar? Tushuntiring.

4. Quyidagi jadval ma'lumotlariga diqqat qiling:

Ishlab chiqarish va daromad darajasi, YaIM=real daromad, tril. so'm	Iste'mol, tril. so'm	Jamg'arish, tril. so'm	Iste'molga o'rtacha moyillik	Jamg'arishga o'rtacha moyillik	Iste'molga me'yoriy moyillik	Jamg'arishga me'yoriy moyillik
350		-4				
370		0				
390		4				
410		8				
430		14				
450		20				

a) berilganlar asosida jadvalni to'ldiring. Me'yoriy daromad ham iste'mol va jamg'arishga avvalgi nisbatda bo'linadi, deb oling;

b) daromad nuqtasini aniqlang.

Nima sababdan daromad ortgan sari jamg'arish ortib borayapti, izohlang. Iste'molga me'yoriy moyillik deganda nimani tushunamiz. Nega ularning yig'indisi birga teng?

5. Aytaylik, A mamlakatda 1 mln. oila bor. Oilalar yarmining iste'molga me'yoriy moyilligi $\frac{1}{2}$, ikkinchi yarminiki $\frac{3}{4}$ ga teng:

A) agar uy xo'jaliklari ixtiyoridagi daromad 10 mln. so'mga ko'paysa va hammasi oilalarning birinchi qismiga to'g'ri kelsa iste'mol xarajatlari qanchaga ko'payadi?

B) agar o'sgan daromadlarni barchasi oilalarning ikkinchi qismiga to'g'ri kelsa? Hisoblang, natijasini izohlab bering.

T/N

1. Iqtisodiyotga investitsiya kiritib, olingan daromad darajasini aniqlash uchun multiplikator koeffitsiyenti ko'rsatkichidan foydalanish mumkin. U daromad o'sishi bilan investitsiya o'sishi o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

2. Sof investitsiya, bu asosiy kapitalga amortizatsiya hisoblanib, u modernizatsiyasi uchun sarflanadi.

3. Jamg'arish va investitsiyalarning hajmi va dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillar bir xil bo'lib, har ikkisi ham bir xil ta'sir qiladi.

4. Keynsning fikricha, jamg'arma bilan investitsiyaning real taklifi muvozanatiga sof bozor mexanizmi yordamida erishish mumkin emas. Jamg'armaning investitsiyaga nisbatan ko'pligi yalpi talabning kamayishiga, o'z navbatida ishlab chiqarish hajmi va bandlikning qisqarishiga olib keladi.

5. Investitsiyalarning naqadar muhim rol o'ynashini hisobga olib, O'zbekistonda mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratildi.

6. Qimmatli qog'ozlar bozori va bank tizimi moliyaviy resurslarni investitsiyalarga aylantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

7. Investitsion sarflar iste'mol sarflariga nisbatan beqaror, chunki unga foiz stavkasi dinamikasi va tadbirkorlarning kayfiyati katta ta'sir qiladi.

8. Iste'mol funksiyasi aniq bo'lsa-da, doimo jamg'arish funksiyasini aniqlab, grafik chizib bo'lmaydi.

9. Iste'molga me'yoriy moyillik bilan jamg'arishga me'yoriy moyillikning yig'indisi doimo ham birga teng bo'lavermaydi.

10. Investitsiyalarni jalb qilib, uning samaradorligini oshirish uchun ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

TEST SAVOLLARI

1. Agar odamlar olgan daromadlarini barchasini sarflamay, ma'lum bir qismini bankka qo'yadi, desak:

A) jamg'aradilar, lekin investitsiya qilmaydilar;

V) investitsiya qiladilar, lekin jamg'armaydilar;

S) jamg'armaydilar ham, investitsiya ham qilmaydilar;

D) ham jamg'aradilar, ham investitsiya qiladilar.

E) jamg'aradilar, lekin jamg'armaning ma'lum bir qismini, ya'ni qimmatli qog'ozlar sotib olgan qismini investitsiya qiladilar.

2. Jamg'arish boshlanadigan nuqta, bu...

A) jamg'arish daromadga teng;

V) daromad iste'molga teng;

S) jamg'arish iste'molga teng;

- D) iste'mol investitsiyaga teng;
- E) iste'molga me'yoriy moyillik birga teng.

3. Milliy hisob tizimi bo'yicha quyidagilardan qaysi birini investitsiyaga kiritish mumkin?

- A) obligatsiya sotib olish;
- V) jamg'armaga ajratilgan daromad;
- S) aksiya sotib olish;
- D) fermerning yangi traktor sotib olishi;
- E) bankdan pul olish uchun yozilgan chek.

4. Keyns ta'kidlaydiki, mamlakatdagi iste'mol xarajatlari eng avvalo:

- A) iste'molchining yashash joyiga;
- V) oila a'zolarining yoshiga;
- S) pul taklifining o'sish sur'atiga;
- D) milliy daromad hajmiga;
- E) shaxs ixtiyoridagi daromad darajasiga bog'liq.

5. Investitsiya hajmiga sanab o'tilganlardan qaysi biri ta'sir qilmaydi?

- A) investorning yashash joyi;
- V) foiz stavkasi;
- S) tadbirkorlarning optimistik yoki pessimistik kayfiyati;
- D) texnologiyaning o'zgarishi;
- E) ishlab chiqarish uskunalarining bandligi darajasi.

6. Agar $MPC = 1$ bo'lsa, u holda ...

- A) o'sgan daromadning barchasi jamg'ariladi;
- V) o'sgan daromadning yarmisi iste'mol qilinadi;
- S) o'sgan daromadning barchasi iste'mol qilinadi;
- D) o'sgan daromadda iste'molning ulushi jamg'arishga nisbatan kam;
- E) o'sgan daromadda investitsiya hajmi ko'payishi uchun imkoniyat yaratiladi.

7. Real investitsiya quyidagi yo'nalish bo'yicha amalga oshirilmaydi:

- A) ishlab chiqarish uchun yangi bino-inshootlar qurish;
- V) yangi texnika, texnologiya, uskunalar sotib olish;
- S) uy-joy va madaniy-maishiy obyektlar qurish;
- D) mutaxassis kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish;
- E) fond birjalarida qimmatli qog'ozlar sotish;

8. Aholi iste'moli va pul-jamg'armalari darajasini belgilaydigan asosiy omil nima?

- A) milliy daromad;
- V) soliqlar darajasi;
- S) shaxsiy daromad;
- D) foiz stavkasi;
- E) ish haqi.

9. Aholi iste'moli va pul jamg'armalari o'rtasidagi nisbatga qanday omil ta'sir ko'rsatadi?

- A) aholi jamg'argan boyligi darajasi;
- V) narxlar darajasi;
- S) narxlar, daromadlar va tovarlar taklifi o'zgarishining kutilishi;
- D) iste'molchi qarzlari va soliq stavkalari darajasi;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

10. Shaxsiy daromad 150000 so'm bo'lib uning 130000 so'mi iste'molga ketsa, iste'molga o'rtacha moyillik necha foizni tashkil qiladi?

- A) 83,5 %;
- V) 85,4 %;
- S) 87,0 %;
- D) 86,6%;
- E) 84,0 %.

11. 220000 so'm shaxsiy daromaddan 5000 so'm jamg'arma sifatida ishlatilsa, jamg'armaga o'rtacha moyillik necha foizni tashkil qiladi?

- A) 25,6 %;
- V) 26,0 %;
- S) 24,0%;
- D) 23,0%;
- E) 22,7 %.

12. Quyidagilardan qaysi biri investitsiyalarning ichki manbai hisoblanadi?

- A) aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar;
- V) obligatsiya zayomlari, bank kreditlari;
- S) foyda, amortizatsiya ajratmalari;
- D) budjet mablag'lari;
- E) homiylar mablag'lari.

13. Quyidagilardan qaysi biri investitsion faollik haqida xulosa chiqarish imkonini beradi?

- A) investitsiyalarning tarmoq tuzilishi;
- V) real investitsiyalar darajasining o'zgarishi;
- S) investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilishi;
- D) investitsiyalarning texnologik tuzilishi;

E) investitsiyalarning hududiy tuzilishi.

14. Investitsiyalar darajasini belgilaydigan asosiy omil nima?

A) investitsiyalardan kutilayotgan sof foyda normasi;

V) bank foiz stavkasi;

S) sof foyda normasi va foizning nominal stavkasi;

D) sof foyda normasi va foizning real stavkasi;

E) sof foyda miqdori.

15. Investitsiyalar maqsadga muvofiq hisoblanganda uning darajasi qaysi omilga bog‘liq bo‘ladi?

A) investitsion tovarlarni xarid qilish, ishlatish va xizmat ko‘rsatish xarajatlariga;

V) texnika taraqqiyoti va texnologik o‘zgarishlarga;

S) soliqlar darajasi va foizning real stavkasiga;

D) A) va V) ga;

E) yuqoridagi barcha omillarga.

16. Investitsion sarflar nima uchun o‘zgaruvchan hisoblanadi?

A) investitsion tovarlar noaniq xizmat muddatiga ega;

V) buyuk kashfiyotlar doimiy paydo bo‘lib turmaydi;

S) foyda doimiy barqaror emas;

D) davlat iqtisodiy siyosati o‘zgarib turadi;

E) yuqoridagi barcha sabablarga ko‘ra.

17. Foizning muvozanatli stavkasi (pulga talab va pul taklifi kesishgan nuqta) nimaga ta’sir ko‘rsatadi?

A) investitsiyalar darajasiga;

V) yalpi milliy mahsulot darajasiga;

S) moliyaviy va real kapitalning raqobatlashuvchi korxona va tarmoqlar o‘rtasida taqsimlanishiga;

D) A va V to‘g‘ri;

E) A va S to‘g‘ri.

18. Investitsion qarorlar qabul qilishda quyidagilardan qaysi biri asos bo‘lib hisoblanadi?

A) foizning nominal stavkasi;

V) foizning real stavkasi;

S) soliqlar darajasi;

D) pul taklifi;

E) yuqoridagilarning barchasi.

YaIMda iste'mol va jamg'arishning ulushi dinamikasi

4.3-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar								
	1991	1995	2000	2005	2008	2009	2010	2011	2012
Jami YaIM	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Iste'mol	77,0	79,8	83,4	67,1	64,0	65,8	70,0	65,7	68,0
Jamg'arish	26,8	24,2	13,9	23,2	31,6	28,8	20,4	26,5	28,9
Sof eksport	-3,8	2,9	0,7	9,7	4,4	5,4	9,6	7,8	3,1

Raqamlarga e'tibor bering. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. YaIMni yillar davomida iste'mol va jamg'arishga shunday tarzda bo'linishi nimani ko'rsatadi? Tahlil qilib xulosa chiqarish va fikringizni bayon qiling.

Investisiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)

4.4-jadval

	2003	2005	2010	2011	2012
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - jami	1078,1	3165,2	15338,7	17953,4	22797,3
Chet el investitsiyalari va kreditlari	495,7	687,0	4340,8	3853,8	4653,3
Asosiy fondlarni ishga tushirish*	2153,9	3138,0	13784,6	13641,3	18234,4
Qurilish ishlari	891,1	1453,1	8245,8	9504,8	11753,9
Yil oxiriga tugallanmagan qurilish	1749,4	2377,2	13628,5	18343,5	24551,8
Ishga topshirilgan uy-joy umumiy maydoni, mln. m ²	6,8	6,1	8,9	9,2	10,4

Jadval ma'lumotlari asosida investitsiya faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlarini hisoblang. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring, ularni tahlil qiling va xulosa chiqarib. Jamg'arma, jamg'arish va investitsiya nimasi bilan farqlanadi?

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi (%)

4.5-jadval

	1995	2000	2005	2010	2011	2012
Jami investitsiyalar	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan:						
Respublika byudjeti	22,9	29,2	12,2	5,6	6,0	5,1
korxona va tashkilotlar	43,6	27,1	46,1	33,0	34,8	32,7
aholi mablag'lari	9,9	12,0	11,4	16,0	18,0	20,0
bank kreditlari va boshqa qarzlari	9,6	7,3	3,8	9,7	11,6	11,1
xorijiy investitsiyalar va kreditlar	14,0	23,2	21,7	28,3	21,5	20,4
byudjetdan tashqari fondlar	-	1,2	4,8	7,4	7,5	10,7

Jadval ma'lumotlariga diqqat qiling. Uning tarkibini tahlil qiling. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibini shunday o'zgarishini qanday baholaysiz? Bu haqda esse yozing.

YaIMda ilmiy-texnik ishlarga sarflangan xarajatlarlar (innovatsiyaning) ulushi

4.1-diagramma




Diagramma ma'lumotlarini sinchiklab o'rganing. Keyingi yil statistik ma'lumotlari bilan yangi diagramma chizing. Uni izohlang. Nima sababdan hozirgi kunda jahon miqyosida ilmiy-texnik izlanishlarga alohida diqqat qaratilmoqda? Innovatsiya nima? Innovatsion mahsulotchi? Mamlakatimizda bu borada qanday yutuqlarga erishildi. Kelgusida bajarishimiz zarur qanday vazifalar turibdi? Fikringizni bildiring.

Investitsiya jarayonlariga davlat budjetidan moliyalashtirilgan mablag'lar dinamikasi (mlrd. so'm)

4.2-diagramma




Diagramma ma'lumotlariga diqqat qiling. Investitsiyalarni budjet mablag'laridan moliyalashtirishning o'sish sur'atini hisoblang. Keyingi yil ma'lumotlarini hisobga oling. Investitsiyalar yana qanday manbalardan moliyalashtiriladi? Yalpi investitsiya, sof investitsiya deganda Yuqoridagi jadvallar ma'lumotlaridan foydalanib, tahlil qilib xulosa chiqaring.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va tarkibi, mlrd. so'm

4.6-jadval

Ko'rsatkichlar	2007 yil		2012 yil		O'sish sur'ati, % da
	hajmi	salm.%	hajmi	salm.%	
Asosiy kapitalga investitsiyalar	5479,7	100,0	22797,3	100,0	
Markazlashgan investitsiyalar	1099,7	20,1		24,2	

- budget mablagʻlari	492,9	9,0	1162,7		
- nobudget fondlari mablagʻlari	334,8	6,1	2436,6		
- xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati asosidagi kreditlar	272,0	5,0	961,1		
Markazlashmagan investitsiyalar	4380,0	79,9		75,8	
- korxonalar mablagʻlari	2610,0	47,6	7454,8		
- aholi mablagʻlari	621,9	11,3	4559,4		
- toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiya va kreditlar	975,7	17,8	3598,3		
- tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari	172,4	3,1	2530,5		

* xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati asosidagi kreditlar birgalikda.

1. 2012 yilda xorijiy investitsiyalar va hukumat kafolati asosidagi kreditlar hajmini aniqlang. Moliyalashtirish manbalari boʻyicha asosiy kapitalga investitsiyalar salmogʻini, oʻsish surʼatini hisoblang.

Yuqoridagi diagramma va jadval asosida asosiy kapitalga investitsiyalarning oʻsishi haqidagi maʼlumotlardan kelib chiqib, uni yangilanishi haqida qanday xulosa chiqarish mumkin?

2. Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida isteʼmol talabi va istiqbolni koʻzlagan holda modernizatsiya va diversifikatsiyani amalga oshirishda faol investitsiya siyosatining roli va ahamiyatini koʻrsating.

Modernizatsiya, diversifikatsiya deganda nimani tushunamiz? Mazmunini izohlang.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi (%)


4.7-jadval

	1995 y	2000 y	2001 y	2002 y	2003 y	2005 y	2007 y	2008 y	2010 y	2012y
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan	68,1	57,5	63,1	57,1	65,1		70,1	75,4		
Sanoat	45,1	29,7	38,9	32,4	28,4	32,6	36,8	32,4	30,4	34,2
Qishloq xo'jaligi	8,4	5,7	5,5	5,8	4,4	8,2	3,3	3,1	3,4	4,8
Qurilish	0,5	0,5	0,6	0,4	0,4	0,3	1,2	2,3	1,4	1,2
Transport va aloqa	7,5	16,7	14,0	10,0	21,7	13,0	22,8	26,3	29,7	16,9
Savdo va umumovqatlash	5,7	4,3	1,5	2,6	3,4	3,1	1,7	2,5	4,8	4,7
Boshqa sohalar	0,9	0,6	2,6	5,9	6,8	0,3	0,7	0,4	2,5	2,4
Noishlab chiqarish uchun mo'ljallangan	31,9	42,5	36,9	42,9	34,9	42,5	29,9	24,6		
Uy-joy qurilishi					13,2	11,0	11,3	9,2	15,1	19,8

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi.

Jadval ma'lumotlarini sinchiklab o'rganing. Bo'sh kataklarni to'ldiring. Keyingi yillar ma'lumotlarini keltirihg. Qaysi tarmoqlarga ustun darajada diqqat qaratilishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi. Ulardan xulosa chiqaring. Fikringizni bayon qiling.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni ustuvor tarmoqlarga yo‘haltirish loyihalari



4.1- chizma.

Berilgan maʼlumotlarga diqqat qarating. Mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishida xorijiy investitsiyalarning rolini ko‘rsating.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllari



4.2- chizma.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning yana qanday shakllarini bilasiz? Iqtisodchilar investitsiyaning yalpi mahsulotga nisbatan ulushi-ning qanday darajasini optimal hisoblashadi? Siz shu fikrga qo'shila-sizmi? Fikringizni izohlang.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1 a); 2 i); 3 d); 4 j); 5 yo); 6 z); 7 b); 8 g); 9 v); 10 e).

Masala va mashqlar:

1. $Y = 300$.
2. 850.
3. 357,5 mlrd. so'm.
4. a)

Ishlab chiqarish va daromad darajasi YaIM real daromad, tril. so'm	Iste'- mol tril. so'm	Jamg'a- rish tril. so'm	Iste'- molga o'rtacha moyil- lik	Jamg'a- rishga o'rtacha moyil- lik	Iste'- molga me'yo- riy moyil- lik	Jamg'ar ishga me'yo- riy mo- yillik
350	354	-4	1,01	-0,01		
370	370	0	1	0	1	0
390	386	4	0,99	0,01	0,8	0,2
410	402	8	0,98	0,02	0,8	0,2
430	416	14	0,97	0,03	0,7	0,3
450	430	20	0,95	0,05	0,7	0,3

b) daromad nuqtasi 370 tril. so'm.

T/N


1T; 2N; 3N; 4T; 5T; 6T; 7T; 8N; 9N; 10T.


Testlar:

1A); 2V); 3D); 4E); 5A); 6V); 7E); 8V); 9E); 10D); 11D); 12S); 13V);
14D); 15D); 16E); 17A); 18V);.

5-MAVZU: UMUMIQTISODIY MUVOZANATLIK


1-§. Makroiqtisodiy muvozanatlik, uning turlari va shart-sharoitlari






- ⊗ ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi;
- ⊗ aholining sotib olish layoqati va tovarlar taklifi o'rtasidagi;
- ⊗ pul massasi va tovarlar miqdori o'rtasidagi;
- ⊗ alohida bozorlarda (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi) talab va taklif o'rtasidagi;
- ⊗ davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi.

Makroiqtisodiy muvozanatlikni ta'minlanishning asosiy shart-sharoitlari

- 
- iqtisodiy maqsadlarga ishlab chiqarish imkoniyatlarining mos kelishligi;
 - jamiyatdagi barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradigan xo'jalik mexanizmining mavjud bo'lishi;
 - ishlab chiqarishning tarkibi iste'molning tarkibiga mos kelishligi;
 - barcha asosiy bozorlarda talab va taklifning muvozanatligi.

2-§. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari (tarmoqlari va sohalari), ishlab chiqarish natijalari va uning tarkibiy qismlari, mamlakat hududiy birliklari o'rtasidagi miqdor hamda sifat o'lchamlarining mos kelishligi (nisbati)dir.



Iqtisodiy mutanosiblikka erishish orqali milliy iqtisodiyotning muvozanatli rivojlanishidan ko'zlangan maqsad ta'minlashdan ko'zlangan maqsadlar

- mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda jamiyat ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish;
- mehnat resurslarining to'liq va samarali bandligiga erishish;
- narxlarning barqarorligiga erishish va uni inflatsiya ta'siridan holi qilish;

- iqtisodiy o‘rishni yetarli miqdordagi investitsiyalar bilan ta’minlash va uni muomaladagi pul massasiga bog‘lash;
- eksport va importni o‘zaro muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo balansining ijobiy qoldig‘iga erishish.

3-§. Milliy ishlab chiqarish muvozanatli hajmi va uni aniqlash usullari

Ishlab chiqarishning **muvozanatli hajmi** bu milliy iqtisodiyotning yalpi talab va yalpi taklif mos kelganda erishilgan darajasidir

Ishlab chiqarish muvozanatli hajmini aniqlash usullari

I. **Jami sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli.**

Bunda iqtisodiyotdagi barcha sarflar miqdori ishlab chiqarishning hajmi – SMM bilan taqqoslanadi, ya’ni

$$\left. \begin{array}{l} \text{Aholining iste'molchilik sarflari} \\ \text{Korxonalarning investitsion sarflari} \\ \text{Davlat sarflari} \\ \text{Chet elliklar sarflari} \end{array} \right\} + = \text{SMM}$$

II. **Jamg‘arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli.**

Bu usul mantiqan shunga asoslanadiki, ishlab chiqarilgan mahsulotning har qanday hajmi shunga mos pul daromadini beradi. Biroq aholi bu pul daromadining bir qismini iste’mol qilmasdan jamg‘aradi. Jamg‘arma – sarflar oqimidan bir qismining olib qo‘yilishi bo‘lib, uning yetishmasligiga sabab bo‘ladi. Boshqa tomondan jamg‘arilgan mablag‘lar investitsiyalarga aylanib, jami sarflarning yetishmagan qismini to‘ldiradi

III. **Balans usuli.**

Bunda tarmoqlararo balans, moddiy, moliyaviy va ishchi kuchi balanslaridan foydalanib makroiqtisodiy muvozanatlik darajasiga baho beriladi.

IV. **«Xarajat va natija»larni taqqoslash uchun.**

Bunda mahsulot ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar (yoki mahsulot birligining tannarxi) olingan pul daromadlari (mahsulot birligi narxi) bilan taqqoslanadi.

4-§. O‘zbekistonda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifalari

Respublikada tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadlar	
→	iqtisodiyotning tarmoq tuzilishini va hududiy nisbatlarni takomillashtirish;
→	milliy iqtisodiyotning xomashyo yetishtirishga qaratilgan bir tomonlama yo‘nalishini bartaraf etish;
→	mahsulot turlarini o‘zgartirish, uning sifatini yaxshilash va mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
→	importning o‘rnini bosadigan va eksportga raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish asosida respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish;
→	iqtisodiyotni mutanosib va barqaror rivojlantirish asosida aholining turmush farovonligini oshirib borish.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari	
→	• respublikaning energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlovchi tarmoqlarni hamda majmualarni jadal rivojlantirish.
→	• iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish tuzilishini tubdan o‘zgartirish;
→	• iqtisodiyotning tarmoq tuzilishini qayta qurish va eng muhim o‘zak tarmoqlarni ustuvor rivojlantirish;
→	• fan yutuqlari keng ko‘lamda joriy etiladigan ishlab chiqarishlarni muttasil rivojlantirish va ularning rolini tubdan oshirish;

- • paxtachilik majmuasi uchun mashina va mexanizmlar ishlab chiqarishga asoslangan qishloq xo‘jalik mashinasozligini rivojlantirish;
- • samolyotsozlik va avtomobilsozlik sanoatini, radioelektronika, elektrotexnika sohalarini rivojlantirish;
- • murakkab ro‘zg‘or texnikasi va xalq iste‘mol mollarining boshqa turlarini ishlab chiqaruvchi moddiy bazani kengaytirish;
- • qishloq xo‘jaligida va agrosanoat majmuasida chuqur progressiv siljishlarga erishish;
- • iqtisodiyotning investitsiya bazasini rivojlantirish va chuqurlashtirish;
- • ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma hamda xizmat ko‘rsatish sohalarining moddiy bazasini mustahkamlash.

Tarkibiy o‘zgarishlar uni amalga oshirishda qaysi tarmoq va sohalariga ustuvorlik berilishiga qarab quyidagi yo‘nalishlarga ajratiladi:

- • iste‘molga yo‘naltirilgan. Bunda tarkibiy o‘zgarishlarning maqsadi aholining turmush darajasiga bevosita daxldor bo‘lgan tarmoq va sohalarni ustuvor rivojlantirishga qaratiladi;
- • eksportga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgarishlar. Bunda qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish asosida ishlab chiqarish hajmini eksport hisobiga kengaytirish ko‘zda tutiladi;
- • iqtisodiyotning tarmoq va texnologik tuzilishini takomillashtirishga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlar.

**Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar:
Asosiy tayanch tushunchalar**

- | | |
|--|--|
| 1. Muvozanat | 8. Ishlab chiqarish hajmi va yalpi |
| 2. Umumiy yoki makroiqtisodiy muvozanat | xarajatlarni taqqoslash usuli |
| 3. Iqtisodiy muvozanat | 9. Makroiqtisodiy muvozanatning keynscha modeli |
| 4. Ideal iqtisodiy muvozanat | 10. Jamg‘arma va investitsiyalar-ning taqqoslash usuli |
| 5. Real iqtisodiy muvozanat | 11. Tarkibiy o‘zgarishlar |
| 6. Dinamik iqtisodiy muvozanat | 12. Tarkibiy siyosat |
| 7. Milliy iqtisodiyotning tarkibi (tarmoq tuzilishi) | 13. O‘zak tarmoqlar |

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

- a) Nazariy jihatdan erishish mumkin bo‘lgan muvozanat;
- b) tabiat va jamiyatning yashashi, hayot tarzini ifodalovchi umumiy qonun;
- v) iqtisodiyotdagi nomukammal raqobat sharoitida tashqi omillarning ta’siri, turli cheklanishlar mavjudligi, iqtisodiyotga ta’sir qiladigan shoklar tufayli o‘rnatiladigan muvozanat;
- g) jamiyat ehtiyojlari, uni qondirish uchun imkoniyatlari (resurslari) va ishlab chiqarish natijalarining mos kelishi;
- d) o‘zgaruvchanlikka asoslangan, barqaror rivojlanishni ta’minlaydigan muvozanat;
- e) iqtisodiy jarayonlarning mutanosibligi balanslashuvi;
- yo) yalpi xarajatlar bilan real YaIM o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni ifodalovchi model;
- j) ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini yalpi xarajatlar, milliy mahsulotga teng bo‘lgan real sof milliy mahsulot hajmini aniqlash orqali hisoblanadigan usul;
- z) milliy iqtisodiyotda tarmoqlar hissasini o‘zgartirish va ularni modernizatsiya qilish;
- i) milliy manfaatlarni ta’minlovchi, iqtisodiy o‘sishga yo‘l beruvchi, aholi farovonligini muttasil oshib borishiga olib keluvchi yangicha ishlab chiqarish tarkibini yaratish;
- y) milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun eng zarur bo‘lgan resurslarni yetkazib beruvchi tarmoqlar;

k) muvozanatli sof milliy mahsulotni jamg'arma bilan investitsiyalarni tenglashtirish orqali aniqlash usuli;

l) mamlakatda mavjud iqtisodiy resurslar va mehnat taqsimoti asosida shakllangan ishlab chiqarish va YaIMning tarkibi (tuzilishi).

Masala va mashqlar

1. Makroiqtisodiy muvozanatga erishish muammosini grafik orqali quyidagi modellar yordamida ko'rsatish mumkin:

1) «Keyns kresti» modeli;

2) «Yalpi talab va yalpi taklif» modeli.

Har ikki model o'rtasida farq bormi? Fikringizni qanday izohlagan bo'lar edingiz?

2. Aytaylik, mamlakatning iqtisodiyoti quyidagi berilganlar bilan xarakterlanadi: $Y = C + I$; $C = 300 + \frac{1}{4}Y$; $I_n = 150$.

Muvozanatlashgan ishlab chiqarish hajmi va daromadlarni aniqlang.

Umumiy va xususiy muvozanat qanday muvozanat? Misollar keltiring.

3. Mamlakatlarda yaratilgan YaIMda davlat xarajatlari va soliqlar nolga teng. Eksport va import yo'q deb faraz qilsak, $Y = S + I$; ko'rinishda bo'ladi.

Agar $C = 600 + \frac{1}{5}Y$; $I_n = 100$ bo'lsa, jamg'arma va iste'molning muvozanatlashgan darajasini aniqlang. $S = I_n$ haqida qanday fikr bildira olasiz?

4. Mamlakatning makroiqtisodiy holati quyidagi berilganlarda ifodalanadi:

$$C = 500 + \frac{1}{5}Y; I_n = 200; G = 0; X = 0;$$

Agar ishlab chiqarish hajmi 860 ga teng bo'lsa, yalpi xarajatlar avvalgi darajada qolsa, mahsulotning rejalashtirilmagan zaxirasi qanchaga ortadi? U qanday oqibatlarga olib keladi. Qanday qilib yalpi talab va yalpi taklif muvozanatiga erishiladi?

5. Mamlakatning iqtisodiy ko'rsatgichlari $C = 800 + \frac{1}{5}Y$; $I_n = 200$ ga teng. Iqtisodiyotga qo'shimcha 87,2 birlik avtonom investitsiya qo'yildi. Muvozanatli ishlab chiqarish qanday o'zgardi? Investitsiya multiplikatorining ahamiyati qanday? Izohlang.

6. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Tushunchalar ichida guruhga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: iste'molga yo'naltirilgan, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirish, undirma sanoatni rivojlantirishga qaratilgan, qayta ishlovchi sanoatni rivojlantirishga qaratilgan, iqtisodiyotning tarmoq va texnologik tarkibini takomillashtirishga qaratilgan, import o'rnini bosadigan tovarlar ishlab chiqarish.

7. Yettinchisi ortiqcha.

Quyidagi tushunchalarni o'qing. Ulardan qaysi biri ortiqcha. Uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: aholi sarflari va daromadlari muvozanati, yalpi talab va yalpi taklif muvozanati, ishlab chiqarish omillari muvozanati, daromad va iste'mol muvozanati, tovar va pul muvozanati, yalpi xarajatlar va ishlab chiqarish muvozanati, jamg'arma va investitsiya muvozanati.

T/N

Yalpi talab bilan yalpi taklif ($AD = AS$) muvozanati, umumiy makroiqtisodiy modelni ta'riflashning klassik modelida Sey qonuniga asoslanib:

- a) ish haqi va baholar mutlaq egiluvchan deb olinadi;
- b) birinchi o'ringa iqtisodiy o'sishning dvigateli sifatida yalpi taklif qo'yiladi;
- d) ishlab chiqarishning turli omillari va to'la bandligi darajasida yalpi talab bilan yalpi taklif muvozanatini bozor mexanizmi ta'minlaydi;
- e) yalpi taklif egri chizig'i bilan iqtisodiyotning potensial imkoniyati teng kelishi tamoyili doimo amal qiladi, degan fikrni ilgari suradi.

2. YaIM muvozanatli darajasiga haqiqiy jamg'arma va investitsiyalar rejalashtirilgan investitsiyalar bilan muvofiq kelmagandagina erishish mumkin.

3. Haddan tashqari tejab-tergash natijasida, iste'molning kamayishi ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keladi. Bu hodisa tejab-tergash paradoksi, deb ataladi.

4. Multiplikator bu – makroiqtisodiy muvozanatning oddiy, Keyns modelida, investitsiyalarning o'sishi tufayli daromadlarning necha barobarga o'sishini ko'rsatuvchi koeffitsiyent.

5. Resession farq – bu mutanosib daromad (ishlab chiqarish)ning yalpi xarajatlardan kamligi, ya'ni taklifning talabdan kamligi tufayli kelib chiqadi.

6. Yalpi talab yalpi taklifga nisbatan ko'p $AD > AS$ bo'lsa, ularni muvozanatga keltirish uchun:

- a) ishlab chiqarishni qisqartirish;
- b) ishlab chiqarishni va narxni o'zgartirmay qoldirish kerak.

7. Yalpi talab yalpi taklifdan kam $AD < AS$ bo'lsa, ularni muvozanatga keltirish uchun:

- a) ishlab chiqarishni qisqartirish;
- b) ishlab chiqarishni o'zgartirmay narxni tushurish zarur. Buni har bir mamlakat mavjud vaziyatdan kelib chiqib hal qiladi.

8. O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish tufayli, chetdan energoresurslarni sotib oluvchi mamlakatdan, ularni eksport qiluvchi mamlakatga aylandi.

9. O'zbekistonda tarkibiy siljishlarni amalga oshirishda hududlardagi mahalliy xomashyo, mehnat resurslaridan samarali foydalanib ustuvor yo'nalish aniqlanib, ularga ustunlik berish jihatidan yondashilmoqda.

TEST SAVOLLARI

1. Umumiy, ya'ni makroiqtisodiy muvozanatdagi asosiy muvozanat, bu:

- A) yalpi talab va yalpi taklif, daromad va yalpi xarajatlar;
- V) yalpi talab va yalpi taklif, yengil sanoat bilan oziq-ovqat sanoati o'rtasida muvozanat;
- S) og'ir sanoat bilan yengil sanoat o'rtasidagi muvozanat, ish kuchiga talab va taklif muvozanati;
- D) tovar va xizmatlar taklifi, davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasida;
- E) moliyaviy resurslar bilan ishlab chiqarish, ishlab chiqarish bilan daromad o'rtasidagi muvozanatdir.

2. Tarkibiy islohotlarning iste'molga yo'naltirilgan, past daromadli mamlakatlar uchun modelining bosh maqsadi:

- A) aholi soni, mehnat resurslarini o'sishini ta'minlash;
- V) aholining erkin migratsiyasini ta'minlash;
- S) aholining real daromadlarini oshirish;
- D) og'ir sanoatni o'sishini ta'minlash;
- E) mamlakatning texnik potentsiali o'sishini ta'minlashga qaratilgan.

3. Inflatsion farq:

- A) yalpi xarajatlarning ishlab chiqarish hajmidan kamligi;
- V) talab va taklif o'sish sur'atidagi mutanosiblik;
- S) yalpi xarajatlarning ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidan ko'pligi;
- D) yalpi xarajatlar va yalpi daromadlar mutanosibligi;
- E) investitsiyalarning o'sishi tufayli kelib chiqadi.

4. Agar iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan SMM balanslashgan bo'lsa, u holda ...

- A) yalpi daromad yalpi taklifga teng;
- V) jamg'arma investitsiyaga teng;
- S) iqtisodiyotda to'la bandlik va barqaror narx darajasiga erishilgan;
- D) yalpi daromad yalpi taklifga, jamg'arma investitsiyaga teng;
- E) jamg'arma investitsiyaga teng bo'lib, iqtisodiyotda to'la bandlik va barqaror narx darajasiga erishilgan.

5. Quyidagilardan qaysi birini ko'pincha iqtisodiyotga «inyeksiya» deb ataladi?

- A) jamg'arma;
- V) investitsiya;
- S) soliqlar;
- D) import;
- E) daromad.

6. Iqtisodiy mutanosiblikning zaruriyati asosida nima yotadi?

- A) ishlab chiqarishning ma'lum miqdordagi omillar nisbatini talab qilishi;
- V) ishlab chiqarish bilan iste'mol muvozanati;
- S) mehnat omilining ixtisoslashuvi;
- D) kapital omilining tarkibiy tuzilishi muammosi;
- E) investitsiyalarni samarali joylashtirish muammosi.

7. Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik(nisbatlar) bu - ...

- A) qishloq xo'jaligi bilan xizmat ko'rsatish o'rtasidagi nisbat;
- V) undiruvchi sanoat bilan qayta ishlovchi tarmoq o'rtasidagi;
- S) viloyatlardagi sohalar, tarmoqqa kiruvchi korxonalar o'rtasidagi;
- D) yengil sanoat bilan og'ir sanoat o'rtasidagi nisbat;
- E) sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish va boshqa tarmoqlar o'rtasidagi nisbat.

8. Quyidagilardan qaysi biri tarmoqlar ichidagi nisbat (mutanosiblik)larga kirmaydi?

- A) neft, gaz, torf, toshko'mir qazib olish;

- V) og'ir va yengil, oziq-ovqat sanoati;
- S) dehqonchilik va chorvachilik;
- D) temir yo'l, avtomobil, havo transporti;
- E) sanoat va qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish.

9. Quyidagilardan qaysi biri makroiqtisodiyot darajasidagi muvozanatlikni to'liq xarakterlaydi?

- A) ishlab chiqarish va iste'molning mos kelishi;
- V) mavjud iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlarining mos kelishi;
- S) aholi sotib olish layoqati va tovarlar massasining mos kelishi;
- D) budjet daromadlari va xarajatlarining mos kelishi;
- E) alohida tovarlarga talab va taklifning mos kelishi.

10. Umumiy iqtisodiy muvozanatlikni ta'minlab borishning asosiy yo'li qanday?

- A) iste'molni cheklash;
- V) iqtisodiyotni bir me'yorda rivojlantirish;
- S) barcha bozorlarda talab va taklifni muvozanatga keltirish;
- D) resurslardan samarali foydalanish;
- E) ehtiyojlarni cheklash yoki resurslarni ko'paytirish va ularni optimal uyg'unlashtirish.

11. Quyidagi tengliklarning qaysi birida umumiy iqtisodiy muvozanatlikka erishiladi?

- A) aholi pul jamg'armalari = investitsiyalar;
- V) aholi iste'mol hajmi = tovarlar va xizmatlar massasi;
- S) korxonalarning investitsion tovarlarga talabi = investitsion tovarlar massasi;
- D) yalpi milliy mahsulot = barcha sarflar (aholi, korxona, davlat va chet elliklar sarflari);
- E) ishlab chiqarish = iste'mol darajasi.

12. Investitsion sarflarning 5 mlrd. so'mga ko'payishi, sof milliy mahsulotning 20 mlrd. so'mga ko'payishiga olib kelsa, multiplikator samarasi qanday miqdorini tashkil qiladi?

- A) 5,0;
- V) 10,0;
- S) 4,0;
- D) 8,0;
- E) 6,0.

13. Quyidagi nisbatlardan qaysi biri inflatsion farqni ifodalaydi?

- A) SMM = yalpi sarflar;

- B) $SMM < \text{yalpi sarflar}$;
- V) $SMM > \text{yalpi sarflar}$;
- G) $SMM = \text{yalpi talab}$;
- D) $SMM > \text{yalpi talab}$.

14. Quyidagi mutanosibliklardan qaysi biri umumiy iqtisodiy xarakterga ega?

- A) sanoat va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi;
- V) qazib oluvchi va qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari o'rtasidagi;
- S) YaMM va uning harakat shakllari o'rtasidagi;
- D) hududiy bo'linmalar o'rtasidagi;
- E) ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi sohalar o'rtasidagi.

15. O'zbekistonda makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish siyosatidan ko'zda tutilgan maqsad nimadan iborat?

- A) makroiqtisodiyotda muvozanatlikni ta'minlash;
- V) ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishining oldini olish;
- S) ommaviy ishsizlikning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik;
- D) iqtisodiy o'sishga shart-sharoit yaratish;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

16. Iqtisodiy inqirozlarning asosiy mazmuni nimada namoyon bo'ladi?

- A) tovarlar ishlab chiqarishning kamayishida;
- V) ishsizlikning o'sishida;
- S) narxlarning o'sishida;
- D) ishlab chiqarilgan tovarlar massasining to'lovga qobil talabdan oshib ketishi yoki kam bo'lishidan;
- E) ishlab chiqarish hajmining keskin kamayib ketishida.

17. Sof milliy mahsulotni ishlab chiqarishning muvozanatlik hajmi quyidagilarga bog'liq?

- A) yalpi talab bilan yalpi taklifning mos kelishiga;
- V) muvozanatli narxga;
- S) to'liq bandlikka;
- D) investitsiya darajasiga;
- E) eksport va import darajasiga.

18. O'zbekistonda barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda qanday yondashuvga ustuvorlik beriladi?

- A) pulning qadrsizlanish darajasini pasaytirib turishga qaratilgan monitor yondashuv;
- V) ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan yondashuv;

S) ma'muriy usullar orqali tartibga solishga qaratilgan yondashuvlar;

D) A) va V) to'g'ri;

E) V) va S) to'g'ri.

19. Iqtisodiy barqarorlikka erishishning quyidagi mezonlaridan qaysi biri bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganlik xarakterini ifodalaydi.

A) ishlab chiqarish hajmining kamayishiga yo'l qo'ymaslik;

V) ustuvor tarmoqlarni yuksaltirish, qulay sharoitlarni vujudga keltirish;


S) moliyaviy barqarorlikni mumkin bo'lgan darajada ta'minlash;

D) pulning qadrsizlanishini to'xtatish, to'lov balansi va davlat valuta rezervlarining holatini yaxshilash;

E) kuchli ijtimoiy siyosatni ta'minlash, aholi turmush darajasini mumkin qadar yaxshilash va hokazo.

5.1-diagramma

O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)



Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi.

Diagrammaga diqqat qarating. Mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarkibi qanday shakllanadi? Keyingi yil ma'lumotlari asosida yangi diagramma chizing, ularni solishtiring va tahlil qilib, izohlang. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi deganda nimani tushunamiz? Tarkibiy iuzilishga qanday nuqtai nazardan yondashish mumkin?

Yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqarish tarkibi (%)

5.1-jadval

Ko'rsatkich-lar	Yillar								
	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2010	2011	2012
Sanoat	14,2	14,1	14,5	15,8	17,5	20,7	23,9	24,1	24,0
Qishloq xo'jaligi	30,1	30,0	30,1	28,6	26,4	25,0	18,0	17,8	17,5
Qurilish	6,0	5,8	4,9	4,5	4,8	4,9	6,5	6,1	5,9
Xizmatlar sohasi	37,2	38,2	37,9	37,4	37,2	38,4	42,4	44,2	44,9
Sof soliqlar	12,5	11,9	12,6	13,7	14,1	11,0	9,2	7,8	7,7

Jadval ma'lumotlarini sinchiklab o'rganing. Nima sababdan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish zarur? Respublikamizda tarkibiy o'zgarishlar qanday yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda? Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldirib tahlil qiling.

Yalpi ichki mahsulotning mulk shakllari bo'yicha tarkibi

5.2-jadval

	Ulushi, %da		
	2007y.	2008 y.	2012 y.
Jami	100	100	100
Nodavlat mulk	79,3	79,4	83,6
Shu jumladan:			
Fuqarolar mulki	34,1	32,4	
Fermer xo'jaliklari	4,0	6,5	
Dehqon xo'jaliklari	0,2	0,2	
Xo'jalik birlashmalari	24,0	24,3	
Qo'shma korxonalar	8,9	12,8	
Boshqalar	5,1	3,2	
Davlat mulki	20,7	20,6	16,4

Jadval ma'lumotlari asosida qanday xulosa chiqarish mumkin? Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring.

Yalpi ichki mahsulotning mulk shakllari bo'yicha tarkibi nimani ko'rsatadi? Fikringizni bayon qiling.

O‘zbekistonda YaIMning ashyoviy-buyum tarkibi (joriy bozor narxlarida)


5.3-jadval

Ko‘rsat- kichlar	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2010	2011	2012
	%	%	%	%	%	%	%	%	%
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Sh. j. tovarlar	50,5	50,1	49,8	49,1	48,6	50,6	47,6	41,2	40,3
xizmatlar	37,2	38,2	37,9	37,4	37,2	38,4	49,0	50,5	52,0

Jadval ma’lumotlariga diqqat qaring. Keying yil ma’lumotlari bilan to‘ldiring. YaIMga ashyoviy-buyum nuqtai nazaridan qaraganda tarkibi qanday o‘zgargan? Bu nimadan dalolat beradi? Nima sababdan respubli-kamizda xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishga slohida e’tibor berilmoqda? Izohlang.

Xizmat ko‘rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foizda

5.2-gistogramma



Keyingi yil ma’lumotlari bilan to‘ldiring.

Gistogramma ma’lumotlari asosida qanday xulosa chiqarish mumkin? Fikringizni bayon qiling.

Ko'rsatilgan barcha xizmatlar va aholiga pullik xizmatlarning YaIMdagi ulushi

5.4-jadval

	O'lchov birligi	2011 y.	2012 y.	O'zgari- shi (+, -)
Yalpi ichki mahsulot	Mrld. so'm	78764,2	96589,8	
Jami ko'rsatilgan xizmatlar	Mrld. so'm	39382,1	50709,6	
Jami ko'rsatilgan xizmatlar- ning YaIMdagi ulushi	% da	50,0	52,5	
Aholiga pullik xizmatlar	Mrld. so'm	10520,9	13614,1	
Aholi jon boshiga	So'm	358594	457242	
Aholiga pullik xizmatlarning YaIMdagi ulushi	% da	13,3	14,1	
Aholiga pullik xizmatlarning jami xizmatlardagi ulushi	% da	26,7	26,8	

Manba: «World Economic Outlook Database October» 2012.

Jadvalni keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Yillar davomida ularni o'zgarishini hisoblang. Iqtisodiyot taraqqiy etgan sayin xizmat ko'rsatishning ulushi oshib borishini iqtisoqchilar qanday asoslashadi? Sizning o'zingizni fikringiz qanday? Bunga sabab nima? Izohlab bering

Sanoatning tarkibiy tuzilishi va o'sish ko'rsatkichlari

5.5-jadval

Ko'rsatkichlar	Tarkibiy tuzilishi			O'tgan yilga nisbatan o'sish ko'rsatkichi, %		
	2000	2010	2012	2000	2010	2012
Sanoat – jami	100,0	100,0	100,0	105,9	108,5	107,9
Shu jumladan						
Elektroenergetika	9,5	8,1	7,7	101,1	102,7	103,0
Yonilg'i	16,7	19,8	18,0	99,7	104,1	104,8
Metallurgiya	12,7	13,3	12,6	118,7	100,4	103,3
Kimyo va neft - kimyo	5,9	5,0	5,0	112,7	117,1	106,8
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	9,0	16,1	17,5	89,5	112,8	113,9
Qurilish materiallari	4,6	4,9	5,5	104,3	105,8	113,0
Yengil sanoat	20,1	13,3	12,9	117,0	117,9	112,9
Oziq-ovqat	11,8	12,8	13,2	108,5	113,1	105,0
Boshqa tarmoqlar	9,6	6,7	7,6	109,5		

Jadval raqamlariga e'tibor bering. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Tahlil qilib, fikringizni izohlang. Bunda 5.1-jadval ma'lumotlaridan ham foydalaning. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi qanday omillar asosida shakllanadi? Ko'rsating.

Aholiga pullik xizmat ko'rsatishning asosiy turlari tarkibi
(Mlrd. so'm)

5.6-jadval


	2007 y.	2010y.	2011	2012
Barcha ko'rsatilgan xizmatlar	3038.3	7858.0	10520.9	13614.1
Shu jumladan:				
maishiy	343.4	624.3	902.1	1099.5
transport :	893.8	2090.3	2687.3	3475.7
aloqa	512.3	1387.0	1816.8	2252.8
uy-joy kommunal	503.7	1305.5	1767.6	2425.1
xalq ta'limi	192.4	608.4	798.3	1145.7
madaniyat	19.3	42.5	62.8	89.8
turizm va ekskursiya	23.3	37.7	50.2	65.7
jismoniy tarbiya va sport	10.3	37.2	44.0	54.9
sog'likni saqlash	75.5	214.9	265.1	388.0
Sanatoriya – kurort va sog'lomlashtirish	16.2	39.4	47.7	81.1
Hyqyqiy xarakterdagi va bank muassasalari xizmati	121.9	385.7	643.7	651.2
boshqa xizmatlar	326.0	1085.1	1441.3	1884.6

2005 yilda 1628.5 mlrd. So'mlik xizmat ko'rsatilgan edi. 2007-2012 yillarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi jadvalda berilgan. Uni keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Ular asosida o'sish sur'ati dinamikasini va xizmat turlarini ulushini hisoblang. Ularni tahlil qiling va o'z fikringizni bayon qiling.

Jadval ma'lumotlaridan qanday xulosa chiqarish mumkin? Kelgusida respublikamizda xizmat ko'rsatish tarkibini qanday o'zgartirish maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?

Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m


5.1-grafik



Diagrammadagi raqamlarga diqqat qaring: 1. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarish hajmining o‘shir sur‘atlarini hisoblang. Uni keyingi yil ma’lumotlari bilan to‘ldiring.

Mahalliyashtirish deganda nimani tushunamiz? Respublikamizda mahalliyashtirish dasturiga ko‘ra qanday maqsadlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan? Fikringizni bayon qiling.

2. Mahalliyashtirish tufayli yaratilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini ta’minlashda asosiy e’tibor nimaga qaratilishi kerak deb o‘ylaysiz? Fikringizni bayon qiling.



**2015 yilgacha sanoatni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalishlarini
amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar**

5.7- jadval

	2013 y.	2014 y.	2015 y.
Sanoat mahsulotlarining o‘sishi, %	110,3	110,9	111,8
YaIMda sanoatning ulushi, %	25,8	26,8	28,0
Sanoat ishlab chiqarish hajmida eksport qilinadigan sanoat mahsulotlarining ulusi, %	51,8	58,0	63,2
Sanoat sektorida yaratiladigan ish o‘rinlari	76 521	97 726	119 102

Yuqoridagi chizma va jadval ma’lumotlariga diqqat qiling. O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish tufayli kutilayotgan natijalarni tahlil qiling. Buning uchun qanday chora-tadbirlar belgilanganini aniqlang. U iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini qanday o‘zgarishiga olib keladi? Izohlang.

2012 yilda ishga tushirilgan yirik loyihalar

5.8- jadval

№	Loyiha nomi	Loyiha quvvati	Umumiy qiymati (mln. doll.)
“O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi			
1.	“Sho‘rtanneft-gaz” negizida propanbutan aralashmasi qurilmasini barpo etish (5-navbati)	50,0 ming tonna	74,2
“O‘zbekenergo” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi			
2.	Navoiy IES negizida bug’-gaz qurilmasini barpo etish	478 MVt	529,78
“O‘zkimyosanoat” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi			
3.	Navoiy viloyatida texnik kremniyni ishlab chiqarishni tashkil qilish (1-bosqich)	12,0 ming tonna	19,04
“O‘zavtosanoat” kompaniyasi			
4.	Samarqand viloyatida yuk avtomobillari va komponentlarini ishlab chiqaruvchi yangi kompleksni barpo etish (2-bosqich)	3,0 ming	29,38

Mamlakatimizda 2012 yili jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirildi. U iqtisodiyot va sohalar tarkibini qanday o‘zgartiradi? Turmush darajasini? Har bir tarmoq va soha uchun alohida dastur va loyiha ishlab chiqishning afzalligi nimada? Fikringizni bayon qiling.

2011-2015 yillarda infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

5.9- jadval

Yo‘nalish nomi	Loyiha qiymati (mln. dollar)	Loyiha soni
Dasturining umumiy qiymati	8504,0	85 ta
<i>Shu jumladan:</i>		
Avtotransport tizimi	3544,0	11 ta
Temir yo‘l transporti tizimi	2146,6	14 ta
Havo yo‘llari transporti tizimi	993,7	14 ta
Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi va telekommunikatsiya tizimi	1794,7	44 ta
Shahar elektrotransporti parkini yangilash	24	2 ta

Jadval ma’lumotlarini tahlil qiling. Infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirishga alohida e’tibor qaratilishini sababi nimada? Iqtisodiy o‘rish tufayli muvozanat buziladi. U qanday tiklanadi? Tushuntirib bering.

Javoblar:

1 b); 2 g); 3 e); 4 a); 5 v); 6 d); 7 l); 8 j); 9yo); 10 k); 11 z); 12 i); 13y);

Masala va mashqlar:

1. Farq bor. Yalpi talab – yalpi taklif modeli ishlab chiqarishning real hajmi bilan narx darajasi o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi. Ular o‘zgarishi mumkin.

Keyns kresti – bu ishlab chiqarishning real hajmi bilan o‘zgarmas narxlar darajasidagi yalpi xarajatlar miqdorini o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

2. Muvozanatlashgan ishlab chiqarish hajmi va daromad: $Y = 600$ birlik.

3. $Y = 875$; $S = 775$; $S = 100$.

4. $Y = 800$; Agar ishlab chiqarish hajmi 860 bo'lib yalpi xarajatlar 800 bo'lsa, u holda 60 birlik tovar zaxiraga qo'shiladi.

5. $1_n = 287,2$; $Y = 1609$; investitsiya 87,2 birlikka, milliy daromad esa 359 birlikka o'sgan. Avval muvozanatlashgan milliy daromad hajmi 1250 edi. Yangi muvozanati 1609 birlikka ko'chdi. Multiplikator koeffitsiyenti $\frac{\Delta Y}{\Delta I} = 4,1$ ga teng.

6. Guruhga taalluqli bo'lmagani, import o'rnini bosadigan tovarlar ishlab chiqarish, u tarkibiy siljishlardan ko'zlangan maqsadlardan birini ifodalaydi. Qolganlari esa, tarkibiy islohotlarning asosiy modellari.

7. Ortiqchasi uchinchisi, ishlab chiqarish omillari muvozanati, u xususiy muvozanatga tegishli, qolganlari umumiy muvozanatni ifodalaydi.

T/N

1T; 2N; 3T; 4T; 5N; 6N aksincha; 7T; 8T; 9T.

Testlar:

1A); 2C); 3C); 4 D); 5 V); 6A); 7E); 8E); 9V); 10S); 11E); 12S); 13V); 14S); 15E); 16D); 17A); 18D); 19E).

6-MAVZU. IQTISODIY BEQARORLIK VA SIKL NAZARIYALARI

1-§. Iqtisodiy siklning mazmuni va kelib chiqish sabablari

Iqtisodiy sikl – ishlab chiqarish hajmi, bandlilik va inflatsiya darajasidagi davriy tebranishlardir.

Sikl davomiyligi bo'yicha bir inqirozdan ikkinchi inqiroz boshlanguncha o'tgan davrdan iborat bo'ladi.

Siklni keltirib chiqaruvchi sabablar

- 
- takror ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklar;
 - talab va taklif o'rtasidagi nomutanosibliklar;
 - yalpi sarflar darajasining o'zgarishi (o'z navbatida bu sarflar hajmini ishlab chiqarish va bandlik darajasi belgilab beradi);
 - investitsiyalar hajmining davriy kamayishi;
 - pul massasi hajmining tebranishi;
 - asosiy kapitalning yangilanishi;
 - multiplikator samarasining kuchsizlanishi va boshqalar.

Iqtisodiy siklning kelib chiqishini faqat tashqi yoki faqat ichki omillarga bog'lovchi qarashlar mavjud bo'lib, ular fanda **eksternal** va **internal** nazariyalar deb nomlanadi

Eksternal nazorat tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi.

- 
- Ularning asosiylari quyidagilar:
- urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;
 - oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarning ochilishi;
 - yangi hududlarning ochilishi va u bilan bog'liq ravishda aholi migratsiyasi hamda yer shari aholisi sonining o'zgarib turishi;
 - ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o'zgarishlar.

Internal nazariya siklli rivojlanishga iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillari sabab deb hisoblaydi.

Bu omillar quyidagilar:

- ❖ asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati;
- ❖ shaxsiy iste'molning o'zgarishi;
- ❖ ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish o'rinlarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan investitsion mablag'lar hajmi;
- ❖ ishlab chiqarish va talab hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosati.

Uchinchi guruh iqtisodchilar iqtisodiyotning siklli rivojlanishiga sof ichki yoki tashqi omillarni emas, balki ularning har ikkisinining turlicha kombinatsiyalashgan variantlari ta'sir qilishini ko'rsatishadi.

2-§. Sikl to'g'risidagi nazariyalar.

Iqtisodiy inqirozning iqtisodiy faollikka ta'siri

Sikl to'g'risidagi nazariyalar

Kitchin sikli (2–4 yil) zaxiralar sikli deb nomlanadi. Bu sikl iste'mol tovarlariga bo'lgan bozor talabi va taklifi muvozanatining buzilishi va tiklanishi tarzida yuz beradi. J. Kitchin bu siklni zaxiralar, bank kliringi (ing. clearing – naqd pulsiz hisob-kitob tizimi) va ulgurji narxlar o'zgarishining yalpi milliy mahsulot o'zgarishiga olib kelishi bilan bog'laydi. Kitchin iqtisodiyotdagi 2–4 yildagi sikl o'zgarishini moliyaviy hisobotlar va sotish narxining o'zgarishi asosida aniqlagan.

Juglyar sikli (biznes sikl, sanoat sikli, oʻrtacha sikl va katta sikl deb ham nomlanadi (7–11 yil). Bu sikl Fransiya, Angliya va AQSHda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarning asosiy sabablarini tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini oʻrganishga katta hissa qoʻshgan K. Juglyar (1819–1905yy.) nomi bilan ataladi.

Bu sikl qisqa muddatli sikldan faqat muddati bilan emas, namoyon boʻlishi, xarakteri bilan ham farq qiladi. U faqat milliy iqtisodiyotnigina emas, jahon iqtisodiyoti dinamikasini ham ifodalaydi. Uning alohida qismlari siklning fazalari tarzida ajratiladi.


Kuznes sikli – («qurilish sikli» deb ham nomlanadi). S.Kuznes milliy daromad, isteʼmol sarflari va ishlab chiqarish maqsadidagi yalpi investitsiyalarda 20 yillik davrda oʻzaro bogʻliq tebranishlar mavjud boʻlishini aniqlagan.

Kondratev sikli («uzoq toʻlqinlar» sikli deb ham nomlanadi). Rus olimi N.D Kondratev Angliya, Fransiya va AQSHning 100-150 yildagi rivojlanishidagi makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning oʻrtacha darajasini umumlashtirib bir qator katta sikllarni ajratib koʻrsatadi.

U oʻz tadqiqotini tovar narxlari, prosent stavkasi, renta, ish haqi, eng zarur mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi oʻzgarishi asosida olib bordi. U bir uzun toʻlqinning boshqasi bilan almashuvini ishlab chiqarishni bir texnologik usuldan ikkinchisiga oʻtishi, ish kuchining sifat jihatdan oʻzgarishi, taʼlimning oʻzgarishi, tashkiliy iqtisodiy munosabatlarda tub oʻzgarishlar, boshqarishda tarkibiy revolutsiya yuz berishi bilan izohlaydi.


Katta sikl iqtisodiyotda tub burilish yuz berishi, fan-texnika-dagi buyuk kashfiyotlarning ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida mutlaqo yangi texnologiyalarning kiritilishi bilan ajralib turadi.


Kondratev siklining davomiyligi oʻrtacha 40–60 yilni tashkil qiladi. Katta sikllarning tebranish davri.

- 
- 1 - toʻlqin 1772–1783-yillardagi depressiyadan 1812–1825-yildagi beqarorlikkacha;
 - 2 - toʻlqin 1825–1838-yillardagi depressiyadan 1866–1873-yillardagi beqarorlikkacha;
 - 3 - toʻlqin 1873–1885-yillardagi depressiyadan 1913–1929-yillardagi beqarorlikkacha;
 - 4 - toʻlqin 1929–1938-yillardagi depressiyadan 1966–1974 yillardagi beqarorlikkacha;
 - 5 - toʻlqin 1974–1982-yillardagi depressiyadan boshlangan. Iqtisodchilarning fikricha 2010-yillargacha davom etishi va 2010–2015-yillardan yangi 6 - toʻlqin boshlanishi mumkin deb taxmin qilingan edi. U birmuncha oldinroq 2008-yilda boshlandi.


Siklning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy oʻzgarishlarni oʻzida aks ettirishidir. Jumladan u birinchi katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolutsiyasi, ikkinchisini – temir yoʻl transportining rivojlanishi, uchinchisini – elektroenergiya, telefon va radioning kashf etilishi, toʻrtinchisini avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bogʻlaydi.

Hozirgi zamon olimlari beshinchi – siklni elektronika, gen injenerligi, mikroprosessorlar va boshqalarni rivojlanishi bilan bogʻlashadi.





Iqtisodiy sikl va uning fazalari



6.1- chizma.

Iqtisodiy siklni farqlantiruvchi belgilar

- davomiyligi (qancha vaqt davom etishi)
- intensivligi (iqtisodiy faollikdagi o'zgarishlar jadalligi)

Iqtisodiy faollikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar*

- ishlab chiqarish hajmi
- bandlilik darajasi
- ishsizlik darajasi
- foiz stavkasi
- valuta kurslari
- pul massasi hajmi


Ishlab chiqarish hajmi haqiqiy va potensial YaMM (YaIM) o'rtasida o'zgaradi. Potensial YaMM (YaIM)– resurslar to'liq band bo'lgandagi ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi. To'liq bandlilik ishlatilayotgan quvvatlar va ishsizlikning tabiiy darajada mavjud bo'lishini ko'zda tutadi.

Iqtisodiy inqirozlar oqibatida ancha yuqori darajada yo'qotishga uchraydigan tarmoqlar va aholi qatlamlari.

- 
- ❖ ishlab chiqarish vositalari (investitsion tovarlar) ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari;
 - ❖ qurilish (uy-joy va ishlab chiqarish obyektlari qurilishi);
 - ❖ uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar;
 - ❖ doimiy, bir xil miqdorda daromad oluvchi iste'molchilar.

- Barcha ko'rsatkichlar mutlaq va nisbiy miqdorlarining o'zgarishi orqali aniqlanadi.

Iqtisodiy inqiroz oqibatlaridan kamroq yo'qotishga uchraydigan tarmoqlar va aholi qatlamlari.

- 
- kundalik iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar va sohalar;
 - iqtisodiyotning nisbatan monopol mavqega ega bo'lgan ishlab chiqaruvchi tarmoqlari;
 - miqdori qayd qilinmagan yuqori daromad oluvchilar.

3-§. Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari

Tarkibiy inqirozlarni iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohaları rivojlanishidagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar hamda nomutanosibliklar keltirib chiqaradi.

Tarkibiy o'zgarishlarning kelib chiqishini taqozo qiluvchi omillar



Fan-texnika taraqqiyoti



Talab va uning tarkibidagi o'zgarishlar

Iqtisodiy faollikdagi o'zgarishlar

Mavsumiy
yoki
vaqtinchalik
tebranishlar

Bayramlar arafasida ommaviy xarid qilish chakana savdoda sezilarli tebranishlarni keltirib chiqaradi

Uzoq
muddatli
tebranishlar

Iqtisodiy faollikning nisbatan uzoq davr davomida (25, 50 yoki 100 yil) o'zgarish tamoyillarini ko'rsatadi

Agrar inqirozlar qishloq xo'jaligida ro'y beradigan iqtisodiy inqirozlardir

Namoyon
bo'lish
shakllari

- qishloq xo'jalik mahsulotlarining nisbatan ortiqcha ishlab chiqarilishi, uning sotilmay qolgan ancha ko'p zaxiralarining to'planishi
- narxlarning pasayishi, daromadlar va foydaning kamayishi
- fermerlar qarzlarining ortishi, ularning ommaviy ravishda sinishi
- qishloqda ishsizlarning ko'payishi


Agrar inqirozlarning xususiyatlari

- siklli xarakterga ega bo‘lmaydi
- sanoat siklidan farq qilib ancha uzoq davrga cho‘zilib ketadi

Masalan: Birinchi agrar inqiroz XIX asrning 70-yillarida boshlanib, 90-yillarning o‘rtalarigacha, ikkinchisi 1920-yildan 2-jahon urushi boshlangan davrgacha va uchinchi agrar inqiroz 1948-yildan 80-yillargacha davom etgan

4-§. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, kelib chiqish sabablari va oqibatlari

JAHON MOLIYAVIY INQIROZINING YUZAGA KELISH SABABLARI



Bu inqiroz Amerika Qo‘shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergan tanglik holatidan boshlandi. So‘ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya‘ni to‘lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi.

Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi.

Bularning barchasi, o‘z navbatida, ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog‘liq boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

¹ I.A. Karimov Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: «O‘zbekiston», 2009, 4-bet.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning tahlili asosida chiqarilgan xulosalar*

❖ **Birinchidan**, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, **resessiya va iqtisodiy pasayishning** muqarrarligi, **investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi**, talab va **xalqaro savdo hajmining kamayishi**, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

❖ **Ikkinchidan**, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida **jiddiy nuqsonlar mavjudligi** va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi.

Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z **korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan**, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan **banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini** ham tasdiqladi.

❖ **Uchinchidan**, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlarini qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi.

Ya'ni, bu avvalo, ana shu **davlatning moliya-valuta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga**, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, **oltin-valuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati** va pirovard natijada - **mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq.**

❖ **To'rtinchidan**, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan **chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.**

Jahon moliyaviy inqirozi kelib chiqishining qo'shimcha sabablari:

- yirik rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillar davomida **davlat budjeti taqchilligi** va **salbiy tashqi savdo balansiga egaligi**;
- davlat **tashqi qarzi** miqdorining YaIMga nisbatan **o'sish sur'atlarining** jadallashishi;
- noratsional **pul-kredit siyosati** hamda qayta moliyalash stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida **qarzga yashash odatga va kundalik holatga aylanishi**;
- ipoteka kreditlari berish talablarining asossiz bo'shashtirib yuborilganligi va **uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi**;
- moliyaviy institutlarning **majburiyatlariga nisbatan ustav mablag'lari mutanosibligini** keskin buzilishi;
- qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan **soxta xulosalar** berilishi;
- moliyaviy **audit** va professional etika tamoyillarining buzilishi va **soxta audit xulosalari taqdim etilishi**;
- moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat real ko'rsatkichlariga emas, balki **miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi**;
- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarning vujudga kelishi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning holati va oqibatlari

1. Moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, resessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

2. Avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi.

Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekuliyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.

Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009–2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan **Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi** O'zbekistonni 2009-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'ladi.

Respublikamizda 2009 – 2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan asosiy yo'nalishlar:

- I. Eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash va ularning barqaror faoliyatini ta'minlash chora-tadbirlari.
- II. Mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari va xizmat ko'rsatuvchilari mahsulotlariga ichki talabni noinflatsiyaviy rag'batlantirish bo'yicha choralar.
- III. Iqtisodiyotning real sektori sohasida resurs bazasini kengaytirish va investitsion faollik o'sishini ta'minlash choralari.
- IV. Elektro-energetika sohasini modernizatsiya qilish, energiya sig'imini qisqartirish va energiyani tejash tizimini joriy etish.
- V. Kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, aholi bandligiga va yangi ish o'rinlarini tashkil etishga ko'maklashish.

**Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar:
Asosiy tayanch tushunchalar**

- | | |
|--|---------------------------------------|
| 1. Iqtisodiy sikl | 6. Qisqa muddatli sikl |
| 2. Inqiroz (tanglik, tushkunlik, burilish) | 7. O'rta muddatli sikl |
| 3. Depressiya | 8. Uzoq muddatli sikl |
| 4. Jonlanish | 9. Ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi |
| 5. Yuksalish | 10. Taqchil ishlab chiqarish inqirozi |

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

- a) Iste'mol tovarlariga bo'lgan bozor talabi va takliflari muvozanatining buzilishi va tiklanishi;
- b) siklning to'la bandlikka, YaIMni potensial darajasiga yaqinlashish, hatto undan oshib ketishi, narxlarning o'sishi kuzatiladigan iqtisodiy faollik yuqori darajadagi fazasi;
- v) iqtisodiyot ancha chuqur tushkunlikka tushib, barcha fazalarni qamrab oladigan sikl;
- g) siklning ishlab chiqarish va bandlikning inqirozgacha bo'lgan darajasiga yetish davri;
- d) uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish mutlaq hajmining miqdoriy pasayishi, iqtisodiy o'sish sur'atining tezlashuvi va sekinlashuvi o'rin almashuvining uzoq muddatli tamoyil tarzida yuz beruvchi sikl;
- e) iqtisodiyotda yuksalishning tushkunlik bilan almashinib, takrorlanib turishi;
- yo) turli naf keltiradigan ne'matlarni talabga qaraganda ko'p ishlab chiqarib, ularni to'la sota olmaslik natijasida tang ahvolga tushish;
- j) siklning ishlab chiqarish hajmi va bandlikni uzoq vaqt turg'unlikda bo'lish fazasi;
- z) turli ne'matlarni talabga qaraganda kam ishlab chiqarish natijasida tang holatga tushish;
- i) siklning qisqarish yoki ishlab chiqarish hajmi o'sishi sur'atining pasayishi fazasi.

Masala va mashqlar

1. AQSHda 1929-yili yaratilgan YaMM 103,1 mlrd. dollardan 1933-yilga kelib 55,6 mlrd. dollarga, amortizatsiya 9,9 mlrd. dollardan 7,6 mlrd. dollarga tushdi. Real YaMM 1987-yil baholarida 821,8 mlrd. dollardan 587,1 mlrd. dollarga qisqardi. Inflatsiya darajasi 1933-yili - 5,1%ni tashkil etdi. Ishsizlar 1,6 mln. kishidan 12,8 mln. kishiga ko'paydi. Xususiy investitsiyalar 16,7 mlrd. dollardan 1,6 mlrd. dollargacha qisqardi.

Tushkunlik 1940-yilga kelibgina to'xtatildi. 1933-yilda 1929-yilga nisbatan YaMM, (joriy va 1987-yil o'zgarmas narxlarida) amortizatsiya, ishsizlar, investitsiya qanchaga qisqarganini hisoblang. Nima sababdan bu tanglik tarixga «Buyuk depressiya» nomi bilan kirgan? Izohlang.

2. Respublikamizda 1995-yili joriy baholarda YaMM hajmi 302,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, sanoat mahsuloti 51,7 mlrd. so'mni, qurilishniki 21,5 mlrd. so'm bo'lgan. 2003-yilga kelib, YaMM 9664,1 mlrd. so'mni sanoat mahsuloti 15%, qurilishniki 4,5%ni tashkil etgan. 1995-yilda YaMMda sanoat va qurilishning hissasini toping. 2003-yil bilan taqqoslang. Ularga asoslanib, sanoat va qurilishda tarkibiy tanazzul ro'y bergan deb ayta olamizmi?

YaMMda sanoat va qurilishning ulushini oshirish uchun hukumat tomonidan qanday chora-tadbirlar ko'rilmoqda?

3. Mamlakatda o'rtacha xizmat ko'rsatishdan kunlik tushum 68 mln. so'mni tashkil etar edi. Yangi yil bayramidan 15 kun avval tushum kuniga o'rtacha 2%dan o'sib borib, 30-dekabrda o'rtacha 30%ga ortdi. Ayniqsa, chakana savdo umumiy xizmatlarning 80%ini tashkil etishini hisobga oladigan bo'lsak, o'sishning asosiy qismi ham chakana savdoga to'g'ri keladi.

Savdoning o'sishi ishlab chiqarish hajmini oshirib, talabga moslashishga undadi. Agar xizmatlarga talabning o'sishida savdoning ulushi 80% desak, 30-dekabrda kelib kunlik tovar aylanmasi qancha bo'lganini, hisoblang. Bu holatga ko'ra, iqtisodiyot siklining yuksalish fazasiga o'tdi, deb ayta olamizmi?

Mavsumiy, vaqtinchalik tebranishlar sikllardan qanday farqlanadi?

4. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Tushunchalar ichida guruhga taalluqli bo'lmaganini aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: pul-kredit inqirozi, valuta inqirozi, moliyaviy inqiroz, birja inqirozi, ekologik inqiroz, o'rta muddatli Kliment Juglyar sikli, tarmoqlar inqirozi, agrar inqiroz, struktura-tarkibiy inqiroz.

T/N

1. Xo'jalik tizimida muvozanatning ayrim soha va tarmoqlar miqyosida buzilishi va ularga xos tanglik tarzida yuz berishini tarmoq, soha inqirozi deb atash mumkin. Bunga pul-kredit tizimidagi inqiroz, valuta inqirozi, ekologik inqiroz, sanoat inqirozi, moliya inqirozini misol qilib keltirish mumkin.

2. Qisqa muddatli sikl o'zgarishini tadqiq qilib, tovar zaxiralari va bank kliringi, ulgurji narxlarni o'zgarishiga qarab xulosa chiqargan olim

N.D.Kondratev bo‘ladi. Shuning uchun uni Kondratev sikli, deb ham ataladi.

3. O‘rta muddatli sikl, iqtisodiyotdagina emas, ijtimoiy sohada ham barqarorlik buzilishi, iqtisodiy o‘sinh turg‘unlik bilan almashinishi, siklning fazalarini namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi.

4. Iste‘mol sarflari – yalpi sarflardagi eng beqaror unsure. Shuning uchun uning o‘zgarishiga diqqat qaratish kerak. Inqirozga olib keladi.

5. Makroiqtisodiy modellardan iqtisodiyotning o‘zgarishini ilmiy taxmin qilish uchun foydalanish mumkin.

6. Investitsiya yalpi sarflardagi eng beqaror unsur bo‘lib, iqtisodiy sikl doirasida nihoyatda katta rol o‘ynaydi.

7. Mashina va uskunalarga sarflanadigan investitsiyalar hajmi odatda, tanglik yuz berishidan avval va u yuz berib tugashiga qadar o‘zgarmaydi, to‘g‘rirog‘i ko‘paymaydi.

8. Iqtisodiy taxminlar odatda aniq bo‘lmay, shuning uchun ularning foydasi yo‘q, bekorga vaqt ketkazib, hisob-kitob qilishning zaruriyati ham yo‘q.

9. N. D. Kondratev bir uzun to‘lqinni boshqasi bilan almashuvini ishlab chiqarishning bir texnologik usuldan ikkinchisiga o‘tishi, ish kuchining sifat jihatdan o‘zgarishi, ta‘limning o‘zgarishi, tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarda tub o‘zgarishlar, boshqarishda tarkibiy inqilob yuz berishi bilan izohlaydi.

10. Inqiroz bir tomondan buzg‘unchilik, ikkinchi tomondan sog‘lomlashtirish, yaratuvchilik. Shuning uchun ham uni mashhur iqtisodchi Y.Shumpeter «Bunyodkorlik yashiringan buzg‘unchilik» deb atagan.

TEST SAVOLLARI

1. Quyidagi sanab o‘tilganlardan qaysi biri o‘rta muddatli siklning yuksalish fazasiga xos emas?

- A) narxlarning o‘sishi;
- V) ishsizlikning o‘sishi;
- S) ishlab chiqarish darajasini o‘sishi;
- D) ish haqining o‘sishi;
- E) investitsiyalarning o‘sishi;

2. Iqtisodiy sikl yuz berishi jarayoniga

A) tovar va material zaxiralarini ko‘paytirish uchun sof investitsiyalarning o‘sishi;

V) uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sof investitsiyalar;

S) iste'mol sarflari;

D) davlat sarflari;

E) eksport sarflari dinamikasi eng katta ta'sir ko'rsatadi.

3. Quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlardan qaysi biri yuksalish fazasida kamayib, inqiroz paytida esa, aksincha ortadi.

A) qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarida tovar zaxiralarining hajmi;

V) YaIM hajmi;

S) ish haftasining o'rtacha uzunligi;

D) qimmatli qog'ozlar kursi;

E) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi.

4. Quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi birining miqdori yuksalish fazasi boshlanguncha qisqarmaydi, turg'unlik (inqiroz) fazasi boshlanguncha ortmaydi?

A) uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga yangi buyurtma;

V) ish haftasining o'rtacha uzunligi;

S) qimmatli qog'ozlar kursi;

D) chakana savdo hajmi;

E) sanoat mahsulotlari hajmi.

5. Iqtisodiy siklning yuksalish fazasida:

A) iqtisodiy faollik keskin kamayadi;

V) iqtisodiy faollik sust, turg'un bo'ladi;

S) iqtisodiy faollik jonlanib, o'sa boshlaydi;

D) iqtisodiy faollik ko'tariladi;

E) iqtisodiy faollikni qaysi tomonga o'zgarganini aniqlab bo'lmaydi.

6. XX asrning ikkinchi yarmida sikl fazalari o'zgarilib, nomlari ham o'zgardi. Quyidagi sanab o'tilganlardan qaysi biri ana shu o'zgarishni aks ettirmaydi?

A) depressiya fazasi yuz bermaydigan bo'ldi;

V) yuksalishning cho'qqisi ajratilib, u «BUM» deb atala boshlandi;

S) inqirozning eng pastki nuqtasi – tanazzul ajratiladigan bo'ldi;

D) jonlanish bilan yuksalish bir fazaga birlashadi;

E) to'rt fazaga ajratiladigan bo'ldi.

7. O'zbekiston uchun inqiroz eng chuqur bo'lib, YaIM hajmi avvalgi yilga nisbatan 11,1%ga qisqardi.

A) 1990-yil; V) 1991-y; S) 1992-y; D) 1993-y; E) 1994-y.

8. O‘zbekistonda inqiroz to‘xtatilib, avvalgi yilga nisbatan 1,7 % o‘shiga erishildi:

A) 1994y.; V) 1995y.; S) 1996y.; D) 1997y.; E) 1998y.

9. Iqtisodiy sikl qanday harakatni ifodalaydi?

A) iqtisodiyotning yopiq doira shaklidagi harakati;

V) iqtisodiyotning yuqorilab boruvchi chiziq shaklidagi harakati;

S) milliy iqtisodiyotning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchisi boshlanguncha takrorlanib turadigan harakati;

D) ishlab chiqarish o‘shish sur‘atlarining o‘zgarishi;

E) takror ishlab chiqarish bosqichlarining almashinishi.

10. Iqtisodiy sikllar bir-biridan nima bilan farqlanadi?

A) har xil fazalarga ega bo‘lishi bilan;

V) davomiyligi bo‘yicha;

S) intensivligi bo‘yicha;

D) A) va V) to‘g‘ri;

E) V) va S) to‘g‘ri.

11. Ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlikning o‘shishi, tovar zaxiralarining o‘shishi, kapitalning pul shaklida ortiqcha jamg‘arilishi va korxonalarining ommaviy sinishi iqtisodiy siklining qaysi fazasiga tegishli?

A) inqiroz;

V) turg‘unlik;

S) jonlanish;

D) yuksalish;

E) barcha fazasiga.

12. Tarkibiy inqirozlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabab nima?

A) ishlab chiqarishning notekis rivojlanishi;

V) iqtisodiyot ayrim tarmoqlari va sohalarining rivojlanishidagi chuqur nomutanosibliklar;

S) yalpi talabning o‘zgarishi;

D) yalpi taklifning o‘zgarishi;

E) ishlab chiqarish va iste‘molning mos kelmasligi.

13. Agrar inqirozlarning asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

A) mahsulotlarning nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishida;

V) narxlarning pasayishi, daromadlar va foydaning kamayishida;

S) siklli xarakterga ega bo‘lmashlikda va nisbatan uzoq davr davom etishida;

- D) ishsizlikning o'sishida;
- E) ishlab chiqarishning qisqarishida.

14. Sikldan iqtisodiyotning qaysi sohalari ko'proq yo'qotishga uchraydi?

- A) Qisqa muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlari;
- V) uzoq muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari;
- S) investitsion tovar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari;
- D) A) va V) to'g'ri;
- E) V) va S) to'g'ri.

15. Bugungi kunning eng dolzarb muammosi nima?

- A) AQSH dollarining qimmatini oshirish;
- V) jahonda yuz berayotgan inflatsiya darajasini pasaytirish;
- S) ekologik muammolarni hal qilish;
- D) 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari tufayli yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlash;
- E) iqtisodiyotni diversifikatsiyalash.

16. 2011-yilda davlat kafolati ostida ko'rsatilgan chet el investitsiyalari hajmi qanchaga ortgan?

- A) 2 baravardan ko'proqqa;
- V) 1,5 baravardan ko'proqqa;
- S) 2,5 baravardan ko'proqqa;
- D) 1,5 baravardan ko'proqqa;
- E) 113,5 foizga;

17. Resessiya deganda:

- A) iqtisodiy o'sishning yuksalish nuqtasidan keyingi fazadan so'ng olti oy davomida ketma-ket ishlab chiqarish sur'atining keskin pasayishi tushuniladi;
- V) ishlab chiqarish sur'atining keskin pasayishi tushuniladi;
- S) birja indekslarining ommaviy pasayishi tushuniladi;
- D) inflatsiyaning bir turi hisoblanadi;
- E) iqtisodiy o'sishning pasayishi tushuniladi.

18. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri:

- A) dunyo bozoridagi talabning keskin tushib ketishida;
- V) dunyo bozoridagi narxlarining keskin tushib ketishida;

S) eksportga yoʻnaltirilgan yetakchi tarmoqlar va ular bilan bogʻliq turdosh korxonalar faoliyatida;

D) tashqi savdo aylanmasining qisqarishida namoyon boʻldi.

E) yuqoridagilarning barchasi toʻgʻri.

19. Prezidentimiz I. A. Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari» asari necha qismdan iborat?

A) bir qismdan;

V) ikki qismdan;

S) uch qismdan;

D) toʻrt qismdan;

E) qismlarga boʻlinmagan.

20. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlariga qarshi kurash yoʻlida qanday chora-tadbirlarni ishga solish koʻzda tutilgan?

A) muomalaga koʻproq pul chiqarish;

V) sugʻurtaning yangi turlarini joriy qilish;

S) bank va moliya tizimlariga qoʻshimcha yordam berish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining faolligini kuchaytirish va barcha boshqa imkoniyatlarni ishga solish;

D) davlat kafilligi bilan kiritiladigan xorijiy investitsiyalarning salmogʻini yanada oshirish;

E) xalqaro tashkilotlardan imtiyozli kreditlar olishni koʻpaytirish.

21. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi eng avvalo iqtisodiyotimizning qaysi tarmoq va korxonalari faoliyatida namoyon boʻlmoqda?

A) yengil sanoat korxonalari faoliyatida;

V) eksportga yoʻnaltirilgan yetakchi tarmoqlar va ular bilan bogʻliq korxonalar faoliyatida;

S) oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida;

D) A) va V) toʻgʻri;

E) farmasevtika sanoati korxonalari faoliyatida.

22. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining har bir mamlakatga taʼsiri va koʻriladigan zararlar darajasi qaysi sohaning qudrati va barqarorligiga bogʻliq?

A) mudofaa sohasining salohiyatiga;

V) mamlakatning oltin zaxirasiga;

S) gaz va neft zaxiralarining hajmiga;

D) davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechogʻlik barqaror va ishonchli ekanligiga;

E) energetika sohasining barqarorligiga.

23. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining har qaysi davlatdagi miqyosi, koʻlami va oqibatlari qanday boʻlishi koʻp jihatdan:

A) mazkur davlatning moliya-valuta tizimi nechogʻlik mustahkam ekaniga bogʻliq;

V) milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (toʻlov imkoni)ga bogʻliq;

S) kredit institutlarining chet el va korporativ bank tizimlariga qanchalik qaram ekaniga bogʻliq;

D) oltin-valuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati, mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasiga bogʻliq.

E) yuqoridagilarning barchasi.

24. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish boʻyicha 2009–2012-yillarga moʻljallab qabul qilingan «Inqirozga qarshi choralar Dasturi» Oʻzbekistonning:

A) 2009-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng ustuvor yoʻnalishi boʻlib qoladi;

V) 2010-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng ustuvor yoʻnalishi boʻlib qoladi;

S) 2011-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng ustuvor yoʻnalishi boʻlib qoladi;

D) 2012-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng ustuvor yoʻnalishi boʻlib qoladi;

E) yuqoridagilarning barchasi toʻgʻri.

25. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish koʻp jihatdan:

A) har qaysi davlat doirasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uygʻunligiga bogʻliq;

V) dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uygʻunligiga bogʻliq;

S) diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasiga bogʻliq;

D) A) va V);

E) V) va S).

26. Inqirozga chora sifatida aylanma mablagʻlarni toʻldirish uchun korxonalarga markaziy bank qayta moliyalash stavkasining:

A) 70%dan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatda imtiyozli kreditlar berish;

V) 65%dan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatda imtiyozli kreditlar berish;

S) 60%dan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatda imtiyozli kreditlar berish;

D) 75%dan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatda imtiyozli kreditlar berish;

E) 80%dan ortiq bo'lmagan stavkalarda 12 oygacha bo'lgan muddatda imtiyozli kreditlar berish.

27. 2009-yilning 1-yanvarigacha O'zbekistonning jami tashqi qarzi YaIMning:

A) 13,0 % tashkil etishi, xalqaro nizomlar bo'yicha «har jihatdan maqbul holat» deb hisoblanadi;

V) 13,1 % tashkil etishi, xalqaro nizomlar bo'yicha «har jihatdan maqbul holat» deb hisoblanadi;

S) 13,2 % tashkil etishi, xalqaro nizomlar bo'yicha «har jihatdan maqbul holat» deb hisoblanadi;

D) 13,3 % tashkil etishi, xalqaro nizomlar bo'yicha «har jihatdan maqbul holat» deb hisoblanadi;

E) 13,4 % tashkil etishi, xalqaro nizomlar bo'yicha «har jihatdan maqbul holat» deb hisoblanadi;

28. Sekyuritizatsiya deganda:

A) faqat debitorlik qarzlarini qimmatli qog'ozlarga almashtirish tushuniladi;

V) ssuda va boshqa turdagi debitorlik qarzlarini qimmatli qog'ozlarga transformatsiyasi jarayoni;

S) garovga olingan aktivlarni qimmatli qog'ozlarga almashtirish tushuniladi;

D) A) va V) to'g'ri;

E) garovga qo'yilgan aktivlarni obligatsiyalarga almashtirish tushuniladi.

29. 2011-yilda O'zbekistonda YaIM necha foizga o'sdi?

A) 8,3 foiz; V) 9,0 foiz; S) 7,5 foiz; D) 6,5 foiz; E) 9,5 foiz.

**Markaziy va Sharqiy Yevropa, Boltiqbo‘yi, MDH va sobiq ittifoqning boshqa respublikalarida
YaIM dinamikasi**

6.1-jadval

Mamlakatlar	1989-yilga nisbatan % hisobida					O'tgan yilga nisbatan % hisobida				2012 yili 2000 yilga nisbatan %da
	Y I l l a r									
	1990	1995	2000	2001	2002	2005	2010	2011	2012	
1. Chexiya Respublikasi	98,8	94,2	100,1	103,4	106,0	106,8	102,5	101,8	98,8	140
2. Vengriya	96,5	85,5	104,2	108,2	111,7	104,0	101,3	101,6	98,3	121
3. Polsha	88,4	98,6	126,6	127,9	129,5	103,6	103,9	104,5	101,9	156
4. Slovakiya	97,5	83,9	102,6	106,0	110,2	106,7	104,4	103,2	102,0	168
5. Sloveniya	95,3	92,5	114,3	117,8	121,2	104,0	101,3	100,7	97,5	128
6. Bolgariya	90,9	76,8	73,6	76,6	80,0	106,4	100,4	101,8	100,8	153
7. Ruminiya	94,4	84,7	77,0	81,1	85,1	104,2	98,9	102,2	100,7	155
8. Estoniya	93,5	64,6	82,1	86,2	91,1	108,9	103,3	108,3	103,2	159
9. Latviya	102,9	52,8	67,0	72,1	76,1	110,1	99,1	105,5	105,6	159
10. Litva	95,0	55,1	64,8	68,7	72,8	107,8	101,5	105,9	103,7	168
11. Belarus	97,0	64,4	85,1	88,6	92,8	109,4	107,7	105,5	101,5	218
12. Moldova	97,6	38,3	33,7	35,8	38,4	107,5	107,1	106,8	99,2	175
13. Rossiya	100,0	95,5	58,7	61,6	64,3	106,4	104,5	104,3	103,4	173
14. Ukraina	96,0	45,0	40,7	44,4	46,5	102,7	104,1	105,2	100,2	161
15. Armaniston	92,6	48,9	62,9	68,9	77,8	113,9	102,2	104,7	107,2	241
16. Ozarbayjon	88,3	37,0	52,0	57,1	63,2	126,4	105,0	100,1	102,2	412
17. Gruziya	87,6	26,0	34,4	35,9	37,9	...	...	...	...	...
18. Qozog'iston	99,6	61,1	69,1	78,2	85,6	109,7	107,3	107,5	105,0	250

19. Qirg'iziston	103,0	90,3	65,9	69,4	69,1	99,8	99,5	106,0	99,1	157
20. Tojikiston	98,4	41,0	47,1	52,0	56,7	106,7	106,5	107,4	107,5	252
21. Turkmaniston	102,0	63,2	75,4	84,4	88,7	113,3	109,2	114,7	111,1	...
22. O'zbekiston	101,6	81,8	98,1	102,5	106,8	107,0	108,5	108,3	108,2	228

Manba: Социальный мониторинг 2003. Экономический рост и бедность. Внешний государственный долг. Аналитический материал. ЮНИСЕФ, 2003, с.99;
Йиллик статистик тўплам. Тошкент 2013, 333-334-бет

Jadval ma'lumotlariga diqqat qiling. Uni keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring. Nima sababdan iqtisodiyotning o'sishi siklli tarzda yuz beradi. Uni jadval ma'lumotlari yordamida asoslab bering.

O'zbekistonda iqtisodiy yuksalishga erishilib, qisqa muddat - 10 yil davomida deyarli 2,3 marta o'sishga erishilganining sabablarini tahlil qiling va fikringizni yozma ravishda bayon qiling.

2001- 2012 yillarda Xitoy xalq Respublikasida YaIM dinamikasi (O'tgan yilga nisbatan % hisobida)

6.2-jadval


Y I l l a r							2012 yili 2000 yilga nisbatan %da
2001	2005	2008	2009	2010	2011	2012	
108,3	111,3	109,6	109,2	110,4	109,3	107,8	319

2012 yili 2000 yilga nisbatan iqtisodiy o'sishda erishishda Xitoyga teng keladigan mamlakat bo'lmadi.

2014 yili dollarning xarid pariteti bo'yicha Xitoy YaIM hajmiga ko'ra AQSHdan o'zib, dunyoda birinchi o'rin olgani tan olindi. Siznincha buning sabablari nimada?

Rivojlangan mamlakatlarda 2007–2010-yillarda YaIMning o‘shish sur’atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)

6.1-diagramma



■ 2007 ■ 2008 ■ 2009 ■ 2010*

Diagrammaga diqqat qarating. Uni keyingi yil ma’lumotlari bilan to‘ldirib yangi diagramma chizing. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi iqtisodiyotning siklli rivojlanishi bilan qanday bog‘langanini tushuntiring.

Jahon mamlakatlarining inqirozga qarshi kurashga sarflagan moliyaviy sarflari

6.3-jadval

Mamlakat	Moliyaviy xarajatlar, mlrd. dollar	Mamlakat YaIMga nisb. % hisobida (2008 yil)
Rossiya	222	13,9
Buyuk Britaniya	1020	37
AQSH	3539	25
Germaniya	893	23
Yaponiya	576	12
Xitoy	570	13
Dunyo bo‘yicha	9400	15

Jadval raqamlarini tahlil qiling. Nima sababdan mamlakatlar inqirozga qarshi katta miqdorda mablag‘ sarflaganini sababini tushuntiring.

Respublikamizda 2009 – 2014-yillarda amalga oshirish ko‘zda tutilgan investitsion loyihalar Dasturi
(iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida, mln. doll.).

6.2-diagramma




Diagramma ma’lumotlariga diqqat qarating. Loyihalarda qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, uni amalga oshirilishi qanday natijalarga olib keladi deb o‘ylaysiz. Fikringizni asoslab bering.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning oqibatlarini bartaraf qilish uchun O‘zbekistonda belgilangan eng ustuvor vazifalari

Navbatdagi eng ustuvor vazifa – bu mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat*

Nima sababdan eng ustuvor vazifalardan biri sifatida infratuzilmani rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Buning sababi nimada? Yana qanday ustuvor vazifalar belgilangan. Ularni ko‘rsating. Chizmani to‘ldiring.

Ayrim rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o'sish sur'atlari

6.4-jadval

Mamlakatlar	2007	2008	2009	2010	2011	2012
AQSH	2.0	0.4	-2.7	2.9	1.7	1.8
Yaponiya	2.0	-0.7	-5.2	3.9	-0.4	1.9
Buyuk Britaniya	3.0	0.7	-4.9	1.7	0.8	0.7
Germaniya	2.5	1.2	-4.7	3.6	3.0	1.0

Manba: Социальный мониторинг 2003. Экономический рост и бедность. Внешний государственный долг. Аналитический материал. ЮНИСЕФ, 2003, с.99 "Экономическое развитие мировой экономики в 2013 году / <http://www.webecoiomy.ru>

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiling. Ulardan qanday xulosa chiqarish mumkin? Odatda krizisdan va resetsiyadan chiqish uchun eng ko'p qo'llaniladigan qanday chora-tadbirlarni bilasiz? Iqtisodchilar krizisni qancha muddat cho'zilishi va undan chiqishni **V, W, L** tarzida ko'rsatishadi va nomlashadi. Siz bunga qanday qaraysiz? Fikringizni bilgiring.

Krizisdan resetsiya nimasi bilan farqlahadi? Tushuntirib berihg

O'zbekiston uchun tashqi va ichki risklar

Tashqi risklar (tahdidlar)	Ichki risklar (tahdidlar)
Krizis va rivojlanishdagi nobarqarorlik	Yer-suv resurslarining cheklanganligi
Rivojlangan davlatlarning yangi texnologik yo'nalishga o'tishi munosabati bilan raqobatbardoshlikning kuchayishi	Orol dengizi va iqlimning o'zgarishi tufayli atrof muhitning yomonlashuvi
Dunyo kapital oqimidagi nobarqarorlik va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning kamayishi	Energetik xavfsizlikni mustahkamlash
O'zbekistonning doimiy eksport tovarlariga talabning kamayishi.	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash
O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy nobarqarorlikning yuzaga kelishi	Demografik rivojlanish oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar

T sxemada bildirilgan fikrlarni diqqat bilan o'qing. Iqtisodiyotimizni barqaror o'sishiga ko'satilgan risklar qanday ta'sir qiladi?

Ko'rsating. Risk deganda nimani tushunamiz? U tahdiddan farqlanadimi? Fikringizni izohlang.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1 e); 2i); 3 j); 4 g); 5 b); 6 a); 7 v); 8 d); 9 yo); 10 z).

Masala va mashqlar

1. YaMM joriy narxlarda 46,1%ga, 1987-yil o'zgarmas narxlarda 28,6%ga, Amortizatsiya 23,3% ga, Investitsiya 9,42% qisqargan. Ishsizlar 8 marta ko'paygan.

Jamiyat tarixida bu qadar uzoq muddatli chuqur tushkunlik bo'lmagan.

2. 1995-yili YaMMda sanoatning hissasi 17,1% qurilishni 7,1% bo'lgan, 2003-yili sanoatning hissasi 2,1 punktga, qurilishni 2,6 punktga kamaygan.

3. Xizmat ko'rsatish, 88,4 mln. dollarga yetgan, chakana savdo 54,4 dan 70,72 mln. dollarga o'sgan. Bu o'sish mavsumiy tebranishlarga misol bo'la oladi.

4. Guruhga taalluqli bo'lmagani: o'rta muddatli **Juglyar** sikli. U davriy, takrorlanib turuvchi (7–12 yil). Bu siklda tebranishlar katta, bu muvozanatni ancha chuqur buzilganini ko'rsatadi. Qolganlari, xo'jalik tizimining ayrim sohalarida yuz beradigan inqirozlar bo'lib, ayrim sohalar yoki tarmoqlarga xos tanglik tarzida nomuntazam holda yuz beradi.

T/N

1T; 2N; 3T; 4N; 5T; 6T; 7T; 8N; 9T; 10T.

Testlar

J: 1V), 2V), 3V), 4D), 5D), 6E), 7S), 8S); 9S); 10E); 11A); 12V); 13V); 14E); 15D); 16S); 17A); 18E); 19V); 20S); 21V); 22D); 23E); 24A); 25D); 26A); 27D); 28V); 29V).

7-MAVZU. BANDLIK VA ISHSIZLIK

1-§. Ishchi kuchi, uning o'lchami va tarkibi

Ishchi kuchi bu insonning jismoniy va aqliy qobiliyati bo'lib, mazkur qobiliyatning amalda ishlatilishi mehnat yoki ish jarayoni deb ataladi.

Ishchi kuchining miqdoriy va sifat o'lchami mavjud. Ish kuchining miqdori bu – ishlay oladigan, ya'ni mehnatga layoqatli kishilardir. Ularni odatda **mehnat resurslari** deb yuritiladi.

Ish kuchining **sifat jihatini** aynan uning bilimi, ko'nikmasi, malakasi, mahorati, ish tajribasi darajasi belgilaydi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida ish kuchining sifat ko'rsatkichi tubdan o'zgarib boradi.

Mehnat resurslari* respublikamizda

1. Mehnatga layoqatli yoshdagi:

16 yoshdan 55 yoshgacha ayollar.

16 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar.

2. Mehnatga layoqatli yoshda bo'lmasa-da (undan katta yoki kichik), lekin ishlayotganlar sonidan iborat (pensiya-dagi ishlovchilar, 16 yoshgacha bo'lgan ishlovchi o'smirlar).

Iqtisodiy faol aholi tarkibiga milliy xo'jalikda band bo'lgan barcha kishilar bilan bir qatorda ish qidirayotgan mehnatga layoqatli aholi ham kiradi.


O'zbekistonda mehnat resurslari va ish bilan bandlik dinamikasi (ming kishi)

7.1-jadval

	Yillar					2012 yilda 2000 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2000	2005	2010	2011.	2012	Absolyut (+;-)	Nisbiy (%)
O'zbekis- ton aholisi	24908,2	26407,8	29123.4	29555.4	27452,3	2544.1	110.2

Mehnat resurslari	13142,9	15241,4	17804.7	18184.6	18517.6	5374.7	140.8
Ish bilan bandlik	8983,0	10196,3	11628.4	11919.1	12223.8	32408	136.0

* Mehnat resurslari sonini aniqlashda mehnatga layoqatlilar sonidan nogironlar, ruhiy kasallar va maxsus muassasalarda joylashganlar chiqarib tashlanadi.



Eng ustuvor vazifalardan biri – bu mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat

O'zbekistonda yalpi ishchi kuchi, ming kishi
(1-yanvar holatiga)


7.2-jadval

T/r	Yillar	Yalpi ishchi kuchi	Shundan		Iqtisodiy faol qismining iqtisodiyotning real sohasida bandlar	Ishga joylashishga muhtojlar		
			Iqtisodiy faol qismi	Nofaol qismi		Jami	Ishsizlar	Ro'yxatdan o'tmagan ishga joylashishga tayyorlar
1	2000	12875,0	9227,0	3648,0	8865,0	421,4	35,4	386,0
2	2002	13181,0	9368,0	3813,0	9333,0	448,2	37,3	410,9
3	2004	14021,0	9945,5	4075,5	9910,6	425,0	39,2	385,8
4	2006	14418,0	10740,0	4278,0	10467,0	391,5	29,1	362,4
5	2008	15644,9	11659,0	3986,0	11035,4	623,3	22,9	600,4
6	2009	16103,5	11929,5	4174,0	11328,0	621,6	20,1	601,5
7	2010	16726	12286,6	4223,1	11628,4	674,4	16,2	658,2
8	2012	17564,3	12850,1	4714,2	12223,8	626,3		

Mehnat resurslari miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar:

- aholining tabiiy o'sishi;
- ishchi kuchi migratsiyasi.

Ishchi kuchi migratsiyasini keltirib chiqaruvchi sabablar:

- 
- ish haqi darajasidagi farqlar;
 - ishsizlikning mavjud bo'lishi;
 - ijtimoiy, tarixiy shart-sharoitlar, milliy an'analar va udumlar

2-§. Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari

Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz kengaytirilgan tarzda tiklab turish, ularning mehnat malakasini, umumiy bilimi, kasbiy tayyorgarlik darajasini yangilab va o'stirib borish hamda ishchi avlodini tayyorlash kabilarni o'z ichiga oladigan jarayondir.

Keng ma'noda ishchi kuchini takror hosil qilish quyidagilarni ham anglatadi:

- * aholining tabiiy harakati, ya'ni tabiiy o'sishning umumiy shart-sharoitlarini yaratish;
- * xodimlarni ishlab chiqarishga jalb qilish va bo'shatish;
- * mehnat resurslarini tarmoqlar, sohalar va hududlar o'rtasida taqsimlash hamda qayta taqsimlash;
- * aholining ijtimoiy, ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirib borish;
- * ishchi kuchining to'liq va samarali bandligini ta'minlash.

Band bo'lgan aholining iqtisodiyot sektorlari bo'yicha taqsimlanishi

7.3-jadval

Yillar	Ming kishi	foiz hisobida		
		Davlat sektori	Nodavlat sektori	Fuqarolar xususiy mulkchiligi
1990	7825,9	65,6	34,4	
1991	8254,6	64,5	35,5	
1993	8259,0	58,7	41,3	
2002	9333,0	23,4	76,6	
2005	10196,3	22,8	77,2	60.9
2007	10735,4	22,1	77,9	67.3
2008	11035,4	21,6	78,4	68.4
2009	11328,1	21,0	79,0	69.1
2010	11628,4	20,7	79,3	68.9
2012	12223.8	19.3	80.1	70.4

Aholining tabiiy o'sishini belgilab beruvchi omillar.

- 
- mamlakatning industrial taraqqiyoti va urbanizatsiya darajasi;
 - ijtimoiy muhit va iqtisodiy shart-sharoitlar;
 - madaniy-maishiy turmush an'analari;
 - milliy, tarixiy va demografik omillar.

O'zbekiston Respublikasida mehnatda band bo'lgan aholining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi)

7.4-jadval


Ko'rsatkichlar	Yillar								
	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2012
Band bo'lganlar soni, jami	9589,0	9910,6	10196,3	10467,0	10735,4	11035,4	11328,1	11628,4	12224
Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha									
Sanoat	1223,3	1283,9	1347,5	1402,4	1445,5	1486,7	1513	1540	1590
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	3063,0	3042,5	2996,5	2963,5	2930,1	3052,7	2898	3127	3261
Transport va aloqa tizimi	432,8	461,0	488,1	506,9	527,7	550	579	604	639
Qurilish	763,3	808,1	848,5	876,6	910,1	944,3	1008	1065	1130
Savdo, umumiy ovqatlanish, MTT tayyorlov sohalari	815,0	857,6	903,9	977,2	1055,4	1186,2	1186	1243	1330
Uy-joy va kommunal xo'jaligi hamda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasi	285,4	301,1	316,4	331,2	346,4	362,7	382	400	433
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot tizimlari	654,4	689,0	735,5	768,1	801,4	840,9	866	894	924
Ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy ta'minot tizimlari	1257,4	1321,0	1385,1	1434,1	1481,8	1568,2	1573	1610	1643
Moliya va kredit tizimi	50,4	52,8	54,2	54,4	58,4	61,9	64	66	66
Boshqa sohalari	1719,6	1093,6	1147,6	1152,2	1178,6	981,8	1259	1079	1208
Davlat sektorlari, % da	23,2	23,1	22,8	22,4	22,1	21,6	21,1	20,7	19,3
Band bo'lganlar soni, jami	9589,0	9910,6	10196,3	10467,0	10735,4	11035,4	11328,1	11628,1	12224

O‘zbekistonda aholining tabiiy harakati (1000 kishi hisobiga)

7.5-jadval


Ko‘rsatkichlar	Yillar										
	1995	1997	1999	2000	2001	2002	2004	2006	2007	2010	2012
Tug‘ilish	29,8	26	22,3	20,5	20,4	20,9	20,5	20,7	21,1	22,4	21,4
O‘lish	6,4	5,9	5,3	5,5	5,3	5,4	5,0	5,2	5,1	4,9	4,9
Tabiiy o‘rish	23,4	20,1	17,0	16,0	15,1	15,5	15,5	15,5	16,0	17,5	16,1

Ish bilan to‘la bandlik



Mehnatga layoqatli bo‘lgan va ishlashni xohlagan barcha kishilarning ish bilan ta‘minlashini anglatadi. Shu bilan birga ish bilan to‘la bandlik bir tomondan iqtisodiyotda ishsizlikning tabiiy darajasi mavjud bo‘lishini inkor etmaydi, boshqa tomondan, bu mehnatga layoqatli barcha kishilarning ishlab chiqarishga jalb etilishi zarurligini bildirmaydi

Ish bilan samarali bandlik




Ishsizlik tabiiy ishsizlik darajasidan oshmasa samarali bandlik ta‘minlangan hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarilgan YaMM potensial YaMM darajasiga teng bo‘ladi. Iqtisodchilar bu daraja 3-5% atrofida bo‘lishi kerak deyishadi. Bu miqdor turli mamlakatlarda obyektiv sharoit – ish kuchini safarbarligidan kelib chiqib, mazkur ko‘rsatkichdan farq qiladi.


Mehnat resurslarining oqilona band bo‘lishi ulardan foydalanishning intensiv turiga tayanishni taqozo qiladi, xodimlarning, o‘z mehnati natijalaridan to‘liq iqtisodiy manfaatdorligi ta‘minlanishi zarurligini anglatadi.

3-§. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash

Ish kuchi taklifining ishchi kuchiga bo'lgan talabdan ortib ketishi boshqacha aytganda iqtisodiy faol aholining ma'lum bir qismini ish bilan ta'minlamaslik, ya'ni ishlashni xohlaganlarni ish topa olmasligi ishsizlikdir

Ishsiz deb, mehnatga layoqatli bo'lib ish topa olmay, mehnat birjalarida ro'yxatda turgan kishilarga aytiladi.





Ishsizlikning tabiiy yoki muqarrar darajasi = Friksion ishsizlik + Tarkibiy ishsizlik

Ishsizlik darajasi ishsizlar sonining iqtisodiy faol aholining umum nisbatining foizdagi ifodasidir

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{Ishsizlar soni}}{\text{Iqtisodiy faol aholi}} \times 100$$

O'zbekistonda ishsizlik darajasi, (1998–2012-yillar)

7.6.-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar										
	1998	1999	2000	2004	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Ishsizlar soni (ming kishi)	40,1	45,2	42,0	34,9	25,5	32,2	22,9	601,4	658.2	622,4	626.3
Ishsizlik darajasi %	0,5	0,5	0,4	0,4	0,2	0,3	0,2	5.0	5.4	5.0	4.9

4-§. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. O‘zbekistonda bandlik muammosi

Ishsizlikning iqtisodiy oqibati – bu ishsizlikning tabiiy darajasidan yuqori bo‘lishi natijasida jamiyat tomonidan «yo‘qotilgan» yoki ishlab chiqarilmagan mahsulotdir.

Ishlab chiqaril-
magan («yo‘qotil-
gan») mahsulot

=

Potensial YaMM
(YaIM)

-

Real YaMM
(YaIM)

Amerikalik iqtisodchi Artur Ouken ishsizlik darajasi bilan YaMM hajmi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlab, ishsizlikni haqiqiy darajasi tabiiy darajasidan 1%ga ortishi YaMMni 2,5% kam yaratilishiga olib kelishini, ya’ni haqiqiy YaMM potensial YaMMga nisbatan 2,5%ga kam bo‘lishini ko‘rsatib berdi. Bu bog‘lanish uning nomi bilan **Ouken qonuni** deb yuritiladi. 2,5 raqami esa **Ouken koeffitsiyenti** deb ataladi. Boshqacha aytganda: 1:2,5; 2:5; 3:7,5 va h.k.

Ishsizlik tabiiy darajasidan past bo‘lganda haqiqiy YaMM (YaIM) hajmi uning potensial hajmidan ortib ketishi mumkin.

Buning asosiy
sabablari:

- qo‘shimcha smenalarni joriy qilish;
- kapital uskunalardan me’yorida belgilangan vaqtdan ortiqcha foydalanish;
- ish vaqtdan ortiqcha ishlash;
- o‘rindoshlik ishlarda band bo‘lish.

Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari

- ❖ kasb malakasi va mahorati yo‘qolib borishi;
- ❖ ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi;
- ❖ jinoyatchilikning o‘sishi va ijtimoiy hamda siyosiy tartibsizliklarning ortishi;
- ❖ oilaviy muhitning yomonlashuvi va ajralishlarning ko‘payishi;
- ❖ xarid quvvatining pasayishi va boshqalar.

O‘zbekistonda ish bilan bandlikni ta’minlash va uning tarkibini takomillashtirish yo‘llari	
→	I. Keng faoliyat turlari, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish.
→	II. Xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko‘rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo‘yicha xizmat turlarini ancha kengaytirish.
→	III. Qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.
→	IV. Ishdan bo‘shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o‘qitishni tashkil etishni tubdan o‘zgartirish.
→	V. Vaqtincha ishga joylashtirish imkoni bo‘lmagan mehnatga yaroqli aholini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash.

Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar

Asosiy tayanch tushunchalar

- | | |
|---------------------------|-----------------------|
| 1. Ishchi kuchi | 7. Ishsiz |
| 2. Mehnat resurslari | 8. Friksion ishsizlik |
| 3. Iqtisodiy faol aholi | 9. Tarkibiy ishsizlik |
| 4. Ish kuchi migratsiyasi | 10. Siklli ishsizlik |
| 5. Nufuz qonuni | 11. Oukun qonuni |
| 6. Ishsizlik | 12. Mehnat birjasi |

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

a) Ish kuchi taklifi unga bo‘lgan talabdan ortib ketishi tufayli iqtisodiy faol aholining ma’lum bir qismini ish topa olmasligi;

b) ishsizlik darajasi bilan YaMM hajmi o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatuvchi qonun. Ishsizlikni haqiqiy darajasi tabiiy darajasidan 1%ga ortishi YaMMni 2,5% kam yaratilishiga olib kelishi, ya’ni haqiqiy YaMM potensial YaMMga nisbatan 2,5%ga kam bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu bog‘lanish uning tadqiqotchisi nomi bilan Oukun qonuni deb yuritiladi. 2,5 raqami esa Oukun koeffitsiyenti deb ataladi;

v) iqtisodiyotning siklli o‘sishi bilan bog‘liq ishsizlik;

g) ish kuchi tarkibi, malakasi, mahoratining sekin o'zgarishi ish kuchiga talab tarkibi bilan mos kelmasligi tufayli kelib chiqadigan ishsizlik;

d) mehnatga layoqatli bo'lib, ish topa olmay mehnat birjalarida ro'yxatda turgan kishilar;

e) mehnatga layoqatli yoshdagi kishilar va ishlayotgan o'smir va pensionerlarni tashkil etadi;

yo) ishsizlikning doimo mavjud turi bo'lib, ish qidirish va ish kutish bilan bog'liq ishsizlik;

j) insonning jismoniy va aqliy qobiliyati bo'lib, uni insondan ajratib bo'lmaydi. Shu qobiliyatning ishlatilishi mehnat jarayoni deb ataladi;

z) milliy xo'jalikda band bo'lgan barcha kishilar va ish qidirayotgan mehnatga layoqatli aholidan iborat;

i) aholining tabiiy o'sishi bilan ehtiyojlarni qondirish darajasi o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Ruhoniy Tomas Maltus aholining o'sishi geometrik progressiya, yashash uchun zarur ne'matlarning o'sishi arifmetik progressiya asosida yuz berishi tufayli aholining qashshoq yashashi sababini izohlagan;

y) turli sabablarga ko'ra ishchi kuchining bir yerdan boshqa joyga ko'chishi;

k) ishchi, (xizmatchi) va korxona, (firma-tashkilot)lar o'rtasida ish kuchini yollash bo'yicha kelishuvni amalga oshirishda muntazam vositachi vazifasini o'taydigan, mehnat bozorini tartibga solishda asosiy rol o'ynaydigan maxsus muassasa.

Masala va mashqlar

1. Mamlakatda band bo'lganlar 15 mln. kishi edi. Ishsizlar 3 mln. kishini tashkil etadi. Bir oy o'tgach 15 mln. ishlab turganlardan 0,5 mln. kishi ishdan bo'shatildi; mehnat birjasidan rasman ishsiz, deb ro'yxatdan o'tgan 1 mln. kishi ish qidirishni to'xtatdi.

Ishsizlik darajasini, band bo'lganlar soni, ishsizlar sonini aniqlang.

2. Mamlakatda iqtisodiy faol aholi 11 mln. kishini tashkil etadi. Undan 2 mln. kishi ishlamaydi. Yaratilgan YaIM 16 mlrd. dollarni tashkil etadi.

Agar ishsizlikni tabiiy darajasi mamlakat uchun 5 % ni tashkil etsa, Ouken qonuniga binoan potensial YaIM ni hisoblang. Ishsizlik tufayli qancha YaIM kam yaratilgan?

Ouken qonuni nimani ifodalaydi, koeffitsiyenti-chi? Izohlang.

3. Mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solinishining me'yordagi darajasiga nisbatan ish bilan ta'minlanganligi 75% ni tashkil etadi. Iqtisodiyotda potensial YaIM ishlab chiqarish quvvatlarini 90% band bo'lishiga to'g'ri keladi.

Yilning oxiriga kelib yaratilgan mahsulot 600 mlrd. dollarni, ishsizlik iqtisodiy faol aholiga nisbatan 11,5 %ni tashkil etadi. Agar ishlab chiqarish quvvatlari qisqarmagan bo'lib, Ouken qonuni bo'yicha hisoblangan koefitsiyent shu mamlakat uchun ham to'g'ri desak:

1. Potensial YaIMni.

2. To'la bandlik ta'minlanmagani sababli yo'qotilgan YaIM hajmini potensial YaIM ga nisbatan.

3. Siklli ishsizlik tufayli yo'qotilgan YaIM hajmini (mlrd. dollar va % da).

4. Ishsizlikni tabiiy darajasini hisoblang.

5. Quyidagilarni o'qing:

Ularni uch kategoriya: «Bandlik» (**B**), «Ishsizlik» (**I**), «Ishsizlar tarkibiga qo'shilmaydigan» (**Q**) kategoriyalardan qaysi biriga kiritish mumkin, ko'rsating:

a) faqat o'z uyidagi ishlar va bolalari tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi uy bekasi;

b) moliya institutida o'qiyotgan talaba;

d) to'la ish kunida ishlamayotgan ishchi;

e) o'z vaqtining ma'lum bir qismida ko'chmas mulk oldi-sotdisi bilan shug'ullanayotgan uy bekasi;

f) o'z xohishi bilan ishdan bo'shayotgan ishchi;

g) ishdan tashqari vaqtda shofyorlikka o'qiyotgan sotuvchi;

h) sog'lig'ining yomonligi tufayli boshqa ishlay olmaydigan xizmatchi;

i) korxona yopilganligi sababli ishdan bo'shab, mehnat birjasida ro'yxatdan o'tib, ish qidirayotgan to'quvchi;

j) ishdan bo'shatilib, uzoq vaqt ish topolmay ish qidirishni to'xtatgan ishchi.

6. Quyidagi ishsizlikning namoyon bo'lishini uning qaysi shakllariga kiritishimiz mumkin?

a) ona bolalariga qarash uchun o'z xohishi bilan ishdan bo'shadi;

b) inqiroz paytida korxona yopilib, ishchi ishdan bo'shadi;

d) abituriyent o'qishi boshlangani tufayli ishdan bo'shadi;

e) muqobil energiyadan foydalanishga o'tish tufayli shaxtyor ishdan bo'shadi;


- f) olayotgan maoshi qoniqtirmagani sababli ishchi ishdan bo'shadi;
- g) dastgohlar talabga javob bermagani uchun korxona yopilib, to'quvchi ishdan bo'shadi;
- h) iqtisodiyotdagi tanglik tufayli televizor ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona faoliyatini to'xtatdi.

7. Topqirlik mashqi.

Chizmaning gorizontali bo'ylab, katakchalarga mos ravishda iqtisodiy tushunchalarning harfini joylashtirsangiz, vertikaliga qora chiziq bilan ajratilgan katakchalarda ish kuchi taklifini unga bo'lgan talabdan ortib ketishi tufayli, iqtisodiy faol aholining ma'lum bir qismini, ya'ni ishlashni xohlaganlarning ish topa olmasligi mazmunini ifodalovchi kategoriya kelib chiqadi.

Gorizontali:

- 1) o'z xohishi bilan ishlamaslik;
- 2) ishlab chiqarishda keragidan ortiqcha ishchining band bo'lishi yoki hayot kechirish uchun zarur bo'lgan darajada ish bilan ta'minlanmaslik;
- 3) aniq tarmoqlarning ishlab chiqarishdagi mavsumiy tebranishlari bilan bog'liq ishsizlik;



4) mehnat bozoridagi rezerv, iqtisodiy yuksalish davrida ishlab chiqarish quvvatini tezda o'stirish, xaridorni tanlab olish imkonini beradigan ishsizlik turi;

5) tovar va xizmatlar ayirboshlash, jumladan ishga yollashni tashkil qilish munosabati va ana shu iqtisodiy aloqalarni ma'lum bir tartib asosida amalga oshiriladigan joy;

6) Iqtisodiyotning siklli o'sishi bilan bog'liq, uning fazalariga ko'ra o'zgaruvchi

ishsizlik;

7) iste'mol talabi va tarkibida, texnologiyada muhim o'zgarishlar yuz berishi tufayli ishchi kuchiga bo'lgan umumiy talab tuzilmasining o'zgarishi natijasida kelib chiqadigan ishsizlik;

8) ish qidirish yoki kutish bilan bog'liq ishsizlik.

T/N

1. Ish kuchi migratsiyasining qanday va qay sharoitda yuz berishini o'rganish orqali, uning har bir turi va shakliga xos ravishda chora-tadbirlar ishlab chiqish mumkin.

2. Fan-texnika taraqqiyoti ish kuchidan yuqori malaka talab qilmaydi. «Aqlli» mashinalarning muruvvatini burashni o'rganib olsa bo'ldi, qolganini ularning o'zi avtomatik tarzda bajaraveradi.

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor xaridorning izmida. Bunday bo'lishi, ya'ni xaridor tanlash imkoniga ega bo'lishi uchun bozor to'kin, taklif ko'p bo'lishi kerak. Mehnat bozorida ham ish kuchiga bo'lgan talabga nisbatan ish kuchi taklifi ko'pligi yuqori malaka, mohirlikka ega bo'lish, talabga mos mutaxassisliklarni egallashga olib keladi.

4. Mehnat bozorini tartibga solishga davlatning aralashishi kerak emas. Bozor mexanizmining o'zi yetarli darajada tartibga soladi.

5. Ishsizlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta talafot keltiradi.

6. Uzoq muddat davom etgan ishsizlik oqibatida ishchi o'z malakasini yo'qotib boradi.

7. Ishsizlikning ko'payishi jinoyatning o'sishi uchun qulay sharoit yaratadi.

8. Ishsizlar bo'lsa-yu, ishsizlik nafaqasini olib tursa, aholining turmush darajasi pasaymaydi.

9. O'zbekiston aholisining asosiy qismi qishloq joylarda yashagani uchun qishloqda ish o'rinlarini yaratish muhim. Shuning uchun ham maxsus dasturlar ishlab chiqish amalga oshiriladi.

10. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi respublikamizda ish kuchini sifat jihatdan ham talabga mos kelishiga qaratilgan.

TEST SAVOLLARI

1. Iqtisodiyotdagi turg'unlik tufayli yuzaga kelgan ishsizlikni

A) tarkibiy ishsizlik;

V) siklli ishsizlik;

S) fraksion ishsizlik;

D) mavsumiy ishsizlik;

E) ixtiyoriy ishsizlik turiga kiritish mumkin.

2. Tabiiy ishsizlik:

A) iqtisodiyotda siklli ishsizlik mavjud bo'lmagandagi ishsizlik darajasi;

V) o'z ixtiyori bilan ishlashni xohlamaganda vujudga kelgan ishsizlik;

S) iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilganda vujudga kelgan ishsizlik;

D) mavsumga ko'ra vujudga keladigan ishsizlik;

E) mehnat bozorini samarali tashkil qilinmagani sababli vujudga kelgan ishsizlik.

3. Potensial YaIM bu ...

A) yil davomida haqiqiy yaratilgan YaIM;

V) mamlakat tomonidan ishlab chiqarish rejalashtirilgan YaIM;

S) «resurslarning to'la bandligi» sharoiti, ya'ni tabiiy ishsizlik darajasida yaratilgan YaIM;

D) joriy baholarda hisoblangan YaIM;

E) o'zgarmas baholarda hisoblangan YaIM;

4. Haqiqiy ishsizlik darajasi bu ...

A) mavsumiy, friksion, tarkibiy ishsizlik;

V) tarkibiy, ixtiyoriy, yashirin ishsizlik;

S) friksion, tarkibiy, yashirin ishsizlik;

D) friksion, mavsumiy, siklli ishsizlik;

E) friksion, siklli, tarkibiy ishsizlik.

5. Ouken koeffitsiyenti:

A) 1; V) 2; S) 2,5; D) 1,5; E) 3,5.

6. Fillips egri chizig'i:

A) ishsizlik darajasi bilan real ish haqining o'sishi o'rtasidagi;

V) ishsizlik darajasi bilan YaIM ishlab chiqarish o'rtasidagi;

S) ish haqi o'sishi bilan daromad o'rtasidagi;

D) ish haqining o'sishi bilan ishsizlik darajasi o'zgarishi o'rtasidagi;

E) ish haqining o'sishi bilan YaIM ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi.

7. Fillips egri chizig'i bo'yicha quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: ...

A) ishsizlikni inflatsiya sur'atini tezlashtirish evaziga pasaytirish mumkin;

V) ishsizlikni inflatsiya sur'atini pasaytirish evaziga kamaytirish mumkin;

S) ishsizlikni o'zgarishiga ta'sir qilish noto'g'ri, hammasini bozorning o'zi hal qiladi;

D) inflatsiya darajasini barqarorlashtirish zarur;

E) ish haqi qancha yuqori bo'lsa, unga talab shuncha kam bo'ladi;

8. Fillips egri chizig'i asosida xulosa chiqarib, mamlakatda iqtisodiy chora-tadbirlar belgilashda foydalanish mumkin, qachonki ...

A) nisbatan uzoq muddat, inflatsiya darajasi past bo'lsa;

V) nisbatan qisqa muddat, inflatsiya darajasi yuqori bo'lsa;

S) nisbatan qisqa muddat, inflatsiya darajasi past bo'lsa;

D) nisbatan uzoq muddat, inflatsiya darajasi o'zgarmasa;

E) nisbatan uzoq muddat, inflatsiya darajasi yuqori bo'lsa;

9. Iqtisodiy faol aholi bu ...

A) mamlakat aholisi;

V) mehnatga layoqatli aholi;

S) tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan va ish qidirayotgan aholi.

D) mehnatga layoqatli aholi va ish qidirayotganlar;

E) ish bilan band va ish qidirayotgan aholi;

10. Ishchi kuchini takror hosil qilish quyidagidardan qaysi birini o'z ichiga qamrab oladi?

A) xodimlarning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz tiklab turish;

V) xodimlarning mehnat malakasini oshirib borish;

S) xodimlarning umumiy bilim va kasbiy darajasini o'stirib borish;

D) xodimlarni iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash;

E) yuqoridagilarning barchasi.

11. To'liq bandlilik qanday ma'noda tushuniladi?

A) ishsizlikning mutlaq mavjud bo'lmasligi;

V) friksion ishsizlikning mavjud bo'lishi;

S) sikllik ishsizlikning mavjud bo'lishi;

D) tarkibiy ishsizlikning mavjud bo'lishi;

E) ishsizlikning tabiiy darajasining mavjud bo'lishi.

12. Faol aholi 6,7 mln. kishini, ishsizlar 0,5 mln. kishini tashkil qilsa, ishsizlik darajasi necha foizni tashkil qiladi?

A) 7,2%;

V) 6,5 %;

S) 7.5 %;

D) 8,0 %;

E) 8,5 %.

13. Ishsizlikning tabiiy darajasi 5%ni haqiqiy darajasi 8,5% ni tashkil qilsa, Ouken qonuni bo'yicha YaMM ning orqada qolishi necha foizni tashkil qiladi?

- A) 7,55 %;
- V) 8,75 %;
- S) 9,65 %;
- D) 6,55 %;
- E) 7,0 %.

14. Agar nominal YaMM 330 mlrd. so'mni, ishsizlikning tabiiy darajadan ortiqligi tufayli YaMMning orqada qolishi 8,75 %ni tashkil qilsa, iqtisodiyot qancha mahsulot yo'qotgan bo'ladi?

- A) 30 mlrd. so'mlik;
- V) 25 mlrd. so'mlik;
- S) 27 mlrd. so'mlik;
- D) 29 mlrd. so'mlik;
- E) 31 mlrd. so'mlik.

15. Quyidagi sanab o'tilgan iqtisodiy maqsadlarning qaysi biri aniq miqdoriy o'lchovga ega:

- A) iqtisodiy kafolat;
- V) to'liq bandlilik;
- S) iqtisodiy erkinlik;
- D) daromadlarni ijtimoiy adolatli taqsimlash;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

16. Mehnatga bo'lgan talab quyidagilarga bog'liq:

- A) bandlik darajasiga;
- V) mahsulotning taklifiga;
- S) ishlab chiqarish vositalarining hajmiga;
- D) mehnatga layoqatli bo'lganlar soniga;
- E) aniq mehnat turi unumdorligiga.

17. To'liq bandlilik sharoitida siklli ishsizlik darajasi qanday miqdorga teng?

- A) 0 ga teng;
- V) 1 % dan kam;
- S) tabiiy ishsizlikdan 2,5 % ga ko'p;
- D) 1 % dan ko'p;
- E) to'g'ri javob yo'q.

18. Ouken qonuniga binoan, ishsizlik darajasi tabiiy darajadan 2% ga oshganda, yalpi ichki mahsulotning hajmi necha foizga kamayadi?

- A) 2 % ga;
- V) 3 % ga;
- S) 4 % ga;
- D) 5 % ga;
- E) 7 % ga.

19. Universitetni bitirgan, ish qidirayotgan talaba, ishsizlikning qanday turiga kiradi?

- A) friksion ishsizlikka;
- V) tabiiy ishsizlikka;
- S) tarkibiy ishsizlikka;
- D) sikllik ishsizlikka;
- E) mutlaq ishsizlikka.

20. To'liq bandlilik sharoitida tabiiy ishsizlik nimada namoyon bo'ladi?

- A) siklli ishsizlikda;
- V) friksion ishsizlikda;
- S) ishsizlik «O»ga teng bo'lganda;
- D) tarkibiy ishsizlikda;
- E) friksion va tarkibiy ishsizlikda.

21. Ishsizlikning qaysi turi tabiiy ishsizlik hisoblanmaydi?

- A) friksion ishsizlik;
- V) sikllik ishsizlik;
- S) friksion va tarkibiy ishsizlik;
- D) tarkibiy ishsizlik;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

O'zbekistonda mehnat resurslari va iqtisodiyotda band aholining soni (2012-yil, ming kishi)¹

7.7-jadval

	Aholining o'rtacha miqdori	Mehnat resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Iqtisodiyotda bandlar
O'zbekiston	29993.5	17663,1	12850,1	12223.8
Qoraqalpog'iston respublikasi	1711.8			600.2
Andijon	2756.4			1176.3
Buxoro	1729.7			804.4
Jizzax	1205.0			402.9


¹ Статистическое обозрение Узбекистана, стр.88.

Qashqadaryo	2831.3			1036.6
Navoiy	888.4			418.5
Namangan	2458.7			872.1
Samarqand	3380.7			1314.4
Surxondaryo	2260.6			843.0
Sirdaryo	750.6			334.8
Toshkent	2695.7			1215.5
Fargʻona	3329.7			1398.8
Xorazm	1653.8			643.4
Toshkent sh.	2340.9			1162.2

Qoraqalpogʻiston Respublikasi va viloyatlar boʻyicha mehnat resurslari va iqtisodiy faol aholi miqdorini aniqlang. Jadvalni keyingi yil maʼlumotlari bilan toʻldiring. Tahlil qilib, xulosa chiqaring. Mehnat resurslari bilan iqtisodiy faol aholining farqini koʻrsating.

Ishsizlikni tabiiy darajasi doimiy emas. Keyingi paytlarda uni ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.


7.1-chizma



Yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari, siz yana qanday omillarni kiritgan bo‘lar edingiz?

Davlatning bandlik siyosati

Davlatning bandlik siyosati mamlakatda mehnatga layoqatli, ishlashni xohlagan kishilarni ish bilan ta‘minlash, ular va oila a‘zolarini hayot kechirish uchun zarur ne‘matlar bilan ta‘minlash imkonini yaratishni ko‘zda tutgan va uni amalga oshirish uchun belgilangan chora-tadbirlardir.



Sizningcha, O‘zbekistonda qaysi tadbirlarni qo‘llash muhimroq?

Bandlikning tarmoqlararo tarkibi

7.8-jadval

Tarmoqlar	2000 y. %da	2010y. %da	2012 y. %da
Iqtisodiyotda jami bandlik	100	100	100
- sanoatda	12,7	13.2	13.0
- qishloq va o'rmon xo'jaliklarida	34,4	26.9	26.7
- transport va aloqa	4,2	5.2	5.2
- qurilishda	7,5	9.2	9.3
- savdoda, maishiy-ovqatlanishda, ta'minotda	8,4	10.7	10.9
Uy-joy va kommunal xo'jaliklarida, noishlab chiqarish maishiy xizmat ko'rsatishda	2,8	3.4	3.5
Sog'liqni saqlashda, jismoniy tarbiya va sportda, ijtimoiy ta'minotda	6,5	7.7	7.9
Ta'lim, madaniyat, san'at, ilm-fan va ilmiy ta'minotda	12,8	13.8	13.4
Moliya, kredit, sug'urta va nafaqa ta'minotida	0,6	06.	0.5
Davlat va ma'muriy boshqaruv tashkilotlarida	1,4		
Boshqalarda	8,7	9.3	9.9

Jadvalni keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. O'zbekistonda bandlikning tarkibi 2000-yildan so'ng qanday o'zgargan? Javobingizni asoslab bering.

Bandlikning mulk shakllari bo'yicha tarkibi

7.9-jadval

	O'lchov birligi	2005 yil	2010yil	2012yil
Band aholi soni	Ming kishi	10196	11628	12224
Mulk shakllari bo'yicha:				
Davlat sektori	Ming kishi	2323	2410	2363
	%			
Nodavlat sektori	Ming kishi	7873	9218	9861
	%			
Fuqarolar xususiy mulkchiligida	Ming kishi	6215	8020	8605
	%			

Jadval raqamlariga diqqat qiling. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Band aholini mulk shakllari bo'yicha ulushini aniqlang. Ishlashni xohlaganlarni ish bilan ta'minlashda nodavlat sektorining tutgan o'rnini va rolini ko'rsating.

Rivojlangan mamlakatlarda 2007–2012-yillarda ishsizlik darajasi¹

7.1-diagramma




Diagramma ma'lumotlariga diqqat qiling. Rivojlangan mamlakatlar bilan O'zbekistondagi ishsizlik darajasini solishtiring, tahlil qilib xulosa chiqaring. Keyingi yillarni hisobga olib, esse yozing.

¹ Мировая экономика: история и прогноз развития // <http://www.ereport.ru/>; Перспективы развития мировой экономики в 2013 году // <http://www.webeconomy.ru/>

**O‘zbekistonda yangi ish o‘rinlarini yaratishda kichik biznes
subyektlarining ulushi, ming kishi**

7.10-jadval

	Yillar				
	2008	2009	2010	2011	2012
Yangidan tashkil etilgan ish o‘rinlari soni	661	940,5	950	998,3	1000,0
Shu jumladan:					
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda	374,3	391,8	600	639	703,0
Foiz hisobida	56,6	41,7	63,2	64,0	70,3
Jami iqtisodiyotdagi band bo‘lganlar soniga nisbatan ulushi, foiz hisobida	72,7	74,2	74,3	74,4	75,7

Jadval raqamlariga qiqqat qarating. Keying yil ma’lumotlari bilan to‘ldiring. Ular asosida diagramma chizing. Mamlakatimizda yangi ish o‘rinlari yaratishning qanday ahamiyatga ega ekanligini va bunda kichik biznesning rolini ko‘rsating. Bu borada kelajak istiqbolini belgilay olasizmi?

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar

1 j); 2 e); 3 z); 4 y); 5 i); 6 a); 7 d); 8 yo); 9 g); 10 v); 11 b). 12 k).

Masala va mashqlar:

1. Dastlab, ishsizlik darajasi 16,6 % bo‘lgan;
Bir oydan so‘ng ishlovchilar 15,5 mln. kishi, ishsizlar 2,5 mln. kishi; ishsizlar darajasi 13,9%.
2. 1) ishsizlikni haqiqiy darajasi 18%
2) ishsizlik evaziga 32.5% YaIM yo‘qotilgan
3) agarda ishsizlik to‘la bandlik darajasida bo‘lganda 23,7 mlrd. dollarlik mahsulot yaratilgan bo‘lar edi. 7,7 mlrd. dollar mahsulot potensial YaIM dan kam yaratildi.
3. 1) potensial YaIM 1018,8 mlrd. doll.

2) $\frac{100 \cdot 53}{73} = 27,6\%$ ish kuchining normal darajada ish bilan ta'minlanganlik darajasi 70,6; shunga muvofiq haqiqiy YaIM = 799,2;

Jamiyat potensial YaIMga nisbatan o'zgarmas narxlarida 199,2 mlrd. doll yoki 19,5 % YaIM yo'qotgan.

3) Siklli ishsizlik natijasida jamiyat 219,7 mlrd. so'mlik yoki 21,5 % YaIM yo'qotayapti.

4. Ouken qonuni bo'yicha 21,5 % YaIM yo'qotilgan. U holda haqiqiy ishsizlik tabiiy ishsizlik darajasidan $\frac{1 \cdot 21,5}{2,5} = 8,6\%$ ga ko'p.

Ishsizlikni haqiqiy darajasi –2,9% ga teng.

5. B-kategoriyasiga V); G); E); I-kategoriyasiga – D); Z); Q - kategoriyasiga A); B); J); I).

6. A); V); D) – friksion ishsizlik; B); Yo) – siklli ishsizlik; G); E); tarkibiy;

7. Topqirlik mashqi: 1) ixtiyoriy; 2) yashirin; 3) mavsumiy; 4) tabiiy; 5) bozor; 6) siklli; 7) tarkibiy; 8) friksion; vertikaliga, ishsizlik.

T/N

1T; 2N; 3T; 4N; 5T; 6T; 7T; 8N; 9T; 10T.

Testlar

1V); 2A); 3S); 4E); 5S); 6D); 7A); 8S); 9E). 10E); 11E); 12S); 13V); 14D); 15V); 16E); 17A); 18D); 19A); 20E); 21V).

8-MAVZU. PUL MUOMALASI VA INFLATSIYA

1-§. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari Pul tizimi

Pul muomalasi – bu tovarlar aylanishi, notovar xarakterdagi bitimlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar (kredit pullar) harakati.

Boshqacha aytganda pul muomalasi – bu xo‘jalik aylanmasida pulning doimo harakatda bo‘lishi, uni o‘z funksiyalarini to‘xtovsiz bajarib turishidir.

Naqd pullar

- bank biletlari
- metall tangalar (pul belgilari)

Kredit pullar (naqd pulsiz hisoblar)

- * cheklar
- * kredit kartochkalari
- * veksellar
- * akkreditivlar
- * to‘lov talabnomalari va h.k.

Pul muomalasi qonuni muomala uchun zarur pul miqdorini aniqlash va unga muvofiq muomalaga pul chiqarishni taqozo qiladi.


Muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori barcha sotiladigan tovar va xizmatlar summasiga to‘g‘ri mutanosib, pul harakati tezligiga teskari mutanosib bo‘lib, ana shu bog‘lanish pul muomalasi qonunining mazmunini ifodalaydi.

Uning matematik ifodasi

$$M_{i=1} = \sum^n PQ / V;$$


M – muomala uchun zarur pul miqdori;
 $\sum PQ$ – yil davomida yaratilgan YaIM yoki turli narxlar darajasida sotiladigan barcha tovarlar va xizmatlar miqdori (summasi);
V – pulning aylanish tezligi; $V = 12/T$;
T – pul birligining 1 marta aylanish uchun ketgan vaqt, ya’ni pulning bankdan chiqib, yana qaytib kelishi uchun ketgan vaqt.

Muomala uchun zarur pul miqdorini (PM) aniqlash usullari




Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini belgilovchi omillar

- Muayyan davrda (bir yilda) sotilishi kutilayotgan tovarlar miqdori;
- Tovarlarni va xizmatlarni narxlari;
- Pul birligining aylanish tezligi;
- Kredit munosabatlarining rivojlanganlik darajasi.



Pul tizimi – bu mamlakatda mavjud pul birligi muomalasini tashkil qilish tartibi, usullari va unga xizmat qiluvchi kredit muassasalaridir.

Pul tizimining tarkibiy qismlari

- 
- pul birligi (dollar, marka, yen, rubl, so‘m va h.k.);
 - pul turlari (bank biletlari, tanga, chaqalar);
 - pul emissiya qilish tartibi;
 - muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi davlat muassasalari;
 - naqd pulsiz hisob-kitobni amalga oshirish tartibi;
 - milliy valutani chet el valutasiga almashtirish tartibi

2-§. Pul bozori. Pul taklifi va pulga bo‘lgan talab.

.....


Pul bozori – moliyaviy bozorning tarkibiy qismi bo‘lib, unda pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar harakati ularga bo‘lgan talab va taklif ta’sirida uyg‘unlashtiriladi.

Pul bozori turlari

- Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DMO) bozori.
- Kredit resurslari bozori.
- Banklararo depozitlar bozori.

Pul taklifi, muomalada mavjud bo‘lgan pul miqdorini (massasini) ifodalaydi, uni aniqlash uchun pul agregatlari (M_0 , M_p) yoki tarkibiy qismlari tushunchasidan foydalaniladi.

O‘zbekistonda umumiy pul miqdorini hisoblash uchun qo‘llaniladigan pul agregatlari


- 
- M_0 = naqd pullar;
 - M_1 = M_0 + hisob varaqalaridagi pul qoldiqlari + mahalliy budget mablag‘lari + budget, jamoat va boshqa tashkilot mablag‘lari;
 - M_2 = M_1 + banklardagi muddatli omonatlar;
 - M_3 = M_2 + chiqarilgan sertifikatlar + aniq maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatlari.

M_n , ya’ni barcha pul agregatlari summasi mamlakatdagi umumiy pul taklifini tashkil qiladi.

Pulga talab – bu ayriboshlash bitimlari va investitsion maqsadlar uchun pulga bo‘lgan talab summasidir.

❖ **Bitim uchun** – ya’ni ayriboshlash vositasi sifatidagi pulga talab miqdoran nominal YaMMga to‘g‘ri mutanosiblikda o‘zgaradi.

❖ Investitsion pulga talab miqdoran foizning real stavkasiga teskari mutanosiblikda o‘zgaradi.



8.1-chizma

Pulga talab haqidagi nazariyalar

Monetaristik nazariya

- Unga ko‘ra, pulga talab faqat tran-saksion maqsad (bitimlar uchun), ya’ni ayriboshlash, oldi-sotdi jarayonida bitim tuzish uchungina zarur.
- Muomalaga ana shu maqsad uchun za-rur bo‘lgan minimal miqdordagina pul kerak. Boshqa har xil maqsadlarda pul saqlash noto‘g‘ri

Keynscha nazariya

- **Bitim uchun**, ya’ni ayriboshlash vosi-tasi sifatidagi pulga talab.
- Ehtiyotkorlik maqsadi, har ehtimolga qarshi naqd pul saqlash zaruriyati.
- Chayqovchilik maqsadi, ya’ni turli qimmatli qog‘ozlarni arzon bo‘lishini kutib pulni saqlash.

3-§. Inflatsiya, uning turlari va kelib chiqish sabablari

Inflatsiya (lotincha-inflatio – shishirilgan) tushunchasi birinchi marta shimoliy Amerikada 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushi davrida ishlatilgan va muomaladagi qog‘oz pullarning ko‘payib ketishini anglatgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu tushuncha XIX asrda, birinchi jahon urushidan keyin keng qo‘llanila boshlagan.

Inflatsiya – muomalada keragidan ortiqcha pul paydo bo‘lib, narx-navo o‘shib, pul qadr-qiymati, ya’ni xarid qobiliyatining pasayishi, pulning obro‘sizlanishidir. Inflatsiya – bu barcha tovar va xizmatlarga bo‘lgan narx indeksining ko‘tarilishidir.

Inflatsiya namoyon bo‘ladi:

- tovar (xizmat)larning mavjud taklifiga nisbatan muomaladagi naqd pullar yoki moliyaviy aktivlar hajmining haddan tashqari ortib ketishida;
- pulning sotib olish layoqatining pasayib borishida;
- narxlarning uzoq muddatli umumiy o‘shishida.

Deflatsiya – inflatsiyaga qarama-qarshi jarayonni, ya’ni narxlar umumiy darajasining pasayib borishini bildiradi.

Inflatsiya davrida milliy pul birligi quyidagilarga nisbatan qadrsizlanadi.

- Tovar (xizmat)larga;
- oltin va boshqa qimmatbaho metallarga;
- barqaror chet el valutariga.

Inflatsiya sur‘ati narx indeksi (P_i) yordamida aniqlanadi.

Narx indeksi – bu joriy davrdagi narxlarning (P_1) bazis davrdagi narxlarga (P_0) nisbatidir.

$$P_i = \frac{P_1 - P_0}{P_0} \times 100$$

Agar joriy davrda narxlarning o‘shish sur‘ati 113,6 va bazis davrda 118,3 teng bo‘lsa, bunda inflatsiya sur‘ati 4,1 foizni $(= \frac{118,3 - 113,6}{113,6} \cdot 100)$ tashkil qiladi.

Narx indeksi turlari	
Iste'mol tovarlari narx indeksi	Iste'mol savatiga kirgan tovarlarning joriy va bazis davrdagi narxlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.
Ulgurji narxlar indeksi	Korxonalar tomonidan an'anaviy ravishda sotib olinadigan investitsion tovarlar to'plami narxlar bo'yicha aniqlanadi.
YaMM (YaIM) deflyatori	Nominal va real YaMM (YaIM) hajmining ikki davrdagi nisbatlari bilan aniqlanadi
Eksport va import tovarlar narxi indeksi	Asosiy eksport va import tovarlari narxlarining o'zgarishini aks ettiradi.

Narx indekslari	
	Laspeyres indeksi. Unda o'zgarmaydigan tovarlar to'plami uchun narxlarning o'sish sur'ati aniqlanadi. $I_p = (P_t \times Q_t) / (P_b \times Q_b)$, bunda: P_t – joriy yildagi narxlar; P_b – bazis yildagi narxlar; Q_t va Q_b – joriy va bazis davrda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi. <i>Kamchiligi: ancha qimmat tovarlarni arzonroq tovarlar bilan almashtirish imkoniyatini hisobga olmaydi</i>
	Paashe indeksi. Unda narxlar indeksi tovarlarning bir-birining o'rnini bosish imkoniyatini hisobga olib aniqlanadi. $I_p = (P_t \times Q_t) / (P_b \times Q_t)$; <i>Kamchiligi: farovonlik darajasining pasayishida ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettirmaydi.</i>

Fisher indeksi. Unda yuqoridagi har ikkala formulaning kamchiliklari bartaraf qilinadi:

$$I_f = I_I \times I_p;$$

Inflatsiya sur'ati (I_n) ko'rsatkichi

$$I_n = (I_t \times (I_t - 1) \times 100$$

bu yerda, I_t – bazis davrdagi narx indeksi; $I_t - 1$ – bazis va joriy davrlardagi narx indeksidagi farq. Bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda foydalaniladi.


Inflatsiyaning kelib chiqish sabablari

- Markaziy bankning pul massasini ko'paytirishga qaratilgan siyosati;
- Davlat budjeti xarajatlarining daromadlaridan oshib ketishi;
- iqtisodiyotning milliyashtirilishi;
- bozorning holati, unda raqobat mexanizmining amal qilish darajasi;
- davlatning oshirilgan soliq solishga qaratilgan siyosati;
- ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borishi (mahsulot birligiga);
- talabning nisbatan ortiqchaligi;
- iqtisodiyotning «ochiqligi» darajasi.

Inflatsiya turlari

I. Narxlarning o'sish sur'atiga ko'ra:


- me'yoridagi inflatsiya (yiliga 3–5%)
- o'rmalab boruvchi inflatsiya (yiliga 29–200%)
- shiddatli inflatsiya
- giperinflatsiya (oyiga 50% va undan ortiq).




Pigu effekti. Bu ingliz iqtisodchisi Artur Pigu (1877–1959y.y.) nomi bilan bog'liq. Unga ko'ra me'yorida amal qiladigan bozor iqtisodiyoti sharoitida inflatsiyaning kutilishi aholi tomonidan narxlarning o'sishiga qisqa vaqtda ro'y beradigan holat deb qaralishiga va oqibatda narxlar pasayguncha ularning pul sarflarining kamayishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida talabni kamaytiradi va oxir oqibatida narxlar pasayishi kuzatiladi.

4-§. Inflatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Davlatning inflatsiyaga qarshi tadbirlari

Inflatsiyaning iqtisodiy oqibatlari

- 
- Aholining oʻrtacha turmush darajasi pasayadi;
 - Qayd qilingan (doimiy) daromad oluvchilar real daromadi kamayadi;
 - pul jamgʻarmalari qadrsizlanadi va pulga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar real qiymati pasayadi;
 - iqtisodiyotning turli tarmoqlari oʻrtasidagi nomutanosiblik kuchayadi;
 - investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniладigan isteʼmol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar iqtisodiy ahvoli ogʻirlashadi;
 - investitsiyalar foizining real stavkasi va foizli daromadlar kamayadi.
 - boʻsh pul mablagʻlarining ishlab chiqarish sohasidan muomala sohasiga oqimi kuchayadi;
 - budjet daromadlari qadrsizlanadi va budjet taqchilligi kuchayadi;
 - davlatning ichki va tashqi qarzlar miqdori oʻsib boradi;
 - barter ayirboshlash oʻz oʻrniga ega boʻladi.

Inflatsiyadan yutqazmaydigan yoki undan naf koʻradigan qatlamlar

- 
- ⊗ Tovarlar, xomashyo, fond birjasida va valuta bozorlarida vositachilik qiluvchilar;
 - ⊗ qarz olgan jismoniy va huquqiy shaxslar;
 - ⊗ pulni oʻz vaqtida koʻchmas mulk, qimmatbaho va noyob buyumlar hamda barqaror chet el valutalariga almashtirganlar;
 - ⊗ davlat tuzilmasida va bozorda monopol mavqega ega boʻlganlar;
 - ⊗ kundalik zaruriy isteʼmol tovarlarini ishlab chiqaruvchilar.

Davlatning inflatsiyaga qarshi siyosati, inflatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatish, ya'ni inflatsiya ustidan nazorat o'rnatish va narxlar o'sishini nisbatan past darajada ushlab turishga qaratiladi.

Davlatning inflatsiyani jilovlashga qaratilgan uzoq muddatli (strategik) chora-tadbirlari

I. Ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar:

- ❖ foydaga imtiyozli soliqlar belgilash;
- ❖ ishlab chiqarish maqsadlariga imtiyozli kreditlar berish;
- ❖ yangi ish boshlagan korxonalarga subsidiyalar berish;
- ❖ tashqi savdo (eksport-import)ga imtiyozlar berish;
- ❖ samarali antimonopol tadbirlarni amalga oshirish.

II. Budjet taqchilligini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar:

- budjet daromadlarini ko'paytirish (soliq bazasini kengaytirish orqali);
- budjet xarajatlarini kamaytirib borish;
- investitsion jarayonlarga davlatning aralashuvini nisbatan cheklash, asoslanmagan subsidiya hamda dotatsiyalarni kamaytirish va h.k;
- fan-texnika taraqqiyotini, iqtisodiyotdagi ijobiy tarkibiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash.

III. Pul massasini tartibga solishga qaratilgan tadbirlar.

- pul daromadlarining o'sishini cheklash yoki to'xtatib qo'yish;
- pul emissiyasini cheklash;
- davlat kreditlarini qat'iy chegaralash;
- banklararo kredit resurslarining auksionlarini kengaytirish;
- davlatning oltin va valuta zaxiralarini ko'paytirish;
- korxonalarni xususiylashtirish jarayonini kengaytirish va h.k.

IV. Tashqi omillarning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar:

☻ Bu tadbirlar chet el kapitallari, qisqa muddatli kreditlari va qarzlariga inflatsiyaning ta'sirini kamaytirishga qaratiladi.

Davlatning inflatsiyani jilovlashga qaratilgan qisqa muddatli tadbirlari



- Qo'shimcha turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarga imtiyozlar berish;
- iste'mol tovarlari importini kengaytirish;
- yangi xususiy korxonalar aksiyalarini sotishni rag'batlantirish;
- muddatli omonatlarga yuqori foiz stavkalarini belgilash;
- ichki bozor raqobatbardosh bo'lgan sharoitda milliy valuta kursini oshirish;
- davlat oltin va valuta zaxiralaridan qisman inflatsiyani jilovlashda foydalanish.

Surunkali giperinflatsiya sharoitida inflatsiyani yumshatishga qaratilgan majburiy tadbir – bu pul islohotlarini o'tkazish hisoblanadi.

Pul islohotlarining turlari

Nullifikatsiya

Inflatsiya sur'ati juda yuqori darajada bo'lganda qo'llanilib, bunda qadrsizlangan pul o'rniga muomalaga yangi pul birliklari chiqariladi. Masalan, bu tadbir 1797-yilda Fransiyada qo'llanilib, muomalaga qog'oz pullar o'rniga real pullar, ya'ni qimmatbaho metallardan ishlangan tangalar chiqarilgan.

Devalvatsiya 	Bunda eksportni rag‘batlantirish, importni cheklash va to‘lov muvozanatini yaxshilash maqsadida nisbiy valuta kursi rasmiy ravishda pasaytiriladi. Masalan, 1986-yil AQSHda dollarning Yaponiya ieniga nisbatan kursi 2 barobar pasaytirilgan
Denominatsiya 	Bunda eski pul birliklari ma’lum bir nisbatda yangi pul birliklari bilan almashtiriladi. Denominatsiya 1961-yil sobiq ittifoqda (10:1 nisbatda), 1994-yil O‘zbekistonda (so‘m-kuponga 1000:1 nisbatda) va 1998-yil Rossiyada (1000:1 nisbatda) qo‘llanilgan.

Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar:

Asosiy tayanch tushunchalar

- | | |
|--------------------------------|-------------------------------|
| 1. Pul tizimi | 6. Pulga jamg‘arma, moliyaviy |
| 2. Pul muomalasi | aktivlar sifatida talab |
| 3. Pul bozori | 7. Pul miqdori |
| 4. Pulga talab | 8. Pul muomalasi qonuni |
| 5. Bitimlar uchun pulga talab- | 9. Inflatsiya |
| (jamg‘armani pul shaklida saq- | 10. Pulning aylanish tezligi |
| lashning transaksion maqsadi) | |

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

- a) Moliya bozorining tarkibiy qismi bo‘lib, pulga talab va taklif asosida umumiy foiz darajasi, zarur va taklif etilayotgan pulning muvozanatli hajmini belgilovchi bozor;
- b) muomalaga chiqarilgan pul miqdori;
- v) mazkur mamlakatning pul muomalasini qonuniy asosda tashkil etish tartibi, usullari, ularga xizmat qiluvchi muassasalar;

g) kishilarning jamg'arma (moliyaviy aktivlarning pul shaklidagi hajmi) sifatida saqlash uchun zarur pul miqdori, foiz stavkasiga teskari mutanosib o'zgaradi;

d) xo'jalik aylanmasida pulning doimo harakatda bo'lib, o'z funksiyalarini to'laqonli bajarishi;

e) firma, korxona, uy xo'jaligining muomala, ya'ni oldi-sotdi bitimlari va zaxirada saqlayotgan pul mablag'lari miqdori;

yo) muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori bilan yaratilgan YaMM yoki barcha sotiladigan tovarlar va xizmatlar narxining jami summasiga to'g'ri, pul aylanishi tezligiga teskari mutanosib bog'lanish;

j) muomalada pul taklifining talabga nisbatan haddan tashqari ko'payib kelishi oqibatida, pulning xarid quvvatini pasayishi, pulning obro'sizlanishi. U narx indeksining ko'tarilishida ifodalanadi;

z) muomala vositasi sifatida ishlatish uchun zarur pul miqdori, nominal YaMM hajmiga to'g'ri mutanosib;

i) yil davomida pul birligining tovar va xizmatlarni sotib olish uchun necha marta ishlatilishini ifodalovchi ko'rsatkich.

Masala va mashqlar

1. Bitim tuzish uchun mo'ljallangan har bir so'm, yil davomida o'rtacha 5 marta aylanadi va tovar xizmatlar sotib olish uchun sarflanadi. YaMMning nominal hajmi 9664 mlrd. so'mni tashkil etsin.

Bitimlar uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlang.

Muomala uchun zarur pul miqdori qanday omillarga bog'liq?

2. Pulga jamg'arma tarzidagi talab turli foiz stavkalarida quyidagicha bo'lsin.

Foiz stavkasi	Pulga talab mlrd. so'm	
	Jamg'arma sharoitida	Umumiy
30	50	
25	70	
20	90	
15	130	
10	150	

Agar bitimlar uchun pulga talab 1932,8 mlrd. so'm bo'lsa, pulga umumiy talabni hisoblang.

Pul muomalasini tartibga solishda sizningcha qanday choralar qo'llagan ma'qul. Pulga talab va uning tarkibi qanday pul turida ifodalanishi rol o'ynaydimi?

3. Muvozanatli foiz stavkasi 10% bo'lganda jamg'arma sifatidagi pulga talab 150 mlrd. so'm edi. Foiz stavkasi 12%ga ko'tarilgach, uning miqdori 2%ga kamaydi. Shu bilan birga YaIM hajmi avvalgi 900 mlrd. so'mga nisbatan 200 mlrd. so'mga ko'paydi. Pulning aylanish tezligi 5 bo'lgani holda, pulga umumiy talab qanday o'zgaradi. Hisoblang.

Pulga talab va taklif muvozanatining buzilishi qanday oqibatlariga olib keladi, izohlang.

4. Inflatsiyaning giperinflatsiyadan farqi nimada? Bu tushunchalarni farqlashga iqtisodchilar o'rtasida shunday latifa bor. Inflatsiya kuchayib borayotgan sharoitda siz bir sumka to'la qog'oz pul bilan maosh oldingiz. Uyga qaytayotganda pulni tashqarida qoldirib, telefon avtomatdan tanishingizga qo'ng'iroq qilish uchun to'xtadingiz. Agar gaplashib bo'lib, kabinadan chiqqaningizdan so'ng bo'sh xalta yotganini ko'rsangiz – bu inflatsiya. Agar pullar yerda sochilib yotib, sumkani o'g'irlab ketgan bo'lishsa, bu giperinflatsiya. Siz ana shu latifani iqtisodiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan qanday izohlagan bo'lar edingiz?

5. Inflatsiya jarayonining boshlanib ketishiga nima sabab bo'ldi, pul massasini ko'payishimi yoki narx o'sishi?

a) mamlakatda muomaladagi pul massasi 90 mlrd. so'mdan 1,4 trillion so'mga ko'paydi. Yaratilgan YaMM darajasi o'zgarmadi.

b) narx darajasi 1,4 martaga o'sdi. U o'z navbatida muomala uchun qo'shimcha pul massasini talab qiladi. Javobingizni izohlang.

6. Oltinchisi ortiqcha.

Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Tushunchalar ichida guruhga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: pulini noyob narsalarga sarflaganlar; tovarlar, qimmatbaho qog'ozlar, valuta oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi vositachilar; kredit olgan iqtisodiy agentlar va jismoniy shaxslar; puliga ko'chmas mulk sotib olganlar; kam daromad oluvchilar; pulini qadrli valutilarga almashtirganlar.

T/N

1. Yuqori sur'atdagi inflatsiya eng avvalo, monetar sabablardan kelib chiqadi va talab inflatsiyasi tarzida yuzaga chiqadi. U bilan narx va

ish haqi o'sishi darajasi ustidan nazorat o'rnatish orqali kurashish samarasiz. Faqat iqtisodiyotdagi muvozanatning buzilishini kuchaytiradi xolos.

2. Mo'tadil, o'rtamiyona inflatsiya darajasida, yalpi taklifga ta'sir qiluvchi omillar tufayli xarajatlarning ortishi – taklif inflatsiyasida, agarda hukumatga ishonch bo'lsa, narxlar va ish haqi ustidan nazorat qisqa muddatli davrda samarali bo'lishi mumkin.

3. Narxlar, inflatsiya yoki giperinflatsiya yuz berishidan qat'i nazar korxona uchun nihoyatda zarur, obyektiv xabar beruvchi axborot manbai sifatida qoladi.

4. Pullarni «yomon» va «yaxshi» pullarga ajratishdan ma'no yo'q, demak, uni o'rganishning ham hojati yo'q.

5. Balanslashgan inflatsiya deganda bir vaqtning o'zida juda ko'p tovar va xizmatlarning uncha ko'p bo'lmagan miqdorda o'sishi tushuniladi.

6. Yashirin inflatsiyada narx o'sishi kuzatilmasligi mumkin. Pulning qadrsizlanishi tovar taqchilligi, pulga zarur tovarni sotib olib bo'lmashligida ifodalanadi.

7. O'zbekistonda 2003-yili umumlashtirilgan iste'mol narxlari indeksi 10,3% bo'lgani holda, iste'mol tovarlari 5,4%, noiste'mol tovarlari narxi 13,9%, xizmatlar narxi 30,9%ga ko'tarilgan. Demak, respublikamizda balanslashmagan inflatsiya yuz bergan.

8. Bozor iqtisodiyotida naqd pullar mutlaq likvidlikka ega bo'lgani uchun odamlar daromadining iste'moldan ortgan qismini naqd pul shaklida uyda saqlashdan manfaatdor.

9. Bozor iqtisodiyotida har qanday tovar talab va taklif ta'sirida bo'lganidek, pul ham uning ta'sirida bo'ladi.

10. Inflatsiyaning oqibatlari murakkab va turli-tuman, ulardan biri puldan qochishni tezlashtiradi va tovarga o'chlikni kuchaytiradi.

TEST SAVOLLARI

1. Inflatsiya kuchayganda monetizatsiya:

A) koeffitsiyenti ortadi;

V) pasayadi;

S) o'zgarmaydi;

D) ular o'rtasida hech qanday bog'lanish yo'q;

E) aniqlash qiyin.

2. Pulga talab tushunchasi –

A) zarur bo'lganda tezda almashtirish mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlarni sotib olib qo'yish;

V) ma'lum bir foiz stavkasida tadbirkorlar kreditga olib ishlatish mumkin bo'lgan pul summasi;

S) daromadning ma'lum bir qismini «har ehtimolga qarshi» saqlash;

D) jamg'arma uchun zarur pul miqdori;

E) bitimlar va investitsiyalar uchun zarur pul miqdori.

3. Pulga jamg'arma (moliyaviy aktivlarning pul shakli) sifati-dagi talab uning:

A) muomala vositasi;

V) jamg'arish vositasi;

S) qiymat o'lchovi;

D) jahon puli;

E) to'lov vositasi ekanligidan kelib chiqadi.

4. Bitimlar uchun zarur bo'lgan pulga talab quyidagicha o'zgaradi:

A) foiz stavkasi o'sganda, ortadi;

V) foiz stavkasi pasayganda, kamayadi;

S) nominal YaIM hajmi o'sishiga qarab pasayadi;

D) nominal YaIM hajmi kamayishiga qarab pasayadi;

E) foiz stavkasi o'zgarmaganda kamayadi.

5. Pul va tovar massasi o'zgarmagani holda pulning aylanish tezligini ortishi...

A) pulning xarid qobiliyatining o'sishiga;

V) narxlarning tushishiga;

S) narxlarning o'sishiga;

D) narxlarning o'zgarasligiga;

E) iqtisodiy o'sishga olib keladi.

6. Inflatsiyadan eng ko'p talafot ko'radigan qatlam, bu...

A) tovarlar, qimmatbaho qog'ozlar, valuta oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchi vositachilar;

V) kredit olgan iqtisodiy agentlar va yuridik shaxslar;

S) pulni o'z vaqtida ko'chmas mulkka, qimmatbaho narsalarga, qadrlil valutaga almashtirganlar;

D) davlat monopolistik tuzilmasini ifodalovchi guruhlar;

E) kam daromad oluvchi kambag'al qatlam;

7. Balanslashmagan inflatsiya bu?

A) bir xil tovarlar narxining har xil ko'tarilishi;

- V) to'satdan narxlarning ko'tarilib ketishi;
- S) har xil tovarlar narxining o'sish sur'atlari turlicha bo'lishi;
- D) har xil tovarlar narxlari o'sish sur'atlarining yuqoriligi;
- E) har xil tovarlar narxining uncha ko'p bo'lmagan miqdorda bir-biriga yaqin o'sishi.

8. Denominatsiya, bu ...

A) eski pul birliklarini ma'lum nisbatda yangi pullar bilan almash-tirish;

- V) qadrsizlangan puldan voz kechish;
- S) pul tizimida ro'y bergan tanglik natijasida pulning to'lov vazifa-sini bajara olmay qolishi;

D) davlat tomonidan rasmiy ravishda valuta kursini pasaytirish;

E) muomalaga qo'shimcha pul chiqarish.

9. Pul tizimining tarkibiga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

A) milliy pul birligi;

V) qog'oz va kredit pullar hamda tanga chaqalar;

S) pul chiqarish tizimi;

D) pul muomalasini tartibga soluvchi davlat muassasalari;

E) yuqoridagilarning barchasi.

10. Qaysi nazariya pulga maxsus tovar sifatida qaraydi?

A) pulning metallistik nazariyasi;

V) pulning nominalistik nazariyasi;

S) pulning miqdoriy nazariyasi;

D) pulning mehnat nazariyasi;

E) yuqoridagi barcha nazariyalar.

11. Naqd pul muomalasi nima bilan ta'minlanadi?

A) cheklar;

V) bank biletlari va metall tangalar;

S) kredit kartochkalari;

D) veksellar va akkreditivlar;

E) to'lov talabnomalari.

12. Quyidagilardan qaysi biri muomala uchun ko'proq pul miqdorini taqozo qiladi?

A) pul birligi aylanish tezligining ortishi;

V) sotilish lozim bo'lgan tovarlar miqdorining ko'payishi;

S) barter ayirboshlash hissasining ortishi;

D) bir-birini qoplaydigan to'lovlarning ortishi;

E) nasiyaga sotiladigan tovarlar miqdorining o'sishi.

13. Iste'mol tovarlariga narx indeksi 2010y.-113,6; 2011 y.-118,8 ga teng bo'lsa, inflatsiya sur'ati necha foizni tashkil qiladi?

A) 5,3 %; V) 4,6 %; S) 4,1 %; D) 4,8 %; E) 5,1 %.

14. Inflatsiyadan aholi va daromad oluvchilarning qaysi guruhi yutadi?

A) jamg'armaga ega bo'lganlar;
V) o'zgarmas daromad oluvchilar;
S) nafaqa hisobiga yashovchilar;
D) qayd qilinmagan daromad oluvchilar;
E) qayd qilingan renta oluvchi yer egalari.

15. Iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabini nima belgilab beradi?

A) nominal YaMM hajmi;
V) foiz stavkasi;
S) real YaMM hajmi;
D) A) va V) to'g'ri;
E) V) va S) to'g'ri.

16. Respublikamizda naqd pul taklifini nima belgilab beradi?

A) M_0 pul agregati;
V) M_1 pul agregati;
S) M_2 pul agregati;
D) M_3 pul agregati;
E) barcha pul agregatlari.

17. Quyidagi hollardan qaysi birida pulning taklifi ko'payadi?

A) tovar va xizmatlarni davlat tomonidan sotib olish hajmi ko'paysa;
V) Markaziy bank aholidan davlat obligatsiyalarini sotib olsa;
S) aholi xususiy kompaniyalar obligatsiyalarini sotib olsa;
D) korporatsiya o'z aksiyalarini aholiga sotsa;
E) yuqoridagilarning barchasi.

18. Tovarlar hajmiga nisbatan pul miqdorining muomalada ko'payishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

A) ishlab chiqarish hajmi o'sadi, narx-navo o'zgarmaydi;
V) ishlab chiqarish hajmi o'sadi, narx-navo pasayadi;
S) narx-navo o'sadi, ishlab chiqarish hajmi o'smaydi;
D) ishlab chiqarish va narx-navo bir vaqtda mutanosib o'sadi;
E) yuqoridagi barcha holatlarga olib keladi.

19. Pul taklifi o'sadi – agarda:

A) davlat tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar qayta sotilsa;
V) xususiy kompaniyalar aholiga obligatsiyalarni sotsa;

- S) markaziy bank aholidan davlat obligatsiyalarini sotib olsa;
- D) aholi xususiy kompaniyalarning obligatsiyalarini sotib olsa;
- E) yuqoridagi barcha hollarda.

20. Aholining qaysi qatlamiga inflatsiya nisbatan ko'proq zarar keltiradi?

- A) tadbirkorlarga;
- V) mulk egalariga;
- S) aksiya egalariga;
- D) ish boshqaruvchilarga;
- E) pensionerlarga.

21. Kutilmagan inflatsiyadan kim nisbatan eng ko'p zarar ko'radi?

- A) ishbay ish haqi oluvchilar;
- V) pul jamg'armalariga ega bo'lmaganlar;
- S) qarzдорlar;
- D) kambag'al va qashshoqlar;
- E) qarz beruvchilar.

22. Pul bozorida muvozanatlik nimaga bog'liq?

- A) muomalaga chiqarilgan pul miqdoriga;
- V) muomalaga chiqarilgan tovarlar miqdoriga;
- S) tovarlarga bo'lgan talab va taklif nisbatiga;
- D) pulga bo'lgan talab bilan taklif o'rtasidagi nisbatga;
- E) moliya bozorining rivojlanganlik darajasiga.

23. Ssuda foizi nazariyasiga ko'ra pulga bo'lgan umumiy talabni nima aniqlaydi?

- A) muomala (bitim) uchun pulga talab;
- V) investitsiyalar (aktivlar) tomonidan pulga talab;
- S) sof eksport hajmi;
- D) A) va V) to'g'ri;
- E) V) va S) to'g'ri.

24. Milliy pul-so'mning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora - tadbirlarini aniqlang?

- A) ichki bozorni mumkin qadar tezroq iste'mol mollari bilan to'ldirish;
- V) yetarli valuta zaxirasini vujudga keltirish;
- S) pulni qadrlash, tejab-tergab sarflash;
- D) inflatsiyaga qarshi puxta o'ylagan siyosat o'tkazish;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

25. Revalvatsiya – bu:

A) eski pul birliklarini ma'lum nisbatda yangi pullar bilan almash-tirish;

V) qadrsizlangan puldan voz kechish;

S) davlat tomonidan rasmiy ravishda valuta kursini ko'tarish;

D) davlat tomonidan rasmiy ravishda valuta kursini pasaytirish;

E) muomalaga qo'shimcha pul chiqarish

Quyidagi jadvallardagi ma'lumotlarni diqqat bilan ko'rib chiqing. Ularni keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring, tahlil qiling. O'z fikringizni bildiring.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha inflatsiyaning asosiy indikatorlari.

(O'tgan yilga nisbatan baholarning % hisobida o'sishi)

8.1-jadval

Yillar	Iste'mol baholari indeksi (IBI) umum- lashtirilgan	Iste'mol tovarlari	Noiste'mol tovarlari	Xizmatlar
1995	304,6	252,7	185,0	467,6
1996	54,0	99,3	33,5	99,4
1997	58,8	55,2	65,1	71,4
1998	17,9	12,6	18,8	52,6
1999	29,1	25,6	33,7	43,8
2000	24,9	18,9	36,6	47,1
2001	27,4	27,9	21,1	36,9
2002	27,6	28,0	19,3	41,3
2003	10,3	5,4	13,9	30,9
2010	7,3			
2012	7.0	5,1	4,5	16,5


O‘zbekistonda YaIM va iste‘mol (tovarlar va xizmatlar) baholarining dinamikasi (avvalgi yilga nibatan).

8.2-jadval

Yillar	1992	1993	1994	1995	2000	2005	2008	2009	2010	2012
YaIM o‘shish sur‘ati, %da	-11,1	-2,3	-5,2	-0,9	3,8	7,0	9,0	8,1	8,5	8,2
Iste‘mol baholarini o‘shish sur‘ati, %da	718,8	104,2	1457	249,5	24,9	10,3	7,8	7,9	7,3	7,0

Jadvallarni keyingi yillar ma’lumotlari bilan to‘ldiring. Ularni tahlil qiling.

Jadval raqamlaridan qanday xulosa chiqarish mumkin? Nima sababdan inflatsiya darajasini pasaytirishga harakat qilinadi? Inflatsiyaning oldini olishning eng asosiy chora-tadbirlarini ko‘rsata olasizmi?



8.1-rasm. O‘zbekistonda 2012 yilda narxlar o‘zgarishining inflatsiyaga ta’siri, foizda¹

Raqamlarga diqqat qiling. 2012 yili oziq-ovqat mahsulotlarining narxi 5,1 foizga, nooziq-ovqat mahsulotlari narxi 4,3 %ga, xizmatlar narxi esa 16,5 %ga o‘ydi. Ularning inflatsiyaga ta’siri muvofiq ravishda

¹ Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. Prezident Islom Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yidda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma.T.: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013, 18-bet.

2,75%, 1,19 %, 3,06 %ni tashkil qilib, umumiy inflatsiya darajasi 7% bo'ldi. Respublikamizda qanday chora-tadbirlar orqali inflatsiyani shu darajada ushlab turilibdi? Fikringizni esseda bayon qiling.

Inflatsiyaning turlarini ko'rsating. Bu jihatdan hozirgi paytda yuz berayotgan bnflatsiyani qanday inflatsiya deb ayta olamiz? Izohlang.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar

1v); 2d); 3a); 4e); 5z); 6g); 7b); 8yo); 9j); 10i);

Masala va mashqlar:

1. Fisher tenglamasiga ko'ra 1932,8 mlrd. so'm.

2. 2-ustun + 1932,8 mlrd. so'm.

Masalan, foiz stavkasi 104 bo'lganda, pulga umumiy talab 2082,8 mlrd. so'm.

3. Jamg'arma sifatida talab 120 mlrd. so'm, bitimlar uchun talab sifatida 220 mlrd. so'm, umumiy talab 340 mlrd. so'm.

4. Bu latifa giperinflatsiyaga xos belgi - milliy pul birligiga ishonch yo'qolgani, hamma o'z pulini ko'chmas mulk, uzoq muddat foydalaniladigan tovar, zargarlik buyumlari, obro'li chet el valutasida saqlashga intilishini alohida ta'kidlaydi.

5. Har ikki holda ham narx 1,4 martaga o'sayapti: birinchisida talab inflatsiyasi mavjud pul bozorga talab bo'lib chiqyapti; ikkinchisida taklif yoki xarajatlar inflatsiyasi.

6. Guruhga taalluqli bo'lmagani beshinchisi, inflatsiyadan eng ko'p talafot ko'radigan qatlam, qolganlari inflatsiya sharoitida «yutuvchi» qatlam.

T/N

1T; 2T; 3N; 4N; 5T; 6T; 7T; 8N; 9T; 10T.

Testlar:

1V); 2E); 3V); 4D); 5S); 6E); 7S); 8A); 9E); 10D); 11V); 12V); 13V); 14D); 15D); 16A); 17V); 18S); 19S); 20E); 21E); 22D); 23D); 24E); 25S).

9-MAVZU. JAMIYATNING MOLIYA VA KREDIT TIZIMI

1-§. Moliyaning mohiyati va vazifalari


Moliya– bu pul mablag‘lari fondlarini tashkil etish, taqsimlash va ishlatish yuzasidan ro‘y beradigan munosabatlarning nazariy ifodasidir.

Moliyaviy munosabatlar – bu pul mablag‘larining harakati bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Moliyaviy munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, pul mablag‘larining harakatida turli daraja va shakllarda ishtirok etuvchi iqtisodiyotning barcha subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Bular:

- • davlat bilan turli mulkchilikka asoslangan korxonalar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- • davlat bilan aholining turli qatlamlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- • korxonalar bilan korxonalar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- • korxonalar bilan uning xodimlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;
- • davlat bilan ijtimoiy, jamoat va xayriya tashkilotlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar;

Moliyaning asosiy belgilari

- 
- * pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar shaklida ifodalanadi;
 - * ekvivalent almashinuvchi ishtirokisiz yuz beradi aniq maqsadga yo‘naltiriladi va sarflangan mablag‘ qaytarilmaydi;
 - * yalpi milliy mahsulot (YaMM) va milliy daromad (MD) ni maxsus fondlarga taqsimlaydi.

Moliyaning funksiyalari

Taqsim-lash

Moliya milliy daromadning bir qismini soliqlar, renta, boj to'lovlari, aksizlar va boshqa yig'imlar shaklida birlamchi taqsimlashda hamda ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar, daromadlar darajasini ushlab turish, mudofaa, boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlari uchun qayta taqsimlaydi. Pul mablag'larini tashkil etish va ulardan foydalanishdan qo'yilgan maqsadga muvofiq ravishda fondlar tashkil etish amalga oshiriladi: korxona fondlari, ijtimoiy sug'urta fondi, maxsus fondlar, davlat budjeti va boshqalar.

Nazorat qilish

Soliqlar, to'lovlar, yig'imlarning amaldagi qonunlar bo'yicha to'g'ri to'lanishini, tashkil etilgan fondlarning mablag'larini maqsad bo'yicha ishlatilishini ta'minlash.

Moliyaviy resurslardan foydalanish va moliyaviy intizomga rioya qilish moliyaviy muassasalar nazorati ostida bo'lishini anglatadi.

Moliyaning vazifalari

Moliyaviy ta'minlash

Bunda moliya takror ishlab chiqarishni, iqtisodiy jarayonlarni va tadbirlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.

Rag'batlan-tirish

Bunda moliya soliq imtiyozlari, subsidiya, dotatsiya va subvensiyalar yordamida fan-texnika taraqqiyotini u yoki bu turdagi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi; Moliyaning bu vazifasi jamiyat a'zolarining yordamga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlashga, turli ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratiladi;

Ijtimoiy himoya

Turli xo'jalik subyektlari, moliyaviy fondlar faoliyati bo'yicha axborot to'planadi.

Iqtisodiy axborot

Umuman jamiyat iqtisodiy faoliyatining moliyaviy yakunlari xususidagi ma'lumot va axborotlar iqtisodiy boshqarishga qo'l keladi.


2-§. Moliya tizimi. Davlat budjeti va uning tuzilishi


Moliya tizimi – bu moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus moliyaviy muassasalardir.

Moliya tizimining tarkibi:


- • moliyaviy munosabatlar;
- • moliyaviy muassasalar;
- • moliyani ro'yobga chiqaruvchi mexanizmlar;
- • moliya siyosatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy dastaklar va vositalar.

Jamiyat moliya tizimining bo'g'inlari





Davlat budjeti bu – davlatning o'z vazifalarini bajarishni moliyaviy ta'minlash maqsadida pul mablag'larini to'plash va sarflashning balansidir. Davlat budjeti – bu pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lib, davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasi sifatida chiqadi.



**O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining tuzilishi
(YaIM ga nisbati %da)**

9.1-jadval

Ko‘rsatkichlar	1996	2000	2005	2010	2012
Daromadlar jami	34,3	27,9	22,6	22,0	22,0
1. To‘g‘ri soliqlar	12,4	8,1	6,2	5,7	5,6
2. Bilvosita soliqlar	13,2	12,7	10,5	11,1	10,8
3. Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	1,8	2,2	3,8	3,4	3,4
4. Boshqa daromadlar	6,9	4,9	2,1	1,8	2,2
Xarajatlar-jami	36,5	29	21,5	21,7	21,6
1. Ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya	16,4	12,3	10,8	12,7	12,7
2. Iqtisodiy sohaga yo‘naltirilgan xarajatlar	4,9	2,7	2,7	2,4	2,4
3. Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashga xarajat	7,2	5,9	2,4	1,4	1,2
4. Boshqa xarajatlar*	8	7,9	5,6	5,2	5,3

* Boshqaruv xarajatlarini ham qo‘hib


**O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining tuzilishi
(Umumiy hajmga nisbati %da)**

9.2-jadval

Ko‘rsatkichlar	1996	2000	2005	2010	2012
Daromadlar jami	100	100	100	100	100
1. To‘g‘ri soliqlar	36,2	29	27,2	26,1	25,4
Yuridik shaxslar foyda solig‘i	25,8	12,7	6,7	4,7	4,7
Jismoniy shaxslar daromad solig‘i	9,9	11,6	12,7	11,7	10,8
2. Bilvosita soliqlar tarkibi	38,4	45,6	46,4	50,4	49,0
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	17,7	24,4	23,7	28,7	28,0
Aksiz solig‘i	19,1	18,8	17,5	16,3	14,9
3. Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	5,3	7,9	16,9	15,4	15,5
4. Boshqa soliqlar va yig‘imlar	20,1	17,5	9,5	8,1	10,1
Xarajatlar-jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
1. Ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya	45,1	42,4	50,2	58,5	58,9
2. Iqtisodiy sohaga yo‘naltirilgan xarajatlar	13,5	9,3	13,5	11,1	11,1
3. Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashga xarajat	19,5	20,3	10,7	6,5	5,4
4. Boshqa xarajatlar	27,5	27,9	25,6	24,0	20,4

Budjet taqchilligi – bu davlat budjeti xarajatlarining uning daromadlaridan ortiqcha bo‘lishidir.

Budjet taqchilligi sabablari




- * davlatning jamiyat hayotidagi rolining o‘tib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini kengayishi;
- * milliy va jahon bozori konyunkturalaridagi davriy tebranishlar
- * iqtisodiy tangliklar;
- * davlatning iqtisodiy siyosatidagi o‘zgarishlar

Budjet taqchilligining aniqlanishi

- • taqchillikning mutlaq miqdorida;
- • Taqchillikning YaIM miqdoriga nisbiy o‘lchamida

Budjet taqchilligini qoplash (moliyalashtirish) manbalari

Davlat krediti



Bunda davlat qarz oluvchi (kreditor) sifatida chiqadi. Davlat qarzi ikki xil: ichki va tashqi qarz bo‘lishi mumkin. Ichki qarz – davlatning o‘z fuqarolariga, tashkilot va firmalarga qarzi, ya’ni davlat zayom obligatsiyalarini chiqarish orqali iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy resurslarini jalb qiladi.


Tashqi qarz – bu xalqaro kredit bo‘lib, hozirgi paytda keng qo‘llanilmoqda.

Qo‘shimcha pul emissiyasi



Bunda Markaziy bank muomalaga tovar hajmi-ning ko‘payishi bilan qoplanmagan qo‘shimcha pul massasini chiqaradi. Pul massasining o‘sishi jamiyat real boyligining ko‘payishi bilan birga bormasligi tufayli inflatsion jarayon kuchayadi. Shuning uchun undan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan foydalaniladi. Tashqi qarzlar milliy daromadning ma’lum qismini foiz to‘lovlari shaklida chetga chiqib ketishiga sabab bo‘ladi.

Kamomadni
qoplashning
boshqa yo‘llari



- Budjetga soliq bo‘lmagan to‘lovlarni ko‘paytirish. Ular turli-tuman. Hozirgi paytda budjetga sezilarli darajada daromad keltiradigan soha chet el turizmi bo‘lib qoldi.
- Moliyalashtirishdan kreditlashga o‘tish.
- Zarar ko‘ruvchi korxonalarni tugatish, dotatsiyalarni kamaytirish, soliq tizimini o‘zgartirish;
- Mahalliy budjet rolini oshirish;
- Xarajatlarni kamaytirish yo‘llarini topish.

Davlat qarz majburiyatlarini to‘lash vaqtini kechiktirish usullari

- ❖ qisqa muddatli majburiyatlarini, o‘rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtirish.
- ❖ qisqa muddatli majburiyatlarni ancha yuqori foiz bo‘yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga sotib olish.

3-§. Soliqlar, uning vazifalari va soliqqa tortish tamoyillari

Soliqlar moliyaning tarkibiy qismi bo‘lib, jamiyatda vujudga keltirilgan sof daromad bir qismining budjetga jalb qilinish shaklidir. Boshqacha aytganda, **soliqlar** – bu jismoniy va huquqiy shaxslar daromadlarining bir qismini qonuniy ravishda, belgilangan miqdor va muddatlarda, budjet fondlarini tashkil qilish maqsadida davlat ixtiyoriga olinishidir.

Soliqlarning vazifalari


→	• taqsimlash vazifasi – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash orqali amalga oshiriladi;
→	• fiskal vazifasi – davlat xarajatlarini moliyalashtirishda ko‘rinadi;
→	• ijtimoiy vazifasi – ijtimoiy tanglikni yumshatishga qaratiladi;
→	• tartibga solish vazifasi – iqtisodiyotni va iqtisodiy faollikni tartibga solishda namoyon bo‘ladi;
→	• rag‘batlantirish – iqtisodiy faoliyat va uning natija-

	laridan manfaatdorlikni ta'minlashda ko'rinadi (soliq imtiyozlari orqali);
--	--

Davlat sarflari va shunga mos ravishda soliq tushumlari mutlaq hajmining o'sishini taqozo qiluvchi omillar

→	• aholi sonining o'sishi;
→	• urbanizatsiya va ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi;
→	• atrof-muhitning ifloslanishi;
→	• daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish talabi;
→	* boshqarish, mudofaa va davlat xavfsizligini ta'minlash xarajatlari hajmining o'sishi.

Soliqlar yordamida tartibga solishning umumiy qoidalari


	➤ soliqlardan yagona umumdavlat siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida foydalanish; ➤ soliq undirishning majburiyligi (manbalaridan qat'i nazar barcha daromadlardan); ➤ soliq stavkasining rag'batlantiruvchilik rolini ta'minlash (samarali ishlovchi hamda xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini qo'llagan korxonalar uchun); ➤ moliyaviy nazorat (soliq to'lash bo'yicha majburiyatlar ustidan)ni amalga oshirish.
--	--

Soliq solishning umumiy tamoyil (prinsip)lari

→	Umumiylik	→	Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, hamma iqtisodiy subyektlar daromadlaridan soliq to'lashi kerak.
→	Majburiylik	→	Soliqni qabul qilingan qonunlar asosida barcha subyektlar belgilangan muddatda to'lashi shart.
→		→	Hammani deyarli teng sharoitga qo'yadigan tarzda soliq stavkalari va

	Adolatlilik	soliq imtiyozlari belgilanadi. Kam daromad oladigan korxona (firma), aholi guruhlariga soliq stavkasi pasaytirilgan darajada belgilanadi. Teng miqdorda daromad oluvchilar bir xil miqdorda soliq to'lashi lozim.
→	Nafililik	Har xil soliq to'lovchilardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dastur mablag'laridan foydalanish darajasiga qarab turlicha soliq undirishi kerakligini bildiradi.
→	Soliq og'irligining tengligi va to'lovga layoqatlilik	Barcha bir turdagi soliq to'lovchilar daromadi va foydasidan olinadigan soliqning ulushi, stavkalari tengligi ta'minlanishi kerak. Soliq miqdori soliq to'lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi, ya'ni daromadlarning adolatli taqsimlanishini ta'minlashi zarur.
→	Barqarorlik	Ma'lum vaqt mobaynida soliq turlari va soliq stavkalari barqaror bo'lishi kerak.

Soliq imtiyozlari

- 
- ❖ daromadlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
 - ❖ soliq to'lashdan subyektlarning alohida guruhlarini ozod qilish;
 - ❖ soliq stavkalarini pasaytirish;
 - ❖ soliq krediti (soliq olish muddatini kechiktirish yoki soliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish);
 - ❖ soliq olinadigan summadan chegirma qilish.

4-§. Soliq tizimi va turlari. Laffer egri chizig'i

Soliq tizimi – bu belgilangan soliqlar, ularning tashkil qilinish shakl va usullari hamda davlatning soliq siyosatini amalga oshiruvchi muassasaviy tuzilmalardir.

Soliqlarning turlari	Turkumlanish mezonlari
I. Soliq stavkasi va soliqa tortiladigan daromad hajmi o'rtasidagi bog'liqlik darajasiga qarab.	• progressiv (o'sib boruvchi) soliqlar – bunda daromadlar ortishi bilan soliqlarning o'rtacha stavkasi ham o'sib boradi. • mutanosib soliqlar – bunda soliq stavkasi daromad hajmiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarishsiz qoladi. * regressiv (kamayib boruvchi) – bunda daromadlar ortib borishi bilan soliqlarning o'rtacha stavkasi pasayib boradi.
II. Boshqarish, budjet daromadlarini tashkil etish, amal qilish darajasiga ko'ra:	• mahalliy soliqlar – mahalliy (viloyat, shahar, tuman) budjetlarga jalb qilinadi. * respublika (federal) soliqlari – respublika budjetiga kelib tushadi.
III. Mahsulot narxiga qo'shilishi yoki jalb qilinish xarakteriga ko'ra.	• bevosita (to'g'ri) soliqlar–iqtisodiy xarajat sifatida narx tarkibiga kiradi; * bilvosita (egri) soliqlar–narx tarkibiga kirmaydi va unga ustama hisoblanadi;
IV. Soliqqa tortish subyektlari bo'yicha	• huquqiy shaxslar to'laydigan soliqlar; • jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar.

V. Soliqqa tortish
subyektlari bo'yicha.



- daromad solig'i;
- foydadan olinadigan soliq;
- mulk solig'i;
- resurslar uchun to'lovlar va h.k.

Soliq stavkasi (R') – bu olinadigan soliq summasining (R) soliq solinadigan daromad miqdoriga (D) nisbatining foizdagi ifodasi

$$R' = \frac{R}{D} \cdot 100$$


Respublikada jismoniy shaxslarga daromad (ish haqi, mukofot va boshqa soliq solinadigan daromadlar) solig'i stavkasini belgilash tartibi

9.3-jadval

Jami daromad hajmi	Soliq stavkasi %					
	Yillar					
	2005	2010	2011	2012	2013	2014
5 minimal ish haqigacha (2010 yilda olti baravargacha (so'mgacha)	13	11	10	9	8	7,5
5 minimal ish haqidan (2010 yilda olti (+1 so'm) 10 minimal ish haqigacha	21	16	16	16	16	16
10 minimal ish haqidan ortiq (+1 so'm) daromaddan (va undan ortiq summadan)	30	22	22	22	22	22

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
• daromad (foyda) solig'i; • resurslarga soliq; • mulk solig'i; • obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.	• qo'shilgan qiymat solig'i; • aksizlar; • boj to'lovi; • transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi, suyultirilgan gazni iste'mol qilganlik uchun soliq.

Davlat budjeti daromadlari va soliq stavkasi o'rtasidagi bog'liqlikni birinchi bo'lib amerikalik iqtisodchi A. Laffer asoslab bergan. Uning mulohazalariga ko'ra, korporatsiyalar daromadiga soliq stavkasini haddan tashqari oshirish, ularning kapital qo'yilmalariga bo'lgan rag'batini susaytiradi, fan-texnika taraqqiyotini va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi hamda ular oxir-oqibatda davlat budjetiga tushumlarni kamaytiradi. Aksincha soliq stavkalarini pasaytirish jamg'armalar, investitsiyalar va bandlikning ortishi orqali soliq undiriladigan daromad hajmining o'sishini ta'minlaydi. Bu bog'liqlik «Laffer egri chizig'i»da o'z ifodasini topadi.



Iqtisodiyotda soliq yuki

9.4-jadval


	Yillar				
	2008	2009	2010	2011	2012
1, Davlat budjeti soliq yuki (YaIMga nisbatan %da)	22,0	22,5	22,1	20,9	21,6
2.Davlatning maqsadli jamg'armalari soliq yuki	10,2	11,3	9,4	9,2	10,8
Iqtisodiyotga umumiy soliq yuki	32,2	33,8	31,5	30,1	32,4

5-§. Sug'urta va uning moliya tizimida tutgan o'rni


Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida mol-mulk, kapital, mehnat va hayotni kutilmagan hodisalardan kafolatlash maqsadida sug'urtalovchi (sug'urta kompaniyasi) va sug'urta qildiruvchi o'rtasida ma'lum to'lovlar – ya'ni sug'urta badallari evaziga maxsus pul fondlarini tashkil etish jarayonini ifodalaydi.

Sug'urta munosabatlari kutilmagan tarzda ro'y beradigan turli yo'qotishlarning o'rnini qoplash maqsadida pul fondlarini tashkil etish, taqsimlash va ishlatish yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlardir.

Sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlari

- 
- sug'urta faqat moddiy hamda boshqa zararlarni qoplash uchun zarur bo'lgan daromadlarni taqsimlash va jamg'arish bilan bog'liq munosabatlardan iborat bo'ladi;
 - sug'urtalash moliyaviy (pul) resurslarning qayta taqsimlanishini taqozo qilib qo'yadi;
 - sug'urtalash sug'urta fondlarini faqat uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash va ishlatilishini anglatadi;
 - sug'urta keltirilgan zararni qoplash uchun zarur mablag'larni hududiy birliklar, sug'urtalashning alohida toifalari va ma'lum davr oralig'ida qayta taqsimlanishini ko'zda tutadi;
 - sug'urta fondiga jalb qilingan to'lovlar belgilangan vaqt davomida qaytarilishi zarur.

Sug'urtaning vazifalari

- 
- kutilmagan hodisalardan keltirilgan moddiy zararlarni moliyaviy qoplash vazifasi;
 - kutilmagan hodisalarning oqibatlarini oldindan ogohlantirish vazifasi;
 - sug'urtalash maqsadidagi pul mablag'larini jamg'arish vazifasi;
 - sug'urta fondlarini tashkil qilish va ularning ishlatilishi ustidan nazorat qilish vazifasi;
 - sug'urta fondi mablag'lari hisobiga aholini ijtimoiy himoyalash vazifasi.

Sug'urta turlari
I. Sug'urtalash tarziga ko'ra:
* majburiy sug'urta – yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan, transport vositalari egalarining uchinchi shaxs oldidagi fuqarolik javobgarligini, qurilish-montaj ishlarini olib borishda uchinchi shaxslarga zarar yetkazish javobgarligini majburiy sug'urta qilish;
• ixtiyoriy sug'urta – bunda kishilarning sog'lig'i, hayoti va turli xil mol-mulklar sug'urtalanadi.
II. Sug'urtalanadigan xavf-xatar toifasiga ko'ra:
• yong'in va boshqa tabiiy ofatlardan sug'urtalash (mol-mulk-larni); • qurg'oqchilik va boshqa tabiiy xavf-xatarlardan sug'urtalash (qishloq xo'jalik ekinlarini); • o'g'rilik, avariya va boshqa favqulodda holatlardan sug'urtalash (asosan transport vositalarini); • turli xil epidemiyalar (o'lat va boshq.) dan sug'urtalash (chorva mollarini).
III. Sug'urtalanadigan obyekt turiga ko'ra
• mol-mulk sug'urtasi; • ijtimoiy sug'urta; • hayot sug'urtasi va h. k.
IV. Sug'urtalanadigan faoliyat yoki xatti-harakat turiga ko'ra.
• tijorat xatari sug'urtasi; • tadbirkorlik sug'urtasi; • kredit xatari sug'urtasi; • mas'uliyat sug'urtasi; • birja va valuta xatari sug'urtasi.


O‘zbekistonda sug‘urta munosabatlarini tartibga soladigan me‘yoriy (qonuniy) hujjatlar

- «Sug‘urta to‘g‘risida»gi qonun (1993 y);
- * «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonun (2002 y);
- * «O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi» (941- modda – Birgalikda sug‘urta qilish).
- * «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2007-yil 10-aprel. PQ-618-son);
- * «Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2008-yil 12-may. PQ-872-son);
- * «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori (2008-yil 26-iyun. 141-sonli).
- * «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori (2009-yil, 24-iyun, 177-sonli).

6-§. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda davlatning moliya siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda **davlatning moliya siyosati** tarkibiy va mulkiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida budget taqchilligini cheklash hamda shu orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish va iqtisodiy o‘rishga erishishga qaratiladi.

Davlatning moliya siyosatini amalga oshirish dastaklari



- soliqlar, uning turlari, soliq stavkalari.
- budget xarajatlari va uning sarflanish yo‘nalishlari;
- davlat kreditlari va investitsiyalari;
- davlat subsidiyalari va dotatsiyalari;
- tashqi ta‘rifli va ta‘rifsiz tartiblash usullari;
- jadallashgan amortizatsiya ajratmalari;
- davlatning maqsadli iqtisodiy dasturlari.

Moliya siyosatini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari	
→	I. Iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish → • korxonalar daromad solig‘i, stavkasini pasaytirish; → • jismoniy shaxslar daromadiga soliqlarning eng yuqori darajasini pasaytirish; → • budjet tashkilotlariga soliq solishni yanada takomillashtirish.
→	II. Budjet mablag‘larini samarali taqsimlash → • ijtimoiy sohani yetarlicha mablag‘ bilan ta‘minlash; → • davlat investitsiyalarini moliyaviy ta‘minlash; → • davlatning uzoq muddatli maqsadli dasturlarini o‘z vaqtida moliyalashtirish; → • xususiy sektorni moliyalashtirishda budjetdan tashqari mablag‘larning rolini oshirish.
→	III. Budjet – soliq tizimida muhim muassasaviy o‘zgarishlarni amalga oshirish → • mahalliy budjetlarning o‘rni va rolini mustahkamlash; → • ijtimoiy to‘lovlarni amalga oshirishda o‘z-o‘zini boshqarish organlari rolini oshirish; → • budjet sohasini boshqarish usulini takomillashtirish; → • buxgalteriya hisobining xalqaro andozalarini joriy qilish.
→	IV. Soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish → • ishlab chiqaruvchilar narxining keskin o‘sib ketishini oldini olish; → • barcha soliq to‘lovchilarni bir xil tartibda soliqqa tortishga shart-sharoit yaratish; → • boshqaruv xarajatlarining asoslanmagan holda o‘rishining oldini olish; → • o‘rnatilmagan texnik jihozlar, muddatida tugallanmagan qurilish va mol-mulk bahosi hisobidan soliqqa tortish bazasini kengaytirish;

- • soliqlarning moddiy va tabiiy resurslardan tejamkorlik asosida foydalanishni rag'batlantirishini ta'minlash;
- • mahalliy budjetlarni takomillashtirishda mahalliy soliqlar va yig'inlar ahamiyatini oshirish.

7-§. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari

Kredit (lotincha credit – ishonch degan ma'noni anglatadi) juda qadim zamonlarda vujudga kelgan bo'lib, dastlab mulkdorlar tomonidan natural (g'alla, chorva va boshqa) keyin pul (sudxo'rlik kapitali) shaklida qarz berilishini anglatgan.


Kredit – bu iqtisodiyot bo'g'inlarida bo'sh turgan pul mablag'larining ssuda fondi shaklida to'planishi va ularning takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, haq to'lash va qaytarilishlik sharti bilan yo'naltirilishi jarayonini ifodalaydi.

Ssuda fondi pul shaklidagi kapital deyilsa, uning harakati kreditning mazmunini belgilab beradi.




Kredit munosabatlarining zarurligi.

Iqtisodiyotda resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy aylanishida, bir tomondan pul mablag'lariga talab sezilsa, boshqa tomondan vaqtincha bo'sh kredit resurslari paydo bo'ladi. Bu va takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash talabi kredit munosabatlarini zarur qilib qo'yadi.

**Kreditning
obyekti**



Bu jamiyatda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir.



Muomala xarajatlarini tejash	Naqd pullar oʻrniga kredit pullarni qoʻllash orqali muomala xarajatlari tejaladi.
Iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish	Bu vazifani qarz berish va qarzni undirish hamda takror ishlab chiqarish uzluksizligini taʼminlash orqali bajaradi.
Nazorat qilish	Bu vazifani kredit muassasalari berilgan puldan maqsadli foydalanishini muntazam nazorat qilib borish orqali bajaradi.
Iqtisodiyotni tartibga solish	Bu vazifani bajarishda foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi.


8-§. Kreditning turlari, tamoyillari va foizning hosil boʻlish xususiyatlari

Kreditning turlari (iqtisodiy mazmuniga koʻra)	
Bank krediti	Kreditning asosiy va yetakchi shakli boʻlib, bunda pul egalari – banklar va kredit muassasalari tomonidan xoʻjalik yurituvchi subyektlarga qarz pul ssudalari shaklida beriladi.
Xoʻjaliklararo kredit	Bu korxonalar, uyushmalar va boshqa xoʻjalik yurituvchi subyektlarning bir-biriga beradigan qarzlaridir. U koʻpincha toʻlovni oʻzaro qoplash sharti bilan amalga oshiriladi
Isteʼmol krediti	Xususiy shaxslarga uzoq muddat foydalaniladigan isteʼmol tovarlari (mebel, avtomobil va boshqalar) sotib olish uchun beriladi. U chakana savdo shaxobchalari orqali tovarlar haqini kechiktirib toʻlash sharti bilan sotib olish yoki isteʼmol maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi.

Ipoteka krediti	Ko'chmas mulklar (yer, bino, uy-joy) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriladi.
Davlat krediti	Bunda davlat pul mablag'larini qarz oluvchi, aholi va xususiy biznes esa kreditorlar bo'lib chiqadi. Bunday mablag'larning manbai davlat qarz obligatsiyalari hisoblanadi.
Xalqaro kredit	Ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi harakatini bildiradi va tovar yoki pul shaklida beriladi.

Kredit berish tamoyillari	
Maqsadliligi	Bu kreditning aniq maqsad uchun berilishini anglatadi.
Qaytarilishliligi	Berilgan pul albatta qaytarilishi zarurligini bildiradi.
Muddatliligi	Kredit ma'lum muddatlarga (qisqa va uzoq) berilishini ko'rsatadi.
Foydalanganlik uchun haq to'lashlik	Qarz olingan puldan foydalanilganlik uchun haq (foiz) to'lash zarurligini bildiradi.
Moddiy jihatdan ta'minlanganligi	Beriladigan pul real moddiy boyliklar bilan ta'minlangan, sug'urtalangan yoki kafo-latlangan bo'lishligini anglatadi.
Foiz yoki foizli daromad	Qarzga berilgan pul (ssuda kapitali) hisobiga olinadigan daromad shakli.
Foiz stavkasi yoki normasi (r^1)	Foiz summasining, (r) qarzga berilgan ssuda kapitali (K ssuda) summasiga nisbatining foizdagi ifodasi: $r^1 = \frac{r}{K_{ssud}} \cdot 100$

Foiz normasiga ta'sir qiluvchi omillar



- Ssuda kapitaliga talab va taklif nisbati;
- kutiladigan foyda normasi;
- qarz berilish muddat va shartlari;
- inflatsiya darajasi;
- ssuda kapitallari bozorining monopollashuv darajasi;
- qarzga beriladigan puldan boshqa maqsadlarda ishlatishdan olinadigan daromad miqdori.


9-§. Bank tizimi va unda markaziy hamda tijorat banklarining tutgan o'rne

Banklar jamiyatda mavjud bo'sh pul mablag'larini to'plash, joylashtirish va ularning harakatini tartibga solishga xizmat qiluvchi kredit muassasasidir.

Bank tizimi bir hamda ikki bo'g'inli bo'lishi mumkin. Bir bo'g'inli tizimda Markaziy va tijorat banklar bir mavqeida bo'lib, teng huquqli agentlar tarzda ish yuritadi yoki hamma banklar davlat banki bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlar uchun ikki bo'g'inli bank tizimi xos. Bunda birinchi bo'g'in mamlakatda pul muomalasini tashkil etuvchi va nazorat qiluvchi Markaziy bank bo'lsa, ikkinchi bo'g'inni mustaqil va markaziy bankka bo'ysunuvchi tijorat va maxsus banklar tashkil qiladi.

Ikki pog'onali bank tizimi



Markaziy bank – davlat banki hisoblanib, mamlakatda pul kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.


Davlat banki – u amalga oshiradigan siyosat tartibi yuqori davlat organlari tomonidan o'rnatiladi.

Markaziy bank

Pul muomalasini tartibga soladi, tijorat banklar va jamg'arma muassasalaridan mablag'lar qabul qilib, ularga kreditlar beradi.

Ijtimoiy bank – u davlatning ijtimoiy siyosatini ham amalga oshiradi.

Markaziy bankning vazifalari


- 
- Barcha banklarning majburiy ehtiyotlari (rezervlari)ni saqlaydi;
 - davlatning pul-kredit (monetar) siyosatini amalga oshiradi;
 - tijorat banklar faoliyatini uyg'unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi;
 - cheklarni qayd qilish mexanizmini ta'minlaydi, banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi;
 - tijorat banklariga kreditlar beradi;
 - mamlakatning rasmiy oltin-valuta zaxiralarini saqlaydi;
 - xalqaro valuta bozorlarida milliy valutilarni ayirboshlaydi;
 - muomalaga milliy valutani chiqaradi va pul muomalasini tartibga soladi.


Tijorat banklar – foyda olish tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi xo‘jalik mavqeiga ko‘ra aksionerlik tipidagi va huquqiy mavqei bo‘yicha biror sohaga ixtisoslashgan kredit muassasasidir.


Tijorat banklarning vazifalari

- 
- Omonatlarni jalb qilish, ya’ni depozitlarni jamg‘arish va cheklarni qabul qilish;
 - kreditlar berish;
 - mijozlar o‘rtasida hisob-kitoblarni va boshqa bank xizmatlarini amalga oshirish;
 - qimmatli qog‘ozlar bilan va valuta operatsiyalarini o‘tkazish;
 - vositachilikni amalga oshirish.

Tijorat banklar tizimi








10-§. Bank operatsiyalari va bank foydasining hosil bo'lishi

Markaziy bankning pul-kredit siyosati

Bank resurslari o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan iborat bo'ladi.

Bankning o'z mablag'lari – bu nizom fondi, jamg'arilgan mablag'lari va foydasidan tashkil topadi.



Banklarning pul hosil qilish, ya'ni pul taklifini ko'paytirish layoqati **pul multiplikatori** deyiladi.

Pul multiplikatori (m) tijorat banklarning markaziy bankdagi majburiy ehtiyotlari (r) normasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni

$$m = \frac{1}{r} \cdot 100$$

Agar, $r = 40\%$ bo'lsa, u holda $m = \frac{1}{40} \cdot 100 = 2,5$ ya'ni har bir so'm depozitlarining 2,5 so'mga ko'payishiga olib keladi.

MB pul-kredit siyosatining maqsadi

- pul muomalasini tartibga solish;
- kredit hajmi va foiz stavkasini belgilash.

MB pul-kredit siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari

- Ochiq bozordagi operatsiyalar;
- ehtiyot zaxiralarini o'zgartirish;
- hisob (qayta moliyalashtirish) stavkalarini o'zgartirish.

Ochiq bozordagi operatsiyalar

Pul massasi, ya'ni pul taklifini nazorat qilishning eng moslashuvchan va samarali usulidir.

Bunda muomaladagi pul massasini ko'paytirish zarur bo'lsa, MB qimmatli qog'ozlar bozorida davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini sotib ola boshlaydi. MB davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini sotish bilan pul taklifini kamaytiradi.


Ehtiyot zaxiralarini o'zgartirish

Bunda MB tijorat banklarining majburiy ehtiyot zaxiralari normasini o'zgartirish orqali pul taklifiga ta'sir ko'rsatadi. Bu norma pasaytirilsa, banklarning ehtiyot zaxiralaridan ortiqcha ssuda berish mumkin bo'lgan mablag'lari ko'payadi, aks holda esa kamayadi.

Hisob stavkalarini o'zgartirish

Hisob stavkalarini pasaytirganda tijorat banklar tomondan MB kreditlariga talab o'sadi va investitsion faollik ortadi. Hisob stavkasi ko'tarilganda kreditga talab kamayadi va bu muomaladagi pul massasini ham kamaytiradi.

MB pul-kredit siyosati uni amalga oshirishda qoʻllaniladigan usullar holatidan kelib chiqib, «arzon» (yoki «yumshoq») va «qimmat» (yoki «qattiq») pul siyosati deb yuritiladi.



Mavzuni chuqur oʻrganish uchun topshiriqlar **Jamiyatning moliya tizimi**

Asosiy tayanch tushunchalar

- | | |
|--------------------------|-------------------------------|
| 1. Moliya munosabatlari | 11. Megamoliya |
| 2. Moliyaning funksiyasi | 12. Sugʻurta |
| 3. Moliyaning vazifalari | 13. Moliya bozori |
| 4. Moliya tizimi | 14. Aksiya |
| 5. Moliyaviy resurslar | 15. Soliq |
| 6. Moliya mexanizmi | 16. Laffer egri chizigʻi |
| 7. Moliyaviy siyosat | 17. Davlat budjeti |
| 8. Mikromoliya | 18. «Siqib chiqarish» effekti |
| 9. Makromoliya | 19. Konsolidatsion – yigʻma |
| 10. Moliya institutlari | budjet |

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

a) Moliyaning mohiyatini o'zgartira olmaydi, lekin xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ularga misol qilib rag'batlantirish, ijtimoiy himoya, iqtisodiy axborot va boshqalarni ko'rsatish mumkin;

b) pul mablag'lari fondlarini tashkil etish, taqsimlash va ishlatish yuzasidan ro'y beradigan munosabatlarning nazariy ifodasi. Ular YaMM, milliy boylikni taqsimlash, ishlatish jarayonida vujudga keladi;

v) jamiyatdagi turli-tuman moliya munosabatlarining majmui va bu munosabatlarni tartibga soluvchi moliya mexanizmi va moliya institutlari yaxlitligidan iborat;

g) moliya mohiyatining xo'jalik faoliyatida aniq ko'rinishi, uning tashqi ifodasidir. U taqsimlash va nazoratdan iborat;

d) firma, korxona, tashkilot, muassasa, jamiyat, uy xo'jaligi (xonadon) moliyasi;

e) davlat iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etib, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun resurslarni to'g'ri tashkil etish va undan unumli foydalanish borasidagi strategik va taktik chora-tadbirlar belgilash va ularni amalga oshirish;

yo) muayyan maqsadga qaratilgan pul fondlari;

j) moliyaviy munosabatlar (aloqalar), moliyaviy resurslarni uyushtirish va ishlatishni ta'minlovchi barcha vositalar majmui;

z) xalqaro miqyosdagi davlatlararo moliyaviy munosabatlar bo'lib, ular xalqaro moliya institutlari vositasida amal qiladi;

i) jamiyat, umumdavlat miqyosidagi moliya;

y) moliyaviy munosabatlarning maxsus turi bo'lib, turli kutilmagan tarzda ro'y berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarning o'rnini qoplash uchun yaratilgan mahsulotning ma'lum bir qismidan tashkil etilgan maxsus pul fondi va uni taqsimlash, ishlatish yuzasidan vujudga keladigan munosabatlar;

k) moliya munosabatlarini amalga oshiruvchi, tartibga soluvchi, moliya infratuzilmasini tashkil etuvchi turli muassasa va davlat tashkilotlari;

l) subyektlar o'rtasida moliyaviy aktivlarni ayriboshlash, oldi-sotdi qilish yuzasidan munosabatlar, ularni amalga oshiriladigan joy va tartibotlar;

m) korxona, tashkilot, fuqarolar daromadining bir qismini qonuniy tartibda, belgilangan miqdor va muddatlarda budjet fondini tashkil qilish maqsadida davlat ixtiyoriga olinadigan pul mablagʻlari;

n) hissadorlik(aksionerlik) jamiyati sarmoyasiga qoʻyilgan ulushga guvohlik qiluvchi, uning egasiga ulushiga muvofiq foydaning maʼlum bir qismini olish va shu jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini beradigan qimmatbaho qogʻoz;

o) davlatning oʻz funksiyalari va vazifalarini bajarishini moliyaviy taʼminlash maqsadida pul mablagʻlarini toʻplash (daromadlar) va sarflash (xarajatlar)ning balansi;

p) soliq stavkasi (0 dan 100% gacha) bilan budjetga tushadigan soliq tushumi oʻrtasidagi bogʻlanishni, soliq stavkasining qaysi miqdorida soliq tushumi eng yuqori darajada boʻlishini ifodalovchi koʻrsatkich;

r) bozorda davlat qimmatbaho qogʻozlarining koʻpayishi tufayli, davlatning ulushi ortib, boshqa sotuvchilarni siqib chiqarilishi natijasida kapital quyilmalarni moliyalashtirishning umumiy sharoitini yomonlashuvi;

s) davlat budjeti va nobudjet fondlarning birgalikda atalishi.

Masala va mashqlar

1. Fond birjasida oʻynovchi «Ayiqlar» mijoz bilan unga olti oydan soʻng 5 ming soʻmlik kurs boʻyicha 200 dona aksiyani sotish uchun bitim tuzdi. Oradan olti oy oʻtgach aksiya kursi 4 ming soʻmga tushdi. «Ayiqlar» yutadimi yoki yutqazadimi, uning yutugʻi yoki zararini hisoblang.

Birjada «ayiq» kim-u, «buqalar» kim? Broker, dilerchi?

2. Fond birjasida oʻynovchi «Buqa» 500 dona aksiyani 7 ming soʻmdan sotib oldi. Maʼlum muddat oʻtgach aksiya kursi 10 ming soʻmga koʻtarildi. U yutdimi yoki yutqazdimi? Yutuq yoki zararining miqdori qancha?

Nima sababdan fond birjasida maʼlum darajada chayqovchilik uchun yoʻl beriladi?

3. «Talaba» aksionerlik jamiyati»ning nizom kapitali nominal bahosi 1000 soʻmdan 100000 aksiyadan iborat. Jamiyat 90000 aksiya chiqardi va shu vaqtga qadar 5000 dona aksiyani qaytarib sotib oldi.

- a) aksionerlik jamiyatining qancha aksiyasi muomalada yuribdi?
 b) agar aksiyalarni 2 barobar qimmatiga sotish mumkin bo'lsa, jamiyat maksimal darajada qancha mablag' to'plashi mumkin?
 Obligatsiya bilan aksiyaning farqi nimada? Izohlang?

4. Mamlakatda rejalashtirilayotgan iste'mol sarflari (mlrd. so'm hisobida) $S = 110 + 0,75Di$ ga teng. Davlat sarflari 500. Rejalashtirilgan investitsiya sarflari 360, soliqlar 260 ga teng. Eksport va import farqi nolga teng desak, $Di = YaMM - T$ bo'lsa, a) muvozanatli YaMM; b) davlat sarflari multiplikatori; d) soliqlarni 1 mlrd. so'mga o'sishi YaMM hajmiga qanday ta'sir ko'rsatadi, hisoblang. Soliq multiplikatori nima? Izohlang.

5. Quyidagi jadvalda turli foiz stavkalarida investitsiyaga talab hajmi berilgan. Iste'molga me'yoriy moyillik 0,75.

Foiz stavkasi	Rejalashtirilgan sof investitsiyalar, mlrd. so'm
24	180
22	200
20	220
18	250
16	270

a) agar davlatning tovar (xizmat)larni sotib olish hajmi 15 mlrd. so'mga o'ssa, sof milliy mahsulotning real muvozanatli hajmi qanday o'zgaradi?

b) agar ana shu davlat sarflarini 15 mlrd. so'mga o'sishi, soliqlarni ham 15 mlrd. so'mga o'sishi bilan yuz bersa, real sof milliy mahsulot va daromadning real hajmi qanday o'zgaradi, hisoblang.

Davlatning fiskal siyosati YaMM, SMM, milliy daromadga qanday ta'sir ko'rsatishini izohlang.

6. Mamlakatda qattiq inqiroz yuz berayapti. Agar iste'molga me'yoriy moyillik 0,8 ga teng bo'lsa, yalpi talab egri chizig'i 25 mlrd. so'm hajmida o'ngga siljishi uchun, ya'ni G hajmini 25 mlrd. so'mga ko'paytirish uchun davlat sarflarini qanchaga ko'tarish kerak?

Shu miqdorda yalpi talab o'sishi uchun soliqlarni qanchaga pasaytirish kerak. Farqi nimada?

7. Oltinchisi ortiqcha.

Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Ulardan qaysi biri ortiqcha va nima sababdan ko'rsating.

Tushunchalar: Iqtisodiyotning nochorligi sharoitida daromadlarning kamayishi, milliy daromad o'sish sur'atining pasayib ketishi, soliqlarning kamayishi, moliyalashtirishdan kreditlashga o'tish, budjet xarajatlarining ko'payishi, beqaror moliyaviy siyosat yuritish.

T/N

1. Moliya tizimi murakkab, unga turli jihatdan yondashish mumkin. Unga nazariy jihatdan qarasak, turli darajadagi moliya munosabatlari, moliya siyosati va uni amalga oshiradigan moliya mexanizmidan iborat.

2. Xayriya fondlari ikki jihati bilan ajralib turadi.

a) mablag'lar donorlarni majbur qilish yo'li bilan to'planadi;

b) fond nimani zarur deb topsa, shunga sarflanadi.

3. Monopolist firma monopol narxlar orqali to'lashi kerak bo'lgan barcha soliqlarini iste'molchi zimmasiga yuklay olmaydi. Sababi, birinchidan, iste'molchilar o'z ehtiyojlarini boshqa yo'llar bilan qondirishi: chunonchi o'rinbosar tovarlarni sotib olishi, iste'molini cheklash; ikkinchidan, davlat tomonidan sanksiya qo'llanib, katta jarima to'lashi mumkin.

4. Budjetning taqchilligi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga doimo salbiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Iqtisodiy tanazzul kuchaygan sharoitda budjet taqchilligi yuz beradi. Ana shu taqchillikni yaxshisi pul chiqarish bilan qoplangan ma'qul, sababi aholidan qarz olinsa, foiz stavkasi o'sadi hamda xususiy investorlarni «siqib chiqarish» holati yuz beradi.

6. Tarixiy tajriba ko'rsatadiki, davlat qarzini vujudga kelishiga urushlar va iqtisodiy tanazzullik sabab bo'ladi.

7. Davlat soliqlarni pasaytirib, o'z sarflarini orttirsam, «tiyib turuvchi» fiskal siyosat qo'llanilayotgan bo'ladi.

8. Davlat jismoniy shaxslar daromadiga soliq ijtimoiy ta'minotga ajratmalar, foydaga soliqni oshirdi. Lekin davlat sarflari avvalgi holda qoldi. Bunday fiskal siyosat rag'batlantiruvchi fiskal siyosat bo'ladi.

9. Marsni tadqiq etish uchun yangi kosmik dastur qabul qilindi. Bu rag'batlantiruvchi, diskretsion fiskal siyosatga misol bo'ladi.

10. Daromadlar o'sib, odamlar o'z topgan daromadlaridan ko'proq soliq to'lashayapti. Demak, davlat «tiyib turuvchi», avtomat fiskal siyosat yuritayapti.

11. «To'la bandlik budjeti» – bu mavjud soliq va daromadlar darajasida iqtisodiyot yil davomida to'la bandlik darajasida rivojlansa, budjetda davlat xarajatlari va daromadlari qanday nisbatda bo'lishini ko'rsatadi.

12. Sug'urta sarflarni ko'paytiradi. Shuning uchun ko'pchilik zo'rg'a majburiy sug'urta to'lovlarini to'laydi, xolos.

TEST SAVOLLARI

1. Agar dividend 800 so'm, foiz stavkasi 8% bo'lsa, aksiya kursi necha so'm bo'ladi?

A) 100; V) 6400; S) 10000; D) 20000; E) 800.

2. Davlat yumshoq rag'batlantiruvchi fiskal siyosat yuritayotgan bo'ladi, qachonki:

A) daromad (foyda)ga soliqni ko'paytirib, davlat xarajatlarini o'zgartirmasa;

V) davlat budjetiga qarashli korxonalarda ish haqini pasaytirs;

S) davlat xarajatlari o'sib, soliqlar avvalicha qolsa;

D) soliqlarni oshirib, davlat xarajatlarini pasaytirs;

E) davlat investitsiya sarflarini pasaytirib, boshqa xarajatlar va soliqlar o'zgarmay qolsa.

3. Davlat faol rag'batlantiruvchi fiskal siyosat yuritayotgan bo'ladi, qachonki:

A) soliqlarni kamaytirib, davlat sarflarini oshirs;

V) soliqlar o'zgarmay, davlat sarflarini ko'paytirs;

S) soliqlar o'zgarmay, davlat sarflarini kamaytirs;

D) soliqlar ortib, muvofiq ravishda sarflarni ko'paytirs;

E) soliqlarni oshirib, sarflarni pasaytirs.

4. «Talaba» kompaniyasining aksiyasini sotib olgan kishi:

A) kompaniya mulkiga sherik;

V) kompaniyaga kreditor;

S) kompaniyaga xayrixoh;

D) kompaniya uchun xayriya berdi;

E) kompaniyaning ahvolini bilmoqchi.

5. Aksionerlik jamiyati obligatsiyasini sotib olgan kishi.

A) mulkka sherik;

- V) aksionerlik jamiyatiga kreditor;
- S) aksionerlik jamiyatiga xayrixoh;
- D) aksionerlik jamiyati uchun xayriya berdi;
- E) aksionerlik jamiyatining holatini bilmoqchi.

6. Quyidagi soliqlardan qaysilari «iste'mol» soliqlari hisoblanadi?

- A) meros va sovg'alar uchun soliq;
- V) foyda solig'i va boj to'lovlari;
- S) shaxsiy daromadga soliqlar;
- D) mulk solig'i va pensiya fondiga ijtimoiy to'lovlar;
- E) qo'shilgan qiymat va aksiz solig'i.

7. Soliq turlarining ortishi, soliq stavkalarining ko'tarilishi misol bo'la oladi, ...

- A) pul-kredit siyosatiga;
- V) kredit-budjet siyosatiga;
- S) fiskal siyosatga;
- D) monetar siyosatga;
- E) daromadlar siyosatiga.

8. Davlat qarzining ko'payishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

- A) milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlarini qisqartiradi;
- V) turmush darajasini pasaytiradi;
- S) yalpi milliy sarflarning ko'payishiga olib keladi;
- D) jamiyat a'zolari o'rtasida milliy boylikni qayta taqsimlashga olib keladi;
- E) hech nima o'zgarmaydi.

9. Davlat qarzi to'lovlari bo'yicha xizmat ko'rsatish deganda...

- A) davlat qarzi summasi;
- V) qarzi bo'yicha foiz to'lovlari summasi;
- S) qarz miqdorining YaMM hajmiga nisbati;
- D) qarz to'lash bo'yicha foiz summasining YaMM hajmiga nisbati;
- E) qarz bo'yicha foiz to'lovlarining qarz miqdoriga nisbati tushuniladi.

10. Davlat qarzining real muammolaridan biri, bu:

- A) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish rag'batlari pasayadi;
- V) YaMMning bir qismi mamlakatdan chiqib ketadi;
- S) daromadlar o'rtasidagi tengsizlik kuchayadi;
- D) jamg'armaning ulushi ortadi;

E) qarzdin samarali foydalanilmaydi.

11. Sug'urtaning bosh vazifasi:

A) sug'urta fondi xarajatlarini nazorat qilish;

V) majburiy sug'urtani amalga oshirish;

S) ixtiyoriy sug'urtani amalga oshirish;

D) yuz berishi mumkin bo'lgan ofatlardan ogohlantirish;

E) tabiiy ofat, baxtsizlik, falokat kabilar tufayli keltirilgan moddiy zararni qoplash.

12. Moliyaviy munosabatlarning mohiyatini quyidagilardan qaysi biri to'laroq xarakterlaydi?

A) pul mablag'larining shakllanishi bilan bog'liq munosabatlar;

V) pul mablag'larini taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar;

S) pul mablag'larining ishlatilishi bilan bog'liq munosabatlar;

D) pulning harakati, ya'ni uning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi jarayonida vujudga keladigan munosabatlar;

E) yuqoridagilarning barchasi.

13. Moliyaviy munosabatlarning subyektlari.

A) barcha turdagi korxonalar;

V) aholi keng qatlami;

S) davlat tashkilotlari va muassasalari;

D) chet ellik jismoniy va huquqiy shaxslar;

E) yuqoridagilarning barchasi.

14. Budjet taqchilligi qachon vujudga keladi?

A) daromadlar va xarajatlar qismi teng bo'lganda;

V) daromadlar xarajatlar qismidan ortiq bo'lganda;

S) daromadlar xarajatlar qismidan kam bo'lganda;

D) sof eksport ijobiy bo'lganda;

E) yuqoridagi barcha hollarda.

15. Quyidagi hollardan qaysi biri regressiv soliqlarni xarakterlaydi?

A) soliqlarning o'rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o'sib borsa;

V) daromadlar o'sib borishi bilan soliqlarning o'rtacha stavkasi pasayib borsa;

S) soliqlarning o'rtacha stavkasi daromad darajasiga bog'liq bo'lmasdan o'zgarishsiz qolsa;

D) soliqlarning o'rtacha stavkasi daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilganda;

E) soliqlarning oʻrtacha stavkasi daromadlar oʻsishini ragʻbatlantirish vazifasini taʼminlaganda.

16. Soliqlarning toʻgʻri va egri soliqlarga boʻlinishi asosida nima yotadi?

- A) ularning amal qilish doirasi;
- V) tovarlar narxiga qoʻshilish xarakteri;
- S) iqtisodiy mazmuni;
- D) budjetga jalb qilinish usuli;
- E) soliq stavkalarining darajasi.

17. Davlat budjet siyosatining asosiy dastagi boʻlib nima xizmat qiladi?

- A) soliq stavkalari;
- V) hisob stavkalari;
- S) ayirboshlash kurslari;
- D) jadallashgan amortizatsiya ajratmalari;
- E) barcha javoblar toʻgʻri.

18. Budjet taqchilligini bartaraf qilishga erishish uchun:

- A) davlatning daromadlari uning xarajatlariga teng boʻlishi kerak;
- V) yalpi taklif, yalpi talabga teng boʻlishi kerak;
- S) pulni taklif qilish surʼatlari bilan inflatsiyaning oʻsish surʼatli mos kelishi kerak;
- D) investitsiya hajmi isteʼmolning hajmidan yuqori boʻlishi kerak;
- E) mavjud iqtisodiy resurslar toʻliq band qilingan boʻlishi kerak.

19. Davlat budjetining taqchilligi nima?

- A) pul emissiyasi;
- V) muomalada pulning yetishmasligi;
- S) soliq darajasining yuqoriligi;
- D) xarajatlarning daromadga nisbatan koʻpligi;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

20. Davlatning sarflari va soliqlar bilan bogʻliq boʻlgan siyosati qanday nomlanadi?

- A) pulning hajmiga asoslangan siyosat;
- V) monetar siyosat;
- S) fiskal siyosat;
- D) daromadlarni taqsimlash bilan bogʻliq boʻlgan siyosat;
- E) iqtisodiy siyosat;

21. Moliya bozori obykti nima?

- A) aksiya;
- V) pul;

- S) veksel;
- D) pul va qimmatli qogʻozlar
- E) chek.

22. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy yoʻnalishdan qaysisi bevosita «sogʻlom» budjetni shakllantirishga qaratilgan?

- A) davlat budjeti kamomadini yoʻl qoʻyilgan eng kam darajada cheklashga qaratilgan qatʼiy moliyaviy siyosatni oʻtkazish;
- V) soliq siyosatini takomillashtirish;
- S) davlat budjeti daromadining katta qismini mahalliy budjetlarga berish;
- D) korxonalar moliyaviy intizomini mustahkamlash;
- E) pulning qadrsizlanishini izchillik bilan kamaytirish.

Soliq stavkalarining oʻzgarish dinamikasi

9.5-jadval

T/ r	Soliq turlari	Soliq stavkasi %			
		Yillar			
		1990- 2009	2010	2012	2014
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda(daromad) soligʻi	45,0	9,0	9,0	8
2.	Jismoniy shaxslarga daromad soligʻi	13-60	11-22	9-22	7,5-22
2.	Dividend/(foiz)lar shaklida olinadigan daromadlardan foyda soligʻi	15,0	10,0	10,0	10
	Qoʻshilgan qiymat	30	20	20	20
4.	Yagona soliq toʻlovi	15,2	7,0	5,0	6,0*
	Resurslarga soliq, jumladan:				
	neft	35	20	20	30
	tabiiy gaz	58	30	30	20
5.	Yagona ijtimoiy toʻlov	40	25,0	25,0	25,0

Soliq yuki va budjet daromadlari o'zgarishi dinamikasi (YaIMga nisbatan %da)

9.6-jadval

№	Ko'rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2010	2012
1.	YaIM o'sish sur'ati	107,0	107,5	109,5	109,0	108,5	108,2
2.	Soliq yuki	24	23	22,3	22,0	22,1	21,6
3.	Budjet daromadlari	21,5	21,6	21,5	23,8	22,0	22,0
4.	YaIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi	38,2	42,1	45,5	48,2	52,5	54,6

Har ikki jadval ma'lumotlariga diqqat qarating. Jadvalda soliq yuki davlat budjetiga nisbatan berilgan. Bundan tashqari davlat maqsadli jamg'armalari bo'lib, ularning soliq yuki ham bor. Siz umumiy soliq yukini aniqlang, Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Soliq stavkalari, soliq yuki, budjet daromadlari o'zgarishi dinamikasi haqida xulosa chiqaring

Respublikamiz budjetining muhim tomoni unda ijtimoiy soha-xarajatlari ustuvor o'rin egallaganidir. Uni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi (YaIMga nisbatan % hisobida)¹

9.7-jadval

Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2005	2010	2012
Xarajatlar	29,0	27,0	26,1	21,5	21,7	21,6
Ijtimoiy soha	10,4	10,2	9,8	10,8	12,7	12,7
Ijtimoiy himoya	2,3	2,1	2,0	1,9*	1,8*	1,8*
Iqtisodiyot uchun xarajatlar	3,0	2,3	2,3	2,7	2,4	2,4
Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	5,9	6,0	4,7	2,4	1,4	1,2
Davlat boshqaruvi va sud organlarining xarajatlari	0,6	0,6	0,5	0,6	0,6	0,8
Boshqa xarajatlar	7,9	6,8	6,8	5,0	4,6	4,5


* Ijtimoiy himoya ijtimoiy soha tarkibida

¹ inf.uz. Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadvalni keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Tahlil qiling, izohlang. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, YaIMga nisbatan davlat budjet xarajatlari pasayib borgan. Bu respublikamiz iqtisodiyotida qanday o'zgarishlar sodir bo'layotganidan dalolat beradi. 9.1 va 9.2-jadval ma'lumotlari bilan solishtirib, Respublikamiz budjeti qachon defitsit (taqchil) bilan yaunlangani hamda qachindan boshlab profitsit bilan yakunlanganini aniqlahg. Buning sababini ko'rsating. O'z fikringizni asoslab bering.

O'zbekistonda davlat budjeti ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi, foizda

9.1-diagramma



Davlat budjeti 2005-yilga qadar defitsit bilan yakunlangan bo'lsa, undan so'ng ko'zda tutilgan defitsit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan profitsitga erishish boshlandi. 2008-yili esa 1,5 foiz miqdorida profitsitga erishildi. Bu holatni siz qanday izohlaysiz? Javobingizni asoslang. Grafik yoki diagrammada keyingi yillardagi ma'lumotlarni aks ettiring.

Jamlanma budjet daromadlari

9.8-jadval


Budjet ko'rsatkichlari	Y I l l a r		Jamiga nisbatan ulushi, %	
	2012	2013	2012	2013
1. Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti	20614,1	25104,9	57,2	69,4
2. Maqsadli jamg'armalar	10499,8	13571,0	29,1	32,7

3. Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi daromadlari	210,0	227,3	0,6	0,5
4. O'zbekiston respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari	4747,6	2618,5	13,1	6,3
Jami markazlashgan jamg'armalar	36071,5	41522,0	100	100

Raqamlarga diqqat qiling. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldirihg. Ularni taqqoslang. Davlat budjetidan tashqari maqsadli jamg'armalar tashkil etishning qanday ahamiyati bor? Ko'rsating. Ularga ajratiladigan mablaglar miqdori qanday belgilanadi? Fikringizni bayon qiling.

2000-2012 yillarda asosiy soliq stavkalarining dinamikasi

9.1- grafik



Grafikni tahlil qilib, qanday xulosa chiqarish mumkin? Fikringizni bildiring.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari, mlrd. so'm.¹

9.9-jadval

Ko'rsatkichlar	2008 yil		2012 yil		2013 yil	
	summa	ulushi	summa	ulushi	summa	ulushi
Daromadlar, maqsadli jamg'armalarsiz – jami	8 761	100	21295,7	100	26223,0	100
1. Bevosita soliqlar	2316	26,4	5414,2	25,4	6353,9	24,2

¹imf.uz. Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

1.1.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	433	4,9	1001,1	4,7	1038,6	3.9
1.2.Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar			645,9	3,0	832,6	3.2
1.3.Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar,	400	4,6	588,2	2,7	755,0	2.9
1.4.Jismoniy shaxslar daromadiga soliq	1109	12,7	2301,8	10,9	2717,3	10.4
1.5.Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	87	1,0	317,3	1.5	415,6	1.6
1.6.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	287	3,3	559,9	2,6	594,4	2.3
1. Bilvosita soliqlar	4123	47,1	10434,5	49,0	13398,6	51.1
2.1.Qo'shilgan qiymat solig'i	2505	28,6	5966,6	28.0	7552,5	28.8
2.2.Aktsiz so'lig'i	1123	12,8	3175,9	14,9	4168,3	16,0
2.3.Bojxona boji	318	3,6	759,7	3,6	1007,4	3.8
2.4.Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi, suyultirilgan gazni iste'mol qilganlik uchun soliq			532,4	2,5	670,5	2.5
2. Resurs to'lovlari va mulk solig'i	1326	15,1	3312,5	15,5	3888,2	14.8
2.1.Mulk solig'i	224	2,6	736,1	3,4	1011,6	3.8
3.2. Yer solig'i	186	2,1	486,3	2.3	583,4	2.3
3.3.Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	881	10,1	2016,3	9,5	2190,9	8.3
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	35	0,4	73,9	0.3	102,4	0.4
3. Boshqa daromadlar			2134,4	10.1	2582,5	9.8

Jadval ma'lumotlariga diqqat qiling. Ularni tahlil qilib, o'z fikringizni bayon qiling,

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1b); 2g); 3a); 4v); 5yo); 6j); 7e); 8d); 9i); 10k); 11z); 12y); 13l); 14n); 15m); 16p); 17o); 18r); 19s).

Masala va mashqlar:

1. «Ayiqlar» yutadi. Chunki u 200 dona aksiyani 1 mln. soʻmga sotgan, shu aksiyalarni endi u 800000 soʻmga sotib oladi. Yutugʻi 200 ming soʻm.

2. «Buqa» yutdi. Uning yutugʻi 1,5 mln. soʻm.

3. a) 95 000 dona;

b) $100000 - 85000 = 15000$ dona aksiya jamiyat tasarrufida;

Jamiyat toʻplashi mumkin boʻlgan mablagʻ:

$$2000 \times 15000 = 30\,000\,000 \text{ soʻm.}$$

4. a) muvozanat, real YaMM = $S + I + G + X_n = 3100$ mlrd. soʻm;

b) davlat xarajatlari multiplikatori $MR_G = 4$; v) YaMM 3 mlrd. soʻmga kamayadi.

5. a) sof milliy mahsulotning real muvozanatli hajmi 60 mlrd. soʻmga oʻsadi;

b) $60 - 45 = 15$ mlrd. soʻm;

d) SMM va milliy daromadning real hajmi 15 mlrd. soʻmga oʻzgaradi.

6. Davlat sarflarini 5 mlrd. soʻmga koʻpaytirish yoki soliqlarni 6,125 mlrd. soʻmga kamaytirish kerak. Multiplikator soliqlarni tushirishga ishlaydi, chunki isteʼmolni koʻpaytiradi.

7. Ortiqchasi, moliyalashtirishdan kreditlashga oʻtish. U budjet taqchilligini kamaytirish chora-tadbirlaridan biri, qolganlari esa budjet taqchilligi sabablarini ifodalaydi.

T/N

1T; 2N; 3T; 4N; 5T; 6T; 7N (aksincha); 8N(aksincha); 9T; 10T; 11T; 12N;

Testlar:

1C); 2C); 3A; 4A); 5V); 6E); 7C); 8D); 9D); 10V); 11E); 12D); 13E); 14S); 15V); 16S); 17A); 18A); 19D); 20S); 21D); 22A).

Jamiyatning kredit tizimi va pul-kredit siyosati

Asosiy tayanch tushunchalar

1. Kredit	6. Pul multiplikatori
2. Kredit berish tamoyillari	7. Kredit emissiyasi (pul ekspansiyasi)
3. Kredit mexanizmi	8. Monetar siyosat
4. Moliyaviy sarosimalik	9. Hisob stavkasi
5. Majburiy zaxiralar normasi	10. Ochiq bozordagi operatsiyalar
6. Majburiy zaxiralar	

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

a) kredit berishning qonun-qoidalar va bank tomonidan mijozlarga qo'yiladigan shartlarning nazariy mazmuni;

b) mijozlarning omonatga qo'ygan pullarini so'ragan vaqtlarida olishga urinishlari, qarzдорlarda esa talab qilingan miqdorda pulning yo'qligi tufayli kelib chiqadigan vaziyat;

v) iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ichiga kreditlash sharoitlari, usullari, kreditni boshqarishni oladi;

g) iqtisodiy kategoriya bo'lib, vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar;

d) markaziy bank (MB) tasarrufidagi, MB tomonidan belgilanadigan, lekin tijorat va maxsus banklarning mulki bo'lgan qismi. Bankning majburiy rezervlarini bankning muddatsiz omonatlari bo'yicha majburiyatlariga nisbati tarzida belgilanadi;

e) tijorat banklari zaxira normasiga ko'ra bankka mijozlar tomonidan qo'yilgan naqd pullarga nisbatan emissiya qilinadigan pul massasini ko'payishi mumkinligini ko'rsatuvchi koeffitsiyenti;

yo) MB tomonidan mamlakatda to'la bandlik va milliy ishlab chiqarishning noinflatsion o'sish sur'atini ta'minlash uchun pul taklifini o'zgartirish;

j) tijorat banklar depozitlarining qonun bo'yicha majburiy rezervlar normasiga muvofiq MB da saqlanadigan qismi;

z) banklar tomonidan ssuda berib, yangi chek hisoblarini ochish, naqd pulsiz cheklar yordamida yoki boshqa yo‘llar bilan mamlakatning pul massasini ko‘paytirish;

i) MB tomonidan bozorda davlat qimmatbaho qog‘ozlarni sotish va sotib olish;

y) MB tomonidan tijorat banklariga beriladigan kredit stavkasi.

Masala va mashqlar

1. Aytaylik, «Alfa» korxonasi kiyimlik materiallari ishlab chiqaradi. U 50 mln. so‘m turadigan 5 dona to‘quv stanogini sotib olishi kerak. Bunday stanoklarni «Beta» korxonasi ishlab chiqaradi. Bu stanoklarni sotib olish uchun «Alfa» korxonasining o‘z mablag‘i yo‘q. Beta korxonasida esa ortiqcha mablag‘lar bor. Quyidagi vaziyatlar bo‘lishi mumkin:

a) Beta korxonasi «Sanoat-qurilish banki»dagi o‘z hisob raqamiga 50 mln. so‘m qo‘yadi. Bu summani «Alfa» korxonasi shu bankdan kredit shaklida oladi;

b) Beta korxonasi «Alfa» korxonasiga 3 dona stanokni to‘lov muddatini cho‘zish sharti bilan beradi. Har ikki variantga ko‘ra kredit shaklini ko‘rsating. Yana qanday kredit shakllarini bilasiz? Ko‘rsating.

2. Ipoteka banki «Sardor» fermer xo‘jaligiga yillik ssuda foizi stavkasi 20 foiz hisobidan bir yil muddatga 1 mln. so‘m qarz berdi. Fermer xo‘jaligi kredit uchun qancha haq to‘lashi kerak. Ssuda foizi nima va uni kim to‘laydi?

3. Agrobank yillik 20 % bank foizi to‘lash sharti bilan o‘z pullarini «Hosil» omonatiga qo‘yishni reklama qildi. Oddiy miqdori ko‘rsatilmagan omonat foizi 10%.

Feruzaning 500 ming so‘m puli bor. U pulini qaysi omonat shakli bo‘yicha bankka qo‘ygani ma’qul? Unga siz qanday maslahat bergan bo‘lar edingiz?

Bank foizi nima? Nima sababdan bank yuqori foiz to‘lashni ixtiyor qilayapti? Fikringizni izohlang.

4. Quyidagilarni o‘qing, ularning har biri qanday kredit munosabatlarini ifodalashini ko‘rsating:

1) yosh oila uy qurish uchun bankdan 5 yil muddatga qarz oldi;

2) davlat budjet taqchillikni qoplash uchun obligatsiyalar chiqardi;

3) avtomobil g‘ildiraklarini ishlab chiqaruvchi korxona O‘zDEUga 1000 dona mahsulotini pulini keyinroq to‘lash sharti bilan qarzga berdi;

4) «To'ytepa-tekstil» korxonasi ishlab chiqargan mahsulotiga talabgor korxonalardan qarz oldi.

5) talaba o'qish uchun shartnoma xarajatini qoplash maqsadida bankdan 500 ming so'm qarz oldi;

6) fermer traktor sotib olish uchun uyini garovga qo'yib, bankdan 10 mln. so'm kredit oldi;

7) tadbirkor mahalla kengashi kafolati bilan o'z aylanma mablag'larini to'ldirish uchun bankdan kredit oldi;

8) O'zbekiston hukumati Toshguzar – Boysun - Qumqo'rg'on temir yo'li qurilishi uchun xalqaro valuta fondidan 500 mln. dollar qarz oldi.

5. Mamlakat banklaridagi depozitlar (mijozlarning bankka qo'ygan puli) 211,6 mld. so'm. Undan 13,4 mlrd. so'mi MB da majburiy zaxira sifatida saqlanishi zarur.

Majburiy zaxira normasi, pul multiplikatori, muomalada naqd bo'lmagan pullarning eng yuqori darajadagi umumiy miqdorini hisoblang. Majburiy zaxiralar muomoladagi pul massasiga qanday ta'sir ko'rsatishini izohlang.

6. Mamlakat mijozlarining tijorat banklaridagi pullari 215 mlrd. so'm. MB majburiy zaxira normasini 15% dan 20% ga ko'tardi.

Majburiy zaxira summasi miqdori, pul multiplikatori va muomalada eng yuqori darajada qancha naqd bo'lmagan pullar yaratilishi mumkinligini hisoblang.

Pul multiplikatori nima? Muomaladagi pul miqdorini MB yana qanday usullar bilan tartibga soladi, izohlang.

T/N

1. Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida qator vazifalarni bajaradi. Eng muhimlaridan biri, bo'sh pul mablag'larini harakatdagi, kapitalga aylantirish.

2. Iste'mol krediti, tijorat firmalarining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

3. Ipoteka krediti ko'chmas mulk garovga qo'yib olinadigan kredit.

4. Tijorat va Markaziy bank zaxiralari – bu Markaziy bank aktivlaridir.

5. Bank seyfida saqlanayotgan naqd pullar bank zaxiralarining ma'lum bir qismini tashkil etadi.

6. Pul multiplikatorining harakati ikki shart: hamma pullar bank hisob varaqalarida qoladi va banklar ortiqcha zaxiralarga ega emasligiga asoslanadi.

7. Bank foizi bankdan qarz olgan mijozlar to'laydigan foiz.

8. Tijorat banklari ssudalarni qaytarish chog'ida pul yaratadilar.

9. Kreditning qaysi turi bo'lmasin, qanday shaklda berilishidan qat'i nazar, kredit berishning asosiy talablariga amal qilinishi kerak.

10. Lombardlar ko'chmas mulk evaziga kredit beradi.

11. 2003–2004-yillarda O'zbekiston hukumati tomonidan Osiyo banki ko'magida mamlakatning aholi farovonligini oshirish ko'zlangan «O'zbekiston aholisining 2004–2006-yillar va 2010-yilgacha bo'lgan davrda turmush darajasini oshirishni o'rta muddatli strategiyasi» ishlab chiqildi.

TEST SAVOLLARI

1. Firma 20 mln. so'm turadigan yangi uskuna sotib olish uchun qarz olmoqchi. U bir yil xizmat qiladi. Buning natijasida firmaning qo'shimcha daromadi 1500000 so'mga yetishi kutiladi.

Firma uskuna uchun investitsiya sarflashi mumkin, agar foiz stavkasi

A) 6%; V) 8%; S) 10%; D) 12%; E) 15% bo'lsa.

2. Bank dastlab qo'yilgan summaga hamda unga hisoblangan foizga ham to'lovni hisoblaydi. Bunday foiz hisoblash summasi:

A) oddiy foiz;

V) murakkab foiz;

S) kreditga foiz;

D) qulay foiz;

E) qo'shimcha foiz bo'ladi.

3. Agar MB zaxira normasini ko'tarsa, boshqa sharoitlar teng bo'lganda...

A) kreditlarga o'rtacha bank foizi pasayadi;

V) mamlakatda pul massasi ko'payadi;

S) bankning kredit resurslari ko'payadi;

D) kreditlarga o'rtacha bank foizi pasayadi, mamlakatda pul massasi ko'payadi;

E) bank zaxira normasining o'sishi yuqorida sanab o'tilganlardan hech qaysi biriga olib kelmaydi.

4. Pulning aylanish tezligi ...

A) berilgan bank kreditlarining uning miqdoriga nisbati;

- V) real YaIMning narx indeksi asosida hisoblanadigan miqdori;
- S) pul birligining yil davomida o'rtacha to'lov vositasi sifatida necha marta ishlatilishi;
- D) bir tijorat bankiga to'g'ri keladigan o'rtacha naqd pulsiz hisob-kitoblar miqdori;
- E) pulning muomalada bo'lgan vaqti.

5. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda, O'zbekistonda ham bank tizimi ikki bo'g'inli bo'lib, ular:

- A) Markaziy bank, tijorat va maxsus banklar;
- V) Pulni jamg'aradigan va qarzga beradigan banklar;
- S) Markaziy bank va ipoteka banklari;
- D) banklar va sug'urta jamiyatlari;
- E) Markaziy bank va investitsion banklar.

6. Monetar siyosat yuritayotganda sanab o'tilganlardan qaysi birining pul taklifiga ta'siri boshqa uchtagiga nisbatan farq qiladi?

- A) davlatning qisqa muddatli obligatsiyalarini sotish;
- V) zaxira stavkasi;
- S) hisob stavkasini ko'tarish;
- D) qo'shimcha pul emissiya qilish;
- E) Yuqoridagilarning barchasi.

7. Markaziy bank bozorda, aholidan va boshqalardan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olsa, zaxira normasi va hisob stavkasini kamaytirsa,

- A) «qimmat» yoki qattiq pul siyosati;
- V) «arzon» yoki yumshoq pul siyosati;
- S) «o'rtacha» pul siyosati;
- D) pul - kredit siyosati;
- E) zaxira normalarini o'zgartirish siyosatini yuritayapti, deb aytish mumkin.

8. Markaziy bank ochiq bozorda davlat qimmatbaho qog'ozlarini banklarga, aholiga sotsa, zaxira normasi, hisob stavkasini ko'tarsa:

- A) «qimmat» yoki «qattiq» pul siyosati;
- V) «arzon» yoki «yumshoq» pul siyosati;
- S) «o'rtacha» pul siyosati;
- D) pul-kredit siyosati;
- E) zaxira normalarini o'zgartirish siyosati yuritayapti, deb aytish mumkin.

9. Muvozanatli foiz stavkasi ... tenglashtiradi:

- A) nominal va real foiz stavkalarini;
- V) iste'mol bilan jamg'arishni;
- S) qarz mablag'lariga talab hajmi bilan taklif hajmini;
- D) daromadlar bilan xarajatlarni;
- E) investitsiyalar bilan qarzlarni.

10. Pul massasini ko'paytirishga qaratilgan siyosat:

- A) qimmat (qattiq) pul siyosati;
- V) mamlakatda pul massasini kamaytirish yoki cheklashga qaratilgan siyosat;
- S) fiskal siyosat;
- D) valuta - pul siyosati;
- E) arzon (yumshoq) pul siyosati deb yuritiladi.

11. Kredit munosabatlarining mohiyati va vazifalari uning qaysi shaklida to'laroq namoyon bo'ladi?

- A) iste'molchilik kreditida;
- V) ipoteka kreditida;
- S) tijorat kreditida;
- D) bank kreditida;
- E) xalqaro kreditda.

12. Qaysi omil ssuda foizining o'sishiga olib keladi?

- A) ssuda taklifining ortishi;
- V) pulni ishlatishdan kutiladigan foyda normasining pasayishi;
- S) ssudaga bo'lgan talabning ortishi;
- D) inflatsiya darajasining yuqori bo'lishi;
- E) aksiyaga olinadigan dividendning yuqori bo'lishi.

13. Quyidagilardan qaysi biri bankning passiv operatsiyalariga kiradi?

- A) korxonalarga berilgan qarzar;
- V) garovli kreditlar;
- S) davlat obligatsiyalarini sotib olish;
- D) muddatli qo'yilmalar;
- E) bank ehtiyotlarini shakllantirish.

14. Markaziy bank hisob stavkasini kamaytirsam, bu quyidagi o'zgarishga olib keladi:

- A) tijorat banklaridagi umumiy zaxira miqdori oshadi;
- V) aholi omonatlarining ko'payishini rag'batlantiradi;
- S) markaziy banklarning tijorat banklariga beradigan qarz miqdorini kamaytiradi;

- D) foiz normasini oshiradi;
E) omilli daromadlar miqdori ko‘payadi.

15. Kredit nima?

- A) ortiqcha to‘plangan pul;
V) qarz berish;
S) qarz olish;
D) muayyan muddatga, ma’lum bir foiz hisobiga qarz berish;
E) yuqoridagilarning barchasi.

16. Foiz stavkasining tabaqalanishiga (masalan, 25 dan 200% gacha) nima sabab bo‘ladi?

- A) ssuda berishdagi risk;
V) ssuda berilish muddati;
S) ssudaga beriladigan pul hajmi;
D) pul bozorining monopollashuvi;
E) yuqoridagilarning barchasi.

17. Qimmatli qog‘ozlar nominal qiymati 1000 so‘mdan 667 so‘mga tushsa va foiz to‘lovi o‘zgarmasdan 50 so‘mda qolsa, foiz stavkasi necha foizga o‘sadi?

- A) 3,0 %; V) 3,5 %; S) 2,5 %; D) 2,0 %; E) 4,0 %.

O‘zbekiston bank tizimining ko‘rsatkichlari


9.10-jadval

Ko‘rsatkichlar	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2010 y.	2012 y.
Banklar soni	33	31	29	29	29
Filiallar soni	805	799	788		829
Minibanklar soni	795	1122	1450		
Kredit uyushmalari soni	14	20	24	116	
Lombardlar soni	0	1	7	58	
Kreditlar jami (mlrd. so‘m)	3160,7	3595,5	3876,0	11539,0	20425,2
Iqtisodiyotning real sektoriga berilgan kreditlar (mlrd. so‘m)	3156.0	3572.2	3853.3	11539	20392
Shundan uzoq muddatli kreditlar (mlrd. so‘m)	2555.7	2901,9	3129,4	8677,3	15661

Jadvaldagi raqamlarga diqqat qiling. Keyingi yil ma’lumotlari bilan to‘ldiring. Ular asosida qanday xulosa chiqarish mumkin? Fikringizni izohlang.


Banklarning jami kapitali, mlrd. so‘m

9.2-diagramma



Bank aktivlari, mlrd. so‘m

9.3-diagramma



Diagrammalardagi ma’lumotlarga diqqat qilib, ularni tahlil qiling, keyingi yil ma’lumoti bilan to‘ldiring va xulosa chiqaring. Bank kapitali, bank aktivlari, kreditlar hajmi qanday o‘zgargan? Bu tushunchalarning mazmunini ayting.

Iqtisodiyotga yo‘naltirilgan va aholiga berilgan kreditlar hajmi (mlrd. so‘m)

9.4-diagramma





Diagramma ma'lumotlari asosida uzoq muddatli va kichik biznes subyektlariga, aholiga berilgan kreditlarning real sektorga yo'naltirilgan jami kreditlar hajmidagi ulushini hisoblang. 2013 yil 1-yanvar holatini 2008 yil bilan solishtiring. Ular asosida qanday xulosa chiqarish mumkin? Fikringizni izohlang.

Jismoniy va yuridik shaxslarning bank depozitlariga jalb qilingan pul mablag'lari hajmi, mlrd. so‘m

9.5-diagramma



Nima sababdan jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari hajmi ortgan? Buning sababi nimada deb bilasiz? Diagrammani keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring. Fikringizni bayon qiling.

Tijorat banklari tomonidan mamlakat iqtisodiyotiga ajratilgan kreditlar dinamikasi, (foizda)¹


9.11-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar				2012 yilda 2000 yilga nisbatan ulushi o'zgarishi
	2000	2010	2011	2012	
Kreditlar jami.	100	100	100	100	
Qisqa muddatli	75	31,0	24,3	23,2	-3,2 marta
Uzoq muddatli	25	69,0	74,4	76,8	+3,07 marta

Raqamlarga diqqat qiling. Tijorat banklari tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga ajratilgan kreditlar muddatiga ko'ra tarkibini bunday o'zgarishi nimadan dalolat beradi? Fikringizni bildiring.

O'zbekiston Respublikasida Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar va investitsiyon kreditlar (mlrd.so'm).

9.6-diagramma



Diagrammani keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Investitsion kreditlarning jami kreditlar summasidagi ulushini aniqlang. Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar miqdorining o'sib borishi nimadan

¹ Ўйғма маълумотлар асосида муаллиф томонидан тузилган.

dalolat beradi? Investitsion kreditlar deganda qanday kreditlarni tushunamiz?

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga 2011 va 2012 yil davomida barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar(mln. so‘m)¹

9.12-jadval


t/r	Asosiy yo‘nalishlar	2011-yil davomida ajratilgan kreditlar	2012-yil davomida ajratilgan kreditlar	2011-yilga nisbatan o‘sishi % da
1	Tijorat banklari tomonidan barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar	4 041 130	5 345 827	132.3
Shundan				
1	Ajratilgan mikrokreditlar	752 287	1 171 607	155.7
2	Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga	25 649	48 460	188.9
3	“Mikrokredit bank tomonidan ko‘rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar	159 683	204 742	128.2
4	Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklariga qoramol sotib olishga	59 734	77 583	129.9
5	Oziq-ovqat iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarga	712 443	978 181	137.3
6	Nooziq-ovqat iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishga	724 011	1 041 262	143.8
7	Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishga	54 140	97 780	180.6
8	Xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun	351 085	618 120	176.1
9	Tadbirkor ayollarni qo‘llab quvvatlashga	335 584	491 735	146.5

Jadvalda berilgan ma’lumotlarni o‘rganing. Tijorat banklarining bergan barcha kredit miqdorini va unda kichik biznesga berilgan kreditlar ulushini aniqlang. Keyingi yil ma’lumotlari bilan taqqoslang. Fikringizni bayon qiling.

¹ Марказий банк маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Muomalaga chiqarilgan bank kartalari miqdori dinamikasi

9.2-grafik



Bank kartochkalari haqida nimalarni bilasiz? Ulardan foydalanish qanday natijaga olib keladi? Fikringizni bildiring.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar dinamikasi

9.7-diagramma




Diagramma ma'lumotlariga diqqat qarating. Kichik biznes va tadbirkorlikka ajratilgan kreditlarning o'sish sur'atini hisoblahg.

Bunday amaliyot qanday natijaga olib kelayotganini asoslab bering

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1g); 2a); 3v); 4b); 5d); 6j); 7e); 8z); 9yo); 10y); 11i);

Masala va mashqlar:

1. a) bank, b) tijorat.
2. Ssuda foizi 20%; summasi 200 000 so‘m.
3. Oddiy omonat shakli bo‘yicha 80 000 so‘m foiz oladi. «Hosila» omonati 240 000 so‘m, 3 marta ko‘p. Bankka qo‘ygan puli shu muddat ichida kerak bo‘ladimi, yo‘qmi, shunga qarab tanlashi kerak.

- 4.1) iste‘mol krediti;
- 2) davlat krediti;
- 3) tijorat krediti;
- 4) xo‘jalikaro kredit;
- 5) ipoteka krediti;
- 6) bank krediti;
- 7) xalqaro kredit.

5. Majburiy zaxira normasi 6,3; pul multiplikatori 15,8; Bank tizimi yaratgan MS = 3343,2 mlrd. so‘m bo‘lishi mumkin.

6. Zaxira normasi 15% bo‘lganda, 32,25 mlrd. so‘m. MBga berilgan $m = 6,7$; Pul miqdori 1440,5 mlrd. so‘m. Zaxira normasi 20% bo‘lganda $m = 5$; pul miqdori 1075 mlrd. so‘m:

T/N

1T; 2N; 3T; 4N; 5T; 6T; 7N; 8N; 9T; 10N, 11T;

Testlar:


1S); 2V); 3E); 4S); 5A); 6D); 7V); 8A); 9S); 10E); 11D); 12S); 13E);
14A); 15D); 16E); 17S).

10-MAVZU. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI

1-§. Bozor iqtisodiyotini tartibga solish zarurligi va uning amalga oshirilishi to'g'risidagi nazariy qarashlar

Milliy xo'jalikda makroiqtisodiy muvozanatlikni ta'minlab borish va uning samarali faoliyat qilishiga erishish iqtisodiyotni tartibga solishni zarur qilib qo'yadi.


Iqtisodiyotni tartibga solish yo'llari



- * O'z-o'zini tartibga solishning bozor mexanizmlariga amal qilishi.
- * Iqtisodiyotni markazlashgan tarzda ma'muriy usullar yordamida tartibga solish
- * Davlatning aralashuvini bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish orqali iqtisodiyotni tartibga solishga erishish

Iqtisodiy fanda davlatning iqtisodiyotdagi rolini cheklash va uni tartiblashda bozor mexanizmiga ustuvorlik berish masalasi birinchi marta A. Smit tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan («Xalqlar boyligining tabiati va sabablari xususida tadqiqot» asarida)

A.Smitning iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi xususidagi uchta asosiy qoidasi



- 🌀 Bozorni tartibga solishga davlat aralashmasligi lozim. Uning vazifasi: tinchlikni saqlash, me'yorida soliqlar belgilash, adolatli sud qilishni ta'minlashdir.
- 🌀 Bozorni tartibga soluvchi asosiy kuch – bu «ko'rinmas qo'l», ya'ni talab, taklif va raqobat.
- 🌀 Bozor o'z-o'zini boshqaradi. Buni bozor talabi va tovar taklifining o'zaro bog'liqligi ta'minlaydi.

A.Smitning «Tinch qo'yish» nazariyasi 1929–1933-yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida o'zini oqlamadi va tanqidga uchradi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish to'g'risidagi qarash Djon Meynard Keynsga tegishli. U «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936y.) kitobida iqtisodiy inqiroz va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiyotga aralashuvini taqozo qilishini qayd qiladi. Shu sababli davlat fiskal va monetar tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishi va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarur degan g'oyani ilgari suradi.

J. Keyns fikriga ko'ra davlat «samarali talab»ni rag'batlantirish vazifasini milliy xo'jalikka investitsiyalar qo'yish va davlat sarflarini ko'paytirish orqali bajaradi hamda bu bandlik va korxonalar foydasi o'sishiga olib keladi.

Iqtisodiyotni tartibga solish nazariyasidagi neoklassik yo'nalishlar:

→ Birinchi oqim: keyns ta'limoti izdoshlari bo'lib, davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi g'oyasini himoya qilishni davom ettiradi.


Ikkinchi oqim: «Neokonservatizm» deb atalib, ular davlat xususiy firmalar va xo'jalik faoliyatiga aralashmasligi zarur degan qarashni yoqlab chiqadi. Ular o'z qarashlarini quyidagi dalillar bilan asoslaydi.

→ Davlatning yalpi talabni rag'batlantirishi budjet taqchilligiga olib keladi. Uni pul emissiya qilish orqali qoplash inflatsiyani vujudga keltiradi.

Davlatning daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan harakati soliqlarning o'sishiga sabab bo'ladi va bu tadbirkorlik faoliyati susayishi va foydaning kamayishi bilan birga boradi. Natijada iqtisodiyotda stagflatsiya holati kuzatiladi.

Neokonservativ oqim yoʻnalish(maktab)lari


Mone- tarizm



Asoschisi amerikalik iqtisodchi M. Fridmen. Uning fikriga koʻra davlatning iqtisodiyotga eng kam darajada aralashuvi pul muomalasi doirasida boʻlishi kerak. Monetaristlarning inflatsiyani jilovlashga qaratilgan tavsiyalari:


- pul taklifi va kredit berishni qattiq cheklash;
- pul emissiyasini ishlab chiqarishning oʻsishiga mos koʻpaytirish;
- Davlatning aholiga turli toʻlovlarni kamaytirish hisobiga ijtimoiy dasturlarni qisqartirish.

Taklif nazariyasi



Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish siyosatida ustuvorlik tovarlar taklifini yalpi talabga moslashtirishga berilishi lozimligini qayd qiladi.

Ratsional kutish nazariyasi



Davlat bozor konyunkturasida kutilayotgan inqirozli holatlarni oldindan taxminlash va uning oqibatlarini yumshatish boʻyicha chora-tadbirlar belgilashga qaratish zarurligini qayd qiladi.

2-§. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi, maqsadi va vazifalari

Iqtisodiyotga davlatning aralashuvini zarur qilib qo'yuvchi omillar


- Milliy iqtisodiyotda bozor vositasida bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali bajarib bo'lmaydigan vazifalarni hal qilish (mudofaani ta'minlash, ichki tartibni saqlash, aholini ijtimoiy himoyalash);
- ishlab chiqarish va iste'mol oqibatida vujudga keladigan ijobiy samara va salbiy oqibatlarni bartaraf qilish (tozalash qurilmalari va uskunalarni o'rnatish, atrof-muhitni muhofaza qilish);
- foydali iste'molni kengaytirish va sog'liq uchun zarar keltiruvchi tovarlar iste'molini cheklash;
- bozorning salbiy oqibatlarini yengillashtirish: ijtimoiy adolatsizlik, taqsimotdagi tengsizlik kabilar.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish (IDTTS) qonunchilik, ijro etish va nazorat qilish xarakteridagi tadbirlar tizimidan iborat.

IDTTS maqsadi:


Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va uni o'zgarib turuvchi sharoitlarga moslashtirish hisoblanadi.

IDTTS vazifalari




- ❖ Bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'duruvchi huquqiy asosni yaratish va ijtimoiy muhitni ta'minlash;
- ❖ raqobatni himoya qilish;
- ❖ daromad va boyliklarni qayta taqsimlash;
- ❖ resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash;
- ❖ iqtisodiyotni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.


Ijtimoiy muhitni ta'minlash vazifalari:

- 
- Milliy pul tizimini muomalaga kiritish;
 - ichki tartibni saqlash;
 - mahsulot sifati va og'irligiga standartlar belgilash;
 - bozor infratuzilmasini vujudga keltirish;
 - muassasaviy o'zgarishlarni amalga oshirish va hokazo.


Bozor iqtisodiyoti huquqiy asosini yaratishga qaratilgan vazifalar

- 
- Mulkchilikka taalluqli qonunlar qabul qilish;
 - korxonalar huquqiy maqomini belgilash;
 - mulkchilik (shu jumladan xususiy) huquqini aniqlash;
 - shartnomalar amal qilishini kafolatlash;
 - korxonalar, resurs egalari va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqish va shu kabilar.


Raqobatni himoya qilish vazifalari

- 
1. Monopol faoliyatni cheklash va ular ustidan nazorat o'rnatish:
 - * monopoliyaga qarshi qonunlar qabul qilish;
 - * texnologik va iqtisodiy sharoitlar tufayli monopol mavqega ega bo'lgan korxonalar narxlarini tartibga solish;
 - * monopol korxonalar ishlab chiqaradigan tovarlar va xizmatlar turini aniqlash hamda ularga andozalar o'rnatish.
 2. Tovarlar bozorida raqobatni rivojlantirish.
 3. Iste'molchilar huquqi va tadbirkorlar manfaatini himoyalash.


Daromad (boylik)larni qayta taqsimlash vazifasi

- 
- Transfert to'lovlari yordamida (muhtojlar, nogironlar, birovning qaramog'idagilar va ishsizlarni nafaqalar bilan ta'minlanadi);
 - ijtimoiy ta'minot dasturlari orqali (qariya va pensionerlarga, jamiyatning kam daromadli yoki daromadga ega bo'lmagan a'zolariga moliyaviy yordam ko'rsatiladi).
 - bozorni tartibga solish, ya'ni talab va taklif ta'sirida o'rnatiladigan narxlarni o'zgartirish yo'li bilan;
 - imtiyozli narxlarni va ish haqining eng kam (minimal) darajasini belgilash hamda o'zgartirish orqali;
 - soliq imtiyozlarini belgilash yordamida.


Raqobatli bozor tizimining resurslarni qayta taqsimlashga layoqatsizligini ko'rsatuvchi holatlar


- 
- Bozor tizimi ayrim tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi.
 - Ishlab chiqarishi o'zini oqlamagan, ya'ni foyda keltirmaydigan tovarlar va xizmatlarga resurslar ajratilmaydi.



Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasi

- 
- iqtisodiyotda to'liq bandlikni ta'minlash (davlat investitsiyalarini ko'paytirish, xususiy sektor sarflarini rag'batlantirish orqali);
 - soliqlarni kamaytirish yoki soliq stavkalarini pasaytirish;
 - dotatsiya va subsidiyalar berish;
 - transfert to'lovlarini ko'paytirish.

3-§. Davlatning iqtisodiyotini tartibga solish usullari va vositalari







Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar

Asosiy tayanch tushunchalar

1. Iqtisodiyotni tartiblash
2. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi

3. Milliy iqtisodiyot mustaqilligini ta'minlash
4. Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik nazariyasi
5. Iqtisodiyotni tartibga solishning keynscha modeli
6. Iqtisodiyotni tartibga solishning monetar modeli
7. Kouz teoremasi (couse theorem)
8. Ratsional kutish nazariyasi
9. Monetar qoida
10. Iqtisodiyotni tartiblashning bevosita usullari

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

a) Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash bozor bajara olmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish;

b) iqtisodiyot o'zini-o'zi bozor mexanizmi va bozor regulatorlari asosida tartibga soladi, ular yordamida mamlakatdagi resurslar to'la ishga solinadi;

v) iqtisodiyotni chet elga qaram bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, buning uchun chora-tadbirlar belgilash, milliy manfaatlarni himoya qilish;

g) bozor o'z-o'zicha iqtisodiyotni samarali tartibga sola olmaydi, resurslardan to'la foydalanishni amalga oshira olmaydi. Shuning uchun davlatning iqtisodiyotga fiskal va pul-kredit siyosati orqali faol aralashuvi qo'yilgan maqsadga erishish mumkinligi to'g'risidagi konsepsiya;

d) makroiqtisodiy nisbatlarning bir-biriga mos holda rivojlanib borishi, undagi turli bo'g'inlar faoliyatini bir-biriga bog'liq holda muvozanatlashuviga erishish;

e) monetarizm tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan. Unga ko'ra muomaladagi pul massasi yiliga real YaIM o'sishining potensial sur'ati darajasiga teng miqdorda o'sishi kerak. Pul massasi barqaror 3-5% o'sishi zarur;

yo) ijobiy yoki salbiy effektlar¹ ta'sirida kelib chiqadigan muam-molarning ma'lum bir qismini davlat aralashmay yechish mumkinligini e'tirof etuvchi konsepsiya. Unga muvofiq tashqi effektning ma'lum qismi manfaatdor tomonlar o'rtasida ovoza qilinmaydigan «kishi bilmas» individual bitimlar orqali yechish mumkin bo'lgan muammo-lardir;

¹ Effekt – ing. oqibat, ta'sir, harakat, aks etish ma'nolarida qo'llaniladi.

j) keynschilikka muqobil, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimum darajada muomaladagi pul miqdorini tartibga solish doirasidagina bo'lishi zarurligini asoslovchi konsepsiya. Unga ko'ra narx darajasi muomaladagi pul miqdoriga bog'liq, shuning uchun monetar qoidaga rioya qilish kerak;

z) gipoteza, unga muvofiq firmalar va uy xo'jaliklari davlat pul-kredit va budget siyosati orqali iqtisodiyotga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi deya kutishadi va o'z manfaatlaridan kelib chiqib, bu siyosatni samarasiz qilib qo'yadigan turli chora-tadbirlar qo'llashadi;

i) iqtisodiyotni davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuviga asoslangan vosita va dasturlar orqali tartibga solish.

Masala va mashqlar:

1. Quyidagi jadvalda to'rtta iste'molchining ma'lum bir mahsulotga talabining individual hajmi berilgan.

	Narx (ming so'm), talab hajmi, dona	10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
1	Abduhamid	0	0	0	1	2	3	4	5	6	7
2	Odiljon	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
3	Olimjon	0	0	1	2	3	4	5	6	7	8
4	Erkinjon	0	1	2	3	4	5	6	7	8	7

a) agar bu sof xususiy ne'mat bo'lsa, bozor talabi hajmini aniqlang;

b) agar u sof ijtimoiy ne'mat bo'lsa, unga jamoa talabi miqdorini aniqlang.

2. Sof ijtimoiy ne'matlar taklifi quyidagicha

Narx	23	20	17	14	11	8	5	2	X
Taklif hajmi	9	8	7	6	5	4	3	2	X

Birinchi masalada berilganlardan foydalanib:

a) sof ijtimoiy ne'matlarning samarali hajmini aniqlang.

b) agar u xususiy sektorda ishlab chiqarilganda hajmi qancha bo'lar edi?

3. Kichik shaharchada 240 ming aholi yashaydi. Ular teng uch guruhdan (80 ming kishidan) iborat deylik. Ijtimoiy ne'mat: yoritish

uchun chiroq oʻrnatish qadr-qimmati har bir guruh uchun turlicha. Har bir guruh turli miqdorda chiroq oʻrnatish tarafdorlari: A guruh uchun induvidual talab $P = 1 - 0,01Q$ formulasida ifodalangan. Bu yerda: P – narx, Q – shaharchada chiroqlar miqdori.

Ikkinchi V guruh uchun $P = 2 - 0,02Q$. Uchinchi S guruh uchun esa, $P = 3 - 0,03Q$.

Yoʻlga chiroqlar oʻrnatishdagi marjinal (meʼyoriy) xarajatlar doimiy boʻlib, 240 ming soʻmni tashkil qiladi. Shaharchada yoʻlga oʻrnatiladigan chiroqlarning optimal miqdori nechta?

4. Quyidagi sanab oʻtilgan soha va tarmoqlardan qaysi birlarida davlat sektoriga qarashli korxonalar koʻproq uchraydi?

- a) chakana savdoda;
- b) infratuzilmada;
- d) mehmonxona va ijtimoiy ovqatlanishda;
- e) qishloq xoʻjaligida.
- f) xomashyo qazib olish, undirma sanoatda;
- g) kiyim-kechak ishlab chiqarishda;
- h) poyabzal ishlab chiqarishda;
- i) ilmiy tadqiqot ishlarida;
- j) non va non mahsulotlari ishlab chiqarishda.
- k) ichimlik mineral suv ishlab chiqarishda;

5. Quyida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdan koʻzlangan maqsadlari koʻrsatilgan. Oʻzaro bir-biriga taʼsir koʻrsatuvchi va bir-biriga zid maqsadlarni ajratib koʻrsating:

- a) iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish;
- b) narxning oʻsishini toʻxtatish uchun importni koʻpaytirish;
- d) toʻlov balansini taqchilligini tugatish;
- e) oʻrta va kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash;
- f) ishsizlikni qisqartirish;
- g) kapitalning markazlashuvini ragʻbatlantirish;
- h) yangi texnologiyani joriy qilish va raqobatga dosh berolmaydigan tarmoqlarni tugatish.

6. Ijobiy yoki salbiy effekt taʼsirida kelib chiqadigan muam-molarning maʼlum bir qismini davlat aralashmay yechish mumkin, qachonki:

- 1) mulk huquqi aniq belgilanganda;
 - 2) uncha koʻp boʻlmagan kishilar oʻrtasida;
 - 3) bitim qiymati nisbatan kichik boʻlsa;
- boshqa hollarda davlat miqyosida yechiladi.

Bildirilgan fikrlar kimniki va u qanday ataladi? Ijobiy va salbiy samara deganda nima tushuniladi?

7. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Ular ichida guruhga taalluqli bo'lmaganini aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

- 1) Ilyosjon kontrakt asosida Toshkent Moliya institutida o'qiyapti;
- 2) Ra'no xususiy poliklinikaga murojaat qilib, pullik meditsina xizmatlaridan foydalandi;
- 3) Abbas sport klubiga a'zo bo'lib, tennis kortidan foydalanish huquqiga ega bo'ldi;
- 4) Dildora qizini ingliz tili va raqsga o'rgatadigan bog'chaga berdi;
- 5) Asqar Yo'ldoshev chegarani qo'riqlamoqda;
- 6) Rahbaroy iqtisodiyotga tegishli ma'lumotlarni olish uchun axborot yig'ish bilan shug'ullanuvchi mas'uliyati cheklangan jamiyatga murojaat qildi.

T/N

1. Iqtisodiyotni tartibga solish ikki yo'l bilan: a) iqtisodiyot o'z-o'zini tartiblashi (bozor mexanizmi yordamida); b) davlat tomonidan tartibga solish tarzida amalga oshiriladi.

2. Markazdan rejalashtirishga asoslangan tizimda iqtisodiyot reja tuzish va uni bajarishni nazorat qilish orqali tartibga solingan.

3. Davlat raqobatni qo'llab-quvvatlashi, antimonopol qonunlar qabul qilishi shart emas. Erkin iqtisodiyot raqobat uchun o'zi sharoit yaratadi.

4. Davlatning huquqiy, ma'muriy yo'l bilan: taqiqlash, ruxsat berish, majbur qilish, nazorat qilish orqali iqtisodiyotni tartibga solishini noiqtisodiy yo'l bilan bevosita tartibga solish deyish mumkin.

5. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishni iqtisodiy yo'l bilan amalga oshirishi ham ikkiga, iqtisodiyotga: bevosita ta'sir ko'rsatish va bilvosita ta'sir ko'rsatishga bo'linadi.

6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi me'yori shu darajada bo'lishi kerakki, u bozor mexanizmining ishlashiga xalaqit bermay, uning uchun sharoit yaratishi, va kamchiligini to'ldirib turishi zarur.

7. Bozor iqtisodiyotida iqtisodiy aloqalarning globallashuvi, aholi farovonligini ta'minlashdagi bozor mexanizmining kamchiligi iqtisodiyotga davlat aralashuvini cheklashga undasa, ikkinchidan, bozor

mexanizmini to'laqonli ishlashi uchun sharoit yaratilishi talabi uning rolini kuchaytirishni talab qiladi.

8. Kishilik jamiyatining barqaror rivojlanishida davlatning muhim vazifalaridan biri tashqi effektlarga ta'sir ko'rsatishdir.

9. Tashqi effekt – bu bozor bitimlarida tovar va xizmatlar narxida aks etmagan qo'shimcha xarajat, chiqim, naf va yutuqlardir.

10. Ijobiy tashqi effekt deganda tovar va xizmatlar narxida aks etmagan qo'shimcha xarajalar tushuniladi.

TEST SAVOLLARI

1. Quyidagilardan qaysi biri davlatning iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri aralashuvini ifodalamaydi:

- A) amortizatsiya siyosatini yuritish;
- V) huquqiy normativlar ishlab chiqish;
- S) ma'muriy tartibga solish;
- D) iqtisodiy sektorda faoliyat yuritish;
- E) qonunlar qabul qilish.

2. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, bu ...

- A) iqtisodiyotning erkin bo'lishi uchun sharoit yaratish;
- V) milliy pulning qadri tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- S) ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlab, iqtisodiyotni falaj holatiga yo'l qo'ymaslik;
- D) aholini hayot kechirish farovonligini oshirish;
- E) iqtisodiy samaradorlikka erishish.

3. «Monetar qoida»ga muvofiq:

A) davlat yalpi talab bilan yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi kerak;

V) davlat doimo real YaMMning potensial o'sish sur'atiga mos ravishda pul taklifining o'sish sur'atini qo'llashi va u amal qilayotgan qonunchilikda o'z ifodasini topishi kerak;

S) davlat budjetining xarajat va daromadlarini muvofiqlashtirishni ta'minlash kerak;

D) davlat naqd va naqd bo'lmagan pullar o'rtasidagi doimiy nisbatlarni ushlab turishi kerak;

D) davlat inflatsiyani nol darajada ushlab turishga mas'ul.

4. Yopiq iqtisodiyotda barqarorlashtirish siyosati ratsional kutish nazariyasiga ko'ra:

A) biznes sikl doirasida davlat budjetini balanslashtirish;

- V) «narx va daromadlar siyosati» o‘tkazish ;
- S) «monetar qoida»ni so‘zsiz bajarish;
- D) davlatning fiskal siyosati yordamida xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish;

E) chet el investitsiyalari uchun qulay sharoit yaratishni ifodalaydi.

5. Sof ijtimoiy tovar-xizmatlar shunday tovarlarki,

- A) ular faqat davlat tomonidan ishlab chiqariladi;
- V) ulardan bir iste‘molchi foydalanishi bilan boshqalar uchun kamayib qolmaydi;
- S) iste‘mol qilishni faqat bu tovarlarga pul to‘laganlar bilan cheklab bo‘lmaydi;

D) V va S javob to‘g‘ri:

E) A va V javob to‘g‘ri.

6. Aralash ijtimoiy ne‘matlar bu – ...

A) raqobatbardoshligi past, ya‘ni qo‘shimcha iste‘molchi foydalanish bilan bu tovar boshqalar uchun kamayib qolmaydi;

V) iste‘moldan istisno qilish mumkin, shuning uchun narx belgilash oson;

S) iste‘moldan istisno qilish mumkin emas, ya‘ni pul to‘lamaydiganlarni to‘laganlardan ajratish qiyin;

D) V va S javob to‘g‘ri.

E) A va V javob to‘g‘ri.

7. Davlat qarzi nima:

- A) davlatning xorijiy davlatlardan qarzi;
- V) davlatning sof eksportdagi ulushining qisqarishi;
- S) davlat budjetidagi taqchillikning o‘shishi;
- D) davlatning o‘z fuqarolari, banklar, korxonalar, shuningdek, xorijiy mamlakatlardan qarzi;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

8. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari – bu:

- A) tovar va xizmatlarning davlat tomonidan xarid qilinishi;
- V) davlat transfert to‘lovlari;
- S) ochiq bozordagi operatsiyalar;
- D) foydaga solinadigan soliqlar;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

9. Davlatning soliqlarni tartibga solish siyosati quyidagilardan qaysi birida ifodalanadi:

- A) monetar siyosatda;
- V) pulning miqdorini o‘zgartirishga qaratilgan siyosatda;

- S) tashqi iqtisodiy siyosatda;
- D) fiksal siyosatda;
- E) ijtimoiy siyosatda.

10. Davlatning xarajatlari va soliqlar bilan bog'liq bo'lgan siyosati – bu:

- A) ijtimoiy-iqtisodiy siyosat;
- V) monetar siyosat;
- S) fiskal siyosat;
- D) ijtimoiy siyosat;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

11. Davlat daromadlarini qayta taqsimlashni qanday amalga oshiradi?

- A) pul-kredit siyosati orqali;
- V) transfert to'lovlari orqali;
- S) daromadlar siyosati orqali;
- D) monopoliyalarga qarshi olib boradigan siyosat orqali;
- E) soliqlar va transfert to'lovlari orqali.

12. Fiskal siyosatning asosiy dastagi qaysi?

- A) foiz stavkasi;
- V) soliqlar;
- S) hisob stavkasi;
- D) ayirboshlash kurslari;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

13. Monetar siyosatning asosiy dastagi qaysi?

- A) davlat budjeti;
- V) pul taklifi;
- S) foiz stavkasi;
- D) narx tizimi;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

14. Bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagi muammolarning qaysi biri bilan davlat shug'ullanishi kerak?

A) o'z vazifalarini bajarish uchun sarflanadigan markazlashtirilgan pul fondlarining shakllanishi va uni to'g'ri taqsimlash bilan;

V) ishlab chiqarish korxonalari olgan pul daromadlaridan samarali foydalanish usullarini belgilab berish bilan;

S) tovar ishlab chiqarishning hajmi va uning turlarini rejalashtirish bilan;

D) jamiyatga zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar doirasini aniqlash bilan;

E) mehnat muhofazasi bilan.

15. Davlat monopoliyalarga qarshi faoliyatni qaysi maqsadda amalga oshiradi?

A) monopoliyalarni bartaraf etish maqsadida;

V) raqobatni yo'qotish maqsadida;

S) tadbirkorlik va erkin raqobatni himoya qilish maqsadida;

D) bozor mexanizmlari harakatini cheklash maqsadida;

E) iste'molni cheklash maqsadida.

16. Quyidagilardan qaysi biri davlatning iqtisodiyotni bilvosita tartibga solish usuliga kiradi?

A) tartibga solishning ma'muriy vositalardan foydalanish;

V) narxlar va ish haqini qotirib qo'yish;

S) mehnat birjasi faoliyatini tashkil qilish;

D) davlatning qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari;

E) monopoliyaga qarshi qonunchilik.

Turli nazariyalar va ularning farqlari


10.1-chizma (konseptual jadval)

	Keynschilik nazariyasi	Monetaristik nazariya	Ratsional kutish nazariyasi
G'oyaviy yo'nalishi	Iqtisodiyotni soliq, soliqqa tortish va davlat sarflari bilan «aniq sozlash»ni amalga oshirish mumkin	Iqtisodiyotni tartibga solish uchun davlat pul taklifini 3-5% ko'paytirsa bo'ldi. Boshqa hech qanday aralashish kerak emas	Monetar siyosat ham, fiskal siyosat ham ish bermaydi, shuning uchun yaxshisi, hech qanday favqulodda chora-tadbir ko'rmaslik kerak
Tahlil doirasi	Talab o'z taklifini vujudga keltiradi $C+I+G=GDP$	$MV=PQ$	Xo'jalik yurituvchi subyektlar yetarli darajada sezgir. Davlat yuritayotgan siyosat qanday oqibatga olib kelishini hisobga olib o'z manfaatlariga ko'ra o'z

			siyosatlarini ishlab chiqib, amalga oshiradilar
Amalga oshirishdagi iqtisodiy tahlil	1. Ish haqi va narx pasayish tomonga moslashuvchan emas. 2. Jamg'arma daromadga bog'liq. 3. Investitsiya kutilayotgan foyda va foiz stavkasiga bog'liq.	1. Real YaIM yiliga 3-5% atrofida o'sishi mumkin. 2. Pul aylanish tezligi o'z asosiga ko'ra barqaror	1. Odamlar ratsional qarorlar qabul qilishadi. 2. Kutish kelajakni ko'zlaydi. 3. Davlat qo'llagan siyosat oqibatlaridan o'zlarini mudofaa qilib, himoya choralarini qo'llashadi.
Monetar siyosat	1. Iqtisodiyotga foiz stavkasi va investitsiyalar orqali ta'sir ko'rsatadi 2. Inqirozni to'xtatishdan ko'ra inflatsiyani jilovlashga yaraydi.	1. M ni yiliga 3-5%ga ko'paytirish. 2. Pul taklifining o'zgarishi bevosita narx va ishlab chiqarish natijasiga ta'sir ko'rsatadi.	3-5% qoidasi to'g'ri, u kutishni barqarorlikga yo'naltirilgan bo'lishi kerak
Fiskal siyosat	1. YaIMni ko'paytirish uchun soliqlarni kamaytirish, davlat xarajatlarini ko'paytirish kerak. 2. Inflatsiya sur'atini pasaytirish uchun soliqlarni va davlat sarflarini ko'paytirish kerak.	1. Uzoq muddatli davrda real YaIM ga ta'sir ko'rsata olmaydi. 2. Qisqa muddatli davrda ma'lum bir samara berishi mumkin.	Fiskal siyosatning samarasizligi odamlarning sezgirligida ifodalanadi.

Nima sababdan iqtisodchilarning fikri, bergan tavsiyalari farq qiladi?
10.2-chizma(toifali jadval)

Iqtisodchilarning fikrlari farq qilib, bir muammoni yechish uchun bergan tavsiyalarni turlicha bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar:



1. Muammoga vaqt jihatidan yondashuvdagi farq.
2. Iqtisodiyotning nihoyatda murakkab tizimliliigi sababli ularning taxminlaridagi farq.
3. Ular turli iqtisodiy nazariyalarga tayanishadi.
4. Qo‘yilgan maqsadga nisbatan turlicha qarash, har bir kishi uchun qadr-qimmat tushunchasi farq qiladi.
5. Boshqalar.

Boshqalarga qanday omillarni kiritish mumkin?

Shuning uchun ham «Komil, hozirjavob iqtisodchi – bu Prezidentga yoki Oliy majlisga «Iqtisodiyotda barqaror o‘shishga, aholi real daromadlarining o‘shishiga erishish uchun mana bunday siyosat yuritish mumkin. Agar birinchi siyosatni yurgizsak, a), b), v) lar yuz berishi; Ikkinchi siyosatni yurgizsak, g), d), e) yuz berishi mumkin. Nimaga erishmoqchi bo‘lishga qarab, tanlashimiz zarur, deya oladigan iqtisodchidir» - degan fikrga qo‘shilasizmi?

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishining maqsadli ko‘rsatkichlari (avvalgi yilga nisbatan, foizda)

10.1-jadval

	2010 y.	2011 y.	2012 y.
Yalpi ichki mahsulot	8,3	8,3	8,2
Sanoat mahsuloti	8,3	6,3	7,7
Qishloq xo‘jaligi	6,0	6,6	7,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar	22,1	7,9	11,6
Eksport hajmi	8,5	15,4	11,6
Inflatsiya darajasi	7-9	7,1	7,0
Mahalliy lashtirilgan mahsulot hajmi	40,0		
O‘rtacha ish haqi o‘shishi	32,0	26,5	
Xizmatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi	49,0	50,5	52,0
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	52,5	52,5	54,6

Iqtisodiyot vazirligi tomonidan maqsadli ko'rsatkichlar qanday aniqlanadi deb o'ylaysiz? Ularni amalga oshirish uchun nimalar qilinadi? Fikringizni bayon qiling. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlatning rolini ko'rsating.

O'zbekiston Respublikasini 2013 yilda rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va haqiqatda baiarilishi
(oldingi yilga nisbatan foizda)

10.2-jadval

	2012 y.	2013 y. prognoz	2013 y. haqiqatda
Yalpi ichki mahsulot (YaIM)	108,2	108,0	108,0
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	107,7	108,4	108,8
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	107,0	106,0	106,8
Kapital quyilmalar hajmi	111,6	109,3	111,3
Chakana savdo aylanmasi	113,9	113,8	114,8
Xizmat ko'rsatish hajmi	114,2	116,0	113,5
Iste'mol narxlar indeksi	107,0	104-109	106,8
Davlat budjeti kamomadi (YaIMga nisbatan foizda)	+ 0,4	-1,0	+0,3
Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi	12	12	12

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlari mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy prognoz ko'rsatkichlarini belgilashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ularni aniqlashning nima zaruriyati bor? Ko'zlangan maqsadga erishish uchun davlat qanday chora-tadbirlar qo'llaydi? Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kuchayishini ko'rsatmaydimi? Fikringizni esse orqali bayon qiling.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1d); 2a); 3v); 4b); 5g); 6j); 7yo; 8z); 9e); 10i);

Masala va mashqlar:

1. Agar bu mahsulot sof xususiy ne'mat bo'lganda bozor talabi hajmi quyidagicha bo'ladi.

Baholar	10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
Bozor talab hajmi	1	3	6	10	14	18	22	26	30	32

V) agar u sof ijtimoiy ne'mat bo'lsa, unga jamoa (jamiyat) talabi hajmi quyidagicha bo'ladi.

Jamoa talaba hajmi	1	2	3	4	5	6	7	8
Baho (ming. so'm)	32	30	26	22	18	14	10	6

2. a) sof ijtimoiy ne'matlarning samarali hajmi 6 birlik, bahosi 14 ming so'mga teng, ya'ni jamoa talabi bilan 10 individual talab teng, me'yoriy xarajatlar bilan narx teng;

b) ana shu sof ijtimoiy ne'matni davlat emas, xususiy sektor ishlab chiqarganda 5 ta 18 ming so'mdan ishlab chiqargan bo'lar edi.

3. Ko'chaga o'rnatilishi zarur bo'lgan chiroqlarning optimal sonini barcha iste'molchilar talabi asosida hisoblaymiz. U holda: $MSB = MB_1 + MB_2 + MB_3 + \dots$; $MSB = MV$; $MSB = MS$; Bu yerda: MV –marginit benefit – marjinal (me'yoriy) naflik; MS – marginal cost – marjinal (me'yoriy) xarajatlar;

U holda: $MSB (P_D = P_1 + P_2 + P_3 = (40\,000 - 400Q) + (80\,000 - 800Q) + (120\,000 - 1200Q) = 240\,000 - 2400Q$.

$MSB = MS$ bo'lgani uchun: $240\,000 - 2400Q = 120\,000$; $Q = 50$.

Demak, o'rnatilishi zarur bo'lgan chiroqlarning optimal soni 50 dona.

4. b): d): j).

5. a) va d); a) va j) o'zaro, bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi;

a) va b), b va v), g va e), d) va j) bir-biriga zid amal qiladigan.

6. Bu fikr taniqli iqtisodchi R. Kouzniki, uni iqtisodiyotda Kouz teoremasi deb ataladi.

Ijobiy tashqi effekt tovar(xizmat) narxida aks etmagan nafni ifodalaydi. Ijobiy tashqi effektdan **qo'shimcha ko'riladigan naf tovarlarning narxida aks etmagani uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarish ham, iste'mol ham yetarli bo'lmaydi.**

Tashqi effekt **salbiy** bo'lsa, u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish tufayli kelib chiqadigan zarar «uchinchi shaxs», ya'ni aynan shu mahsulotni ishlab chiqarish yoki iste'moliga aloqasi yo'q kishilar zimmasiga yuklanadi.

Salbiy tashqi effektda qo‘shimcha xarajatlar narxda aks etmagani uchun bunday tovarlar ko‘plab ishlab chiqariladi va iste‘mol qilinadi. Shuning uchun ular davlat tomonidan tartibga solinishi zarur.

7. Guruhga taalluqli bo‘lmagani beshinchisi, «Askar M. Yo‘ldoshev chegarani qo‘riqlamoqda». Uning xizmati **sof ijtimoiy ne‘mat**. Ular hamma iqtisodiy subyektlarning birgalikda iste‘mol qilishi bilan xarakterlanadi. Sof ijtimoiy tovar va xizmatlarni iste‘moldan istisno qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ular har bir kishi uchun alohida pulda baholanmaydi. Qolganlari **aralash ijtimoiy ne‘mat**lardan foydalani-shayapti. Bunday ne‘matlar raqobatlilik past, lekin yuqori darajada istisno qilish mumkin, ularga narx belgilash oson. Bunday xizmatlardan foydalanish uchun alohida subyektlarga to‘lov joriy qilish mumkin. Shu sababli bunday ne‘matlar uchun xarajatlarni davlat budjetidan moliya-lashtirish bilan birga bozor usullaridan foydalaniladi.

T/N

1T; 2T; 3N; 4T; 5T; 6T; 7N (aksincha); 8T; 9T; 10N.

Testlar:

1A); 2S); 3V); 4S); 5E); 6E); 7E); 8E); 9D); 10S); 11E); 12V); 13V);
14E); 15D); 16D).

11-MAVZU. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI



1-§. Taqsimotda ijtimoiy adolat tamoyillari va ularning bozor iqtisodiyotidagi xususiyatlari

Taqsimotda ijtimoiy adolat tamoyillarining turlicha talqini
→ • Yaratilgan ne'matlar jamiyat a'zolari o'rtasida teng taqsimlanishi kerak.
→ • Taqsimot jamiyatning eng kam ta'minlangan qatlaminin me'yorida (normal) hayot kechirishini ta'minlashi zarur.
→ • Taqsimot kishilarning jamiyatda tutgan o'ri, ya'ni nufuziga qarab amalga oshishi lozim.
→ • Taqsimotda moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratuvchilari mehnatining miqdori va sifati hisobi olinishi zarur.
→ • Taqsimot resurs egalari (kapital, yer, ishchi kuchi, tadbirkorlik layoqati)ning ishlab chiqarishning pirovard natijalariga qo'shgan ulushlariga mos holda amalga oshirilishi lozim.




Bozor iqtisodiyoti sharoitida taqsimotning xususiyatlari
• Taqsimot daromadlar cheklanishini inkor qiladi. • Taqsimot yuqori daromadli sohalarda faoliyat yuritishni tanlash imkonini beradi. • Daromadlarning resurs egalari o'rtasida taqsimlanishi ularning keyingi (me'yoriy) unumdorligi hamda talab va taklif qonuni talablarini hisobga oladi. • Daromadlar taqsimotiga davlatning aralashuvi qayta taqsimlash jarayoni doirasi bilan cheklanadi.

2-§. Aholi daromadlari uning tarkibi va manbalari


Aholi daromadlari ularning ma'lum davr davomida (odatda, bir yilda) olgan pul va natural daromadlarining umumiy miqdoridir



Aholi daromadlari darajasini tahlil qilishda **nominal**, shaxs **ixtiyori**dagi va **real daromad** tushunchalaridan foydalaniladi




Real daromad darajasini belgilab beruvchi omillar



Aholi nominal daromadi manbalari

- 
- Ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad
 - Davlat yordami dasturlari hisobiga olinadigan pul mablag'lari
 - Moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul mablag'lari.

Aholi moliya-kredit tizimi orqali oladigan pul mablag'lari

- 
- ❖ Sug'urta bo'yicha to'lovlar.
 - ❖ Omonatlar hisobiga foizlar.
 - ❖ Aksiya hisobiga olinadigan dividend.
 - ❖ Lotoreya yutuqlari.
 - ❖ Obligatsiyalar bo'yicha foiz.
 - ❖ Zayom to'lovlari.
 - ❖ Shaxsiy uy qurilishiga beriladigan ssudalar.
 - ❖ Har xil qoplovchi to'lovlari.

O'zbekistonda aholi pul daromadlari va uning shakllanish manbalari (% hisobida)

11.1-jadval

Pul daromadlari	Yillar							
	1995	2000	2002	2004	2006	2008	2010	2012
Barcha pul daromadlari	100	100	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan:								
• ish haqi	47,8	28,3	25,7	26,9	29,8	33,3	38,6	41,6*
• qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar	11,1	26,1	29,3	29,1	21,7	17,5		
• Ijtimoiy transferlar	17,4	14,9	12,7	12,9	15,8	16,8	14,5	28,5
• Mulkdan, tadbirkorlikdan olingan va boshqa daromadlar	23,7	30,7	32,3	31,0	32,7	32,4	46,9	49,8

* yollanib ishlovchilarning mulkdan, tadbirkorlikdan va boshqa daromadlarini ham qo'shib.

Respublika aholi pul daromadlaridan foydalanish tarkibi va uning o'zgarishi (% hisobida)

11.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2004	2005	2006	2007	2008	2010
Tovar va xizmatlar uchun to'lovlar	76,9	73,0	74,3	73,5	74,7	70,7
Majburiy to'lovlar va badallar	7,7	7,7	7,7	6,7	6,5	7,1
Jamg'armalar (qimmatli qog'ozlar, valuta sotib olish va boshqalar)	14,1	17,3	15,7	18,0	17,1	20,2
Aholi qo'lidagi pulning o'sishi	1,3	2,0	2,3	1,8	1,7	2,0
Jami	100	100	100	100	100	100

3-§. Daromadlar tengsizligi, uning omillari va darajasi

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti daromadlar mutlaq miqdorining o'sib borishini taqozo qilsa-da, lekin uning nisbiy miqdorlaridagi farq (turli mamlakatlar va alohida mamlakat aholisi turli qatlamlari o'rtasidagi) har qanday sharoitda saqlanib qoladi. Demak, iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari miqdorining ko'payishi daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi.
Daromadlar tengsizligi aholi daromadlarining o'rtacha darajasidan, alohida oilalar, aholi qatlamlari va guruhlar daromadlarining farq qilishlik darajasini ko'rsatadi.
Daromadlar tengsizligi va uning miqdori turli darajada aniqlanadi: ➤ dunyo mamlakatlari bo'yicha; ➤ alohida mamlakatlar darajasida; ➤ ma'muriy-hududiy birliklar darajasida.

Daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar

- • Kishilarning qobiliyati, layoqatidagi (jismoniy, aqliy, estetik va boshqa) farqlar.
- • Ta’lim va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
- • Tadbirkorlik mahorati va riskka moyilligi darajasidagi farqlar;
- • Bozorda hukmronlik qilish layoqati;
- • Mulkka egalik qilishdagi farqlar;
- * Omad, tasodif va boshqa favqulodda holatlar.

Daromadlar tengsizligini aniqlash usullari.

I. Lorens egri chizig‘i


Mamlakatlar va aholi turli qatlamlari o‘rtasida daromadlar tengsizligini miqdorini aniqlash uchun **Lorens egri chizig‘idan foydalaniladi**. Uning yotiq chizig‘ida «oilalar ulushi», tik chizig‘ida «daromadlar ulushi» joylashtiriladi.

Daromadlarning mutlaq teng taqsimlanish imkoniyatini xarakterlovchi va haqiqatda oilalar ulushiga daromadlar taqsimotining real darajasini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar (11.2-jadval) grafikda joylashtirilib, daromadlar tengsizligi darajasi miqdoriy aks ettiriladi (11.1-grafik).

Oila daromadlarining tabaqalanishi (% hisobida)

11.3-jadval

Oila hissasi	Daromadlar ulushi	
	Mutlaq tenglik	Haqiqiy darajasi
20	20	5
40	40	15
60	60	35
80	80	55
100	100	100



Mutlaq tenglikni ifodalovchi va Lorens egri chizig'i o'rtasidagi farq qanchalik katta bo'lsa, daromadlar tengsizligi darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Aksincha farq qanchalik qisqarsa, daromadlar tengsizligi yumshayotganligini bildiradi.

II. Ditsel ko'effitsiyenti.

Bu ko'rsatkich aholining 10 foiz ancha yuqori ta'minlangan qismining o'rtacha yillik daromadlarini 10 foiz eng kam ta'minlanganlarining xuddi shunday daromadlariga nisbati bilan aniqlanadi.

III. Djini ko'effitsiyenti (Italiya iqtisodchisi Korrado Djini nomi bilan ataladi).

Bu ko'rsatkich daromadlar tengsizligi indeksi deb nomlanadi. U qanchalik katta bo'lsa (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa), tengsizlik shuncha yuqori bo'ladi. Aholi daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich «0» (nol) ga intiladi.

Aholi daromadlarining tabaqalanishi uning tarkibiy qismlari, shu jumladan **ish haqining** aholi alohida qatlamlari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasidagi nisbatida o'z ifodasini topadi.

Davlatning daromadlar tengsizligini yumshatishga qaratilgan iqtisodiy siyosati.

- • daromad va ish haqidan olinadigan soliqlarni tabaqalashtirish;
- • transfert to'lovlarini amalga oshirish;
- * ijtimoiy yordam va xayr-ehson dasturlarini ro'yobga chiqarish.

Respublika viloyatlari bo'yicha oila daromadlarining tabaqalanishuvi, (o'rtacha darajasi -100%)

11.4-jadval

Qoraqalpog'iston	58,3
· Andijon	81,5
· Buxoro	101,8
· Farg'ona	78,9
· Navoiy	162,1
· Namangan	70,2
· Samarqand	65,9
· Toshkent	97,0
· Jizzax	59,9
· Qashqadaryo	69,1
· Surxondaryo	74,6
· Sirdaryo	76,7
· Xorazm	70,9
· Toshkent shahri	340,8

4-§. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari

Aholi turmush darajasi – ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ehtiyojlarining bu ne'matlar bilan qondirilish holatini bildiradi.

Turmush darajasi ikki darajada o'rganiladi:

- • Mamlakat darajasida – barcha aholi uchun;
- • Tabaglashgan darajada–aholining alohida guruhlar uchun.

Turmush darajasining ko'rsatkichlari

Qiymat ko'rsatkichlari:

a) barcha aholi uchun:

☉ aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIM, SMM va milliy daromad;


b) aholining alohida guruhlar uchun:

☉ iste'molchilik budjeti (yuqori darajadagi mo'l-ko'l budjet, o'rtacha oila va eng kam ta'minlanganlar budjeti, nafaqaxo'rlar va boshqa ijtimoiy guruhlar budjeti).


Natural ko'rsatkichlar:

☉ aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol tovarlari (oziq-ovqat va nooziq-ovqat), uy-joy maydoni va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar miqdorlari.

Iqtisodiy tahlil uchun eng kam ta'minlangan iste'mol budjeti muhim o'rin tutib, u ish haqi, nafaqa, stipendiya va boshqa daromadlardan tashkil topadi.

Eng kam iste'mol budjetini hisoblash usullari

- Iste'mol savati asosida;
- regressiv usul: iste'molning eng kam qiymati, turli xarajatlar va daromadlar nisbati orqali;
- ekspert baholash asosida sotsiologik kuzatish o'tkazish orqali.

Iste'mol savati

Insonning muayyan darajadagi ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori bo'lib, u joriy bozor narxlari bo'yicha hisoblanadi.

«Turmush sifati indeksi» va «Inson kamoloti indeksi» – aholi turmush farovonligi darajasini ifodalaydi.

Turmush sifati indeksi» ko‘rsatkichlari:

- sog‘liqni saqlash holati;
- ta’lim darajasi;
- o‘rtacha umr kechirish yoshi;
- bandlik darajasi;
- ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faollik.

«Inson kamoloti indeksi» ko‘rsatkichlari:

- Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM, SMM, MD;
- Kutilayotgan umr kechirish yoshi;
- Ta’lim darajasi.


5-§. Davlatning ijtimoiy siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatish, bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish va aholini samarali ijtimoiy himoyalashga qaratilgan siyosatdir.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari

I. Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish:

- 🌀 Narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi bilan daromadlarning eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirib borish;
- 🌀 Ichki iste’mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste’molini muayyan darajada ushlab turish;
- 🌀 Aholining kam ta’minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash.




II. Mehnat qilish huquqi kafolatini ta'minlash Bunda davlat erkin kasb-hunar egallash, ish joyi va sohasini tanlashni kafolatlashi zarur.


III. Aholi bandligini tartibga solish:

- Ishchi kuchini qayta tayyorlash;
- Ishchi kuchi migratsiyasi;
- Mavjud ishchi kuchini bozor konyunkturasiga moslashtirish;
- Ishsizlik nafaqasi berish.

Aholini ijtimoiy himoyalashning moliyaviy manbalari

- 
- davlat budjeti mablag'lari;
 - korxonalarning maxsus fondlari;
 - mahalla va xayriya fondlari.

Ijtimoiy himoyalash maqsadidagi mablag'larning taqsimlanish yo'nalishlari:



1-yo'nalish. Aholi iste'molini qondirilish darajasi hisobga olinib, ular mehnatiga bog'liq holda qo'lga tushadigan mablag'lar.

2-yo'nalish. Iste'mol darajasi hisobga olinib, mehnatga bog'liq bo'lmagan holda beriladigan yordam pullari.

3-yo'nalish. Ijtimoiy sohalar orqali ko'rsatiladigan xizmatlar va beriladigan imtiyozlar.

Respublikada iqtisodiy islohotlarning alohida bosqichlarida aholini ijtimoiy himoyalash xususiyatlari	
→ Birinchi bosqichda	Aholining kam ta'minlangan, nochor qatlamlarini yalpi ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kuchli chora-tadbirlar o'tkazish.
→ Ikkinchi bosqichda	Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan tizimiga o'tish.

Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar:

Asosiy tayanch tushunchalar

- | | |
|---|------------------------------|
| 1. Daromad | 7. Lorens egri chizig'i |
| 2. Daromadlarning funksional taqsimlanishi | 8. Jini koeffitsiyenti |
| 3. Daromadni shaxsiy (vertikal) taqsimlanishi | 9. Turmush darajasi |
| 4. Nominal daromad | 10. Kam ta'minlangan oilalar |
| 5. Real daromad | 11. Ijtimoiy to'lovlar |
| 6. Aholining umumiy daromadi | 12. Ijtimoiy siyosat |
| | 13. Inson kamoloti indeksi |

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

- a) Jamiyatning pul daromadini, qanday omil ulushi evaziga olingani va bajaradigan funksiyalari asosida taqsimlanishi: ish haqi, renta, foiz, foyda;
- b) ma'lum vaqt davomida aholi tomonidan olingan pul shaklidagi daromad;
- v) jamiyatning pul daromadini alohida oilalar, shaxslar o'rtasida taqsimlanishi;
- g) aholi daromadining notengligini ko'rsatuvchi grafik;
- d) ma'lum bir vaqt davomida pul va natural shaklda olingan daromad;

e) ma'lum bir vaqt (yil) oralig'ida YaIMning omillar ulushiga ko'ra taqsimlanishi natijasida olingan, shaxsiy iste'mol va turli ne'matlar (tovar va xizmatlar) sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'lari summasi;

yo) jamiyatning notenglik darajasini ifodalovchi ko'rsatkich.

j) kam ta'minlangan oilalarga pul yoki natura shaklida yordam berishga qaratilgan to'lovlar;

z) aholining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganligi hamda zarur ne'matlar bilan ehtiyojlarning qondirilish darajasi;

i) ma'lum bir vaqt (yil) oralig'ida nominal daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Ularning miqdori esa soliqlar, narx, nominal daromadga bog'liq;

y) jon boshiga yashash minimumidan ortmaydigan kam daromad oluvchi oilalar;

k) davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatish, bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish va aholini samarali ijtimoiy himoyasini shakllantirish va kamol topishiga imkon yaratishga qaratilgan siyosati (chora-tadbirlar ko'rishi);

l) aholi farovonligi, jamiyatda insonning barkamolligini ta'minlanishini ifodalovchi ko'rsatkich. Jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM, kutilayotgan yashash yoshi, ta'lim darajasi (25 yosh va undan kattalar) asosida hisoblanadi.

Masala va mashqlar

1. O'zbekistonda 2012-yili aholining umumiy daromadlari 77293,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Undan 38498. mlrd. so'mi tadbirkorlik va boshqa daromadlar, 1414,4 mlrd. so'mi ijtimoiy transfertlarni tashkil etadi. Aholi daromadlarida ish haqi, tadbirkorlik va boshqa daromadlar, transfert to'lovlari ulushini, aholi 29,9 mln. kishi desak, aholi jon boshiga o'rtacha daromadni hisoblang.

Daromadning funksional va shaxsiy taqsimlanishi nima? Adolatli taqsimot deganda qanday taqsimot tushuniladi? Shu ko'rsatkichlar asosida ularni keyingi yil ma'lumotlari bilan solishtiring.

2. Aholi pul daromadlari o'tgan (bazis) yili 5196,7 mlrd. so'm deylik. Joriy yilda 6488,6 mlrd. so'mga yetdi. Iste'mol narxlarining o'sish sur'ati bazis yilga nisbatan 10,3%ni tashkil etsa, agar aholi 25,4

mln. kishidan 25,5 mln. kishiga ko'paydi desak, aholi jon boshiga pul daromadlari va real daromadlar qanday o'zgarganini hisoblang.

Aholining nominal va real daromadlari qanday daromad. Ularni o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi. Izohlang.

3. Aholining pul xarajatlari va jamg'armasi o'tgan yili 6211,0 mlrd. so'mni tashkil etgan edi, shundan 5107,4 mlrd. so'mi tovar va xizmatlar sotib olish uchun sarflangan. Agar joriy yili, bu ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 5248,1 va 4387,6 mlrd. so'm bo'lib, aholi soni 25,4 mln. kishidan 25,5 mln.ga yetdi desak, aholi jon boshiga iste'mol va jamg'arma qanday o'zgarganini hisoblang. Iste'mol darajasi va tarkibiga qanday omillar kiradi, ko'rsating.

4. To'rt kishidan iborat Odiljonlar oilasining oylik pul daromadi 825 ming so'mni tashkil etdi. Qo'shnilari Olimjonlarning oilaviy daromadi esa 1025 ming so'm. Undan tashqari natura shakldagi daromadlari pulga chaqilsa 250 ming so'mga teng bo'ladi. Oila 5 kishidan iborat. Har ikki oilada ham ikki kishi ishlaydi. Oila jon boshiga va ishlovchilarning har biriga to'g'ri keladigan umumiy va pul daromadlarni hisoblang. Aholi daromadlari tabaqalanishiga qanday omillar ta'sir qiladi. Ko'rsating.

5. Bozor iqtisodiyotida taqsimot quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) mehnat va uning natijalariga qarab;
- 2) mulk va kapitalga qarab;
- 3) ehtiyojlarga qarab;
- 4) ishbilarmonlik qobiliyatiga qarab;
- 5) nufuziga qarab;
- 6) talab va taklif qonuniga asosan taqsimlanadi.

Mazkur taqsimotga mos ravishda tashkil topishi hamda kelib tushish shakli jihatidan farqlanuvchi, shaxsiy daromad turlarini sanab bera olasizmi?

6. Quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor qiling. Ular asosida qanday indeks hisoblanadi:

- 1) sog'liqni saqlash ahvoli;
- 2) ta'lim darajasi;
- 3) o'rtacha yashash yoshi;
- 4) aholining bandligi;
- 5) siyosiy hayotga yo'l berilishi.

Bu indeks nimani ko'rsatadi, u eng yuqori bo'lgan mamlakatlarni ko'rsata olasizmi?

T/N

1. Jini koeffitsiyenti qancha past bo'lsa, daromad taqsimoti sarf raqobat sharoitida yuz berayapti deb, ta'kidlay olamiz.

2. Jini koeffitsiyenti Yaponiyada 0,270, Braziliyada 0,565. Demak, Braziliyada Yaponiyaga qaraganda daromadlar tengsizligi yuqori.

3. Olingan daromad qancha past bo'lsa, oziq-ovqat, kiyim-kechak sarfi daromadda shuncha yuqori, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar olish uchun qilgan sarflar hissassi shuncha kam bo'ladi, daromad ko'p bo'lsa, aksincha. Sarflar tarkibining olingan daromadga bog'liqligini E. Engel o'rgangan.

4. Farovonlik darajasi, hayot kechirish sharoiti – ijtimoiy erishilgan daraja. Real daromad - turmush darajasining bosh ko'rsatkichi, lekin farovonlik, bundan tashqari hayot kechirish sharoitini ham o'z ichiga oladi.

5. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida daromadlar tarkibi ham o'zgardi, yollanib ishlovchilarning ish haqi ulushi pasayib, tadbirkorlik daromadi orta bordi.

6. Kambag'allik darajasi minimal ish haqi asosida aniqlanadi.

7. Aholi pul daromadlarining asosiy manbai: ish haqi va xo'jalik faoliyati yuritishdan olingan daromadlar, mulkdan va tadbirkorlikdan olingan daromad, transfert to'lovlaridan tashkil topadi. Boshqa daromadlarning esa salmog'i past.

8. «Adolat» va «Tengsizlik» tushunchalari jamiyatning daromadlarini taqsimlash nuqtayi nazaridan aynan bir-biriga o'xshash tushunchalardir.

9. Bozor iqtisodiyotida daromadlar taqsimoti faqat bozor mexanizmi, uning erkin o'yiniga bog'liq emas. Davlat ham turli dastaklar orqali daromadlarni qayta taqsimlashga ta'sir ko'rsatib, tartibga soladi.

10. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida aholi barcha qatlamlarining ijtimoiy himoyasi amalga oshirilgan bo'lsa, hozirga kelib, asosan manzilli ijtimoiy himoya qo'llanilmoqda.

TEST SAVOLLARI

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yashayotgan mamlakatlarda davlatning daromadlar siyosati bu ...

A) barcha kategoriyadagi bandlar (ishlovchilar) uchun ish haqi va maosh miqdorini davlat tomonidan belgilash;

V) daromadlardagi katta farqni soliq tizimi va ijtimoiy to'lovlar orqali kamaytirish;

S) milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida teng ish haqi darajasini saqlash;

D) zarur tarmoqlarda teng ish haqi darajasini saqlash;

E) yaratilgan milliy daromadning aholi o'rtasidagi taqsimotini tenglashtirish.

2. Mamlakatda Jini koeffitsiyenti 0,35dan 0,55ga o'sdi. Demak,

A) jon boshiga o'rtacha real daromadlar kamayadi;

V) daromadlarni tabaqalanishi pasayadi;

S) daromadlarni tabaqalanishi kuchayadi;

D) yashash minimumiga qaraganda daromadi past aholi ulushi kamaydi;

E) aholi jon boshiga o'rtacha real daromadlar o'sadi.

3. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga milliy daromadda iste'mol hissasining o'sib borishi xos. Ko'rsatilganlardan qaysi biri uning sababi bo'la olmaydi:

A) milliy daromadning kamroq qismini jamg'argan holda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin;

V) inson omilining ahamiyati ortib, uning iste'moli ortishini taqozo etadi;

S) iqtisodiyot rivojlangan sari, aholining binobarin iste'molchilarning sonini ko'paytirish sustlashadi;

D) aholining farovonligini oshirish tamoyili kuchayib boradi;

E) aholi tabaqalanishining oldini olishga davlat o'z ta'sirini o'tkazadi.

4. Quyidagi usullardan qaysi biri aholini eng kam iste'mol budjetini hisoblashda foydalanilmaydi:

A) jon boshiga yaratilgan milliy daromadni avvalgi yillar bilan taqqoslash;

V) iste'mol savati asosida hisoblash;

S) regressiv model: turli xarajatlar va daromadlar, eng kam iste'mol qiymati bo'yicha aniqlash;

D) ekspert baholash usuli;

E) sotsiologik kuzatish o'tkazish.

5. Shvetsariya iqtisodchisi V. Pareto daromadlar taqsimlanishini tadqiq qilib, uning taqsimlanishidagi bog'liqlikni o'rganib shunday qarorga keladi:

A) eng kam daromad oladiganlar mamlakatda ko'pchilikni tashkil etadi;

- V) eng yuqori daromad oladiganlar ko'pchilikni tashkil etadi;
- S) o'rtacha daromad oladiganlar kamchilikni, kambag'al va boy tabaqa birgalikda ko'pchilikni tashkil etadi;
- D) eng kam va eng ko'p daromad oladigan tabaqa uncha ko'p emas;
- E) daromaddagi farq soliq olingandan so'ng qisqaradi.

6. Pareto qonuniga ko'ra:

- A) jamiyat doimo o'rta sinfga tayanadi;
- V) jamiyat boy qatlamga tayanadi;
- S) jamiyat kambag'allikka qarshi kurashadi;
- D) jamiyat a'zolari uchun xayriya qilishni yoqtirganlarga tayanadi;
- E) pulni uyda saqlamay, bankka qo'yganlarga tayanadi.

7. Lorens egri chizig'i 5 yil davomida bissektrisadan ancha uzoqlashdi: Bu nimani bildiradi?

- A) ijtimoiy tenglikka erishilganini;
- V) aholining tabaqalashuvi kuchayganini;
- S) aholining turmush darajasi pasayganini;
- D) aholi turmush darajasining oshganini;
- E) aholi daromadlari ko'payganini.

8. Respublikada aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishini ko'rsating:

- A) daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish;
- V) ichki iste'mol bozorini himoya qilish;
- S) aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash;
- D) faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

9. Daromadlarni indeksatsiyalash nima?

- A) narx-navo indekslarini oshirish;
- V) narxlar indeksining oshishiga muvofiq ravishda to'lanadigan ish haqi va boshqa to'lovlarni oshirish;
- S) davlat budjeti daromadlarini shakllantirish;
- D) daromadlardan olinadigan soliqlar miqdorini o'zgartirish;
- E) ish haqi va boshqa daromadlarni «qotirib» qo'yish.

10. Sarf-xarajat va jamg'arish miqdori quyidagi omilga bog'liq:

- A) olayotgan daromad miqdoriga;
- V) talabga;
- S) inflatsiya darajasiga;
- D) taklifga;
- E) iste'molchining yashash joyiga.

11. Transfert to'lovlari nima?

- A) kredit foizlarini to'lash;
- V) kommunal xizmat to'lovlari;
- S) eksport xarajatlari;
- D) chet ellardan olingan qarzlarni to'lash;
- E) aholini ijtimoiy himoyalashga ajratiladigan mablag'lar va pensiyalar.

12. Aholi daromadlari nima?

- A) ish haqi;
- V) ish haqi va ijtimoiy nafaqalar;
- S) meros qoldirilgan va hadya qilingan mol-mulk;
- D) moddiy daromadlar;
- E) ma'lum vaqt davomida aholining olgan barcha pul va natural daromadlari.

13. Aholi pul daromadlari nima?

- A) ish haqi;
- V) ish haqi va ijtimoiy nafaqalar;
- S) o'z ehtiyojini qondirish uchun aholi ixtiyoridagi moddiy vositalari qiymati;
- D) ma'lum bir vaqt ichida (masalan: bir oy yoki bir yil) aholi tomonidan olinadigan pul mablag'lari summasi;
- E) yuqoridagilarning barisi.

14. Aholi daromadlarining manbai nima?

- A) davlat nafaqalarining hamma turlari;
- V) yordamchi xo'jalik va mulkdan olinadigan daromadlar;
- S) ish haqi va u bilan bog'liq daromadlar;
- D) tadbirkorlik faoliyati natijasida olinadigan daromadlar;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

15. Qaysi vaqtda ishchining real ish haqi oshadi?

- A) oylik nominal ish haqi va narxlar mutanosib oshganda;
- V) narxi va nominal ish haqi mutanosib pasayganda;
- S) nominal ish haqi kamayganda;
- D) nominal ish haqi oshib narxlar pasayganda;
- E) yuqoridagi barcha hollarda.

16. Ijtimoiy iste'mol fondi nima?

- A) aholi uchun to'lanadigan yordam mablag'lari;
- V) mukofot pullari;
- S) ish haqi, yordam va mukofot pullari;

D) insonning mehnat qilish jarayonida ishtirok etish-etmasligidan qat'i nazar, davlat tomonidan tashkil qilingan maxsus fondlardan o'zlariga ajratiladigan pul mablag'lari;

E) yuqoridagilarning barchasi.

17. Aholi real daromadining o'sishi qaysi holda ro'y beradi?

A) nominal daromad va narxlarning o'sishi mutanosib bo'lganda;

V) nominal daromad narxlardan tez o'sganda;

S) narxlar nominal daromaddan tez o'sganda;

D) soliqlar va majburiy to'lovlar nominal daromaddan tez o'sganda;

E) iste'mol bozori to'yinganlik darajasi pasayganda.

18. Qaysi daromad turi xodimlar mehnatining natijasiga bog'liq?

A) ish haqi;

B) dividend;

S) foiz;

D) renta;

E) ijara haqi.

19. Aholi turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishga qaratilgan tadbirlardan qaysi biri iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichiga tegishli emas?

A) miqdori o'zgarib turadigan pul to'lovlarini muntazam amalga oshirish;

V) imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzidagi bilvosita to'lovlarni qo'llash;

S) qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlarning butun bir tizimiga amal qilishi;

D) fuqarolarga turar-joylarning bepul shaxsiy mulk qilib berilishi;

E) aniq maqsadli va aholining eng muhtoj tabaqalarni qamrab oladigan ijtimoiy himoyalash tizimini joriy qilish.

20. O'zbekistonda aholining ma'naviy ruhiy tiklanishi qanday negizga asoslanadi?

A) umuminsoniy qadriyatlarga sodiq;

V) xalqning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

S) insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

D) vatanparvarlik;

E) yuqoridagilarni barchasi.

21. Respublikada amalga oshirilgan islohotlar natijasida qanday ma'naviy-ruhiy saboqlar olindi?

A) alohida yangilanish, taraqqiyot yo'liga, kelajakka ishonch ruhi paydo bo'ldi;

V) davlat mustaqilligini saqlash va iqtisodiy barqarorlikka erishish avvalo aholi birdamligi, osoyishtaligi va tinchligiga bog‘liqlik ruhiyatimizga singib bordi;

S) dunyoqarashimizda tub o‘zgarishlar bo‘lmas ekan, buyuk maqsadlarga erishish mumkin emasligi anglab yetildi;

D) sharqona hayot tarziga, tarixiy o‘tmishga va islomiy falsafasi g‘oyalariga xos iqtisodiyot barpo etilayotganligiga ishonch uyg‘ondi;

E) yuqoridagi barcha javoblar to‘g‘ri.

22. Aholini ijtimoiy himoyalashning samaradorligini oshirish qanday vazifalarni hal qilishga bog‘liq?

A) ishlab chiqarishni muttasil rivojlantirishga;

V) davlat mablag‘lari bilan birga mehnat jamoat va boshqa tashkilotlar mablag‘larini keng jalb qilishga;

S) odamlarning qobiliyatini faollashtirishni ta‘minlaydigan kuchli mexanizmni vujudga keltirishga;

D) aholi daromadlarida asossiz katta farqlarga yo‘l qo‘ymaslik, qashshoqlikka qarshi kurash;

E) yuqoridagilarning barchasiga.

23. Aholini ijtimoiy himoyalashning qaysi tamoyili ularning mehnat faolligini rag‘batlantirishga qaratiladi?

A) aholining turli guruhlarini himoyalashga tabaqalashgan holda yondashish;

V) barcha darajada aholining ijtimoiy-huquqiy va erkinliklarining yagona kafolatlar tizimiga uyushtirish;

S) aholining turmush darajasini ko‘tarishda ularning shaxsiy daromadlari rolini doimiy oshirib borish;

D) ijtimoiy kafolatlarining moslashuvchanligini ta‘minlashda;

E) ijtimoiy himoya qilish tizimining resurs ba‘zasini mustahkamlash.


Aholi turmush darajasi va insoniy potensial taraqqiyoti ko‘rsatkichlari

11.5-jadval

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	1995	2000	2005	2010	2012
Aholi jon boshiga pul daromadlari yillik o‘sishi (%)	101,9	155,5	122,3	127,9	121,7
Oylik nominal o‘rtacha ish haqining o‘sishi (%)	2,6 marta	158,3	132,6	132,5	126,3

Aholining uy-joy bilan ta'minlanishi (o'rtacha 1 kishiga kv. m.)	12,9	13,8	14,5	15,0	15,0
Makazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi (%)	69,2	68,5	61,4	65,5	66,5
Tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi (%)	60,2	73,9	78,2	79,8	79,8
Tug'ilgan chog'idan kutilayotgan o'rtacha umr uzoqligi (yosh)	70,2	70,8	71,6	72	73
Katta yoshdagi aholining savodxonlik darajasi (%)	98,96	99,16	99,2	99,5	99,6
Ta'lim muddati (yil)	11,4	11,4	11,5	12	12
Aholi jon boshiga real YaIM	2440	2994	2998	3271	3307
Insoniy potensial taraqqiyoti indeksi (IPTI)	0,679	0,736	0,747	0,751	0,752

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiling. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. O'z fikringizni bildiring.



11.1-chizma

Chizmada aholining turmush darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar ko'rsatilgan. Ularni sinchiklab o'qing. Tahlil qiling. Sizningcha yana qaysi omillarni kiritish maqsadga muvofiq? Fikringizni asoslang.

Aholi umumiy daromadlarining o'sishi (o'tgan yilga nisbatan, foizda)


11.6-jadval

	2011 y.	2012 y.
Aholining umumiy daromadlari - mlrd. so'm	62590,5	77293,4
Aholining umumiy daromadlari	131,4	123,5
Aholining real umumiy daromadlari	122,4	115,2
Aholi jon boshiga tog'ri keladigan umumiy daromadlar	127,9	121,7
Aholi jon boshiga tog'ri keladigan umumiy real daromadlar	119,2	113,6

Aholining umumiy daromadlari va real daromadlarining farqini ko'rsating. Jadval ma'lumotlarini tahlil qiling va izohlang.

Aholining banklardagi omonatlari dinamikasi (yil boshiga, mlrd. so'm)

11.1-gistogramma



Aholining banklardagi omonatlari ko'payib borishi nimani ko'rsatadi? Sizningcha bu yaxshimi yoki aksincha? Fikrigizni asoslab bering. Diagrammani keyingi yillar ma'lumotlarini qo'yib, tahlil qiling.

Aholining xarajatlari tarkibi


11.7-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	1990	2000	2009	2010	2012
1. Iste'mol xarajatlari	81,1	84,3	75,3	70,7	
1.1. Tovar va xizmatlar uchun to'lovlar				70,7	
1.1.1. Oziq-ovqatga	44,3	50,4	43,1		
1.1.2. Nooziq-ovqat tovarlariga	28,5	22,6	18,4		
1.1.3. Maishiy xizmatlarga	8,3	11,2	13,8		
2. Noste'mol xarajatlari	18,0	15,7	24,7		
2.1. Majburiy to'lovlar va badallar	5,9	6,9	7,5	7,1	
2.2. Tadbirkorlik faoliyati xarajatlari	0	5,2	7,9		
2.3. Jamg'armalar (qimmatli qog'ozlar, valuta sotib olish va boshqalar)	7,3	0,1	2,1	20,2	
2.4. Boshqa xarajatlar	5,7	3,5	7,2	1,0	

Jadval katakchalaridagi yetishmayotgan raqamlarni aniqlang. keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldirib, tahlil qiling.

Aholi real pul daromadlarining o'sishi (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)

11.2-gistogramma



Gistogrammani keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldirib tahlil qiling va fikringizni bayon qiling. Aholini real pul daromadlari deganda qanday daromadlarni tushunamiz? U umumiy, pul daromadlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar bilan ta'minlanganlik darajasj (Har 100 xonadonga to'g'ri keladigan tovarlar soni)

11.8-jadval

	Y i l l a r			
	1990	2000	2009	2010
Televizorlar	90	88	130	132
Sovutgichlar va muzlatgichlar	80	56	90	99
Konditsionerlar	9	11	18	18,5
Elektrochangyutgichlar	29	30	35	37
Shaxsiy kompyuterlar	-	0,2	10	12
Fotoapparat va videokameralar	21	21	22	24
Videomagnitofon, videopleyer va DVD pleyerlar	1	31	53	64
Tikuv va to'quv mashinalari	76	43	44	45
Kir yuvish mashinalari	67	69	71	75
Uyali telefonlar	-	18	140	145
Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan avtomobillar soni, dona	37,9	38,9	47,3	51,3
Har 100 uy xo'jaligigaga to'g'ri keladigan avtomobillar soni, dona	19,2	20,1	25,0	27,1

Jadval raqamlariga diqqat qiling. U nimadan dalolat beradi? Engel qonuni qanday sabab-oqibatli boglanishni ifodalar edi? Raqamlar dinamikasi bo'yicha xulosa chiqaring.

Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish haqi, pensiya va real daromadlar miqdorining o'zgarishi dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, foizda)


11.9-jadval

	Yillar				
	2008	2009	2010	2011	2012
Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish haqining o'sishi	44.0	40.0	32,5	26,5	
Belgilangan oylik o'rtacha pensiya miqdori	151,7	133,7	125,8	127,0	125,4
Aholining real daromadlari	23.0	26.5	23.5	22,4	15,1

Jadvalni keyingi yil ma'lumotlarini qo'shib chizing. Raqamlarni o'zgarishi nimalardan dalolat beradi? Izohlang.

Jamiyatda o'rtacha sinfning ulushi, foizda

11.3-gistogramma



■ O'zini o'rta sinfga mansub deb hisoblovchilar

Gistogramma ma'lumotlariga diqqat qarating, o'zini o'rta sinf vakili deb hisoblovchilar ulushining ortishiga sabab nima? O'rta sinf deganda qanday sinfni tushunamiz? Uni belgilovchi mezonlari bormi? O'rta sinfning jamiyatdagi rolini ko'rsating.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1e); 2a); 3v); 4b) 5i); 6d); 7r); 8yo) 9z); 10y); 1y); 12k); 13l).

Masala va mashqlar:

1. Ish haqi 32%, tadbirkorlik faoliyati va boshqa daromadlar 49,8%, ijtimoiy transfertlar 18,4%, aholi jon boshiga o'rtacha yillik daromad 258,6 ming so'm.

2. Aholi jon boshiga o'rtacha yillik jami daromad bazis yili 204,9 ming so'm, joriy yili 252,8 ming so'm, 123,3%. Bazis yilgi narxlarda 254,9 ming so'm, joriy yil 229,8 ming so'm, 111,8 % ga o'sgan.

3. Aholi jon boshiga tovar-xizmatlar o'tgan yili 173 ming so'm, joriy yili 199 ming so'm bo'lgan. Joriy yil 115% o'sgan; O'tgan yil 35,2

ming, joriy yili 43 ming so‘m jamg‘arilgan. Joriy yil jamg‘arma o‘tgan yilga nisbatan 12,2%ga o‘sgan.

4. Odiljonlar oilasidagi har bir ishlovchiga umumiy daromad ham pul daromadi ham 412,5 ming so‘m, oila jon boshiga 206,25 ming so‘mni tashkil etsa, Olimjonlar oilasi umumiy daromadi ishlovchilarga 637,5 ming so‘m, jon boshiga 212,5 ming so‘m, pul daromadi ishlovchilarga 512 ming so‘m, jon boshiga 170,8 so‘m to‘g‘ri keladi.

5. Shaxsiy daromad turlari:

1) kishining mehnati va uning natijalariga mos bo‘lgan shaxsiy daromadlar;

2) moddiy resurslarga egalik qilish natijasi bo‘lgan shaxsiy daromadlar;

3) muhtojlikni hisobga olgan holda ijtimoiy fondlardan tushadigan shaxsiy daromadlar.

4) qayta taqsimlash jarayoni natijasida tushadigan shaxsiy daromadlar;

5) moliya-kredit tashkilotlari va boshqa mustaqil tarkibiy bo‘linmalardan tushadigan shaxsiy daromadlar;

6) merosga qoladigan, bepul beriladigan, hadya qilinadigan, omad kelishidan va boshqa turdagi shaxsiy daromadlar.

6. Ular asosida aholining turmush farovonligi darajasini ko‘rsatuvchi «Turmush sifati indeksi» hisoblanadi. Turmush sifati indeksi eng yuqori mamlakatlar Yaponiya, Kanada, Norvegiya, Shveysariya, AQSH bo‘lib, respublikamiz hozircha dunyo mamlakatlari ichida 80 - o‘rinda turadi. Mustaqillikka erishganimizning uncha ko‘p bo‘lmaganini nazarda tutsak, 210 dan ortiq mamlakatlar orasida bu natija yomon emas.

T/N

1N; 2T; 3T; 4T; 5T; 6N; 7T; 8N; 9T; 10T;

Testlar:

1V); 2S); 3D); 4A); 5D); 6A); 7V); 8E); 9V); 10A); 11E); 12E); 13E); 14E); 15D); 16D); 17V); 18A); 19E); 20E); 21E); 22E); 23A).


II bob. JAHON XO‘JALIGI

12-MAVZU. JAHON IQTISODIYOTI VÀ UNING RIVOJLANISHI

1-§. Jahon xo‘jaligining vujudga kelishi va rivojlanishi

Jahon xo‘jaligi – bu xalqaro mehnat taqsimoti va integratsion tamoyillar hamda iqtisodiy munosabatlarning xalqaro tizimi orqali bir-biri bilan chambarchas bog‘langan milliy xo‘jaliklar majmuasidir.

Jahon xo‘jaligining vujudga kelish shart-sharoitlari



- Xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashishning qaror topishi va rivojlanishi;
- transport, aloqa va xalqaro kommunikatsiya tizimlari rivojlanishi;
- kapitalning to‘planishi va markazlashishi oqibatida xalqaro monopoliyalar vujudga kelishi;
- FTT va ishlab chiqarishning baynalmilallashuv jarayonini kuchayib borishi.



Jahon xo‘jaligi mamlakatlari turkumlanishi

Xo‘jalik tizimlari xususiyatiga ko‘ra:


- a) rivojlangan mamlakatlar;
- b) bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar;
- d) bozor iqtisodiyoti to‘la shakllanmagan mamlakatlar.

Alohida yorqin aks etgan iqtisodiy belgilariga ko‘ra:





- a) yangi industrial mamlakatlar (shimoliy-sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi);
- b) yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Quvayt, Saudiya Arabistoni va boshqalar);
- d) eng kam rivojlangan mamlakatlar (Ekvador);
- e) eng kambag‘al mamlakatlar (Chad, Bangladesh, Efiopiya).




Milliy xo'jaliklarning baynalmilallashuvi ularning jahon xo'jaligi aloqalarida qatnashuvi darajasini ifodalaydi.




2-§. Xalqaro mehnat taqsimoti. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va uning shakllari






Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini taqozo qiluvchi omillar

- 
- xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi;
 - xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
 - umumjahon fan-texnika revolyutsiyasi;
 - milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi.

3-§. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakllari. TMK va jahon infratuzilmasining rivojlanishi

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM)	Xalqaro mehnat taqsimoti negizida dunyo mamlakatlari o'rtasida qaror topgan xo'jalik aloqalarining muayyan tizimidir.
---	---

XIM shakllari



- ❖ tovar va xizmatlar bilan xalqaro savdo;
- ❖ kapital va chet el investitsiyalari harakati;
- ❖ ishchi kuchi migratsiyasi;
- ❖ ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi;
- ❖ fan va texnika sohasidagi ayirboshlash;
- ❖ valuta-kredit munosabatlari.

Xalqaro savdo	Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng ko'hna va yetakchi shakli bo'lib, bunda tovar (xizmat)lar harakati davlatlar o'rtasida jahon bozori doirasida ro'y beradi.
----------------------	---

O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlari (mln. AQSH dollari hisobida)

12.1-jadval

Ko'rsat- kichlar	yillar								
	1999	2000	2002	2003	2005	2008	2010	2011	2012
Tashqi savdo aylanmasi,	6346,5	6212,1	5700,4	6689,2	9500,1	21197,3	22199,2	26365,9	26416,1
shu jumladan:									
eksport	3235,8	3264,7	2988,4	3725,0	5408,8	11493,3	13023,4	15021,3	13599,6
import	3110,7	2947,4	2712,0	2964,2	4091,3	9704,0	91755,8	11344,0	12816,5

**O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasida MDH va uzoq xorij
mamlakatlar ulushi (% hisobida)**

12.2-jadval

Ko‘rsatkichlar	yillar								
	1999	2000	2002	2003	2005	2008	2010	2011	2012
Tashqi savdo aylanmasi.	100.0	100.0	100.0	100.0	100	100	100	100	100
shu jumladan:									
• MDH mamlakatlari	28,2	37,0	32	31,5	34,6	37,8	43,1	43,5	48.2
• eksport	30,4	35,9	27,6	26	31,5	34,7	45,2	44,7	56,6
• import	26.0	38,2	36,9	38,3	38,6	42,7	40,1	41,8	39,7
• Uzoq xorij mam-									
lakatlari	71,8	63	68,0	68,5	63,4	62,2	56,9	56,5	51,8
• eksport	69,6	64,1	72,4	74,0	68,5	65,3	54,8	55,3	43,4
• import	74,0	61,8	63,1	61,7	61,4	57,3	59,9	58,2	60.3

**Respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega bo‘lgan
dunyo mamlakatlari (%hisobida)**

12.3-jadval

Mamlakat- lar	yillar								
	1999	2001	2003	2004	2007	2008	2010	2011	2012
Belgiya	1.2	1.7	2,6	1,6	0,8	0,5	0,6	0,6	0,6
Buyuk									
Britaniya	4.7	5.3	10,1	9,7	2,1	2,1	2,2	1,6	1,5
Germaniya	4,7	4,4	11,0	8,1	5,6	5,3	5,2	7,1	4,2
Eron			8,4	7,8	6,8	5,1	5,5	3,1	2,9
Xitoy	6.3	5.7	6,9	6,5	12,3	15,1	20,8	21,0	25,6
Koreya	3.2	3.3	9.0	10,4	12,5	11,6	16,9	14,0	15,6
Turkiya	4.8	3.7	8,2	9,0	9,6	7,7	8,2	8,6	9,1
Shveysariya	5,0	7,3	6,0	3,5	5,0	9,7	1,3	1,0	1,8
AQSH	5.0	7.3	8,6	13,4	3,1	3,8	1,8	3,1	3,5

Respublika tashqi savdo aylanmasining dunyo bo'yicha taqsimlanishi (% hisobida)

12.4-jadval

Ko'rsatkichlar	yillar									
	2000	2001	2003	2004	2006	2007	2008	2010	2011	2012
Jami shu jumladan:	100,0	100,	100,	100	100	100	100	100	100	100
Yevropa	63,1	63,1	65,1	59,7	53,9	60,2	68,4	60,7	58,6	54,2
Osiyo	31,3	31,4	31,6	36,4	43,2	38,0	29,0	38,6	40,7	45,3
Afrika	0,1	0,1	0,0	0,0	0,4	0,1	0,2	0,2	0,1	0,0
Amerika	5,4	5,2	3,3	3,9	2,4	1,6	2,3	0,5	0,6	0,5
Avstraliya va Okeaniya	0,1	0,2	0,0	0,0	0,1	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0

Respublika eksport va import tarkibi (% hisobida).

12.5-jadval

Ko'rsatkichlar	yillar									
	2000	2001	2003	2004	2006	2007	2008	2010	2011	2012
Eksport shu jumladan	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
• paxta tolasi	27,5	24,3	19,8	18,1	17,2	12,5	9,3	12,1	9,0	9,3
• oziq-ovqatlar	5,4	3,8	2,7	3,8	7,9	8,5	4,4	9,7	13,3	6,4
• kimyo mahsulotlari, plastmassa va undan yasalgan buyumlar	2,9	2,6	3,1	4,7	5,6	6,8	5,6	5,1	5,6	5,6
• rangli va qora metallar	6,6	6,8	6,4	8,6	12,9	11,5	7,0	6,9	7,4	7,8
• mashina va uskunalar	3,4	3,8	5,9	7,4	10,1	10,4	7,5	5,5	6,6	6,5
• energiya manbalari	10,3	9,9	9,8	12,4	13,1	20,2	25,2	22,8	18,5	34,6
• xizmatlar	13,7	14,1	14,4	11,8	12,1	10,7	10,4	10,2	11,8	17,3
• boshqalar	...	34,7	37,9	33,2	21,1	19,4	30,7	27,7	27,8	12,5
Import shu jumladan	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

• oziq-ovqatlar	12,3	10,8	9,9	6,8	8,1	7,9	8,1	10,5	11,5	10,9
• kimyo mahsulotlari, plastmassa va undan yasalgan buyumlar	13,6	12,7	12,8	12,5	15,0	14,8	13,0	13,8	12,5	13,7
• rangli va qora metallar	8,6	10,9	7,9	10,3	10,4	8,3	6,8	8,1	7,6	7,2
• mashina va uskunalar	35,4	41,2	44,4	46,0	40,3	46,6	53,3	44,0	44,0	45,9
• energiya manbalari	3,8	1,9	2,7	2,1	4,3	3,3	2,1	7,1	8,5	6,6
• xizmatlar	8,5	10,3	10,2	11,1	9,1	7,4	5,7	5,3	5,0	5,8
• boshqalar	...	12,2	12,1	11,1	12,8	11,7	11,0	11,2	10,9	9,9

Kapitalning xalqaro harakati

Bu kapitalning chet ellarda joylashtirilishi va faoliyat qilishidir

Chetga kapital chiqarish shakllari

I. Kapital chiqaruvchi subyekt turiga ko'ra

- xususiy kapital;
- davlat kapitali;
- kapitalning xalqaro tashkilotlar orqali harakati

II. Ashyoviy buyum ko'rinishiga qarab

- pul va tovar shaklida
- mashina va uskunalar, patentlar, nou-xaular shaklida.


III. Berilish muddatiga ko'ra

- Qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida

IV. Kapital hisobiga olinadigan daromad turiga ko'ra

- Ssuda kapitali (qo'yilmalar bo'yicha foiz shaklida daromad keltiradi)
- Tadbirkorlik kapitali (foyda keltiradi).


Tadbirkorlik kapitali



Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasini taqozo qiluvchi omillar

➤ iqtisodiy; ➤ siyosiy; ➤ madaniy;	➤ etnik; ➤ qon-qardoshlik; ➤ oilaviv va h.k.
--	--

Xalqaro migratsiyaning tarkibiy tuzilishi



O‘zbekistonda migratsion jarayonlarning xususiyatlari
(ming kishi)

12.6-jadval


Ko‘rsatkichlar	yillar						
	2005	2006	2007	2008	2010	2011	2012
Aholining tabiiy ko‘payishi	392,9	416,3	471,5	508,9	496,4	479,6	479,1
Ko‘chib kelganlar soni	147,4	144,8	151,1	149,7	4,6	3,2	4,5
Ko‘chib ketganlar soni	246,4	209,2	214,3	195,8	44,4	50,8	45,4
Aholi migratsiyasi saldos	-99	-64,4	-63,2	-46,1	-39,8	-47,6	40,9

Ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasi	Mehnat taqsimotining baynalmilal ko‘lamda birlashib borishidir.
--	---

Xalqaro kooperatsiyaning asosiy yo‘nalishlari

- yuqori fan sig‘imli mahsulotlar ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish;
- savdo-iqtisodiy sohada kooperatsiya;
- tovarlarni sotgandan keyin xizmat ko‘rsatish.

Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayriboshlash shakllari

- 
- ilmiy-texnikaviy axborotlar ayriboshlanishi;
 - mutaxassislar va fan sohasi xodimlari bilan ayriboshlash;
 - tadqiqot va yangiliklarni litsenziya asosida berish;
 - ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish;
 - fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqish bo‘yicha umumiy qo‘shimcha tadbirkorlik;
 - xalqaro injiniring.

Xalqaro injiniring

Bu bir davlat tomonidan boshqasiga sanoat va boshqa obyektlarni loyihalashtirish hamda qurish jarayoniga kerakli hisob-kitob loyihalarini berish va injenerlik-qurilish xizmati ko'rsatishdan iborat.

Ishlab chiqarishning xalqaro miqyosda baynalmilallashuvi kapitalning transmilliy shaklda rivojlanishi va transmilliy kompaniyalar vujudga kelishining shart-sharoiti hisoblanadi

Dunyodagi eng yirik TMKlar

- | | |
|------------------------|-----------------------|
| ➤ «Djeneral motors» | ➤ «Toyota» |
| ➤ «Ford» | ➤ «Djeneral Elektrik» |
| ➤ «Royyal-Datch-Shell» | ➤ «IBM» |
| ➤ «Eksson» | ➤ «Xitachi» |

Nafaqat faoliyat yuritishi, balki kapitali va nazorat qilish doirasi ham baynalmilal bo'lgan kompaniyalar xalqaro korporatsiyalar deyiladi.

Eng yirik xalqaro korporatsiyalar:

- Royal-Datch-Shell
- Yunilever
- Arbsd
- De Birs

Jahon infratuzilmasi

Bu tovarlar, xizmatlar, mehnat va moliyaviy resurslarning milliy chegaradan tashqaridagi harakatiga, ya'ni xalqaro ayriboshlanishiga xizmat qiluvchi muassasaviy tuzilmalardir.


Jahon infratuzilmasi tarkibiy qismlari

- xalqaro transport tizimi (dengiz, daryo, havo, temir yo'l);
- xalqaro axborot kommunikatsiyalar tarmog'i;
- xalqaro moliya markazlari, birjalar, yirik sanoat va savdo birlashmalari.

4-§. Jahon xo‘jalik aloqalarining xalqaro tartibga solinishi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishining asosiy yo‘nalishlari

Eng birinchi tashkil qilingan xalqaro tashkilotlar. ➤ Millatlar ligasi (1919 y. tuzilgan) ➤ Xalqaro hisob-kitoblar banki(1929 y. tuzilgan)
Jahon xo‘jalik aloqalarini xalqaro tartibga solish – bu davlatlararo va xalqaro tashkilotlar yordamida o‘rnatilgan me‘yorlar asosida milliy davlatlar tashqi iqtisodiy faoliyatini xalqaro darajada uyg‘unlashtirish va tartibga solishga qaratiladi.
Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi muassasalar
Yevropa Ittifoqi (EI) doirasida iqtisodiy, valuta va siyosiy hamkorlik vazifalarini bajarish bo‘yicha tuzilgan muassasalar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), uning kengash va organlari



- Yevropa;
- Osiyo;
- Uzoq Sharq;
- Lotin Amerikasi;
- Gʻarbiy Osiyo;
- Yunisef bolalar fondi

- Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki va uning filiallari;
- jahon banki;
- xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi;
- xalqaro moliya korporatsiyasi;
- xalqaro valuta fondi;
- xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi;
- xalqaro savdo tashkiloti va boshqalar.

Oʻzbekistonning jahon xoʻjalik aloqalarida ishtirok etishining asosi – bu ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdir.

Oʻzbekistonga aʼzo boʻlib kirgan dastlabki xalqaro ittifoqlar

- Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH)1991y.
- Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) – Markaziy Osiyo davlatlari, Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan tuzilgan.

Oʻzbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshiruvchi muassasalar:

- Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki;
- Bojxona qoʻmitasi;

Vazirlar Mahkamasi, boshqaruvning quyi boʻgʻinlari va korxonalardagi tashqi iqtisodiy aloqalar boʻlimi;

- chet eldagi savdo uylari va savdo-sanoat palatalari.

Oʻzbekistonda Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga shart-sharoit yaratish, ularning huquqlarini himoyalash va sarflangan sarmoyasini kafolatlashga xizmat qiluvchi muassasalar.

- «Oʻzbekinvest» milliy sugʻurta kompaniyasi va boshqa qoʻshma sugʻurta kompaniyalar.
- Respublika Vazirlar Mahkamasi huzuridagi investitsiyalarga koʻmaklashuvchi kengash (BMT bilan birgalikda tashkil qilingan).
- Davlat mulki qoʻmitasi huzuridagi koʻchmas mulk va xorijiy investitsiyalar agentligi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishining asosiy yo'nalishlari:

- Tashqi savdo (MDH va uzoq xorijiy davlatlar bilan).
 - Markaziy Osiyo davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston) o'rtasidagi yagona iqtisodiy makon to'g'risidagi shartnomani amalga oshirishga qaratilgan dasturlardagi ishtiroki.
- Jumladan, ular sanoatini integratsiyalashtirishga qaratilgan dasturlar.
- MDH muassasalari (Davlatlararo iqtisodiy qo'mita, Davlatlararo bank va boshqalar)dagi ishtiroki.
 - MDH mamlakatlari bilan o'rnatilgan ikki va ko'p tomonlama iqtisodiy aloqalar.
 - BMTning Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, fan sohalaridagi loyihalardagi ishtiroki.
 - Yevropa Ittifoqi (EI) bilan imzolangan «Sheriklik va hamkorlik to'g'risida»gi bitim (1996y).
 - Elga a'zo mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo sohadagi hamkorlik.
 - NATOning «Tinchlik yo'lidagi sheriklik» dasturidagi ishtiroki.
 - XVF va jahon banki muassasalari (XTTB, XRU, XMK, investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi) bilan hamkorlik.
 - ETTB, jahon savdo tashkiloti (JST) va Osiyo rivojlanish banki (ORB) bilan hamkorlik.

Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar: Asosiy tayanch tushunchalar

1. Jahon xo'jaligi
2. Milliy iqtisodiyotning baynalmilallashuvi
3. Eksport kvotasi
4. Xalqaro mehnat taqsimoti
5. Eksport bo'yicha ixtisoslashuv koeffitsiyenti
6. Xalqaro iqtisodiy integratsiya
7. Jahon xo'jaligining globallashuvi
8. Global muammolar
9. Transmilliy korporatsiyalar.

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

- a) Mehnatning turli davlatlar guruhi o'rtasida taqsimlanishi bo'lib, alohida mamlakatlarning u yoki bu turdagi tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishga ixtisoslashuvi;
- b) xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiya aloqalarining yuqori darajadagi, bir butun xo'jalik aloqalari sifatida birlashuvi;
- v) umumjahon xarakteriga ega, insonning hayoti, jamiyat taraqqiyotiga xavf soluvchi, o'zaro bog'liq, dunyo hamjamiyatini birgalikda kechiktirmay hal etishini talab qiladigan muammolar;
- g) jahon xo'jaligini yagona tovar va xizmatlar, kapital, ish kuchi va intellektual bozori, mamlakat milliy iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotining bir qismi sifatida namoyon bo'lishi;
- d) jahon xo'jaligi doirasida bir yoki bir necha sohada hukumronlik qiluvchi korporatsiyalar;
- e) mamlakatning jahon eksportida qanday mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashuvini ifodalovchi ko'rsatkich;
- yo) mamlakatlar o'rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarning vujudga kelib, jahon xo'jaligi aloqalarida qatnashuvi;
- j) har bir mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarda qatnashuvini ifodalovchi ko'rsatkich. Yil davomida chetga chiqarilgan tovar va xizmatlarning YaIMga nisbati bo'yicha hisoblanadi;
- z) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan bog'langan milliy xo'jaliklar majmui.

Masala va mashqlar

1. Aytaylik, AQSHda eksportning umumiy hajmi 933,9mlrd. dollar. YaIM hajmi 8728,0 mlrd. doll. Malayziyada esa eksport hajmi 71,9 mlrd. dollar, YaIM hajmi esa 728,5 mlrd. doll.

Har ikki mamlakat eksport kvotasini hisoblang, ularni solishtiring. Eksport kvotasini eksportning YaIMdagi ulushi sifatida qaray olamizmi? Fikringizni izohlang.

2. O'zbekistonda 2012-yili 96589,8 mlrd. so'mlik YaIM yaratildi. Eksportning umumiy hajmi esa 13599,6 mln. dollarni tashkil etdi. Agar 2012-yili so'mning dollarga nisbatan kursi 1 dollar = 1825 so'm bo'lsa, eksport kvotasini hisoblang.

Agar 1999-yili bu ko'rsatkich 18,7% bo'lgan bo'lsa, 2012-yil bilan taqqoslab, qanday xulosa chiqarish mumkin? Hozirda-chi?

3. Dunyo bo'yicha eksport hajmi 5473 mlrd. dollar bo'lib, uning 273,5 mlrd. dollari energiya tashuvchi resurslarni tashkil etadi. Qozog'istonda umumiy eksport hajmi 5,2 mlrd. doll., shundan 2,08 mlrd. dollarini neft va neft mahsulotlari tashkil etadi. Qozog'istonning eksport bo'yicha ixtisoslashuv koeffitsiyentini hisoblang. Bu koeffitsiyent nimani ko'rsatadi va undan qanday foydalanilishini izohlang.

Keying yil ma'lumotlarini topib hisoblan. Ularni taqqoslab, o'z fikringizni bayon qiling.

4. 1999-yili jahon miqyosida 29232,1 mlrd. doll. YaMM yaratilgan. Yer shari aholisi 5975 mln. kishi. 35 ta rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga 25730 dollardan YaIM yaratilgan, 59ta qoloq mamlakatlarda esa 987,6 mlrd. dollarlik YaIM ishlab chiqarilgan. Bu mamlakatlarda 2417 mln. kishi istiqomat qiladi.

O'rtacha va qoloq mamlakatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdorini aniqlang. Ulardan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Hozirga kelib bu ko'rsatkichlar qanday o'zgardi? Ma'lumotlarni toping, hisoblahg va solishtiring. O'zgarishi sabablarini izohlang

Globalizatsiya jarayoni taraqqiyotning tezlashishiga katta ta'sir ko'rsatishiga qaramay, nima sababdan antiglobalistlar safi o'sib, ularning noroziligi kuchayib borayapti?

5. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Ular ichida guruhga taalluqli bo'lmaganini aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

«IBM», «Koka-Kola», «Prokter end Gembl», «Royyal-Datch-Shell», «Nestle». «Simens».

T/N

1. Mamlakatlarning o'zaro bog'lanishi konsepsiyasida xalqaro mehnat taqsimoti hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib talqin etiladi.

2. Modernizatsiya nazariyasiga ko'ra rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat taqsimoti chetdan kapital jalb qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

3. Xalqaro iqtisodiy integratsiya rivojlanishi uchun xalqaro infratuzilmani rivojlantirish shart emas.

4. Miqyosi va faoliyat yuritish jihatidangina emas, balki kapital va uning harakatini nazorat qilish jihatidan ham baynalmilal korporatsiyalar xalqaro korporatsiyalar deb ataladi.

5. Kapital va uni nazorat qilish jihatidan, ya'ni bosh kompaniyalarning bir mamlakatga tegishli bo'lgan shakli xalqaro korporatsiyalar deb ataladi.

6. TMKlar arzon resurslar bilan birga o'z mahsulotlarini sotadigan bozorlarga ega bo'lishi natijasida nihoyatda katta imkoniyatga ega bo'ladi.

7. Monopolistik ustunlik (afzallik) modeli, chet ellik investor mahalliy investorga qaraganda qulay sharoitda bo'ladi, degan g'oyaga asoslanadi.

8. Mahsulotning hayot sikli modeli – yaratilgan yalpi mahsulotning bozorga kirib borishidan boshlab, bozor talabining o'sishi, to'yinishi va oxir-oqibat sotishning kamayishi yuz berishi, bu mahsulotni chet mamlakatlarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi esa shu mahsulotlarni hayot siklini uzaytirishi haqidagi nazariyadir.

9. Xo'jalik hayotining globallashuvi ikki xil: ijobiy hamda salbiy oqibatga olib keladi.

TEST SAVOLLARI

1. 1896–1900-yillarda to'rt mamlakat jahon sanoat ishlab chiqarishining 3/4 qismi, sanoat eksportining 3/5 qismini egallashdi. Bular:

- A) AQSH, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Fransiya;
- V) AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya;
- S) Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya,
- D) Buyuk Britaniya, AQSH, Italiya, Fransiya;
- E) Buyuk Britaniya, Italiya, AQSH, Germaniya.

2. Jahon xo'jaligini tarkib topishida dunyoning hudud jihatidan bo'lib olinishi, katta mustamlaka imperiyalar tashkil bo'lishi ham muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon qachon nihoyasiga yetdi?

- A) XVIII asr oxirlarida;
- V) XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida;
- S) XIX asr o'rtalaridan boshlanib XIX asr oxirida;
- D) XIX asr oxiri XX asr boshlarida;
- E) XX asr boshidan boshlanib XX asr o'rtalarida.

3. Jahon xo'jaligi tarkibidagi rivojlanish jihatidan yetakchi bo'lgan mamlakatlarga ...

- A) aholi jon boshiga yaratilgan YaIM yuqoriligi;
- V) dunyo mineral resurslarini iste'mol qilishdagi ulushi yuqoriligi;

S) YaIMda axborot kommunikatsiya xizmatining ulushi yuqoriligi;
D) sanoat mahsulotida yuqori darajadagi intellektual salohiyatni talab qiluvchi tovarlar ulushining ko'pligi;

E) YaIMda agrar sektor ulushining yuqoriligi xos emas.

4. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalar:

A) Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti darajasida;

V) barcha mamlakatlar bilan ko'p tomonlama hamkorlik asosda;

S) ko'p tomonlama hamda ikki tomonlama hamkorlik asosda;

D) barcha mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik asosda;

E) musulmon davlatlari doirasidagi hamkorlik asosida olib boriladi.

5. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalar qanday tamoyillarga asoslanadi?

A) umuminsoniy va milliy manfaatlar mushtarakligiga;

V) milliy va davlat manfaatlari birligiga;

S) milliy va guruhiiy manfaatlar uyg'unligiga;

D) umuminsoniy va qo'shni mamlakatlar manfaati;

E) turli qatlamlar manfaatlarini bir qilib umumlashtirishga.

6. O'zbekistonning jahon bozoriga kirib borishiga nima to's-qinlik qilishi mumkin?

A) chet el investorlarini jalb etish;

V) oraliq emas, pirovard mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirish;

S) sanoatni mahalliyashtirish;

D) noraqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish;

E) mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish.

7. Hozirgi paytda korporatsiyalarning asosiy maqsadi:

A) foydani eng yuqori darajaga ko'tarish;

B) ishlab chiqarishni eng yuqori darajaga ko'tarish;

V) bozorni eng yuqori darajaga ko'tarish;

G) ish bilan ta'minlashni eng yuqori darajaga ko'tarish;

D) resurslarni ishga solishni eng yuqori darajaga ko'tarish.

8. Xalqaro savdo tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'zaro savdo qilganda boj to'lovlari tovar qiymatining ...

A) 10%; V)15%; S)8%; D)5%; E)12% idan oshmasligi kerak.

9. 15-iyun 2001-yili Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShOS) tuzildi. U yangi hududiy, ko'p qirrali hamkorlik tashkiloti bo'lib, unga hozirda 6 mamlakat:

A) Xitoy, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Rossiya;

V) Xitoy, Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston;

S) Xitoy, Rossiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston;

D) Xitoy, Rossiya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston;

E) Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston a'zo.

10. Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatiga baho berishda qaysi ko'rsatkich asosiy hisoblanadi?

A) eksport hajmi;

V) import hajmi;

S) sof eksport hajmi;

D) barterli ayriboshlash hajmi;

E) bir-birini qoplovchi to'lovlar hajmi.

11. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli?

a) boj ittifoqi;

b) to'lov ittifoqi;

v) erkin savdo zonalari;

g) umumiy bozor;

d) iqtisodiy va to'lov ittifoqi.

12. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda qanday tamoyillarga amal qilinadi?

A) umuminsoniy manfaatlariga;

V) milliy manfaatlariga;

S) sinfiy manfaatlariga;

D) davlat manfaatlariga;

E) umuminsoniy va milliy manfaatlar mushtarakligiga.

13. O'zbekiston o'zining aloqalarini qanday asosda tashkil etmoqda?

A) NATO doirasida;

V) Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti doirasida;

S) Xalqaro valuta fondi orqali;

D) Ko'p tomonlama asosida;

E) ham ko'p tomonlama va ham ikki tomonlama asosida.

14. O'zbekiston jahondagi nechta mamlakatlar bilan rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatgan?

A) 165 ta;

B) 120 dan ortiq;

- S) 210 ta;
- D) 88 ta;
- E) 100 ta.

15. Respublika tashqi iqtisodiy siyosatining qaysi prinsipi xalqaro iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

- A) tashqi munosabatlarda oshkoralik;
- V) boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- S) o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish;
- D) ikki tomonlama va ko‘p tomonlama tashqi aloqalarni rivojlantirish;
- E) xalqaro huquqiy normalariga rioya qilish.

16. Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning qaysi yo‘nalishi «aktiv» savdo balansiga erishishga yordam beradi.

- A) mamlakat eksporti imkoniyatini kengaytirish;
- V) importning salmog‘ini qisqartirish;
- S) xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko‘lamda jalb qilish;
- D) A) va V) to‘g‘ri;
- E) V) va S) to‘g‘ri.

17. Moliyaviy globallashuv – bu:

- A) jahon xo‘jaligining barcha hududlaridagi moliyaviy munosabatlarni qamrab oluvchi jarayondir;
- D) ayrim olingan moliyaviy munosabatlarni qamrab oluvchi jarayondir;
- C) muayyan davlat hududidagi moliyaviy munosabatlarni qamrab oluvchi jarayondir;
- D) yuqoridagilarning barchasi to‘g‘ri;
- E) V) va S) to‘g‘ri.

18. Iqtisodiy globallashuv – bu:

- A) muayyan hududdagi iqtisodiy munosabatlarni qamrab oluvchi jarayondir;
- V) ayrim olingan mamlakatlardagi iqtisodiy munosabatlarni qamrab oluvchi jarayondir;
- S) jahon xo‘jaligining barcha hududlaridagi iqtisodiy munosabatlarni qamrab oluvchi jarayondir;
- D) A) va V) to‘g‘ri;
- E) yuqoridagilarning barchasi to‘g‘ri.

Global muammolarning xususiyatlari va turlari:

Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikricha global muammolarning turli-tumanligiga qaramay, ular jahon iqtisodiyotining boshqa muammolaridan ajratib turuvchi umumiy xususiyatlarga ega. Bular quyidagilar:

- umumjahon xarakteriga ega, ya’ni butun insoniyat (hech bo‘lmaganda uning katta qismi) taqdiri va manfaatiga daxldor;
- insoniyatning hayoti, jamiyat taraqqiyotiga xavf soladi. Hatto kishilik jamiyati sivilizatsiyasiga xavf tug‘diradi;
- o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq;
- dunyo hamjamiyatining birgalikda faoliyat yuritishini talab qiladi;
- tez, kechiktirib bo‘lmaydigan qaror qabul qilishni zarur qilib qo‘yadi.

Ana shu belgilar, xususiyatlarga ko‘ra, jahon taraqqiyotining quyidagi muammolari global muammolarga kiritiladigan bo‘ldi:

- qashshoqlik va qoloqlikdan qutilish;
- qurolsizlanish va jahonda yadro urushining oldini olish;
- oziq-ovqat, tabiiy resurslar (ko‘pincha alohida energetika va alohida xomashyo muammosi sifatida ko‘riladi) muammosi;
- demografik muammo (U shunisi bilan ajralib turadiki, rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlar oldiga bir-biridan tamomila farq qiladigan masalalarni qo‘yadi. Butun dunyo uchun umumiy bo‘lgani holda ayrim mamlakatlar uchun o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan: rivojlanayotgan mamlakatlar uchun demografik muammo aholining tez o‘sishi bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlar uchun aholi miqdori deyarli o‘zgarmagani holda uning tarkibining qarib borishi, qator postsosialistik mamlakatlarda esa tug‘ilishga qaraganda o‘limning barqaror ravishda ortib borishi – aholining depopulatsiyasidir¹);
- ekologik muammo;
- * insoniy potensialni rivojlantirish muammolari (postindustrial

¹. Lot.populus- aholi, biologik ma’noda uzoq vaqt davomida ma’lum bir hududda avlodlar orqali o‘zini-o‘zi takror yaratishi, ishlab chiqarishi tushuniladi. Depopulatsiya ana shu jarayonni buzilishini bildiradi.


2. "Мировая экономика: история и прогноз развития// <http://www.ereport.ru/> "Перспективы развития мировой экономики в 2013 году // <http://www.webeconomy.ru/>. — Газета. Ru | <http://www.gazeta.ru/fmancial/2012/10/10/4807489.shtml> "МВФ: мировой экономике грозит рецессия. — Газета. Ru | Финансы // <http://www.gazeta.rii>

taraqqiyot insonga bo‘lgan e’tiborning ortishini talab qilishi, ayniqsa, ish kuchining sifati asosiy rol o‘ynashi, u o‘z navbatida ta’lim-tarbiyani yangi pog‘onaga ko‘tarishni zarur qilib qo‘yadi).

Siz, global muammolarning xususiyatlariga yana nimalarni qo‘shgan bo‘lardingiz? Sanab o‘tilganlardan tashqari yana qanday muammolarni global muammolarga kiritish mumkin?


Navoiy erkin industrial iqtisodiy zonasini tashkil etish maqsadi va belgilangan imtiyozlar

Navoiy EIIZ tashkil etish maqsadi



🌀 Navoiy aeroporti bazasida erkin industrial-iqtisodiy zonani tashkil etish, Navoiy shahrida yangi barpo etilgan aeroportni xalqaro operator – Koreyaning «Korean Eyr» kompaniyasi boshqaruviga berish to‘g‘risida qarorning qabul qilinishi tufayli katta istiqbollar ochiladi. U Navoiy viloyati va qo‘shni hududlarda yangi, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Berilgan imtiyozlar



O‘zbekiston Prezidentining «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish» to‘g‘risidagi Farmoniga muvofiq, bu zonada maxsus:

- 🌀 boj to‘lash;
- 🌀 valuta;
- 🌀 soliq;

norezident fuqarolarga kelish, chiqib ketish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun soddalashtirilgan tartib joriy qilinadi.

Erkin yoki «ochiq» iqtisodiy zonalarni tashkil etishdan barcha mamlakatlarning maqsadi o‘xshash. Shu bilan birga o‘ziga xos jihatlari mavjud. Sizningcha Navoiy erkin industrial iqtisodiy zonasi qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi? Bu zona uchun berilgan imtiyozlarning amal qilish tartibi haqida nimalar bilasiz?



12.1 -chizma

Manba: <http://www.fias.net/conference/EcozonesIndiadocs/KRao.pdf>

Chizmada ko‘rsatilgan erkin iqtisodiy hududlar bo‘icha ma’lumot to‘plang. Ularning umumiy tomonlari va farqlarini Venn diagrammasi orqali ifodalang. Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalar tasnifini bilasizmi? “Navoiy” va “Angren”, “Jizzax” maxsus industrial iqtisodiy zonasini qanday guruhga kiritish mumkin? Fikringizni bildiring.

Erkin iqtisodiy zonalar ko‘rsatkichlarining o‘sishi dinamikasi

12.7-jadval


	1970 y.	2009 y.
Erkin hududlar mavjud mamlakatlar, soni	30	120
Erkin hududlar, soni	80	2000*
Eksportning umumiy hajmi, mlrd. AQSH doll.	4	600
Ish o‘rinlari, mln.	1	50

Manba: <http://www.fias.net/conference/EcozonesIndiadocs/KRao.pdf>

*soni 1000dan ortiq bo‘lgan hudud- korxonalar kiritilmagan.

Jadval raqamlariga diqqat qarating. Keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Nima sababdan borgan sari erkin iqtisodiy hududlar tashkil etayotgan mamlakatlar va hududlar soni ortib bormoqda?

Mamlakatimizda qaysi viloyatlar va sohalarni misol qilib, ko'rsatish mumkin? Fikringizni batafsil bayon qiling.



12.1-rasm. O'zbekistonda xorijiy investorlar uchun yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar

Ma'lumki, mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ularni o'z mablag'lahini iqtisogiyotimiz uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni sanab bera olasizmi? Ularning natijasini qanday ko'rsatkichlar orqali ko'rish mumkin? Chetga capital chiqirish va investitsiyalar harakati qanday yuz beradi? Fikringizni asoslab bayon qiling.

Jahon xo‘jaligida iqtisodiy integratsiyaning asosy shakllari :

♦Evropa Ittifoqi 1958 y.

♦Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyoti tashkiloti 1961y.

♦Mustaqil davlatlar hamkor-ligi tashkiloti (MDH 1991)

♦ “Iqtisodiy hamkorlik” tashkiloti (musulmon mamlakatlari o‘rtasida)

♦Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShOS 2001) va boshqalar

♦ Katta yigirmalik guruhi (G-20) rasman 1999 yilda global iqtisodiyotdagi asosiy muammolar, ularni yechish yo‘llarini muhokama qilish maqsadida tashkil etilgan. Guruh tarkibiga jahon YaIMning 90 foizini yaratadigan rivojlangan va rivojlanayotgan yirik davlatlar: Argen-tina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya , Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSh, Turkiya, Fransiya, JAR, Janubiy Koreya, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi kiradi.

12.2 -chizma

Chizma ma’lumotlariga diqqat qiling. Jahon xo‘jaligida iqtisodiy integratsiyaning turli shakllarini vujudga kelishining sabablari nimada deb o‘ylaysiz? Ko‘rsatilganlaridan boshqalarini sanab bera olasizmi? Integratsiya shakllaridan katta yigirmalik guruhi nimasi bilan farqlanadi? Unga o‘xshash boshqa tashkilot bormi?

Siz bu tashkilotlarning jahon iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini qanday baholayciz? Fikringizni bayon qiling.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar

1z); 2yo); 3j); 4a); 5e); 6b); 7g); 8v); 9d).

Masala va mashqlar:

1. AQSH eksport kvotasi 10,7, Malaziya 98,7.
2. 25,7% ; bu 1999-yildan 7 punktga ko‘p.

3. Qozog‘istonning energiya tashuvchi resurslar, xususan neft eksporti bo‘yicha ixtisoslashuv koeffitsiyenti 8 ga teng.

4. Jahon miqyosida aholi jon boshiga 5925 dollar, qoloq mamlakatlarda 410 dollar yoki o‘rtachadan 14,5 marta kam.

5. Guruhga taalluqli bo‘lmagani «Royyal-Datch-Shell», u xalqaro korporatsiya, qolganlari transmilliy korporatsiyalar.

T/N

1T; 2T; 3N; 4T; 5N; 6T; 7N; 8T; 9T;

Testlar:

1V); 2D); 3E); 4S); 5A); 6D); 7S); 8A); 9D); 10A); 11D); 12A); 13E);
14E); 15D); 16D); 17A); 18S).

13-MAVZU. XALQARO SAVDO. XALQARO VALUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

1-§. Qiyosiy ustunlik nazariyasi

A.Smitning «mutlaq ustunlik» nazariyasi

Qanday tovarlarni eksport va qaysilarini import qilishning afzalliklari to'g'risidagi qarashlarini bayon qilishda milliy hamda jahon narxlari va ularning ishlab chiqarish xarajatlari mutlaq miqdori o'rtasidagi farqni hisobga oladi.

Boshqacha aytganda mazkur nazariya xarajatlarning mutlaq miqdoriga asoslanadi. Unga ko'ra har bir mamlakat o'zida kamroq xarajat sarflanadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishi, ancha yuqori xarajatlarni taqozo qiladiganlarini esa chetdan sotib olishi lozim.

D. Rikardoning «nisbiy ustunlik» nazariyasi

Xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashishning umumiy tamoyillariga asoslanish orqali aniqlanadigan xarajatlar nisbatidagi farq (avvalo tabiiy-geografik sharoitlar tufayli kelib chiqadigan) aynan olingan mamlakatda qaysi tovarlarni ishlab chiqarish, qaysilarini ayriboshlash orqali chetdan olish lozimligini ko'rsatadi.

D. Rikardo «nisbiy ustunlik» nazariyasini asoslash uchun Angliyada movut va Portugaliyada vino ishlab chiqarishning afzalligini misol qilib keltiradi.

Mamalakat	Bozor					
	yopiq			ochiq		
	Ishchilar soni					
	Vino	Movut	Jami	Vino	Movut	Jami
Portugaliya	80	90	170	160		160
Angliya	120	100	220		200	200
Jami	200	190	390	160	200	360

Jadval ma'lumotlari Portugaliya har ikkala mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha Angliyadan mutlaq ustunlikka egaligini ko'rsatadi. Biroq

xalqaro iqtisodiy aloqalar talabi va resurs sarfidagi nisbiy ustunlik hisobga olinganda Portugaliya vino Angliya esa movut ishlab chiqarishga ixtisoslashishi har ikkala mamlakat uchun foydali. Chunki har ikkala mamlakat ikki xil mahsulot turi (vino va movut)ni ham o'zlarida ishlab chiqarsa 390 birlik resurs sarflangan bo'lardi. Nisbiy qiymatdagi farq tufayli ularning alohida mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi 30 birlik resurs tejalishiga imkon beradi. Movutning vinoga nisbatan muqobil qiymati: Portugaliyada 90:80, resurs sarfi 1,0:1,125 Angliyada 100:120, resurs sarfi 1,0:0,83. Vinoning movutga nisbatan muqobil qiymati: Portugaliyada 80:90 resurs sarfi 1,0 : 0,89.

Angliyada 120 : 100, resurs sarfi 1,0 : 1,2.

D.Rikardoning «nisbiy ustunlik nazariyasi»ning kamchiligi:

- a) turli mamlakatlarning ishlab chiqarish salohiyatidagi farqlarni;
- b) nisbiy xarajatlar o'zgarishlarini hisobga olmaydi.

Xeksher-Olin nazariyasi

Shved iqtisodchilari E. Xeksher, B. Olin o'z nazariyalarida xalqaro ixtisoslashuv afzalliklari, qiyosiy xarajatlar tahlili asosida xalqaro savdo bilan birga ishlab chiqarish omillarining davlatlararo erkin harakati imkoniyatlarini ham hisobga oladi. Ular mamlakatlarning material, kapital, mehnat va fan sig'imli tovarlarga ixtisoslashuv sabablarini ham ochib beradi.

Xeksher-Olin nazariyasiga ko'ra

Mamlakat ishlab chiqarish omillaridan qaysi biridan samarali foydalansa, shu omillarning ulushi ko'p bo'lgan tovarlarni eksport qiladi, qaysi ishlab chiqarish omili taqchil bo'lsa, shu omil asosiy o'rin tutgan tovarlarni import qiladi.

Vasiliy Leontevning – «xarajat – ishlab chiqarish» metodi

Taniqli iqtisodchi V.Leontev Xeksher-Olin nazariyasining asosiy xulosalarini o'zining «xarajatlar - ishlab chiqarish» modeli (tarmoqlararo balans)da AQSH iqtisodiyoti misolida tadqiq qiladi.

Shu asosda AQSH eksportida mehnat sigʻimi importida esa kapital sigʻimi yuqori tovarlar ustun ekanligini koʻrsatib beradi. Xeksher-Olin nazariyasiga koʻra AQSH kapital sigʻimi yuqori tovarlarni eksport, mehnat sigʻimi yuqori tovarlarni import qilishi lozim edi. Bu qarama-qarshilik iqtisodiy fondi «Leontev paradoksi» deb ataladi. Keyingi tadqiqotlar bunday holat shu davrda (50-yillarda) boshqa mamlakatlar uchun ham xos ekanligini koʻrsatdi. Buni izohlash uchun qilingan harakatlar Xeksher-Olin nazariyasini yanada boyitishga olib keldi.	
«Leontev paradoksi»ni izohlashga qaratilgan dalillar	
→	° Ishlab chiqarish omillari, asosan mehnat sifat oʻlchamlari boʻyicha bir xil boʻlmasligi sababli rivojlangan mamlakatlarda mehnat sigʻimi yuqori boʻlmagan, yuqori malaka talab qiladigan, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa aksincha yuqori malaka talab qilmaydigan mehnat sigʻimi yuqori boʻlgan tovarlar eksport qilinadi.
→	° Tabiiy resurslarni oʻzlashtirish ancha katta kapital mablagʻlarni talab qiladi. Shu sababli bunday resurslarga boy boʻlgan rivojlanayotgan mamlakatlar asosan undirma sanoat mahsulotlarini eksport qiladi.
→	° Davlat iqtisodiy siyosati importni cheklash va nisbatan taqchil ishlab chiqarish omillaridan intensiv foydalanilayotgan tarmoqlarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilsa - bunda xalqaro ixtisoslashuvga taʼsir koʻrsatish maqsad qilib qoʻyiladi.
M. Porterning «raqobatbardoshlik» nazariyasi	
Amerikalik iqtisodchi M. Porter xalqaro savdoni mamlakatlar oʻrtasidagi raqobatchilik nuqtayi nazaridan oʻrganib, alohida mamlakatning raqobatdagi ustunligi uning yetakchi firmalarning raqobatbardoshligi bilan aniqlanadi, chunki jahon bozorida mamlakatlar emas, balki tovar ishlab chiqaruvchi, xizmat koʻrsatuvchi firmalar raqobatlashadi degan gʻoyani ilgari suradi.	

2-§. To'lov balansi. Tashqi qarz muammolari

To'lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqtda (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar, xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi.

To'lov balansi ikki tomonlama yozuv tartibiga asoslanadi. Bitta bitim uning ham debit va ham kredit qismida aks etadi.

→	Kredit –	qiymatning qoplovchi to'lovlar ekvivalenti (chet el valutalarida) hisobiga mamlakatdan chiqib ketishi.
→	Debit –	qiymatning chet el valutalari sarfi hisobiga mazkur mamlakatga kirib kelishi.

To'lov balansi tarkibiy qismlari

- * savdo balansi;
- * xizmatlar balansi;
- * notijorat operatsiyalar balansi;
- * kapital va kreditlar harakati balansi.

To'lov balansi tarkibiy qismlari

- • joriy operatsiyalar hisobi;
- • kapital harakati hisobi;
- • rasmiy ehtiyotlarning o'zgarishi.

Joriy operatsiyalar hisobi=tovar va xizmatlar eksporti - tovar va xizmatlar importi + investitsiyalar (kreditli xizmatlar)dan sof daromad + sof transfertlar.

Tovarlar eksporti	+	Tovarlar importi	=	Tashqi savdo balansi qoldig'i
-------------------	---	------------------	---	-------------------------------

Investitsiyalardan sof daromad – bu chet ellarga qo‘yilgan milliy pul kapitali hisobiga foiz va dividendlar shaklida keladigan daromadlar.
Sof transfertlar xususiy va davlat mablag‘larining pensiya, sovg‘a, insonparvarlik yordami kabi shakllarda chet mamlakatlarga o‘tkazilgan miqdori.
Joriy operatsiyalar qoldig‘i Eksport - import = sof eksport = Yalpi ichki mahsulot – absorbsiya; $X - M = X_n = Y - (C + I + G);$

Absorbsiya – YaIMning mazkur mamlakatdagi uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlatga sotilgan qismi.
Kapital harakati hisobi bu chet elliklarga aktivlar (aksiya, obligatsiya, ko‘chmas mulk va h.k) sotish va ulardan shunday aktivlarni sotib olish natijalarining aks etishi.

Kapital harakati balansi	=	Aktivlar sotishdan tushumlar	-	Chetdan aktivlar sotib olishga sarflar
--------------------------	---	------------------------------	---	--

To‘lov balansi tuzilishi

I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovarlar eksporti	2. Tovarlar importi
Tashqi savdo balansi qoldig‘i	
3. Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar va h.k.-bank-kredit xizmatlar)	4. Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to‘lovlar va h.k.-bank-kredit xizmatlar)
5. Investitsiyalar (kreditli xizmatlar)dan sof daromadlar	
6. Sof transfetlar	
Joriy operatsiyalar bo‘yicha balans qoldig‘i	
II. Kapital harakati hisobi	
7. Kapital kirishi	8. Kapital chiqishi
Kapital harakati balans qoldig‘i	
Joriy operatsiyalar va kapital harakati balansi qoldig‘i	

III. Rasmiy zaxiralarning o'zgarishi

To'lov balansi taqchilligi Markaziy bank rasmiy zaxiralarini qisqartirish hisobiga moliyalashtiriladi

Rasmiy zaxiralar
asosiy turlari

- chet el valutalari
- oltin
- mamlakatning XVFdagi kreditli ulushi
- qarz olishning maxsus huquqi

Balans taqchilligi rasmiy zaxiralar hisobiga moliyalashtirilganda:

- * ichki bozorda chet el valutalari taklifi ortadi;
- * milliy valutar taklifi kamayadi;
- * milliy valuta ayriboshlash kursi o'sadi;
- * iqtisodiyotda inqirozli jarayonlar kuzatiladi.

Rasmiy zaxiralar o'sishi ro'y berganda:

- * ichki bozorda chet el valutalari taklifi kamayadi;
- * milliy valuta taklifi ortadi;
- * milliy valuta ayriboshlash kursi pasayadi;
- * milliy iqtisodiyotning o'sishi rag'batlantiriladi.


Markaziy bank tomonidan balans taqchilligini qoplash maqsadida chet el valutarlarini sotishi va sotib olishi rasmiy zaxiralar bilan operatsiyalar deyiladi.

To'lov balansi inqirozini keltirib chiqaruvchi sabablar

- Joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikning surunkali kechiktirilishi;
- Rasmiy valuta zaxiralarining to'liq sarflanishi;
- Tashqi qarzlarni to'lash holati bo'lmaganligi sababli chet el kreditlaridan foydalanish imkoniyati yo'qolishi.

3-§. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari. Savdo siyosati

Xalqaro savdo – bu mamlakatning jahon savdosidagi ishtirokini aks ettirib, tashqi savdo aylanmasi, eksport va import kabi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi



Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qilib, uning bir qismi mamlakat hududida chet ellik iste’molchilarga chet el valutalari hisobiga xizmat shaklida amalga oshiriladi (masalan, chet el kompaniyasi va fuqarolariga pochta, telefon, telegraf va sayyohlik xizmati ko‘rsatish).

Respublika tashqi savdo aylanmasi, unda eksport va import ulushi (% hisobida)

13.1-jadval

Koʻrsatkichlar	Yillar								
	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Tashqi savdo aylanmasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
- eksport	52,5	56,9	59,2	63,2	60,6	55,5	58,7	59,8	51,4
- import	47,5	43,1	40,8	36,8	39,4	44,5	41,3	41,2	48,6


Respublika eksport va importida tovarlar hamda xizmatlar ulushi (% hisobida)

13.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar								
	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012
Eksport shu jumladan:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
- tovarlar	86,3	87,8	87,9	89,3	89,6	89,3	89,6	88,2	82,7
- xizmatlar	13,7	12,2	12,1	10,7	10,4	10,7	10,4	11,8	17,3
Import shu jumladan	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
- tovarlar	91,5	89,6	91,6	94,2	95,6	95,6	94,7	95,0	94,2
- xizmatlar	8,5	10,4	8,4	5,8	4,4	4,4	5,3	5,0	5,8

O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi hajmining o'sishi, mlrd. AQSH doll.

13.1-diagramma




Reeksport – bu biror mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarlarni o'z ichki iste'moli uchun emas, balki boshqa mamlakatga sotish uchun sotib olinganda ro'y beradi.

Reimport – bu iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olishni anglatadi.

Kapital eksporti – chet el valutasida foiz yoki dividend shaklida daromad olish maqsadida boshqa mamlakatlarga kredit berish yoki ularning aksiyalarini sotib olishga maqsadli qo'yilmalar qo'yishni bildiradi.

- Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida, mamlakat ichidagiga nisbatan ancha sust bo'ladi.
- Har bir mamlakat turli valutalardan foydalanadi;

Xalqaro savdoning xususiyatlari



- Ichki savdoga nisbatan siyosiy aralashuv va nazorat qilinish darajasi yuqori.


Keyingi yillarda xalqaro savdoda ro'y bergan o'zgarishlar

- ➔ * jahon bozorida AQSHning yetakchilik mavqei pasayib (XIX-asr o'rtalarida jahon eksportidagi ulushi 1/3 qismini tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi paytda 1/10 atrofida) boshqa rivojlangan mamlakatlar, xususan Yaponiya mavqei ortib bormoqda
- ➔ * jahon eksportida yangi industrial mamlakatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy, Braziliya, Meksika) hissasi ortmoqda.
- ➔ * fan-texnika taraqqiyoti natijasida xalqaro savdoning tovar tarkibi o'zgarmoqda. Jahon eksportida fan sig'imi yuqori, murakkab texnologik mahsulotlar, elektrotexnika uskunalari, transport vositalari hissasi ortib bormoqda.
- ➔ * xalqaro ixtisoslashishda ayrim sanoat tarmoqlari, jumladan kimyo sanoatining ulushi o'sib bormoqda (Yaponiya, Angliya va boshqa rivojlangan mamlakatlar hisobiga).
- ➔ * jahon bozori savdo aylanmasi tarkibida qishloq xo'jaligi mahsulotlari xomashyosi ulushi qisqarib, asosan yengil sanoat mahsulotlari ulushi ortmoqda.
- ➔ * jahon eksportida xizmatlar ulushi to'xtovsiz o'sib bormoqda.

Savdo siyosati – bu davlatning tashqi savdo hajmini tartibga solishga qaratilgan iqtisodiy siyosatining alohida yo'nalishi

Savdo siyosatining asosiy yo'nalishlari

- ➔ **Erkin savdo siyosati** ➔ Tashqi savdoni erkinlashtirish (liberallashtirish)ga qaratiladi va bu iqtisodiy resurslarni taqsimlash hamda ulardan foydalanishning ancha yuqori samaradorligini ta'minlaydi



Importga ta'riflar (boj to'lovlari)ning milliy iqtisodiyot uchun ijobiy tomonlari

- past samarali bo'lgan milliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qiladi;
- sanoatning mudofaa tarmoqlarini himoya qilish imkonini beradi;
- resurslarni ichki bandligini ta'minlaydi va yalpi talabni rag'batlantiradi;
- rivojlanishi bir tomonlama yo'nalishga ega bo'lgan iqtisodiyotni jahon bozori konyukturasidagi tebranishlar-dan himoya qiladi;
- milliy iqtisodiyotdagi yangi «yosh» tarmoqlarni himoya qilish vositasi hisoblanadi.

Importga litsenziyalarni joylashtirish usullari


Ochiq auk-sionlar	Davlat litsenziyalarni unga eng yuqori narxni taklif qilgan kompaniyalarga taqdim qiladi.
Oshkora afzal ko'rish	Ko'p miqdorda ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa resurslarga ega bo'lgan firmalarga litsenziyalar beriladi.
«Xarajat-lar usuli»	Davlat budjetidan ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish maqsadida alohida ishlab chiqarishlarga to'g'ridan-to'g'ri mablag' qo'yiladi.

4-§. Xalqaro valuta munosabatlari va tizimi. Valuta kurslari

Xalqaro valuta munosabatlari	Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, fan-texnikaviy ayriboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar.
------------------------------	---

Valuta – bu alohida mamlakatlar milliy pul birligi (masalan, so‘m, dollar, marka, funt sterling va h.k.).

Valuta deb, har bir mamlakatning milliy boyligi bilan ta’minlangan pul birligiga aytiladi.



Xalqaro valuta tizimining tarkibiy qism (element)lari:

- asosiy xalqaro to‘lov vositalari (milliy valutalar, oltin, xalqaro valuta birligi - evro);
- valuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi;
- xalqaro to‘lovlarni balanslashtirish tartibi;
- valutaning qaytaruvchanlik shart-sharoiti;
- xalqaro valuta va oltin bozorining amal qilish tartibi
- valuta munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro muassasalar tizimi.

Jahon valuta tizimining rivojlanish bosqichlari

Birinchi bosqichda. Valuta tizimi oltin standartiga asoslanadi, 1867–1934-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda oltin andoza sifatidagi pul tizimi ustunlikka ega bo‘lgan.

Oltin deviz standarti oltin va yetakchi valutilarga asoslangan.

Ikkinchi bosqichda – ikkinchi jahon urushining oxirlaridan (1944y.) 70-yillar o‘rtalarigacha oltin-deviz (Bretton-Vuds deb nomlanuvchi) tizim ustunlikka ega bo‘lgan. Bu tizim ham qayd qilingan valuta kurslariga asoslanib, unda oltin va maxsus maqomga ega AQSH dollari ishlatilgan.

→	Uchinchi bosqich – 1976-yildan boshlanadi. Bu davrdan oltin jahon puli rolini o‘ynamaydigan bo‘ldi. (Yamaykaning Kingston shahrida qabul qilingan kelishuvga muvofiq). Xalqaro iqtisodiy aloqalarda nufuzli valuta birliklaridan foydalanishni ko‘zda tutadi. Boshqariladigan suzib yuruvchi valuta tizimi amal qiladi.


	Milliy valutilarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qay darajada erkin ishlatilishini tavsiflash uchun «valutaning konvertatsiyalashuvi» tushunchasi ishlatiladi. Valutaning konvertatsiyalashuv darajasini ikkita omil belgilab beradi: ➤ valutaning xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilishi; ➤ asosiy valuta bozorlarida erkin almashtirilishi.
--	---


Valutalar konvertatsiyalashuv darajasiga ko‘ra 3 ta turkumga ajratiladi	
→	• to‘liq konvertatsiya qilinuvchi valutarlar. Bunda milliy valuta hech qanday to‘siqlarsiz erkin almashtiriladi. Bular Germaniya markasi, Fransiya franki, Yapon ienasi, Angliya funt sterlingi, AQSH dollari;
→	• qisman konvertatsiyalanuvchi valutarlar. Bunda milliy valuta ayriboshlanishida muayyan cheklashlar mavjud bo‘ladi. Bu cheklashlar rezidentlar, bank operatsiyalari bo‘yicha yoki o‘zaro qoplovchi bo‘lishi mumkin;
→	• konvertatsiya qilinmaydigan valutarlar. Bunga boshqa valutilarga almashtirib bo‘lmaydigan barcha milliy valutarlar kiradi.

«Oltin standart»ning xususiyatlari:	
	pul birligi oltin mazmunga asoslanadi; qayd qilingan valuta kursining mavjud bo‘lishini taqozo qiladi; banklar banknotalarni oltinga erkin almashtiradi; xalqaro to‘lovlarni muvofiqlashtirishda oltin erkin kiritiladi va chiqariladi.

Mamlakatning «<i>oltin standart</i>»ni qabul qilishlik sharti
➤ pul birligining ma’lum oltin mazmuni o’rnatilishi; ➤ oltin zaxirasi va pulning ichki taklifi o’rtasidagi nisbatni qattiq ushlab turishi; ➤ oltinning erkin eksport va importini ta’minlash.

Xalqaro hisob-kitoblar uchun maxsus pul birligi – SDR (Spesial Drawaing Right – maxsus o’rin bosish huquqlari)
* U xalqaro iqtisodiy aloqalarda jamoa valuta birliklaridan foydalanishni ko’zda tutadi. SDR maxsus «valutalar savatchasi» orqali aniqlanadi. Bu savatchada dollar 42%, G’arbiy Yevropa pul birliklari (funt sterling, frank, marka) – 45%, iena 13% ni tashkil etgan. Lekin, u baribir jahon puliga aylanmadi. Real hayotda asosan AQSH dollari ko’proq ishlatilib jahon puli vazifasini bajaradi. * Jamoa valutalar hisob-kitob birliklari sifatida milliy valutalar kursini taqqoslash uchun ishlatiladi. Ular milliy valutalardan farq qilib, banknot yoki moneta shaklida chiqarilmaydi (hozir «evro» bundan istisno). Ular faqat schyotlar – hisob raqamlariga (book money) yoziladi.
Valuta kursi bir mamlakat valutasining boshqa mamlakat valutasidagi narxi.






13.1-chizma. Valutalar ayirboshlash kursining o'rnatilishi.

Funt sterling taklifi 250 milliarddan 300 milliardgacha ko'paysa, ayirboshlash kursi 1 funt sterlingga 1,18 dollardan 1,0 dollargacha pasayadi. Buning oqibatida:

- amerikaliklar uchun Angliya tovarlari nisbatan arzonlashadi;
- Angliya eksportining ko'payishi funt sterlingga talabni oshiradi.



Masalan, agar tovar va xizmatlarning ma'lum bir to'plamini o'z ichiga olgan iste'mol savatining narxi AQSHda 1000 doll., Germaniyada 3000 markani tashkil qilsa, narx indeksi 1, real valuta kursi uchga teng bo'ladi:

$$E_R = 3(E_N) \frac{\frac{1000}{3000}}{\frac{1000}{3000}} = 3$$

$$\frac{1000}{3000} = 1.0$$

Narx darajasi AQSHda 50%ga o'sadi, Germaniyada o'zgarmay qoladi, deb faraz qilinsa, xuddi o'sha iste'mol savati AQSHda 1500 doll., Germaniyada oldingidek 3000 markani tashkil qiladi hamda real valuta kursi 4,5ga teng bo'ladi.

Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar **Asosiy tayanch tushunchalar**

- | | |
|--|-------------------------------------|
| 1. Xalqaro savdo | 8. Tashqi savdo balansi |
| 2. Mutlaq ustunlik (afzallik) | 9. To'lov balansi |
| 3. Qiyosiy afzallik | 10. Valuta |
| 4. Ishlab chiqarish omillari nisbati (Xeksher-Olin) nazariyasi | 11. Valutaning konvertatsiyalanishi |
| 5. Import qilingan inflatsiya | 12. Valuta kursi |
| 6. Eksport | 13. Xarid quvvati pariteti |
| 7. Import | |

Quyidagi javoblardan to'g'risini tanlang:

- a) Mamlakatdan chetga chiqarilgan tovarlar miqdori (qiymat o'lchovida);
- b) xalqaro savdo yo'nalishi ishlab chiqarish omillari qiyosiy narxlariga nisbatan shakllanadi;
- v) chetdan mamlakatga olib kelingan tovarlar miqdori (qiymat o'lchovida);
- g) mamlakatga chet el valutasining kirib kelishi, milliy valutaning past kursi va import qilinayotgan tovarlar narxining o'sishi;
- d) tovar birligini ishlab chiqarish uchun boshqa mamlakatga qaraganda, kam mehnat, kam resurs sarflashda ifodalanadi;
- e) mamlakatda bir tovarni ikkinchi mamlakatga qaraganda nisbatan past xarajatlar bilan ishlab chiqarish;
- yo) ma'lum vaqt (yil) mobaynida mamlakatning barcha tashqi iqtisodiy bitimlarning eksporti va importini aks ettiradi;
- j) mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalari tovar aylanmasi hajmi bilan ko'rsatiladi;

- z) mamlakatning milliy pul birligi, shu mamlakatning milliy boyligi bilan ta'minlangan;
- i) mamlakatning eksport va importi farqi;
- y) mamlakat valutasini (milliy pul birligi)ni chet el valutasiga almashtirilishini tashkil etuvchi operatsiyalar;
- k) mamlakatda turli valutalar birligiga sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar - xizmatlar miqdori;
- l) milliy valutaning chet el valutasini birligida ifodalanishi.

Masala va mashqlar

1. O'zbekiston va Qozog'istonning ishlab chiqarish imkoniyatlari quyidagicha:

O'zbekiston va Qozog'istonning bir birlik xarajatlarga ishlab chiqarish imkoniyatlari

Tovar	O'zbekiston	Qozog'iston
Muzlatgich (ming dona)	100	100
Poyabzal (mln. juft)	80	50

O'zbekiston va Qozog'istonda muzlatgich va poyabzal iste'moli

Tovar	O'zbekiston	Qozog'iston
Muzlatgich (ming dona)	50	60
Poyabzal (mln. juft)	40	20

- a) Ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan qanday va mamlakatlar o'rtasida ixtisoslashuv asosida savdo olib borish mumkinmi?
- b) mamlakatlar o'rtasida tovar ayriboshlash munosabatlari o'rnatilgach, iste'mol tarkibini hisoblang. Mamlakatlar to'la ixtisoslashuvga o'tsa, import (eksport) 30 mln. juft poyabzal bo'ladi. Jahon narxi: 600 ming juft poyabzal = 1 ming dona muzlatgich;
- d) har ikki mamlakat ishlab chiqarish va savdo imkoniyatlarini hisoblang.

2. A mamlakat avtomobil ishlab chiqaradi, ichki bozorda 5 ming dollardan sotiladi. Uning 1,0 ming dollari moddiy xarajatlar, 4 ming dollari esa qo'shilgan qiymat.

O'z ishlab chiqaruvchilarini himoyasi uchun mamlakat boj tarifini kiritadi. Unga muvofiq avtomobil importiga 20% li advalor boji belgilanadi. (Advalor boji tovarning boj qiymatidan foiz sifatida undiriladi) Advalor (poshlina bojini aniqlash uchun tovarning bojxona qiymatini aniqlash zarur. Tovarning bojxona qiymati o'z ichiga uning narxi, tovarni tashish uchun transport xarajatlari va sug'urta xarajatlarini oladi.) boji, qo'yilayotgan butlovchi uskunalarga 10%. Avtomobil ishlab chiqarishning boj orqali himoyalash darajasini aniqlang.

3. Mamlakat ichki bozorida A tovarga talab $Q_D = 20 - 3R$ formulasida ifodalanadi. Taklif yopiq ichki bozorda $Q_S = 2R + 2$; (R – narx, ming so'mda; Q – miqdor, ming dona). Shu tovarning jahon bozoridagi narxi $P_M = 2$; hukumat ana shu vaziyatda importga ruxsat beradi, lekin bozorda A tovar bo'yicha tartibga solish maqsadida quyidagi choralarni qo'llashni ko'zda tutadi:

- tovarning har bir donasidan ming so'm miqdorida import boji olinadi;

- import kvotasi – 4 ming dona;
- A tovarni mamlakatda sotishning eng yuqori narxi 3,5 ming so'm.

Aniqlang:

a) yuqoridagi shartlarni hisobga olib A tovar importiga ruxsat berilgach, uning ichki bozordagi narxini;

b) shu narx bo'yicha A tovarga talab miqdorini;

d) shu narx bo'yicha mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarning taklifi miqdorini;

g) importdan davlat budjetiga tushumlar summasini.

4. Aytaylik AQSH da 3 oylik depozitlar bo'yicha foiz stavkasi 4%, O'zbekistonda 6%. O'zbekistondagi firma eksportdan 200 ming dollar ishlaydi. Bu mablag'dan qanday samarali foydalanish mumkin, agar:

a) so'mga nisbatan dollar kursi o'zgarmaydi, valuta kursi: 1 doll. = 1100 so'm;

b) valuta kursi: 1 dollar uch oydan so'ng 1200 so'm bo'ladi;

d) valuta kursi: 1 dollar = 1000 so'm bo'lsa.

5. Bir soat mobaynida Yaponiya va Kanadada quyidagicha miqdorda mahsulot ishlab chiqarish lozim (birlik, hisobida).

	Kompakt disk	Pishloq
Yaponiya	8	4
Kanada	8	12

a) qaysi mamlakat kompakt disk, qaysi biri pishloq ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega?

b) qaysi mamlakat kompakt disk, qaysi mamlakat pishloq ishlab chiqarishda qiyosiy ustunlikka ega?

d) Yaponiya qanday mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgani ma'qul? Kanadachi?

6. Topqirlik mashqi. Katakchalarga mos ravishda iqtisodiy tushunchalarning harfini joylashtiring.


1) har bir mamlakat iqtisodiyoti jahon iqtidoliyotining bir qismiga aylanib, yagona tovar va xizmatlar, kapital, ish kuchi, intellektual bozor sifatida ifodalanishi;

2) chetdan qo'yilgan investitsiya evaziga olingan foydani chet elga olib ketilishi;

3) mehnat resurslarini chetdan, boshqa mamlakatlardan ko'chib kelishi;

4) eski pul birliklarini ma'lum nisbatda yangilari bilan almashtirish;

5) rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat taqsimoti chetdan kapital jalb qilishga qaratilgan bo'lishi va rivojlangan mamlakatlardan importga yo'l ochish kerakligini targ'ib qiluvchi nazariya.



T/N

1. V. Leontev o'zining «xarajatlar – natija (ishlab chiqarish)» modelida AQSH iqtisodiyotini tadqiq qilib, nisbatan ortiqcha kapital omiliga ega bo'lgan bu mamlakat kapital sig'imi yuqori tovarlarni import qilishi, mehnat sig'imi yuqori tovarlarni eksport qilishini ko'rsatib, «Xeksher-Olin» nazariyasini shubhaga qo'ygani – Leontev paradoksi deyiladi.

2. Eksportning importga nisbati to'lov balansi deyiladi.
3. Xeksher - Olin nazariyasiga ko'ra mamlakat ortiqcha omillardan samarali foydalanib, ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport qiladi. O'zida taqchil bo'lgan omillar sarflangan tovarlarni import qiladi.
4. Mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish xarajatlaridagi farq:
 - a) turli tovarlar yaratish uchun ishlab chiqarish omillarining turlicha nisbatda birlashuvi;
 - b) ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanish darajasining turlicha bo'lishi oqibatida kelib chiqadi.
5. M. Porter xalqaro savdoni mamlakatlar o'rtasidagi raqobatchilik nuqtayi nazaridan o'rganib chiqib, mamlakatning raqobatdagi ustunligi u yuritayotgan iqtisodiy siyosatga bog'liq, degan xulosaga keldi.
6. Proteksionizm bu – milliy iqtisodiyotni himoya qilish maqsadida erkin savdoni cheklash, ya'ni tashqi savdo hajmini tarifli va tarifsiz to'siqlar orqali tartibga solish.
7. Agar milliy valuta kursi pasaysa, import qiluvchilar manfaatiga salbiy ta'sir qiladi.
8. Agar milliy valuta kursi ko'tarilsa, uning eksport faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi.
9. MDH mamlakatlaridan birining fuqarosi barcha mulkini sotib, pulini dollarga aylantirib, Kanadaga o'tkazdi, so'ngra oilasi bilan u yerga doimo yashash uchun ko'chib ketdi. Bu kapital va ishchi kuchi emigratsiyasi bo'ladi.
10. O'zbekiston aholisi birjada chet el kompaniyalarining aksiyalarini sotib olishdi. Bu mamlakat korxonalariga portfel investitsiya bo'ladi.
11. Biznesmen o'z mamlakatidagi siyosiy beqarorlikdan, kapitalidan ajrab qolish xavfidan cho'chib, pullarini bank foizi, soliqlar, valuta barqarorligi ta'minlangan mamlakatga ko'chirdi. Bu mamlakatdan kapitalning qochishiga misol.

TEST SAVOLLARI

1. Importga ta'rifli cheklovlarga qaraganda, importga kvota jamiyat uchun katta yo'qotishlarga sabab bo'ladi, chunki:

A) import qilinayotgan tovar narxi jahon narxlariga nisbatan ko'tariladi.

V) mamlakatning o'zida ishlab chiqarilayotgan shunday tovarga bozorda monopol hukmronlik o'rnatilib, importning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi;

S) shu tovarga aholining to'lov qobiliyatini susaytiradi, import miqdori qisqaradi;

D) tovarlarni import qilishda kelishmovchiliklarni bartaraf qiladi;

E) jamiyat uchun zarur tovarlarni sotib olish cheklanadi.

2. Quyidagilar ta'rifsiz savdo cheklashlarini xarakterlaydi, ... dan tashqari.

A) Bolgariyadan keltiriladigan oziq-ovqat mahsulotlariga (parranda go'shtiga) qattiq sanitar normalar belgilash;

V) Marokashdan keltirilayotgan bananga import kvotasi belgilash;

S) AQSH dan keltirilayotgan sigaretalarga import poshlinalarini ko'tarish;

D) chetdan po'lat olayotgan korxonalarni, davlat nisbatan qimmat, lekin mamlakatning o'zida ishlab chiqarilayotgan shunday mahsulotdan ma'lum miqdorda olishga majbur qilishi;

E) alkogolli ichimliklarga davlat monopoliyasi o'rnatilishi.

3. Tashqi savdo aylanmasi bu –

A) eksport hajmi;

V) import hajmi;

S) eksport va importning aylanmasi;

D) reeksport hajmi;

E) reimport hajmi.

4. Agar so'mning real almashuv kursi ko'tarilsa, u holda:

A) import tovarlarini sotib oluvchilar kamayadi;

V) O'zbekiston sof eksporti ko'payadi;

S) joriy operatsiyalar taqchilligi kamayadi;

D) O'zbekiston fuqarolari uchun import arzonlashadi;

E) savdo aylanmasi o'zgarmaydi.

5. Agar ochiq iqtisodiyotga mamlakatda daromad solig'i ko'tarilsa, u holda bu mamlakatda:

A) investitsiyalar ko'payadi;

V) eksport ortadi;

S) milliy valutaning almashuv kursi ko'tariladi;

D) iste'mol o'sadi;

E) eksport kamayadi.

6. Aytaylik televizor AQSH da 500 dollarga, O'zbekistonda 800 ming so'mga sotiladi. Valutalarning videotexnikaga nisbatan real xarid quvvati nisbati qanday bo'ladi?

A) 1: 1600; V) 1: 2000; S) 1: 2400; D) 1: 800; E) 1: 1000.

7. Xarid quvvati (qobiliyati) pariteti:

A) tovarlarning chegaradan erkin o'tishi;
V) inflatsiyaning yo'qligi;
S) valutalarning nominal almashuv kursi qayd qilinishi;
D) valuta almashuv kursining moslashuvchanligi;
E) turli valutilarga sotib olish mumkin bo'lgan tovar miqdorini bildiradi.

8. Makroiqtisodiy nazariyada «sterilizatsiya» bu –

A) milliy pul birligining denominatsiyasi;
V) to'lov balansining taqchilligini yo'qotish;
S) MB rezervlari ortiqcha yoki taqchilligining mamlakat pul massasiga ta'sirini ochiq bozordagi operatsiyalar orqali neytrallash;
D) to'lov balansining aktivligini ta'minlash;
E) hukumatni yangilash.

9. Jahon bozorida narxlarning tashkil topishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

A) baynalmilal xarajatlar darajasi;
V) tovarlarning jahon andozalariga javob berishi;
S) jahon bozoridagi talab va taklif nisbati;
D) raqobat darajasi;
E) yuqoridagi barcha omillar.

10. SDR – xalqaro hisob-kitob birligida qaysi mamlakat valutasining mavqei yuqori bo'ladi?

A) AQSH dollari;
V) Yaponiya ienasi;
S) Nemis markasi;
D) Angliya funt-sterlingi;
E) Fransuz markasi.

11. Amerika dollarining real almashuv kursi oshib borsa:

A) amerika fuqarolari uchun import tovarlar arzonroq bo'ladi;
V) amerika sof eksporti qisqaradi;
S) joriy operatsiyalar balansi taqchilligi oshib boradi;
D) ichki narxlar o'sadi;
E) yuqoridagi javoblarning hammasi to'g'ri.

12. Savdo balansi qachon aktiv bo‘ladi?

- A) eksport=import;
- V) budjet daromadlari=budjet xarajatlari;
- S) eksport<import;
- D) eksport>import;
- E) yuqoridagi barcha hollarda.

13. To‘lov balansida nima aks etmaydi?

- A) joriy hisoblar;
- V) joriy va kapital hisoblar;
- S) kapital hisoblar;
- D) pul massasining o‘zgarishi;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

14. Xalqaro savdo aylanmasi nima?

- A) import hissasining ortishi;
- V) eksport hissasining ortishi;
- S) eksport va import nisbati;
- D) eksport va importdagi farq;
- E) eksport va import hajmi.

15. Import tovarlarga soliq solishdan maqsad nima?

- A) importni rag‘batlantirish;
- V) eksportni rag‘batlantirish;
- S) ichki bozor narxlarini oshirish;
- D) milliy iqtisodni import tovarlardan himoya qilish;
- E) yuqoridagilarning barchasi.

16. Quyidagilarning qaysi biri korxonaning erkin savdo yo‘lidagi ta’rifsiz to‘siqlar hisoblanadi?

- A) boj to‘lovlari va import kvotalari;
- V) litsenziyalash tizimi;
- S) mahsulotlari sifatiga standartlar qo‘yish;
- D) A) va V) to‘g‘ri;
- E) V) va S) to‘g‘ri.

17. Jahon valuta tizimi o‘zining rivojida nechta bosqichdan o‘tadi?

- A) 2ta; V) 3ta; S) 4ta; D) 3ta; E) 6ta.

18. Xalqaro valuta munosabatlarida «suzib yuruvchi» valuta tizimi qaysi davrlarda amal qilgan?

- A) XVIII asr oxiridan ikkinchi jahon urushigacha;
- V) ikkinchi jahon urushidan 1970-yillar boshigacha;
- S) 1970-yillardan hozirgi davrgacha;

- D) yuqoridagi barcha davrlarda;
E) hech bir davrda amal qilmagan.

19. Valuta kurslarining o'zgarishiga qanday omil ta'sir ko'rsatadi?

- A) mamlakatlar milliy daromadining o'zgarishi;
V) xalqaro narxlardagi nisbiy o'zgarishlar;
S) milliy valutilarga talab va taklifning o'zgarishi;
D) nisbiy real foiz stavkalarining o'zgarishi;
E) yuqoridagi barcha omillar.

20. Davlatning xorijiy sarmoyalarni jalb etishga qaratilgan tadbirlaridan qaysi biri istiqbolda «ijobiy» to'lov balansiga ega bo'lishni ta'minlaydi?

- A) tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
V) respublikaga bevosita kapital mablag'larini jalb etishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni takomillashtirish;
S) xorijiy sarmoyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;
D) mablag'larni import o'rnini bosuvchi va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga jamlash;
E) yuqoridagi barcha tadbirlar.

Tashqi savdo (mln. AQSH doll.)

13.3-jadval

	Yillar		O'sish sur'ati %da	Yillar		O'sish sur'ati %da
	2007	2008		2011	2012	
Tashqi savdo aylanmasi	15719,6	21197,3		26365,9	26416,1	
Eksport	8991,5	11493,3		15021,3	13599,6	
Import	6728,1	9704,0		11344,6	12816,5	
Saldo (+,-)	2263,4	1789,3		3676,7	783,1	

Jadval ma'lumotlari asosida tashqi savdo ko'rsatkichlarining o'sish sur'atini hisoblang. Raqamlarni taqqoslang. 2008 yili jahonda iqtisodiy krizis ro'y berishiga qaramay O'zbekistonda tashqi savdoda aksincha o'sish yuz berdi? bunga sabab nima deb o'ylaysiz? Izohlang.

O‘zbekistonning savdo balansi dinamikasi (mln. doll.)

13.4-jadval

Yillar	Eksport	Import	Savdo balansi
1995	3719,9	2892,7	827,2
1996	4590,2	4721,1	-130,9
1997	4387,5	4523,0	-135,5
1998	3528,2	3288,7	239,5
1999	3235,8	3110,7	125,1
2000	3264,7	2947,4	317,3
2005	5408,8	4091,3	1317,5
2007	8991,5	6728,1	2263,4
2008	11771,3	9438,3	2333,0
2010	13023,4	9175,8	3847,6
2011	15021,3	11344,6	3676,7
2012	13599,6	12816,5	783,1

Jadvalni keyingi yil ma’lumotlari bilan to‘ldiring va har ikki savdo balansini hisoblang. Ma’lumotlarni tahlil qiling. Eksport va importning saldosi qanday baholash mumkin? O‘z fikrlaringizni bayon qiling.

O‘zbekiston eksportining tovar tarkibi dinamikasi (%da)

13.5-jadval

Yil-lar	Paxta tolas	Oziq-ovqat mahsulotlari.	Kimyo sanoati Plastmassa va undan tayyorlangan buyumlar	Energetika va yoqilg‘i mahsulotlari	Rangli va qora metallar	Mashina va uskunalar	Xizmatlar	Boshqa tovarlar	Jami (%)	Jami (mln. doll.)
1995	48,4	1,7	2,5	11,7	4,7	2,0	7,7	21,3	100,0	3719,9
1996	38,1	4,5	2,4	6,0	3,5	2,8	8,3	34,4	100,0	4590,2
1997	36,0	3,7	1,7	12,0	4,6	6,3	27,4	8,3	100,0	4387,5
1998	38,6	3,2	1,5	7,9	5,1	4,2	30,8	8,7	100,0	3528,2
1999	27,3	6,4	3,1	11,5	4,3	3,2	34,7	9,5	100,0	3235,8
2000	27,5	5,4	2,9	10,3	6,6	3,4	13,7	30,2	100,0	3264,7
2005	19,1	3,8	5,3	11,5	9,2	8,4	12,2	30,5	100,0	5408,8
2007	12,5	8,5	6,8	20,2	11,5	10,4	10,7	19,4	100,0	991,5
2008	9,2	4,4	5,6	25,2	7,0	7,5	10,4	30,7	100,0	11493,3
2010	12,1	9,7	5,1	22,8	6,9	5,5	10,2	27,7	100	13023,4
2012	9,3	6,4	5,6	34,6	7,8	6,5	17,3	12,5	100	13599,6

Jadvalni keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring. Raqamlardan qanday xulosalar chiqarish mumkin? Eksport tarkibini bunday o'zgarishi nimadan dalolat beradi? Uni mamlakatimiz uchun ijobiy xarakterga ega deb hisoblaysizmi? Bayon qiling.

O'zbekiston importining tovar tarkibi dinamikasi (%da)

13.6-jadval

Yillar	Oziq-ovqat	Kimyo sanoati mahsulotlari. Plastmassa va undan tayyorlangan buyumlar	Energetika va yoqilg'i mahsulotlari	Rangli va qora metallar	Mashina va uskunalar	Xizmatlar	Boshqa tovarlar	Jami (%)	Jami (mln. doll.)
1995	18,2	9,3	1,9	5,7	47,9	5,0	12,0	100,0	2892,7
1996	29,5	12,5	1,1	6,7	35,8	0,2	14,2	100,0	4721,1
1997	19,3	12,5	0,6	7,5	45,9	7,5	6,7	100,0	4523,0
1998	15,6	12,4	0,5	9,2	47,2	5,0	10,1	100,0	3288,7
1999	13,1	11,7	2,1	7,9	44,8	8,7	11,7	100,0	3110,7
2000	12,3	13,6	3,8	8,6	35,4	8,5	17,8	100,0	2947,4
2005	7,0	13,6	2,5	10,3	43,3	10,4	12,9	100,0	4091,3
2007	7,2	13,1	3,5	7,5	49,6	5,8	13,3	100,0	6728,1
2008	8,1	13,0	2,1	6,8	53,3	5,7	11,0	100,0	7504,1
2010	10,5	13,8	7,1	8,1	44,0	5,3	11,2	100,0	9175,8
2012	10,9	13,7	6,6	7,2	45,9	5,8	9,9	100,0	12816,5

Jadval raqamlariga diqqat qiling, uni keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring. Sizningcha, import tarkibining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qilgan? Import tarkibini bunday o'zgarishiga sabab nima deb o'ylaysiz? fikringizni izohlang.

Tashqi qarz bo'yicha mamlakatlar reytingi¹

13.7-jadval

2011-yildagi o'rni	Mamlakat	2011yildagi tashqi qarz hajmi, mlrd. doll.	Yil davomidagi o'zgarish	YaIMga nisbatan foizda
1.	AQSh	15033	8%	100
2.	Buyuk Britaniya	9836	10%	407
3.	Fransiya	5633	20%	203
4.	Germaniya	5624	19%	157
5.	Yaponiya	2719	11%	46
6.	Italiya	2684	21%	122
7.	Niderlandiya	2655	12%	316
8.	Ispaniya	2570	19%	172
9.	Irlandiya	2352	3%	1081
10.	Belgiya	1399	13%	272
11.	Avstraliya	1377	9%	93
12.	Shveytsariya	1346	12%	212
13.	Kanada	1181	17%	68
14.	Shvetsiya	1016	19%	189
15.	Gonkong	903	20%	371
23.	Rossiya	519,4	6%	28
	O'zbekiston	8,1		17

Jadval raqamlariga diqqat qiling. Tashqi qarz hajmi bo'yicha mamlakatlar orasida birinchi o'rinda 1,5 trillion dollardan ortiq qarzi bilan AQSh turibdi. O'zbekistonnig tashqi qarzini boshqa mamlakatlar bilan taqqoslang. Jadval ma'lumotlaridan qanday xulosa chiqarish mumkin? Tashqi qarz deganda qanday qarzni tushunamiz? Mamlakat iqtisodiyoti uchun tashqi qarzning YaIMga nisbatan qay darajada bo'lishi xavfsizlikni ta'minlaydi? Fikringizni bildiring.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1j); 2d); 3e); 4b); 5g); 6a); 7v); 8i); 9yo); 10z); 11y); 12l; 13k);

¹ Рейтинг стран по объему внешнего долга //http// www.vestifinance.aiarticles//11572

Masala va mashqlar

1. a) Qozog‘istonda xarajatlar nisbati: $80/100 = 0,8$ ya’ni O‘zbekistonda poyabzalning nisbiy bahosi 0,8 mln. juft poyabzal = 1 ming dona muzlatgichga.

O‘zbekistonda $50/100$, ya’ni 0,8 teng emas 0,5; Demak, mamlakatlar o‘rtasida savdo olib borish har ikkisi uchun ham foydali.

b) savdo munosabatlarini o‘rnatguncha O‘zbekistonda iste’mol tarkibi 40 mln. juft poyabzal : 50 mln. dona muzlatgich = 0,8 mln. juft poyabzal /1 ming muzlatgich. Qozog‘istonda 20 mln. juft poyabzal/ 60 ming muzlatgich = 0,333 juft poyabzal /1 ming muzlatgich.

Savdo munosabatlari o‘rnatilgach:

- O‘zbekistonda 0 muzlatgich, 80 mln. juft poyabzal;
- Qozog‘istonda 100 mln. muzlatgich, 0 juft poyabzal;
- O‘zbekistonda poyabzal iste’moli: $80 - 30 = 50$ (mln. juft);
- Qozog‘istonda poyabzal iste’moli: $0+30 = 30$ mln.
- O‘zbekistonda muzlatgich iste’moli $0+30/0,6 = 50$ mln. juft poyabzal;

- Qozog‘istonda muzlatgich iste’moli $100-50 = 50$ (mln. juft poyabzal);

1) O‘zbekistonda iste’mol tarkibi 50 mln. juft poyabzal / 50 ming muzlatgich = 1 mln. juft poyabzal ming dona muzlatgich;

2) Qozog‘istonda iste’mol tarkibi – 30 mln oyoq kiyimi / 50 ming muzlatgich – 0,6 mln. juft poyabzal, ming dona muzlatgich.

O‘zbekiston va Qozog‘istonda muzlatgich va poyabzal iste’moli

Tovar	Savdo munosabatlari o‘rnatguncha		Savdo munosabatlari o‘rnatilgach	
	O‘zbekiston	Qozog‘iston	O‘zbekiston	Qozog‘iston
Muzlatgich ming dona	50	60	50	50
Poyabzal (mln.juft)	40	20	50	30

2. $20\% - 1/5 * 10\% : 1 - 1/5 = 22,5\%$; Javob: 22,5%.

3. a) A tovarining muvozanatli narxi 3,6 ming so‘m, importga ruxsat berilgach $P = 3$ ming so‘m;

b) $Q_d = 11$ ming dona;

d) mamlakatdagi ishlab chiqarish $Q_s = 8$ ming dona;

e) import miqdori 3 ming dona kvota v_1 3,5 ming soʻmdan oshmasligi talabi rol oʻynamaydi, chunki taklif 3 ming dona;

f) boj toʻlovlari sharoitida budjetga $3000 \times 1000 = 3000\ 000$ soʻm tushadi.

4. a) firmaning daromadi AQSH depozitlari boʻyicha $(200\ 000 \times 0,05) = 8000$ dollar yoki $80\ 000 \times 1100 = 8800\ 000$ soʻm;

b) Oʻzbekiston soʻmida $(200\ 000 \times 1100) = 220\ 000\ 000$ soʻm;

220 mln. soʻm $\times 0,06 = 1\ 320$ mln. soʻm; d) har qanday kursda Oʻzbekistonda saqlagan maʼqul.

5. a) kompakt disk uchun bir xil. Pishloq ishlab chiqarishda Kanada mutlaq ustunlikka ega $12/4$;

b) kompakt disk ishlab chiqarishda $8/4$ $8/12$ Yaponiya qiyosiy ustunlikka ega. Kanada esa pishloq ishlab chiqarishda $4/8:12/8$ $1/2$ $3/2$;

d) Yaponiya kompakt disk, Kanada pishloq ishlab chiqargani maʼqul.

6. Topqirlik mashqi:

1) globalizatsiya; 2) repatriatsiya; 3) immigratsiya; 4) denominatsiya; 5) modernizatsiya.

T/N

1T; 2N; 3T; 4T; 5N; 6T; 7T; 8N; 9T; 10N; 11T.

Testlar:

1V); 2S); 3S); 4D); 5V); 6A); 7E); 8V); 9E); 10A); 11A); 12D) 13D) 14D); 15D); 16S); 17V); 18S); 19E); 20D).

ASOSIY TUSHUNCHALARNING IZOHLI LUG‘ATI (GLOSSARIY)

Absolyut renta – mutlaq cheklangan resurs – yerdan foydalan-ganlik uchun uning egasiga to‘lanadigan haq.

Avtonom yoki rejalashtirilgan investitsiyalar – yillik potensial daromadning har qanday darajasida ham ishlab chiqaruvchilar amalga oshirishni ko‘zlagan investitsiyalar.

Avtonom iste’mol xarajatlari – iste’mol xarajatlarining hajmi va dinamikasi shaxs ixtiyoridagi daromad hajmiga bog‘liq bo‘lmagan, zaruriyat tufayli sarflanadigan qismi.

Avtonom yalpi xarajatlar – mamlakat miqyosida ma’lum bir vaqt – yil mobaynida hajmi va dinamikasi yaratilgan milliy daromadga bog‘liq bo‘lmagan, zaruriyatdan qilinadigan xarajatlar.

Agrar munosabatlar – yerga egalik qilish va undan foydalanish xususiyatlariga ko‘ra tarkib topgan iqtisodiy munosabatlar.

Agregatlashtirish – turli ko‘rsatkichlarni qo‘shish, yiriklashtirish asosida umumiy ko‘rsatkichga keltirish. Turli narxlarni umumiy narx darajasiga keltirish, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni YaIM (YaMM) tarzida ifodalash.

Ayirboshlash – ma’lum miqdordagi ne‘matlarni bir subyektdan boshqa subyekt ixtiyoriga o‘tish jarayoni.

Aktiv kapital – asosiy kapitalning ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashadigan qismi; odatda mashina, mexanizmlar, asbob-uskuna kabilar kiritiladi.

Aksiya – hissadorlik(aksionerlik) jamiyati sarmoyasiga qo‘yilgan ulushga guvohlik qiluvchi, uning egasiga ulushiga muvofiq foydaning ma’lum bir qismini olish va shu jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini beradigan qimmatbaho qog‘oz.

Amortizatsiya – asosiy kapitalning mahsulotga ko‘chgan, xarajat-larda ifodalangan qismi.

An’anaviy iqtisod – cheklangan resurslardan foydalanish tartibi an’ana va urf-odatlar, udumlar asosida belgilanadigan iqtisod.

Aralash iqtisodiyot – mulkchilikning turli-tumanligi, ularning huquqiy tengligi, aralash tartibda boshqariladigan, iqtisodiyotni tartibga

solishda ma'lum chegarada davlatning aralashuvini taqozo qiladigan iqtisod.

Asosiy kapital – kapitalning ko'p yil xizmat qilib, bir necha ishlab chiqarish sikli (doiraviy aylanish)da qatnashib, qiymatini ishlab chiqarilayotgan tovar (xizmat)ga asta-sekinlik bilan o'tkazadigan, ishlab chiqarish jarayonida o'z jismoniy xossasini o'zgartirmaydigan qismi.

Axborot asimmetriyasi – bozorda qatnashuvchi subyektlarning axborot olishdagi teng imkoniyatining buzilishi, shu axborotdan manfa'atdor ayrim subyektlarning boshqalarga nisbatan ustun mavqega ega bo'lishlari.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish – jamiyat taraqqiyoti, munosib turmush darajasini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmyasi.

Aholining umumiy daromadi – ma'lum bir vaqt davomida pul va natura shaklida olingan daromad.

Aholining turmush darajasi - asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish, hayot farovonligini ko'rsatadi. U qat'iyat ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Bazis yili – indekslar, foizlarni hisoblaganda boshqa yillar iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan taqqoslash uchun asos qilib, ajratib olinadigan yil.

Banklarning umumiy kapitali – banklarning o'z faoliyatini (bank operatsiyalarini) amalga oshirish uchun mo'ljallangan moliyaviy resurslar bo'lib, u banklarning o'z kapitali bilan birga turli manbalar orqali jalb etilgan pul kapitalidan iborat. Bunda jalb etilgan kapital bankning o'z kapitalidan bir necha barobar ko'p bo'lishi mumkin.

Barter – bir mahsulotni ma'lum bir miqdoriy nisbatda boshqa mahsulotga ayirboshlash.

Biznes – tadbirkorlik qobiliyatini ishga solish, faoliyatga aylantirishning tashkiliy shakli (yakka xususiy tadbirkorlik, kichik, o'rta, yirik).

Biznesning tashkiliy shakli – mulkiy maqomi, tashkiliy-huquqiy asoslari, xo'jalik yuritish, boshqarish uslublariga ko'ra faoliyat yuritishning namoyon bo'lishi (xususiy, sherikchilik, korporatsiya).

Bir-birini to'ldiruvchi tovarlar – tovarlar juftligida biriga narxining o'sishi, ikkinchisiga talabning kamayishiga olib keladigan tovarlar

Bitimlar uchun pulga talab – pulni muomala vositasi sifatida ishlatish uchun zarur pul miqdori. Nominal YaMM hajmiga to'g'ri proporsional.

Bozor – sotuvchi va xaridorning tovarlarini pul vositasida ayirboshlash yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar, aloqalar, ana shu aloqalarni ma'lum tartibot asosida amalga oshiriladigan tizim.

Bozor (aralash) iqtisodiyoti – turli-tuman mulkchilik va iqtisodiy faoliyat erkinligiga, aralash tarzda tartibga solishga asoslangan, har bir insonning o'z faoliyat natijasini o'ylab, oqilona xo'jalik yuritishga undovchi demokratik iqtisodiyot.

Bozor iqtisodiyoti belgilari – bozor iqtisodiyotining boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardan farqlanishiga sabab bo'luvchi xususiyatlari.

Bozor iqtisodiyoti obyekti – munosabatlar va aloqalar nimaga qaratilganligini, nimaga nisbatan yuz berishini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyotining obyekti tovar(xizmat) va pul(pul massasi)dir.

Bozor iqtisodiyoti subyektlari – munosabatlar, aloqalar kimlar o'rtasida yuz berishini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti subyektlari uy xo'jaligi, firma (korxona), davlat va boshqalar.

Bozor infrastrukturasi – turli-tuman bozor subyektlari o'rtasida ayirboshlashning me'yorida amalga oshirilishini ta'minlaydigan soha.

Bozor muvozanati – talab va taklifning miqdor va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi.

Bozor segmenti – savdo-sotiqning shart-sharoitlarini ma'lum belgi, alomatlari, mezonlariga qarab bo'g'inlarga ajratish.

Bozor tuzilishi – har xil mezonlar asosida bozor tarkibini turkumlash.

Bozor hajmi – bozordagi tovar aylanmasi hajmi bilan aniqlanadi.

Bozorning to'yinish darajasi – bozorning talabni qondirish darajasini ko'rsatadi.

Boylik samarasi – narxlarning o‘sishi yoki kamayishi tufayli moliyaviy aktivlar real qiymatlarining o‘zgarishi oqibatida xarajatlarning umumiy hajmi o‘zgarishi.

Valuta – mamlakatning milliy pul birligi, shu mamlakatning milliy boyligi bilan ta’minlangan.

Valuta kursi – milliy valutaning chet el valutasiga birligida ifodalanishi.

Valutaning konvertatsiyalanishi – mamlakat valutasini (milliy pul birligining) chet el valutasiga almashtirilishini tashkil etuvchi operatsiyalar.

Gerfindal indeksi – bozorda firmaning ulushini baholash imkonini beruvchi indeks.

Gipoteza – ishonchli nazariya bo‘lishi uchun tajribada sinash va nazariy jihatdan asoslab berish lozim bo‘lgan, muayyan hodisaning yuz berishi sabablarini izohlash uchun ilgari surilgan ilmiy taxmin.

Global muammolar – umumjahon xarakteriga ega, insonning hayoti, jamiyat taraqqiyotiga xavf soluvchi, o‘zaro bog‘liq, dunyo hamjamiyatining birgalikda kechiktirmay hal etishini talab qiladigan muammolar.

Globalizatsiya – har bir mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotining bir qismiga aylanib, yagona tovar va xizmatlar, kapital, ish kuchi, intellektual bozor sifatida ifodalanishi.

Davlat budjeti – davlatning o‘z vazifalarini bajarishini moliyaviy ta’minlash maqsadida pul mablag‘larini to‘plash (daromadlar) va sarflash (xarajatlar)ning balansi.

Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi – milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash, bozor bajara olmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirish.

Davlat sektori – mamlakat iqtisodiyotining davlat, hukumat tomonidan to‘la nazorat qilinadigan qismi.

Davlatning tashqi qarzi – davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan mamlakat majburiyatlarining yig‘indisi.

Daromad – ma’lum bir vaqt (yil) oralig‘i(yil)da YaIMning omillar ulushiga ko‘ra taqsimlanishi natijasida olingan, shaxsiy iste’mol va turli

ne'matlar (tovar va xizmatlar) sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'lari summasi.

Daromadlarning funksional taqsimlanishi – jamiyatning pul daromadini, qanday omil ulushi evaziga olingani va bajaradigan funksiyalari asosida taqsimlanishi: ish haqi, renta, foiz, foyda.

Daromadni shaxsiy (vertikal) taqsimlanishi – jamiyatning pul daromadini alohida oilalar, shaxslar o'rtasida taqsimlanishi.

Dastlabki bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan shakllana boshlagan, oddiy tovar ishlab chiqarish hukmron iqtisodiyot.

Deduksiya – nazariyadan amaliyotga, umumiy xulosadan xususiy xulosa chiqarishga, ilgari surilgan gipotezani real iqtisodiy dalillar yordamida tekshirishga, tadqiq qilishga asoslangan usul.

Demping – boshqa mamlakatlarda tovarlarni tannarxidan (sarflangan o'rtacha xarajatlardan) past narxda sotish.

Depressiya – siklning ishlab chiqarish hajmi, bandlikni uzoq vaqt tushkunlikda bo'lishi fazasi.

Deformatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti – davlatning mulk monopoliyasi, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan, markazdan rejalashtiriladigan iqtisod.

Diversifikatsiya – qo'shilgan qiymatning o'sish dinamikasini (mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishni barqaror o'sishini) ta'minlash maqsadida bir tarmoq, soha o'z kapitalini boshqa tarmoq, cohalarga yo'naltirishi. Bunda mahsulot assortimenti, xizmat turlarini ko'paytirish orqali iqtisodiy krizislarga dosh berish ham ta'minlanadi, modernizatsiya va tarkibiy o'zgarishlar bilan uyg'unlashib ketadi. Masalan, oziq-ovqat sanoatiga tegishli korxona o'z kapitalini agrar sektorga yoki, aksincha, agrar sektordan fermer o'z kapitalini qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga qo'yishi mumkin.

Dinamik iqtisodiy muvozanat – o'zgaruvchanlikka asoslangan, barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan muvozanat.

Differensial renta I – yer uchastkalarining tabiiy unumdorligi va iste'molchilarga nisbatan joylanishidagi farq tufayli vujudga keladigan qo'shimcha daromad.

Differensial renta II – yerga qo‘shimcha sarflangan kapital va uning natijasidagi farq evaziga vujudga keladigan qo‘shimcha daromad.

Doimiy xarajatlar – ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar.

Yer rentasi – yerdan foydalanganlik uchun uning egasiga to‘lanadigan haq. U tarixan ishlab berish – barshchina, mahsulot bilan to‘lash – obrok va pul bilan to‘lash shaklida amal qilgan.

Jamg‘arishga o‘rtacha moyillik – yil davomida shaxs ixtiyoridagi daromadning jamg‘armaga yo‘naltirilgan qismi. Jamg‘armani daromadga nisbati tarzida hisoblanadi.

Jamg‘arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli – muvozanatli sof milliy mahsulotni jamg‘arma bilan investitsiyalarni tenglashtirish orqali aniqlash usuli.

Jamg‘arma funksiyasi – jamg‘arma hajmi bilan (boshqa sharoitlar teng bo‘lgan holda) shaxs ixtiyoridagi daromad o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi.

Jamiyatning sof yo‘qotishlari – (monopoliyalarning ijtimoiy bahosi) – taklif miqdorini kamaytirish uchun monopoliyalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmini samarali darajadan kamaytirish natijasida iste‘molchi va sotuvchilar uchun ma‘lum miqdorda mahsulotning yo‘qotilishi, ishlab chiqarishning kamayishi.

Jamoa bitimi – ishchi-xizmatchilar jamoasi bilan firmalar o‘rtasida tuzilgan shartnoma.

Jahon bozori – mehnat taqsimoti orqali bir-biriga bog‘langan turli mamlakatlar o‘rtasida barqaror ayirboshlash aloqalari va ularni ma‘lum tartiblar asosida amalga oshiriladigan joy. O‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra milliy bozordan farq qiladi.

Jahon xo‘jaligi – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat’i nazar, iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan bog‘langan milliy xo‘jaliklar majmui.

Jahon xo‘jaligining globallashuvi – jahon xo‘jaligining yagona tovar va xizmatlar, kapital, ish kuchi va intellektual bozori, mamlakat milliy iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotining bir qismi sifatida namoyon bo‘lishi.

Jini koeffitsiyenti – jamiyatning notenglik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Jonlanish – siklning ishlab chiqarish va bandlikni inqiroz darajasiga qadar yetish davri.

Ideal iqtisodiy muvozanat – nazariy jihatdan erishish mumkin bo‘lgan muvozanat.

Ierarxik boshqarishga asoslangan iqtisod – iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish, tartibga solishni yakka boshliq hokimligiga tayanadigan axborot olish, buyruq va topshiriqlar asosida olib boriladigan iqtisodiyot.

Ijara haqi – mulk (yer) egasiga mulkdan foydalanish huquqini ma’lum bir muddatga berib turgani uchun egasiga to‘lanadigan haq.

Ijtimoiy-iqtisodiy ukld – mamlakatning iqtisodiy sektorida ishlab chiqarish omillariga mulkchilikning biron-bir shakliga asoslangan, tartibga solish mexanizmiga muvofiq vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar, xo‘jalik yuritish shakli.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim – jamiyatdagi turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlar, aloqalar, jarayonlarni bir butun holda, muayyan tarzda tarkib topishi va tartibga solinishini ifodalaydi.

Ijtimoiy siyosat – davlatning insonning samarali ijtimoiy himoyasini shakllantirish va kamol topishiga imkon yaratishga qaratilgan siyosati (chora-tadbirlar ko‘rishi).

Ijtimoiy to‘lovlar – kam ta’minlangan oilalarga pul yoki natura shaklida yordam berishga qaratilgan to‘lovlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar – jamiyatning hayot kechirishi, rivojlanishi uchun zarur iqtisodiy ne’matlar, ya’ni turli mahsulot va xizmatlar majmuiga bo‘lgan zaruriyat.

Izokvanta – bir xil hajmda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish omillarining turli variantlarda birlashuvini ifodalovchi nuqtalarning geometrik o‘rnini ko‘rsatuvchi egri chiziq.

Ilmiy abstraksiya – iqtisodiy hodisalarning eng barqaror bog‘lanishini olib, masalaning mohiyatiga putur yetkazmaydigan ikkin-

chi darajali dalillarni ajratib olib, ularni yo‘q deb faraz qilinishi yoki o‘zgarmaydi deb olib, tadqiq etilishi.

Import – chetdan mamlakatga olib kelingan tovarlar miqdori (qiymat o‘lchovida).

Import qilingan inflatsiya – mamlakatga chet el valutasining kirib kelishi, milliy valutani past kursi va import qilinayotgan tovarlar narxini o‘sishi.

Import samarasi – mamlakatning sof eksporti hajmining mamlakat ichida va chetdagi narx darajasi va ularning nisbatiga bog‘liqligi.

Induksiya – empirik bilimdan abstraksiyaga o‘tish, xususiy xulosadan umumiy xulosa chiqarish usuli.

Investitsiya – bu iqtisodiy samara (daromad, foyda) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari.

Investitsiya dasturi – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlanishiga erishishga qaratilgan, tabiiy, mineral xom ashyo, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslardan oqilona, samarali foydalanish asosida ayrim tarmoqlar va hududlarda tarkibiy o‘zgartirishlarning asosiy ustuvorliklari va strategik vazifalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan chora-tadbirlar kompleksi.

Investitsion muhit – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, me’yoriy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui.

Investitsiya normasi – investitsiy q hajmining YaIMga nisbati.

Innovatsiya loyihalari – yangi texnologiyalar, nou-xau va korxonalarning rivojlanishini ta’minlab btruvchi boshqa yangiliklarni ishlab chiqush va qo‘llashni ko‘zda tutgan loyihalar.

Inson kamoloti indeksi – aholi farovonligi, jamiyatda insonning barkamolligi ta’minlanishini ifodalovchi ko‘rsatkich. Jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaMM, kutilayotgan yashash yoshi, ta’lim darajasi (25 yosh va undan kattalar) asosida hisoblanadi.

Inson kapitali – odamlar yillar davomida to‘plagan bilim, malaka, tajriba tarzida bo‘lib, uni egasidan ajratib bo‘lmaydi.

Institutsional ishsizlik – mehnat bozorining samarali tashkil etilmagani natijasida kelib chiqadigan ishsizlik.

Intensiv iqtisodiy o'sish – resurslarini tejab-tergab ishlatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga iqtisodiy o'sish.

Inflatsiya – muomalada pul taklifining talabga nisbatan haddan tashqari ko'payib ketishi oqibatida, pulning xarid quvvatini pasayishi, pulning obro'sizlanishi. U narx indeksining ko'tarilishida ifodalanadi.

Iste'mol – ishlab chiqarish natijalaridan foydalanish, ehtiyojni qondirish jarayoni;

Iste'molga o'rtacha moyillik – yil davomida shaxs ixtiyoridagi daromadning iste'molga sarflangan qismi. Iste'molning daromadga nisbati tarzida hisoblanadi.

Iste'mol funksiyasi – iste'mol xarajatlari bilan shaxs ixtiyoridagi daromad o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

Iste'molga me'yoriy moyillik – qo'shimcha birlik olingan shaxs ixtiyoridagi daromadning iste'molga sarflangan ulushi. Iste'moldagi o'zgarish (ΔS) ni, daromaddagi o'zgarishga (ΔDi) nisbati tarzida hisoblanadi. Jamg'arishga me'yoriy moyillik – qo'shimcha birlik olingan shaxs ixtiyoridagi daromadning jamg'armaga sarflangan ulushi. U jamg'arishdagi o'zgarish (ΔS) ning daromaddagi o'zgarish (ΔDi) ga nisbati tarzida hisoblanadi.

Ichki xarajatlar – ishlab chiqarish xarajatlari korxonaning o'z ixtiyoridagi resurslar qiymatining puldagi ifodasi.

Ish kuchi migratsiyasi – turli sabablarga ko'ra ishchi kuchining bir yerdan boshqa joyga ko'chishi.

Ish haqi – YaIMdagi mehnat omilining ulushi, bajarilgan ishga qarab to'lanadigan haq. Mehnat bozoridagi ish kuchiga talab va taklifning muvozanatiga bog'liq.

Ishlab chiqarish – insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ne'matlar yaratish jarayoni.

Ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi – mavjud iqtisodiy resurslardan to'la foydalanish evaziga eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i – mavjud resurslardan to'la foydalanish evaziga turli kombinatsiyalarda eng ko'p mahsulot ishlab chiqarishning grafikda ifodalanishi.

Ishlab chiqarish omillari nisbati (Xeksher-Olin) nazariyasi – xalqaro savdo yo‘nalishi ishlab chiqarish omillarining qiyosiy narxlariga nisbatan shakllanishini asoslovchi nazariya.

Ishlab chiqarish funksiyasi – ishlab chiqarish omillarining har qanday to‘plami bilan shu omillar yordamida eng yuqori imkoniyat darajasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalovchi funksiya.

Ishlab chiqarish hajmi va yalpi xarajatlarni taqqoslash metodi – ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini yalpi xarajatlar, milliy mahsulotga teng bo‘lgan real sof milliy mahsulot hajmini aniqlash orqali hisoblanadigan usul.

Ishsiz – mehnatga layoqatli bo‘lib, ish topa olmay mehnat bir-jalarida ro‘yxatda turgan kishilar.

Ishsizlik – ish kuchi taklifini unga bo‘lgan talabdan ortib ketishi tufayli iqtisodiy faol aholining ma’lum bir qismining ish topa olmasligi.

Ishchi kuchi – insonning jismoniy va aqliy qobiliyati bo‘lib, uni insondan ajratib bo‘lmaydi. Shu qobiliyatni ijobiy ishlatilishi mehnat jarayoni deb ataladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik nazariyasi – iqtisodiyot o‘zini-o‘zi bozor mexanizmi va bozor regulatorlari asosida tartibga soladi, ular yordamida mamlakat o‘z resurslarini to‘la ishga soladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishning monetar modeliga ko‘ra– (Keynschilik)da davlatning iqtisodiyotga aralashuvi eng kam darajada, muomaladagi pul miqdorini tartibga solish doirasida bo‘lishi zarur. Bu narx darajasi muomaladagi pul miqdoriga bog‘liq, degan fikrni ilgari suruvchi va monetar qoidaga asoslanuvchi konsepsiya.

Iqtisodiyotni tartibga solishning keynscha modeliga ko‘ra– bozor o‘z-o‘zicha iqtisodiyotni samarali tartibga sola olmaydi, resurs-lardan to‘la foydalanishni amalga oshira olmaydi. Shuning uchun bu davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi (soliq-budjet va pul-kredit siyosati) orqaligina qo‘yilgan maqsadga erishish mumkinligi to‘g‘risidagi konsepsiya.

Iqtisodiyotni tartiblashning bevosita usullari – Davlatning iqtisodiyotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuviga asoslangan vosita va dasturlar orqali tartibga solishi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – davlatning iqtisodiy faoliyatdagi hukmronligini, monopol mavqeini sindirib, iqtisodiyotni boshqarishda yagona davlat mexanizmi o‘rniga aralash iqtisodiyotga xos bo‘lgan bozor mexanizmiga keng yo‘l berish.

Iqtisodiyotning bosh muammosi – resurslar cheklanganligi sharoitida jamiyat a‘zolarining ehtiyojlarini qondirish muammosi.

Iqtisodiyotning real sektori = ishlab chiqarishning bevosita moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish va [izmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq tarmoq va sohalari bo‘lib, u o‘z ichiga sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa kabilarni oladi.

Iqtisodiyotni tartiblash – makroiqtisodiy nisbatlarning bir-biriga mos holda rivojlanib borishi, undagi turli bo‘g‘inlar faoliyatini bir-biriga bog‘liq holda muvozanatlashuviga erishish.

Iqtisodiy yoki zimmadagi xarajatlar – tanlangan resurslarni eng ma‘qul ishlatish, o‘zgalar ishlatishiga yo‘l qo‘ymay, ularni sotib olish uchun resurslar egasiga to‘langan haq.

Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotda o‘tkaziladigan, amalga oshiriladigan tub o‘zgartirishlar.

Iqtisodiy kategoriya – jamiyat iqtisodiy hayotining eng muhim tomonlarini ifodalovchi iqtisodiy voqelikning ilmiy ifodasi.

Iqtisodiy qonunlar – iqtisodiy hodisa, jarayonlar o‘rtasidagi muhim bog‘lanish, iqtisodiy zaruriyatni taqozo etuvchi, sabab-oqibat, sifat va miqdor bog‘lanishlari bo‘lib, individ va institutlarning xatti-harakati, tanlash sabablari va motivlarini umumlashtirgan holda xarakterlab berilishi.

Iqtisodiy muvozanat – iqtisodiy jarayonlarning mutanosib balanslashuvi.

Iqtisodiy resurslar – turli ehtiyojlarni qondiradigan ne‘matlar ishlab chiqarish uchun zarur barcha vositalar va mehnatga layoqatli kishilar.

Iqtisodiy samaradorlik – iqtisodiy xarajatlar evaziga erishilgan natija.

Iqtisodiy tanlov – odamlarning faoliyati cheklanganlik muammosiga duch kelishi tufayli muqobil variantlar orasidan eng yuqori naf keltiradigan yoki eng kam xarajat talab qiladigan variantlarni tanlash va qaror qabul qilish.

Iqtisodiy faoliyat – insonning ehtiyojini qondirish, ya'ni tirikchilik, hayot kechirishini ta'minlashning vosita va usullari majmui

Iqtisodiy o'sish – ma'lum bir vaqt (yil) mobaynida real yalpi ichki mahsulot (yoki YaMM), sof milliy mahsulotning hajmining ortib, sifat tarkibining o'zgarib borishi.

Iqtisodiy o'sish sur'ati – joriy yildagi yalpi ichki mahsulot (YaMM)ning o'tgan yilga yoki bazis yildagi YaIM nisbati orqali ifodalanuvchi ko'rsatkich.

Iqtisodiy o'sish modellari – ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi andozalar.

Iqtisodiy faol aholi – milliy xo'jalikda band bo'lgan barcha kishilar va ish qidirayotgan mehnatga layoqatli aholidan iborat.

Iqtisodiy fikrlash – xarajatlar va olinadigan natijani taqqoslash asosida ratsional qaror qabul qilish.

Iqtisodiy foyda – umumiy tushum bilan iqtisodiy xarajatlar o'rtasidagi farq.

Iqtisodiy sikl – iqtisodiyotda yuksalishning inqiroz bilan almashinib va uning takrorlanib turishi.

Inqiroz (tanglik, tushkunlik, burilish) – siklning qisqarishi yoki ishlab chiqarish hajmini, iqtisodiy o'sishining sur'atini pasayish fazasi.

Kam ta'minlangan oilalar – jon boshiga yashash minimumidan ortmaydigan, kam daromad oluvchi oilalar.

Konsolidatsion–yig'ma budjet – davlat budjeti va nobudjet fondlarining birgalikda atalishi.

Konsepsiya – qarashlar, fikr yuritish, dunyoni anglash usullari.

Kouz teoremasi (Couse teorem) – ijobiy yoki salbiy effekt ta'sirida kelib chiqadigan muammolarning ma'lum bir qismini davlat aralash-

may yechish mumkinligini e'tirof etuvchi konsepsiya. Unga muvofiq tashqi effektning ma'lum qismi-manfaatdor tomonlar o'rtasida ovoza qilinmaydigan «kishi bilmas» individual bitimlar orqali yechish mumkin bo'lgan muammolardir.

Kredit – iqtisodiy kategoriya, vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan mablag'larni boshqalar tomonidan ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar.

Kredit berish tamoyillari – kredit berishning qonun-qoidolari va bank tomonidan mijozlarga qo'yiladigan shartlarning nazariy mazmuni.

Kredit mexanizmi – iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ichiga kreditlash sharoitlari, usullari, kreditni boshqarish tartibini oladi.

Kredit emissiyasi (pul ekspansiyasi) – banklar tomonidan ssuda berish, yangi chek hisoblarini ochish, naqd pulsiz cheklar yordamida yoki boshqa yo'llar bilan mamlakatning pul massasini ko'paytirish.

Ko'p ukladli iqtisodiyot – turli mulk shakllari va har xil xo'jalik turlari yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

Laffer egri chizig'i – soliq stavkasi (0 dan 100% gacha) bilan budjetga tushadigan soliq tushumi o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi, soliq stavkasining qaysi miqdorida soliq tushumi eng yuqori darajada bo'lishini ko'rsatadi.

Lerner indeksi – monopoliya hukmronligi darajasini ko'rsatuvchi iqtisodiy ko'rsatkich.

Likvidlik darajasi – pul massasini naqd pulga aylantirish imkoniyati.

Lorens egri chizig'i – aholi daromadining tengsizligining grafik tasviri.

Majburiy zaxira – tijorat banklari depozitlarining qonun bo'yicha majburiy rezervlar normasiga muvofiq MB da saqlanadigan qismi.

Majburiy zaxira normasi – Markaziy bank (MB) tasarrufidagi banklar uchun belgilanadigan, lekin tijorat va maxsus banklarning mulki bo'lgan qismi. Bankning majburiy zaxirasi uning muddatsiz omonatlari bo'yicha majburiyatlariga nisbati tarzida belgilanadi.

Makroiqtisodiyot – nazariy iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga bir butun tizim sifatida yondashib, iqtisodiy siyosatning maqsadini shakllantiruvchi va uni ro‘yobga chiqarish uchun zarur chora-tadbirlar belgilashni tadqiq qiluvchi bo‘limi.

Makroiqtisodiy muvozanatning keynscha modeli – yalpi sarflar bilan narxlar o‘zgarish darajasidagi real YaIM o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni ifodalovchi model.

Makromoliya – jamiyat, umumdavlat miqyosidagi moliya.

Manfaatlar – odamlar ehtiyojining munosabatlar orqali ifodalanishi.

Mahallilashtirish – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi qism (buyum), materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali unga bo‘lgan ichki talabni qondirish va eksportni yo‘lga qo‘yish.

Megamoliya – xalqaro miqyosdagi davlatlararo moliyaviy munosabatlar bo‘lib, ular xalqaro moliya institutlari vositasida amal qiladi.

Mehnat resurslari – mehnatga layoqatli yoshdagi kishilar va ishlayotgan o‘smir va pensionerlarni tashkil etadi.

Mehnat – insonning (jismoniy va aqliy energiyasi) kuchi, energiyasini sarflab, jamiyat tomonidan tan olingan natijaga erishishga qaratilgan maqsadli faoliyatidir.

Mehnat jarayoni – kishilarning aqliy va jismoniy kuchi, energiyasini aniq maqsadni ko‘zlab yaratuvchilik, bunyodkorlik yo‘lida sarflash jarayoni.

Mehnat munosabatlari – mehnat omilidan foydalanish jarayonida yuzaga chiqadigan munosabatlar.

Me‘yoriy mahsulot – qo‘shimcha birlik har qanday o‘zgaruvchi omil evaziga yaratilgan umumiy mahsulot (TR) hajmining o‘zgarishi tushuniladi.

Me‘yoriy naflilik – qo‘shimcha iste‘mol qilingan mahsulotdan olinadigan qo‘shimcha naf, ya‘ni umumiy nafga qo‘shilgan nafni bildiradi.

Me‘yoriy unumdorlik(daromad)ni pasayish qonuni – bir omilning o‘zgarishi va qolganlari o‘zgarmagani holda ma‘lum chegaradan

so'ng har bir qo'shimcha sarflangan omil avvalgisiga nisbatan kamroq unum(daromad) olib kelishini ifodalaydi.

Me'yoriy xarajatlar – qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq umumiy xarajatlarning o'sishi. U quyidagicha hisoblanadi: $MS = TS_n - TS_{(n-1)}$

Mehnat birjasi – ishchi, xizmatchi va korxona, firma-tashkilotlar o'rtasida ish kuchini yollash bo'yicha kelishuvni amalga oshirishda muntazam vositachi vazifasini o'taydigan, mehnat bozorini tartibga solishda asosiy rol o'ynaydigan maxsus muassasa.

Mikroiqtisodiyot – nazariy iqtisodiyotning, iqtisodiy alohidalashgan birliklari (firma, korxona, uy xo'jaligi), alohida olingan bozor, aniq mahsulot narxlari, sotuvchi va xaridorlarning samarali tanlov tamoyillari shakllanishini o'rganuvchi bo'lim;

Mikromoliya – firma, korxona, tashkilot, muassasa, jamoat, uy xo'jaligi (xonadon) moliyasi

Mikrokredit – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar. Mikrokredit: a) yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati uchun – minimal (eng kam) ish haqining 50 barobarigacha, b) mikrofirma va dehqon xo'jaliklariga 100 barobarigacha, v) fermer xo'jaliklariga 200 barobarigacha beriladi.

Mikromoliyalash – mikromoliyaviy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning qonuniy hujjatlarida belgilangan miqdordan oshmaydigan miqdorda mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish hamda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq boshqa xizmatlar ko'satishi borasidagi faoliyatidir.

Milliy bozor – har bir mamlakatning milliy chegarasi doirasidagi bozori.

Milliy boylik (MHT metodikasi bo'yicha) – taraqqiyot asosi bo'lib, mamlakat ixtiyoridagi mehnat tufayli yaratilib jamg'arilgan moddiy ne'matlar, oltin, chet el valutalari, nomoddiy aktivlar va qadriyatlar, hisobga olingan va xo'jalik aylanmasiga jalb etilgan yer va tabiiy resurslardan iborat.

Milliy boylik (nazariy jihatdan) – muayyan jamiyatning asrlar osha, o‘z tarixi davomida to‘plagan iqtisodiy ne‘matlarining jamidir.

Milliy daromad – yil davomida jamiyatning sof «ishlab topgan daromadi»dir. Sof ichki mahsulotdan chet elda ishlab chiqarish omillari evaziga yaratilgan sof daromad va biznesga egri soliqlarni ayirib topiladi yoki SMMdan biznesga egri soliqlar chegirib tashlanadi.

Milliy iqtisod – mamlakat miqyosida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan, mehnat taqsimoti orqali o‘zaro bog‘liq bo‘g‘inlar, tarmoqlardan tashkil topgan murakkab xo‘jalik tizimi.

Milliy iqtisodiyotni mustaqilligini ta‘minlash – iqtisodiyotning chet elga qaram bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, buning uchun chora-tadbirlar belgilash, milliy manfaatlarni himoya qilish.

Milliy iqtisodiyotning baynalmilallashuvi – mamlakatlar o‘rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarning vujudga kelib, jahon xo‘jaligi aloqalarida qatnashuvi.

Milliy iqtisodiyotning tarkibi (tarmoq tuzilishi) – mamlakatda mavjud iqtisodiy resurslar va mehnat taqsimoti asosida shakllangan ishlab chiqarish va YaIMning tarkibi (tuzilishi).

Milliy hisob tizimi – iqtisodiyotdagi faoliyat natijalarini aniqlash usullari majmui bo‘lib, ikkiyoqlama yozuvga asoslangan, daromad, xarajatlar oqimini ifodalovchi jadvallar to‘plami. Mikromiqyosda buxgalteriya tizimi qanday rol o‘ynasa, makromiqyosda MHT shunday ahamiyatga ega.

Minimal istemol budjeti (iste‘mol savatchasi) – shaxsning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan he‘matlarga bo‘lgan ehtiyojlarining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta‘minlaydigan iste‘mol toavarlari va xizmatlarning qiymati.

Moddiy buyumlashgan boylik – mamlakatning asosiy, aylanma kapital, moddiy zaxiralar, aholining mol-mulki, tabiiy boyliklari, tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklarida ifodalangan boylik.

Moliya bozori – subyektlar o‘rtasida moliyaviy aktivlarni ayirboshlash, oldi-sotdi qilish borasida amalga oshiriladigan tartiblar.

Moliya institutlari – moliya munosabatlarini amalga oshiruvchi, tartibga soluvchi, moliya infratuzilmasini tashkil etuvchi turli muassasa va davlat tashkilotlari.

Moliya mexanizmi – moliyaviy munosabatlar (aloqalar), moliyaviy resurslarni uyushtirish va ishlatishni ta'minlovchi barcha vositalar majmui.

Moliya munosabatlari – pul mablag'lari fondlarini tashkil etish, taqsimlash va ishlatish natijasida ro'y beradigan munosabatlar. Ular YaMM, milliy boylikni taqsimlash, ishlatish jarayonida vujudga keladi.

Moliya tizimi – jamiyatdagi turli-tuman moliya munosabatlarining majmui va bu munosabatlarni tartibga soluvchi moliya mexanizmi va moliya institutlari yaxlitligidan iborat.

Moliyaviy resurslar – muayyan maqsadga qaratilgan pul fondlari.

Moliyaviy sarosimalik – mijozlarning omonatga qo'ygan pullarini so'ragan vaqtlarida olishga urinishlari, qarzdorlarda esa talab qilingan miqdorda pulning yo'qligi tufayli kelib chiqadigan vaziyat.

Moliyaviy siyosat – davlat iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etib, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun resurslarni to'g'ri tashkil etish va undan unumli foydalanish borasidagi strategik va taktik chora-tadbirlar belgilash va ularni amalga oshirish.

Moliyaning vazifalari – moliyaning mohiyatini o'zgartira olmaydi, lekin xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Ularga misol qilib: rag'batlantirish, ijtimoiy himoya, iqtisodiy axborot va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Moliyaning funksiyasi – moliyaning mohiyatini xo'jalik faoliyatida aniq ko'rinishi, uning tashqi ifodasidir. U taqsimlash va nazoratdan iborat.

Monetar qoida – monetarizm tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan. Unga ko'ra muomaladagi pul massasi yiliga real YaIM o'sishining potensial sur'ati darajasiga teng miqdorda o'sishi kerak. Pul massasi barqaror 3-5% o'sishi zarur.

Monetar siyosat – MB tomonidan mamlakatda to'la bandlik va milliy ishlab chiqarishning noinflatsion o'sish suratini ta'minlovchi pul taklifini o'zgartirish.

Monopol renta – o‘ta noyob mahsulot yetishtiriladigan yerlardan olinadigan renta.

Monopoliya – tarmoqda yagona, o‘rnini bosadigan, almashtirib bo‘lmaydigan mahsulot sotuvi (ishlab chiqarish).

Monopoliyaning maqsadi – narx ustidan nazorat o‘rnatish yoki ishlab chiqarish hajmini o‘zgartirish orqali maksimal darajada daromad, monopol foyda olish.

Monopsoniya – yagona iste’molchiga asoslangan bozor.

Monostrukturali iqtisod – bir mulk shakli hukmron bo‘lgan tizim.

Mulkni tasarruf etish – mulk bo‘lgan boylikning taqdirini mustaqil hal etish, ya’ni mulkdan kelajakda qanday maqsadda foydalanish, ishlatishni belgilash.

Mudofaaga asoslangan strategiya – raqiblari faoliyatini kuzatish asosida, ular erishgan natijadan foydalanib ish yuritish strategiyasi.

Mukammal raqobat – erkin raqobatga asoslangan, bozorga (tarmoqqa) kirish, cheklanmagan erkin mustaqil ishlab chiqaruvchilar bozorda narx ustidan nazorat o‘rnatish imkoni yo‘q bo‘lgan bozordagi ideal raqobat.

Mulk – qabul qilingan tartib asosida o‘zlashtiriladigan cheklangan ne’matlar.

Mulk huquqi – kishilar o‘rtasida ne’matlar va ulardan foydalanish natijasida vujudga keladigan munosabatlarning jamiyat tomonidan qabul qilingan qoidalari(qonunlar, an’analar, urf-odatlar, ma’muriy farmoyishlar).

Mulkdan foydalanish – mulkni ishlatib, ko‘zlangan maqsadga, natijaga erishish: daromad topish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish.

Mulkka egalik qilish – mulkdorlik huquqining mulk egasi qo‘lida saqlanib turishi, yaratilgan mahsulotni o‘zlashtirishning ijtimoiy shakli.

Mutlaq ustunlik (afzallik) – bir birlik tovar tovar ishlab chiqarish uchun boshqa mamlakatga qaraganda, kam mehnat, kam resurs sarflashda ifodalanadi.

Narx pariteti – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxi o‘zgarishining tarmoqda ishlatiladigan sanoat tovarlari va xizmatlari narxining

o'zgarishi bilan taqqoslanishi. Odatda, u paritet indeksi orqali ifodalanadi.

Narx – tovarlar va xizmatlarning nafliligini baholash vositasi bo'lib, unga to'lanadigan pul miqdorini ifodalaydi.

Narx bo'yicha rahnoma – oligopolistik bozordagi yetakchi firma, qaysiki uning narxni ko'tarishi yoki tushirishiga qarab, boshqalar unga ergashadi.

Narx mexanizmi – narxlarning tashkil topishi, ya'ni tovar, xizmatlarga to'lanadigan pul miqdorini belgilash qoidalari, usullarini o'z ichiga oladi.

Narx tashkil topishining bozor mexanizmi – bozor va uning aniq shaklidan qat'i nazar, talab va taklifning nisbati hamda raqobat asosida, ya'ni bozordagi vaziyatga ko'ra narxning shakllanishi.

Narx turlari – bozor iqtisodiyoti sharoitida bir-birini taqozo etuvchi turli maqsadlarda qo'llanuvchi, turli vazifalarni bajaruvchi narxlar majmuiga turli jihatdan yondashib, guruhlariga bo'linishi.

Narx urushi – raqobatdosh firmalarning oligopolistik bozorda bosqichma-bosqich, sekinlik bilan narxni pasaytirishi.

Natural xo'jalik – mahsulot ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xo'jalik yuritishning yopiq shakli.

Naflilik – xaridorning o'z ehtiyojini qondirish, ne'matni iste'mol qilishdan oladigan qoniqishi.

Nominal daromad – ma'lum vaqt davomida aholi tomonidan olingan pul shaklidagi daromad.

Nominal ish haqi – pul shaklida olingan ish haqi.

Nominal YaIM – mavjud bozor narxlari bo'yicha hisoblangan YaIM.

Nomoddiy boylik – aholining salomatligi, madaniy-ma'naviy, intellektual salohiyati, to'plagan bilimi, malaka, mahoratida ifodalangan boylik.

Normal foyda – tadbirkorlik qobiliyatini ishga solishning alternativ qiymati.

Normativ iqtisodiyot – iqtisodiy jarayonlarni baholab, iqtisodiyotda qanday tadbirlar belgilash kerakligini yoki qanday

iqtisodiy siyosat yuritish kerakligini, iqtisodiy rivojlanish maqsadini ko'rsatishga asoslangan yo'nalish.

Nufuz qonuni – aholining tabiiy o'sishi bilan ehtiyojlarning qondirilish darajasi o'rtasidagi bog'lanish. Tomas Maltus tomonidan aholining qashshoq yashashiga sabab, uning o'sishi geometrik progressiya, yashash uchun zarur ne'matlarni ishlab chiqarish arifmetik progressiya asosida o'sishi tufayli, deb izohlangan.

Oligopoliya – (yunoncha ozchilik, sotaman) – ishlab chiqarish va bozorda uncha ko'p bo'lmagan, sanoqli firmalar hukmronligidir.

Ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi – turlicha naf keltiradigan ne'matlarni talabga qaraganda ko'p ishlab chiqarib, ularni to'la sota olmaslik natijasida tang ahvolga tushish.

Ochiq bozordagi operatsiyalar – MB tomonidan bozorda davlat qimmat baho qog'ozlarini sotish va sotib olish.

Passiv kapital – asosiy kapitalning faoliyat yuritish uchun sharoit yaratuvchi, ancha uzoq xizmat qiluvchi, ishlab chiqarishda passiv qatnashuvchi qismi.

Pirovard mahsulot – sotish yoki qayta ishlov berish uchun emas, balki pirovard iste'mol qilish uchun bozor narxlarida sotib olingan mahsulot (tovarlar va xizmatlar).

Pozitiv iqtisodiyot – dalillar yordamida tadqiqot olib borib, ular tahlili asosida iqtisodiy faoliyat jarayonida o'zlarini qanday tutishlari, iste'mol tanlovini ilmiy asoslashga harakat qiladi.

Polistrukturali iqtisod – mulkchilikning turli-tumanligi va ularning huquqiy jihatdan tengligiga asoslangan iqtisod, postkommunizmning bozor iqtisodiyotiga transformatsiyasi davri.

Pul bozori – moliya bozorining tarkibiy qismi bo'lib, pulga talab va taklif asosida umumiy foiz darajasi, zaruriy va taklif etilayotgan pulning muvozanatli hajmini belgilovchi bozor.

Pul massasi – naqd pul va naqd pulga aylantirish imkoniyati turlicha bo'lgan naqd bo'lmagan pul va kvazi pullar, qimmatli qog'ozlar.

Pul miqdori – muomalaga chiqarilgan pul hajmi.

Pul multiplikatori – tijorat banklari rezerv (zaxira) normasiga ko'ra bankka mijozlar tomonidan qo'yilgan naqd pullarga nisbatan emissiya

qilinadigan pul massasining ko‘payishi mumkinligini ko‘rsatuvchi koeffitsiyent.

Pul muomalasi – pulning xo‘jalik aylanmasida doimo harakatda bo‘lib, o‘z funksiyalarini to‘laqonlik bajarishi.

Pul muomalasi qonuni – muayyan davrda muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdori bilan yaratilgan YaMM yoki barcha sotiladigan tovarlar va xizmatlar narxining jami summasiga to‘g‘ri, pul aylanishi tezligiga teskari mutanosib bog‘lanish.

Pul tizimi – mazkur mamlakatning pul muomalasini qonuniy asosda tashkil etish tartibi, usullari, ularga xizmat qilish muassasalari.

Pulga jamg‘arma, moliyaviy aktivlar sifatida talab – odamlarning jamg‘arma (moliyaviy aktivlarning pul shaklidagi hajmi) sifatida saqlash uchun zarur pul miqdori, foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o‘zgaradi.

Pulga talab – firma, korxona, uy xo‘jaligining muomala, ya’ni oldi-sotdi bitimlari va zaxirada saqlayotgan pul mablag‘lari hajmi.

Pulning aylanish tezligi – yil davomida pul birligining tovar va xizmatlarni sotib olish uchun necha marta ishlatilishini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Raqobat – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z manfaatlaridan kelib chiqib yuqori daromad olish imkoniga, nufuzli mavqega ega bo‘lish uchun boshqalar bilan bellashuvi, kurashi.

Ratsional kutish nazariyasi – Gipoteza, unga muvofiq firmalar va uy xo‘jaliklari davlat pul-kredit va budjet siyosati orqali iqtisodiyotga ma’lum bir darajada o‘z ta’sirini o‘tkazadi, deya kutishadi va o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, bu siyosatni samarasiz qilib qo‘yadigan turli chora-tadbirlar qo‘llashadi.

Real daromad – ma’lum bir vaqt (yil) oralig‘ida nominal daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori. Ularning miqdori esa soliqlar, narx, nominal daromadga bog‘liq.

Real iqtisodiy muvozanat – iqtisodiyotdagi nomukammal raqobat sharoitida tashqi omillarning ta’siri, turli cheklanishlar mavjudligi, iqtisodiyotga ta’sir qiladigan kuchlar tufayli o‘rnatiladigan muvozanat.

Real ish haqi – pul shaklida olingan ish haqining sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdorida ifodalanishi.

Real YaIM – narx o‘zgarishini nazarda tutgan holda hisoblangan yalpi milliy mahsulot. Real mahsulot hisoblanganda narxlar indeksi qo‘llaniladi. $\text{Real YaIM} = \text{Nominal yalpi ichki mahsulot} / \text{Narx indeksi}$.

Retsessiya – ishlab chiqarishning nisbatan mo‘tadil, keskin bo‘lmagan holda pasayishi yoki iqtisodiy o‘sish sur‘atlarining davomli ravishda pasayib borishi.

Samaradorlik – sarflangan resurslar bilan olingan natijani taqqoslanishini ifodalovchi ko‘rsatkich. Odatda, u ishlab chiqarish xarajatlarini ishlab chiqarish natijasi (mahsulot)ga nisbati tarzida hisoblanadi.

Siqib chiqarish effekt(samara)si – bozorda davlat qimmatbaho qog‘ozlarining ko‘payishi tufayli, uning ulushi ortib, boshqalarning siqib chiqarilishi natijasida investitsiyalarni moliyalashtirishning umumiy sharoiti yomonlashuvi.

Soliq – korxona (tashkilot), fuqarolar daromadidan qonuniy tartibda, belgilangan miqdor va muddatlarda budjet fondini tashkil qilish maqsadida davlat ixtiyoriga olinadigan pul mablag‘lari.

Sof milliy mahsulot – joriy yilda yangidan yaratilgan mahsulot bo‘lib YaMMdan amortizatsiya ajratmalarini ayirib topiladi yoki YaIMdan amortizatsiya, chet el ishlab chiqarish omillari evaziga yaratilgan sof daromad ayiriladi.

Sof monopoliya – tarmoqda mahsulot ishlab chiqarishda va bozorda yagona firma hukmronlik qilishi.

Sug‘urta – moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos turi bo‘lib, kutilmagan tarzda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli yo‘qotishlarning o‘rnini qoplash uchun yaratilgan mahsulotning ma’lum bir qismidan maxsus pul fondini tashkil etish, uni taqsimlash va ishlatish yuzasidan qaror topadigan munosabatlar.

Sun‘iy monopoliya – umumiy monopolistik manfaatni ko‘zlab, korxonalarning birlashuvi.

Tadbirkor – tadbirkorlik qilish fazilatiga ega inson.

Tadbirkorlik – risk qilgan holda, mablag‘larni samarali sarflab, ishlab chiqarish omillarining eng optimal nisbatini topib ishga tushirish evaziga daromad, foyda olishga qaratilgan, insonlarga naf keltiruvchi, iqtisodiy faoliyat yuritish.

Tadbirkorlik obyekti – eng yuqori darajada daromad olish maqsadida ishlab chiqarish omillari (yer, kapital, mehnat)ning eng samarali nisbatini topib ishga tushirish.

Taklif – bozorda mavjud yoki bozorga olib kelinishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar.

Taklif qonuni – narxlar bilan sotiladigan tovarlar miqdorining to‘g‘ridan-to‘g‘ri, sabab-oqibatli, funksional bog‘lanishi.

Taklif egri chizig‘i – ma‘lum bir vaqt davomida turlicha narxlar bo‘yicha sotuvchilarning sotishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlari miqdorining grafikda ifodalanishi.

Taklif elastikligi (egiluvchanligi) – narxning o‘zgarishi ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)larga qanday ta’sir qilishi, ya’ni ularning narxlarga ta’sirchanligini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Taqsimot – xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida resurslarni, ishlab chiqarish omillarining egalari o‘rtasida esa yaratilgan mahsulotning taqsimlanishini ifodalovchi jarayon.

Taqchil ishlab chiqarish inqirozi – turli ne‘matlarni talabga qaraganda kam ishlab chiqarish natijasida tang holatga tushish.

Talab – pul mablag‘lari bilan ta‘minlangan ehtiyojning bozorda namoyon bo‘lishi yoki to‘lov qobiliyatiga ega ehtiyoj.

Talab va taklif muvozanati – xaridor sotib olmoqchi bo‘lgan tovar miqdori bilan ishlab chiqaruvchilar tomonidan sotiladigan tovar miqdorining tengligi

Talab qonuni – tovar narxlari bilan talab miqdorini teskari nisbatda sabab-oqibatli, funksional bog‘lanishi.

Talab miqdorining o‘zgarishi – talab miqdori(hajmi)ning talab egri chizig‘i bo‘yicha narxning o‘zgarishiga qarab siljishi.

Talab o‘zgarishi – talab egri chizig‘ining narxdan boshqa bir yoki bir necha determinantlar o‘zgarishi natijasida siljishi.

Talab egri chizig'i – ma'lum bir vaqt mobaynida turli narxlar bo'yicha xaridorlarning sotib olishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorining grafik orqali ifodalanishi.

Talab elastikligi (egiluvchanligi) – xaridorga narxning o'zgarishi qanday ta'sir qilishini, ya'ni narxning 1%ga o'zgarishi sotib olinadigan tovar miqdorini qanchaga o'zgarishini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich.

Tamoyil – faoliyat uchun asos qilib olinadigan qonun-qoida, nuqtayi nazar, qarashlar.

Tanlovning muqobil qiymati – tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyat ichidan tanlovchi uchun eng katta naf keltiruvchi yoki qadrlanuvchi imkoniyat.

Tarkibiy ishsizlik – ish kuchi tarkibi, malakasi, mahoratining sekin o'zgarishi, ish kuchiga talab tarkibi bilan mos kelmasligi tufayli kelib chiqadigan ishsizlik.

Tarkibiy siyosat – milliy manfaatlarni ta'minlovchi, iqtisodiy o'sishga yo'l beruvchi, aholi farovonligini muttasil oshib borishiga olib keluvchi yangicha ishlab chiqarish tarkibini yaratish.

Tarkibiy o'zgarishlar – milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish asosida tarmoqlar hududlar va boshqa iqtisodiy birliklar hissasini o'zgartirish.

Tashqi savdo balansi qoldig'i – mamlakatning eksport va importi farqi.

Tashqi xarajatlar – chetdan jalb etilgan iqtisodiy resurslar uchun to'langan pul mablag'lari.

Tovar – insonning biror-bir ehtiyojini qondirib, ayirboshlash (sotish) uchun ishlab chiqarilgan ne'mat.

Tovar xo'jaligi – tovar ishlab chiqarishga asoslangan, ishlab chiqarish bilan iste'mol bozor orqali bog'lanadigan xo'jalik yuritish shakli.

Tovar – xomashyo birjasi – ma'lum doirada ulgurji savdo-sotiq ishlarini bajaruvchi korxona. Hozirgi paytda narx kotirovkasini aniqlash va uni oshkoraligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Transmilliy korporatsiyalar – jahon xo‘jaligi doirasida bir yoki bir necha sohada hukmronlik qiluvchi, kapitali milliy, hukmronlik qilish doirasi xalqaro korporatsiyalar.

Tub iqtisodiy belgilar – har bir hodisa, jarayon, tizimning boshqalardan ajratib turuvchi, uning sifat jihatdan farqlanishiga sabab bo‘lgan xususiyatlarga aytiladi.

Turmush darajasi – aholini hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlar bilan ta‘minlanganligi va zarur ne‘matlar bilan ehtiyojlarining qondirilish darajasi. Boshqacha aytganda, bunda insonlarning hayotiy ehtiyojlarining qondirilish me‘yori tushuniladi.

To‘lov balansi – ma‘lum vaqt (yil) mobaynida mamlakatning barcha turdagi iqtisodiy aloqalari, eksporti va importi va ularning nisbatini aks ettiruvchi iqtisodiy muvozanat.

Uzoq muddatli sikl – uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish hajmining mutlaq miqdori pasayishi, iqtisodiy o‘sinh sur‘atini tezlashuvi va sekinlashuvining almashib turishining uzoq muddatli tamoyili tarzida yuz beruvchi sikl.

Uzoq muddatli muammolar – fan-texnika taraqqiyoti natijasida qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ko‘payishi, aholi sarflarida mazkur tarmoq mahsulotlariga sarflarning mutlaq miqdorining nisbatan sekin o‘zgarishi, agrar sektorda band bo‘lganlar daromadining boshqa sohalarga nisbatan pastligi va beqarorligi, narx paritetining sanoat foydasiga o‘zgarishi va boshqalar sababli kelib chiqadigan nisbatan uzoq muddatga xos muammolar.

Uklad – kishining hayot kechirishi, xo‘jalik yuritish prinsipida o‘rnatilgan yoki joriy qilinadigan tartib.

Uy xo‘jaligi – bir yoki bir necha kishidan iborat oila, iqtisodiyotni resurslar bilan ta‘minlovchi va yaratilgan mahsulotlar iste‘molchisi bo‘lgan iqtisodiy birlik.

Umumiy yoki makroiqtisodiy muvozanat – jamiyat ehtiyojlari, uni qondirish imkoniyatlari (resurslari) va ishlab chiqarish natijalarining mos kelishi.

Umumiy xarajatlar – ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar boshqacha aytganda barcha iqtisodiy resurs xarajatlari.

Undirma sanoatda renta – yer qa'ridagi qazilma boyliklarning sifati va qazib olishdagi xarajatlar farqi tufayli vujudga keladigan renta.

Foiz stavkasi effekti (samarasi) – narxlar darajasi o'zgarishi tufayli pulga talabning va o'z navbatida foiz stavkasini o'zgarishiga olib kelishi va uning oqibatida yalpi sarflar umumiy darajasini o'zgarishi.

Firma – bir yoki bir necha korxona va faoliyat turini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyekt.

Friksion ishsizlik – Ishsizlikning doimo mavjud turi bo'lib, ish qidirish va bo'sh ish o'rinlarini kutish bilan bog'liq ishsizlik.

Funksional tahlil – funksional bog'lanish, ya'ni bir miqdorning o'zgarishiga qarab boshqa miqdorning o'zgarishi o'rtasidagi bog'lanish asosida iqtisodiyotni tahlil etish.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsion aloqalarning yuqori darajadagi bir butun xo'jalik aloqalari sifatida birlashuvi.

Xalqaro mehnat taqsimoti – mehnatning turli davlatlar va ularning guruhilari o'rtasida taqsimlanishi bo'lib, alohida mamlakatlarning u yoki bu turdagi tovar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishga ixtisoslashuvini anglatadi.

Xalqaro savdo – mamlakatlar o'rtasidagi savdo aloqalari, tovar aylanmasi hajmi bilan ifodalanadi.

Xarajatlar mexanizmi – ishlab chiqarish (sotish) uchun qilingan xarajatlarni qoplash va ma'lum miqdorda foyda olishni ta'minlaydigan tarzda narx belgilash.

Xarid quvvati pariteti – mamlakatda turli valutalarning birligiga sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar – xizmatlar miqdori.

Sikli ishsizlik – iqtisodiyotning siklli o'sishi bilan bog'liq ishsizlik.

Shaxs(aholi) ixtiyoridagi daromad – shaxs(aholi)ning qo'liga tekkan daromad. Shaxsiy daromaddan individual (jismoniy shaxslarga) soliqlarni (daromad solig'i, mulk solig'i, merosga soliq kabilar) ayirib tashlagandan so'ng qolgan daromad.

Shaxsiy daromad – bu shaxsga tegishli daromad, ya'ni faoliyat yuritib topilgan daromad. Milliy daromaddan sotsial to'lovlar, foydadan soliq, taqsimlanmagan foydani ayirib, transfert to'lovlarini qo'shib topamiz.

Eksport – mamlakatdan chetga chiqarilgan tovarlar miqdori (qiymat o'lchovida).

Eksport bo'yicha ixtisoslashuv koeffitsiyenti – mamlakatning jahon eksportida qanday mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashuvini ifodalovchi ko'rsatkich.

Eksport kvotasi – har bir mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarda qatnashuvini ifodalovchi ko'rsatkich. Yil davomida chetga chiqarilgan tovar va xizmatlarning YaIMga nisbati bo'yicha hisoblanadi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sish – qo'shimcha ishlab chiqarish resurslarini jalb etish evaziga erishilgan iqtisodiy o'sish.

Erkin (klassik) bozor iqtisodiyoti – xususiy mulkchilik, erkin raqobatchilik, bozorga xos munosabatlar hukmron iqtisod. Uning dastlabki bosqichi bilan keyingi bosqichlari farqlanadi.

Erkin industrial iqtisodiy zona (hudud) – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda mazsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valuta ayiboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.

Ehtiyojlarning yuksalib borishi iqtisodiy qonuni – ishlab chiqarish va madaniyat rivojlanishi bilan inson ehtiyojlarining yuksalib borishini, uning miqdoran o'sib, tarkiban yangilanib borishini ifodalovchi qonun.

Ehtiyoj – insonning yashashi, kamol topishi, jamiyatda ma'lum mavqega ega bo'lishi uchun hayotiy ne'matlarga bo'lgan obyektiv zaruriyat.

Yuksalish – siklning to'la bandlikka, YaIMni potensial darajasiga yaqinlashish, hatto undan oshib ketishi, narxlarni o'sishi kuzatiladigan, iqtisodiy faollik yuqori darajasidagi fazasi.

Yalpi investitsiyalar – sof investitsiya bilan modernizatsiya (yoki eskirgan asosiy kapitalni o‘rni to‘ldirish) uchun yo‘naltirilgan investitsiyalar.

Yalpi ichki mahsulot – (YaIM) deb, resurslar manbaidan qat’i nazar mamlakat hududida yil davomida yaratilgan pirovard mahsulotlar bozor qiymati.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – mamlakatning resurslari (yer, ish kuchi, kapital, tadbirkorlik) qayerda joylashtirilishidan qat’i nazar, ular evaziga yaratilgan pirovard mahsulot (olingan daromad)dan iborat.

Yagona ta’rif setkasi – mehnat haqi bo‘yicha milliy iqtisodiyotda band bo‘lganlarning mehnat razryadi va ular bo‘yicha tarif koeffitsiyenti. Har bir razryadga muvofiq gorizontal razryadlar ham bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Yalpi talab – mamlakatda narxlarning turli darajasida iste’molchilar sotib olishga tayyor tovar va xizmatlar hajmi.

Yalpi taklif – mamlakatda narxlarning turli darajasidagi ishlab chiqarishning real hajmi, ya’ni ishlab chiqaruvchilar taklif qilishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlarning umumiy miqdori.

Yalpi taklif egri chizig‘ining yotiq yoki Keyns kesmasi– mamlakatda bo‘sh resurslar mavjud, narx o‘zgarmagani holda milliy ishlab chiqarishning real hajmini ko‘paytirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Yalpi taklif egri chizig‘ining klassik yoki tik kemasi – mamlakat iqtisodiyotida resurslarning to‘la bandligini, talab va narxlarning o‘sishidan qat’i nazar, ishlab chiqarish real hajmini ko‘paytirib bo‘lmashligini ko‘rsatadi.

Yalpi taklif egri chizig‘ining oraliq kesmasi – mamlakat iqtisodiyotida resurslardan to‘la foydalana borilishi tufayli ishlab chiqarish hajmining o‘sishi narxlar o‘sishi bilan birgalikda yuz beradigan, keyns va klassik bo‘laklar orasida joylashgan kesma.

Yashirin kelishish – firmalarning ochiq bitim tuzmay, narx va mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha yashirin til biriktirish vaziyati.

O‘zak tarmoqlar – milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun eng zarur bo‘lgan resurslarni yetkazib beruvchi tarmoqlar.

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish konsepsiyasi – markaziy rejalashtiriladigan ma’muriy – buyruqbozlikka asoslangan totalitar iqtisodiy tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning qonun - qoidalari va uning O‘zbekistondagi o‘ziga xos xususiyatlariga oid ilmiy qarashlar majmui.

O‘zgaruvchan xarajatlar – miqdori ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq xarajatlar.

O‘zlashtirish – mulkchilik mazmunini ifodalab, egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish yaxlitligi.

O‘rta muddatli sikl – iqtisodiyotdagi ancha chuqur tushkunlikka tushib, barcha fazalarni qamrab oladigan sikl.

O‘rtacha xarajatlar – mahsulot birligiga sarflangan xarajatlar.

O‘rtacha mahsulot – ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot(TR)ning o‘zgaruvchi ishlab chiqarish omillariga nisbatini ifodalaydi. Masalan, $AR=TR/ L$.

O‘tish davri – ma’muriy buyruqbozlik tizimi o‘rniga bozor iqtisodiyotiga xos mexanizmni shakllantirish uchun zarur vaqt yoki postsotsializm.

Qiyosiy afzallik – bir mamlakatda yaratilgan ma’lum bir tovarning ikkinchi mamlakatga qaraganda nisbatan kam xarajatlar bilan ishlab chiqarilishi.

Qisqa muddatli sikl – iste’mol tovarlariga bo‘lgan bozor talabi va takliflari muvozanatining buzilishi va tiklanishi.

Qisqaruvchi tarmoq – o‘zining qator xususiyatlariga ko‘ra yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi qisqarib boruvchi qishloq xo‘jaligi.

Qo‘shilgan qiymat – bu har bir korxona, firma tomonidan yaratilgan mahsulotning bozor narxida ifodalangan hajmi bo‘lib, undan sotib olib ishlatilgan xomashyo, materiallar chegirib tashlanadi.

Hisob stavkasi – MB tomonidan tijorat banklariga beriladigan kredit stavkasi.

Hujumkorlikka asoslangan strategiya – yangiliklarni joriy qilishga, boshqalar qo‘llamagan usullarni qo‘llashga asoslangan strategiya.

IQTISODIYOT BO‘YICHA NOBEL MUKOFOTI LAUREATLARI:

1969-yil

Yan Tinbergen (1903–1994-y.y. Gollandiya);

Ragnar Frish (1895–1973-y.y. Norvegiya) – iqtisodiyotni matematik usullar asosida tahlil qilishni ishlab chiqqanlari uchun.

1970-yil

Pol Samuelson (1915-2009y.y. AQSH) – iqtisodiy fanlarda ilmiy tahlilni chuqurlashtirish usullarini ishlab chiqqani uchun.

1971-yil

Saymon Kuznes (1901–1985-y.y. AQSH) – iqtisodiy o‘shish muammolarining amaliy tadqiqoti uchun.

1972-yil

Kennet Errou (1921-y. AQSH),

Jon Xiks (1904–1989–y.y. Buyuk Britaniya) – umumiqtisodiy muvozanat va barqarorlik nazariyalari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.

1973-yil

Vasiliy Leontev (1905–1999-y.y. AQSH) – «Xarajat – ishlab chiqarish» usulini ishlab chiqqani uchun.

1974-yil

Fridrix Avgust fon Xayek (1899-1992-y.y. Avstriya, AQSH).

Gunnar Myurdal (1898–1987 y.y. Shvesiya) – bir-biriga ta’sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jarayonlar, pul va o‘zgaruvchan konyunktura nazariyalari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.

1975-yil

Leonid Kantorovich (1912–1986-y.y. Sobiq SSSR);

Tyalling Kupmans (1910–1985-y.y. AQSH) – resurslardan optimal foydalanish nazariyasiga qo‘shgan hissalarini uchun.

1976-yil.

Milton Fridmen (1912-2006 y.y. AQSH) – iste'mol nazariyasi, pul muomalasining tarixi va nazariyasi tahlili uchun.

1977-yil.

Jeyms Mid (1907–1995 y.y. Buyuk Britaniya);

Bertil Ulin (Olin 1899–1979 y.y., Shvetsiya) – kapitalning xalqaro harakati va jahon savdosini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga qo'shgan hissalar uchun.

1978-yil

Gerbert Saymon (1916-2001 y.y. AQSH) – iqtisodiy tashkilotlarda qaror qabul qilish tizimi tahlili uchun.

1979-yil

Artur Lyuis (1915-1991 y.y. AQSH);

Teodor Shuls (1902-1998 y.y. AQSH) – rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy muammolar bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.

1980-yil

Lorens Kleyn (1920-2013 y.y. AQSH) – iqtisodiy modellar, ular asosida iqtisodiy sikllar va hukumatning iqtisodiy siyosatini tahlil qilish borasidagi ishlari uchun.

1981-yil

Jeyms Tobin (1918–2002-y.y. AQSH) – moliya bozorlari va ularning sarflar, bandlik, ishlab chiqarish, narxlar bo'yicha qaror qabul qilishga ta'sirining tahlili uchun.

1982-yil

Jorj Stigler (1911–1991-y.y. AQSH) – sanoatning tarkibi, davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi va bozorning amal qilishi borasidagi tadqiqotlari uchun.

1983-yil

Jerar Debre (1921-2004 y.y. AQSH) – umumiqtisodiy muvozanat nazariyasi muammolari bo'yicha ishlari uchun.

1984-yil

Richard Stoun (1913–1991-y.y. Buyuk Britaniya) – milliy hisob tizimini ishlab chiqqani uchun.

1985-yil

Franko Modilyani (1918-2003 y.y. AQSH) – moliyaviy bozorlar va jamgʻarish jarayoni tahlili uchun.

1986-yil

Jeyms Byukenen (1919-2013 y. y. AQSH) – iqtisodiyot va siyosatda qaror qabul qilish nazariyasi uchun kelishuv va konstitutsion asoslarni rivojlantirgani uchun.

1987-yil

Robert Solou (1924-y. AQSH) – iqtisodiy oʻsish nazariyasini rivojlantirishga qoʻshgan hissasi uchun.

1988-yil

Moris Alle (1911-2010 y.y. Fransiya) – resurslardan samarali foydalanish va bozor nazariyasiga qoʻshgan hissasi uchun.

1989-yil

Tryugve Xaavelmo (1911-1999 y.y. Norvegiya) – ekonometrik tahlilni rivojlantirgani uchun.

1990-yil

Garri Markovis (1927-y. AQSH);
Merton Miller (1923–2000-y.y. AQSH);
Uilyam Sharp (1934-y. AQSH) – moliya bozorlarining fundamental muammolari tahlili uchun.

1991-yil

Ronald Kouz (1910-2013 y.y. Buyuk Britaniya) – mulk huquqi va transaksion xarajatlardagi muammolar tadqiqoti uchun.

1992-yil

Geri Bekker (1930-2014 y.y. AQSH) – insonlarning saʼy-harakati, tanlovi muammolari va ijtimoiy munosabatlarni mikroiktisodiy tahlil nuqtayi nazaridan tadqiqoti uchun.

1993-yil

Duglas Nort (1920-y. AQSH);

Robert Fogel (1926-2013 y.y.AQSH) – iqtisodiyot tarixida yangi yo‘nalish yaratganlari uchun («kliometriya»).

1994-yil

Jon Nesh (1928-y. AQSH);

Jon Xarsani (1920-2000 y.y. AQSH);

Raynxard Zelten (1930-y. Germaniya) – o‘yinlar nazariyasidagi xizmatlari, ya’ni raqobatchilik va uning strategiyasining nazariy tahlili uchun

1995-yil

Robert Lukas (1937-y. AQSH) – iqtisodiy siyosat tushunchasini chuqurlashtirgan ratsional kutish gipotezalarini ishlab chiqqani va qo‘llagani uchun.

1996-yil

Uilyam Vikri (1914–1996-y. AQSH);

Jeyms Mirrliz (1936-y. Buyuk Britaniya) – axborotlarni asimmetrik tarqalishi sharoitida iqtisodiy agentlarning tanlovi (harakati) nazariyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissalar uchun.

1997-yil

Robert Merton (1944-y. AQSH);

Mayron Sholz (1941-y. AQSH) – qimmatbaho qog‘ozlarning qimmatini aniqlashning yangi usulini ishlab chiqqani uchun.

1998-yil

Amatriya Sen (1933-y. hind fuqarosi, AQSH va Buyuk Britaniya universitetlarida dars beradi) – farovonlik nazariyasi fundamental muammolari tadqiqotiga qo‘shgan hissasi uchun.

1999-yil

Robert Mandell (1932-y. AQSH) – optimal valuta zonalari hamda ayirboshlash kurslarining har xil jarayonlardagi pul va fiskal siyosatining tahlillari uchun.

2000-yil

Jeyms Xekman (1944-y. AQSH);

Deniel Makfadden (1937-y. AQSH) – iqtisodiyotdagi tanlov muammolari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan xizmatlari uchun.

2001-yil

Jorj Akerlof (1940-y. AQSH);

Jozef Stiglis (1943-y. AQSH);

Maykl Spens (1943-y. AQSH) – axborotlarni asimmetrik tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan bozorlar tahlili uchun.

2002-yil

Deniel Kaneman (1934 y. AQSH, Isroil);

Vernon Smit (1927-y. AQSH) – bozorning muqobil (alternativ) mexanizmlarini o‘rganish va qaror qabul qilish borasidagi tadqiqotlari uchun.

2003-yil

Robert F. Engel (1942-y. AQSH) – matematik model (avtoregressiyasimon shartli geteroskedastik) asosida iqtisodiyotda vaqtli qatorlarni tahlil qilish metodini ishlab chiqqani uchun.

Klayv V. Grenjer (1934-2009 y.y. AQSH, Buyuk Britaniya) – iqtisodiyotda vaqtli qatorlarni umumiy tendensiyalarini tahlil qilish uchun kointegratsiya metodini yaratganligi uchun.

2004-yil

Finn E. Kidlend (1943-y. Norvegiya), Edvard S. Preskott (1940-y. AQSH) – dinamik makroiqtisodiyotni rivojlantirishga qo‘shgan hissalar, biznes sikllarini harakatga keltiruvchi kuchlar va iqtisodiy siyosatda vaqt omili tadqiqotlari uchun.

2005-yil

Robert Aumann (1930-y. Isroil, AQSH), Tomas Shelling (1921-y. AQSH) – o‘yinlar nazariyasi orqali hamkorlik va nizoli (ziddiyat) hodisalarni o‘rganishga qo‘shgan ulkan hissalar uchun.

2006-yil

Edmund Filps (1933-y. AQSH) – Makroiqtisodiy siyosatda vaqtlar oralig‘idagi ayirboshlash tahlili uchun.

2007-yil

Leonid Gurvich (1917-2008 y.y. AQSH), Erik Meskin (1950-y. AQSH), Rodjer Mayerson (1951-y. AQSH) – Optimal mexanizmlar nazariyasi asoslarini yaratganlari uchun.

2008-yil

Pol Krugman (1953-y. AQSH) - Savdo tarkibi, modellari, xalqaro savdo mexanizmi va iqtisodiy faollikni joylashtirish tahlili bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun.

2009-yil

Elinor Ostrom (1933-2012 y.y. AQSH), Oliver Uilyamson (1932-y. AQSH) - «Jamoa resurslari va o'z-o'zini boshqarish, kompaniya resurslarini boshqarishni tashkil etish sohasidagi tadqiqotlari uchun».

2010-yil

Piter A. Daymond (1940-y. AQSH), Deyl Mortensen (1939-2014-y.y. AQSH), Kristofer Pissarides (1948-y. Buyuk Britaniya) - «Mehnat bozori va boshqa bozorlar muhitini nazariy asoslarini qidiruv-izlanish modellarini yaratish orqali o'rganishdagi tadqiqotlari uchun»

2011-yil

Tomas Sarjent (1943-y. AQSH), Kristofer Sims (1942-y. AQSH) - «Makroiqtisodiyotda sabab-oqibatli aloqalarni empiric tadqiqotlari uchun»

2012-yil

Lloyd Stauell Shepli (1923-y. AQSH), Elvin Eliot Rot (1951-y. AQSH) - «Barqaror taqsimot va bozorlar tuzilishi amaliyoti nazariyasi uchun»

2013-yil

Yudjin Fama (1939-y. AQSh), Lars Piter Xansen (1952-y. AQSh), Robert Shiller (1946 y. AQSh) «Aktivlar bahosining o'zgarishini empirik (amaliy) tahlili uchun»

2014-yil

Jan Tirol (1953-y. Fransiya) «Bozor hukmronligi va uni tartibga solish tahlili uchun»

1-ilova

Respublikada jismoniy shaxslarga daromad (ish haqi, mukofot va boshqa soliq solinadigan daromadlar) solig'i stavkasini belgilash tartibi

1-jadval

Jami daromad hajmi	Soliq stavkasi %					
	Yillar					
	2005	2010	2012	2013	2014	2015
eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdorda	3 pog'nali coliq stavkasi bo'lgan					0
5 minimal ish haqigacha (2010 yilda olti baravargacha (so'mgacha). 2015 yildan eng kam ish haqining bir baravaridan (+1 so'm) besh baravarigacha miqdorda	13	11	9	8	7,5	8.5
5 minimal ish haqidan(2010 yilda olti (+1 so'm) 10 mini-mal ish haqigacha	21	16	16	16	16	17
10 minimal ish haqidan ortiq (+1 so'm) daromaddan (va undan ortiq summadan)	30	22	22	22	22	23

Bunda, soliq solinadigan daromadlar guruhlar bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga – 2015 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan (118 400 so'm) kelib chiqib aniqlanadi va yil davomida eng kam ish haqi miqdori o'zgargan taqdirda ham qayta ko'rib chiqilmaydi.

2-ilova

Soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi

2-jadval

T/r	Soliq turlari	Soliq stavkasi %				
		Yillar				
		1990-2009	2011	2012	2014	2015
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda(daromad) solig'i	45,0	10	9,0	8	7,5
2.	Dividend (foiz)lar shaklida olinadigan daromatlardan foyda solig'i	15,0	6,0*	10,0	10,0	10,0

	Qo'shilgan qiymat	30		20	20	20
4.	Yagona soliq to'lovi	15,2	30	5,0	6,0	6,0
5.	Yagona ijtimoiy to'lov	40	25,0	25,0	25,0	25,0**

* 2015 yil 1 yanvardan mikrofirmalar, kichik korxonalar hamda fermer xo'jaliklari uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi mehnatga haq to'lash fondiga nisbatan 2014 yilda amalda bo'lgan 25 foiz o'rniga 15 foiz miqdorida belgilandi.

3-ilova

O'zbekiston Respublikasini 2013-14 yillarda rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va haqiqatda baiarilishi (oldingi yilga nisbatan foizda)

3-jadval

	2013 y. prognoz	2013 y. haqiqatda	2014 y. prognoz	2014 y. haqiqatda
Yalpi ichki mahsulot (YaIM)	108,0	108,0	108,1	108,1
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	108,4	108,8	108,3	108,3
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	106,0	106,8	106,0	106,9
Kapital quyilmalar hajmi	109,3	111,3	109,5	110,9
Chakana savdo aylanmasi	113,8	114,8	113,9	114,3
Xizmat ko'rsatish hajmi	116,0	113,5		115,7
Iste'mol narxlari indeksi	104 - 109	106,8	106-107	106,1
Davlat budjeti kamomadi (YaIMga nisbatan fojada)	-1,0	+0,3	-1,0	+ 0,2
Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi	12	12	10	10

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T.: «O‘zbekiston», 2003.
2. Karimov I. A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1- tom, Toshkent, «O‘zbekiston», 1996.
3. Karimov I. A. O‘zbekiston: iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. –T.: «O‘zbekiston», 3- tom, 1995.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. «Xalq so‘zi» gazetasi 2001-yil 17-fevral, 37-son.
5. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: «O‘zbekiston», 2005.
6. Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni ixchil davom ettirish – davr talabi. // Xalq so‘zi, 2009-yil, 14-fevral.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: «O‘zbekiston», 2009.
8. Karimov I. A. «2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi» // Xalq so‘zi. 2012 yil 20 yanvar, №14.
9. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish.” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasini. //Xalq so‘zi 19 yanvar 2013 yil.
10. Karimov I. A. 2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish , barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2014 yil 18 yanvar
11. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish.” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma . T.: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.

12. Vohobov A. V. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. –T.: «Moliya», 2002.
13. Jo'rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi (Ko'rgazmali qo'llanmalar va test savollar) 1-qism Toshkent, 2004.
14. Jo'rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi (Ko'rgazmali qo'llanmalar va test savollar) 2-qism Toshkent: «Fan va texnologiya» 2005.
15. Jo'rayev T.T. Iqtisodiy resurslar doiraviy aylanish jarayonining nazariy asoslari va samaradorligini oshirish omillari. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006.
16. Курс экономической теории. Изд. 4-ое. Под общ. ред. Чепурина М. А., Киселевой Е. А. Киров, «АСА», 1999.
17. Макконнелл К. Р., Брю С. Л. Экономикс, 13-е издание, М.: «Инфра—М», 1999
18. Самуэльсон П., Нордхаус В. Экономика. Пер. с англ. Москва, 1999.
19. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi, –T.: «O'qituvchi», 2002
20. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi, –T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, –T., 2003.
21. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2005
22. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan masala va mashqlar. 1- va 2- qism, –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007.
23. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan masala va mashqlar (To'ldirilgan ikkinchi nashri) –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008.
24. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. Пер. с англ. Москва, Дело, 1999.
25. Shodmonov Sh. Sh., Alimov R. H., Jo'rayev T. T. Iqtisodiyot nazariyasi, –Toshkent: «Moliya», 2003
26. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2005
27. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: «Sharq», 2006y.
28. O'zbekiston iqtisodiyoti. Uzbekistan в цифрах. Статистический сборник, 2004-2012
29. Yillik statistik to'plam (Йиллик статистик тўплам.) Toshkent, 2013.
30. O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
31. Internet saytlari.

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

I bob. MILLIY IQTISODIYOT (MAKRO-IQTISODIYOT)NING AMAL QILISHI VA UNING QONUNIYATLARI

1-MAVZU. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O‘LCHAMLARI

1-§. Milliy iqtisodiyot va uning o‘lchamlari	
Milliy hisoblar tizimi (MHT).....	6
2-§. Yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi milliy mahsulot (YaMM) va uning harakat shakllari.....	9
3-§. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ni hisoblash usullari	12
4-§. Nominal va real YaIM (YaMM). Narx indeksi.....	16
Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar	17

2-MAVZU. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF NAZARIYASI

1-§. Yalpi talab va unga ta’sir qiluvchi omillar.....	38
2-§. Yalpi taklif va unga ta’sir qiluvchi omillar.....	42
3-§. Yalpi talab va yalpi taklif muvozanati.....	44
Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar	46

3-MAVZU. IQTISODIY O‘SISH VA MILLIY BOYLIK

1-§. Iqtisodiy o‘shning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlari.....	57
2-§. Iqtisodiy o‘sh omillari.....	63
3-§. Iqtisodiy o‘sh modellari.....	64
4-§. Milliy boylik va uning tarkibi.....	64
Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar	66

4-MAVZU: ISTE’MOL, JAMG‘ARMA, INVESTITSİYALAR

1-§. Iste’mol va jamg‘armaning iqtisodiy mazmuni, omillari va ko‘rsatkichlar.....	79
---	----

2-§. Iqtisodiy jamg'arish va investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, manbalari hamda omillari.....	82
3-§. Multiplikator samarasi.....	85
Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar	87

5-MAVZU: UMUMIQTISODIY MUVOZANATLIK

1-§. Makroiqtisodiy muvozanatlik, uning turlari va shart-sharoitlari.....	96
2-§. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari.....	97
3-§. Milliy ishlab chiqarish muvozanatli hajmi va uni aniqlash usullari.....	99
4-§. O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifalari.....	100
Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar	102

6-MAVZU. IQTISODIY BEQARORLIK VA SIKL NAZARIYALARI

1-§. Iqtisodiy siklning mazmuni va kelib chiqish sabablari.....	118
2-§. Sikl to'g'risidagi nazariyalar. Iqtisodiy inqirozning iqtisodiy faollikka ta'siri.....	119
3-§. Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari.....	123
4-§. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, kelib chiqish sabablar va oqibatlari	125
Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar	128

7-MAVZU. BANDLIK VA ISHSIZLIK

1-§. Ishchi kuchi, uning o'lchami va tarkibi.....	144
2-§. Ishchi kuchini takror hosil qilish va uning xususiyatlari.....	146
3-§. Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlik darajasini aniqlash.....	151
4-§. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari.	
O'zbekistonda bandlik muammosi.....	152
Mavzuni chuqur o'rganish uchun topshiriqlar	153

8-MAVZU. PUL MUOMALASI VA INFLATSIYA

1-§. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.	
Pul tizimi.....	168
2-§. Pul bozori. Pul taklifi va pulga bo‘lgan talab.....	171
3-§. Inflatsiya, uning turlari va kelib chiqish sabablari.....	173
4-§. Inflatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. Davlatning inflatsiyaga qarshi tadbirlari.....	177
Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar	180

9-MAVZU. JAMIYATNING MOLIYA VA KREDIT TIZIMI

1-§. Moliyaning mohiyati va vazifalari.....	191
2-§. Moliya tizimi. Davlat budjeti va uning tuzilishi.....	193
3-§. Soliqlar, uning vazifalari va soliqqa tortish tamoyillari.....	197
4-§. Soliq tizimi va turlari. Laffer egri chizig‘i.....	200
5-§. Sug‘urta va uning moliya tizimida tutgan o‘rni.....	202
6-§. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda davlatning moliya siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari.....	205
7-§. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.....	207
8-§. Kreditning turlari, tamoyillari va foizning hosil bo‘lish xususiyatlari.....	209
9-§. Bank tizimi va unda markaziy hamda tijorat banklarining tutgan o‘rni.....	211
10-§. Bank operatsiyalari va bank foydasining hosil bo‘lishi.	
Markaziy bankning pul-kredit siyosati.....	216
Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar	218

10-MAVZU. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI

1-§. Bozor iqtisodiyotini tartibga solish zarurligi va uning amalga oshirilishi to‘g‘risidagi nazariy qarashlar.....	240
2-§. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi, maqsadi va vazifalari.....	249
3-§. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish usullari va vositalari.....	252
Mavzuni chuqur o‘rganish uchun topshiriqlar	254

11-MAVZU. AHOLI DAROMADLARI VA DAVLATNING IJTIMOIIY SIYOSATI

1-§. Taqsimotda ijtimoiy adolat tamoyillari va ularning bozor iqtisodiyotidagi xususiyatlari.....	268
2-§. Aholi daromadlari uning tarkibi va manbalari.....	269
3-§. Daromadlar tengsizligi, uning omillari va darajasi.....	271
4-§. Aholi turmush darajasi va uning koʻrsatkichlari.....	274
5-§. Davlatning ijtimoiy siyosati va uning asosiy yoʻnalishlari...	276
Mavzuni chuqur oʻrganish uchun topshiriqlar	278

II bob. JAHON XOʻJALIGI

12-MAVZU. JAHON IQTISODIYOTI VA UNING RIVOJLANISHI

1-§. Jahon xoʻjaligining vujudga kelishi va rivojlanishi.....	293
2-§. Xalqaro mehnat taqsimoti. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va uning shakllari.....	295
3-§. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakllari. TMK va jahon infratuzilmasining rivojlanishi.....	297
4-§. Jahon xoʻjalik aloqalarining xalqaro tartibga solinishi. Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishining asosiy yoʻnalishlari.....	304
Mavzuni chuqur oʻrganish uchun topshiriqlar	307

13-MAVZU. XALQARO SAVDO. XALQARO VALUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

1-§. Qiyosiy ustunlik nazariyasi.....	319
2-§. Toʻlov balansi. Tashqi qarz muammolari.....	322
3-§. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari. Savdo siyosati.....	325
4-§. Xalqaro valuta munosabatlari va tizimi. Valuta kurslari.....	329
Mavzuni chuqur oʻrganish uchun topshiriqlar	334
Asosiy tushunchalarning izohli lugʻati (glossariy).....	348
Iqtisodiyot boʻyicha nobel mukofoti laureatlari.....	372
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

T. JO‘RAYEV, D. TOJIBOYEVA

IQTISODIYOT NAZARIYASI

(2-qism)

TO‘ILDIRILGAN 2-NASHRI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2015

Muharrir:	F.Ismoilova
Tex. muharrir:	M.Xolmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhiha:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

**E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.
Nashr.lis. AIN^o149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 05.02.2015.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Times Uz» garniturası. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 24,5. Nashr bosma tabog‘i 24,75.
Tiraji 500. Buyurtma №10.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi»da chop etildi.
100066, Toshkent shahri, Olmazor ko‘chasi, 171-uy.**